

# PEDAGOGIK MAHORAT

**10(1)**  
**2024**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**10-son (2024-yil, oktabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2024**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2024, № 10

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY‘ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 10, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*

*Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор*

*Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент*

*Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

*Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 10, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov*

*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*

*PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev*

*PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova*

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>DOLZARB MAVZU</b>			
1.	<i>МАХМУДОВ Носур</i>	Инновацион фаолиятнинг шаклланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий taraqqiyotidagi muhimligi	8
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>			
2.	<i>AG‘AMURODOV Sarvar Istamovich</i>	Oliy ta‘lim talabalarida o‘quv motivlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik omillari	13
3.	<i>BEGMANOVA Gulsara Shanjarovna</i>	Kreativ yondashuv asosida o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish texnologiyalari	17
4.	<i>DAWKEEVA Aydin Oralbaevna</i>	Bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik-psixologik xususiyatlari	22
5.	<i>ELOV Ziyodullo Sattorovich</i>	Deviant xulq-atvorli o‘smirlar orasida o‘z joniga qasd qilish holati ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	26
6.	<i>AXMEDOV Axat Axrorovich, IZBASAROV Bahridin Faxridinovich, ABDULLAEV Jalil Malikovich</i>	Fizika o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy metodologik omillari	32
7.	<i>ASALLAYEV O‘ktam Xayriddinovich</i>	Zoologiya fanidan innovatsion elektron darsliklar yaratish va joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish	35
8.	<i>FAYZIYEV Zohiddin Hasanboyevich</i>	Rahbar-xodimlarda stress holatini bartaraf etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturi va uning samaradorligini baholash	40
9.	<i>IBRAGIMOV A‘lamjon Amrilloevich</i>	O‘qituvchining individual trayektoriyasini loyihalashda “Malaka oshirish yo‘l xaritasi” texnologiyasidan foydalanish	43
10.	<i>JANABEREGNOVA Aysuliy Jaksilikovna</i>	Mustaqil ishni tashkil etishga asoslangan pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarning ahamiyati	47
11.	<i>SODIKOV Xabib Tolibovich</i>	Texnika yo‘nalishdagi bakalavriat talabalarining ishlab chiqarish korxonalariga ijtimoiy-amaliy tayyorgarligi mohiyati	53
12.	<i>MIRXODJAYEVA Nargiza Baxtiyorovna</i>	Ta‘lim jarayonida pedagog – kouchingni tatbiq etish va rivojlantirish	59
13.	<i>ДАВРОНОВ Фирдавс Пардабой ўғли</i>	Манипуляция психологик феномен сифатида	63
14.	<i>O‘KTAMOV Madadjon O‘ktam o‘g‘li</i>	Pedagogika oliy ta‘lim muassasasi talabalarining axborot kompetentlikni shakllantirishni loyihalash	67

15.	<b>ORINBAEV</b> <i>Ansatbay Amanbaevich</i>	Axborot texnologiyalar vositasida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini rivojlantirishning dasturiy-tashkiliy tuzulmasi	72
16.	<b>PULOTOV</b> <i>Abdurayim Murotovich</i>	O‘quvchilar bilimi darajasini aniqlashda pedagogik tashxis usullaridan foydalanish	79
17.	<b>QURBONOVA</b> <i>Shoira Narzullayevna</i>	Texnologiya darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	83
18.	<b>ДАВРОНОВ</b> <i>Фурдавс Пардабой ўғли</i>	Манипуляция қилиш усуллари ва уларнинг таснифи	88
19.	<b>RADJABOVA</b> <i>Inobat Ravshanovna</i>	O‘qituvchi mahoratini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rni	92
20.	<b>O‘KTAMOV</b> <i>Madadjon O‘ktam o‘g‘li</i>	Talabalarda axborot kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta’minoti	98
21.	<b>РАҲМАТУЛЛАЙЕВА</b> <i>Sabohat Sa’dullayevna</i>	Ta’limda xolistik yondashuvning o‘rni va ustunligi	103
22.	<b>РАҲМОНОВ</b> <i>Kamol Jamolovich</i>	Hamkorlik strategiyalari asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida (“Tarix o‘qitish metodikasi” fani misolida)	108
23.	<b>JO‘RAYEV</b> <i>Akmal Razzoqovich, SHODIYEVA</i> <i>Sitora Ulug‘bek qizi</i>	Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini dasturiy ta’lim vositalari asosida texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish	112
24.	<b>SOBIROV</b> <i>Abdulaziz Abdurozicovich</i>	Shaxs psixologik salomatligining ko‘p o‘lchovliligi	116
25.	<b>UMUROVA</b> <i>Ma’rifat Yoshievna</i>	Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganishda innovatsion texnologiyadan foydalanish	120
26.	<b>XAYDAROVA</b> <i>Oliya Kaxxarovna</i>	Globalashuv sharoitida ta’limning innovatsion metodlar kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida	126
27.	<b>YO‘LDOSHEV</b> <i>Sobitali Zohidjon o‘g‘li</i>	“Dynamic stirring” adaptiv modeli asosida tibbiy ta’lim talabalari valeologik kompetentligini rivojlantirish	132
28.	<b>YOZIYEVA</b> <i>Umida Lutfullayevna</i>	Virtual tobelik muammosining ijtimoiy-psixologik muhitga salbiy ta’siri	136
29.	<b>ОЧИЛОВА</b> <i>Нузора Маллаевна</i>	Замонавий ўқитувчилар креатив фаолиятини ривожлантириш	140
30.	<b>BOZOROV</b> <i>Aziz Abloqulovich</i>	O‘zbekiston Respublikasi ofitser kadrlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlar maxsus harbiy maktabi tajribasidan foydalanish	144
31.	<b>САИДОВА</b> <i>Камола Усканбаевна</i>	Феномен воспитания в контексте педагогики воспитания молодёжи на Востоке и Западе	148
32.	<b>NURULLOYEV</b> <i>Laziz Latipovich</i>	Xorijiy harbiy oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatini ta’minlash bo‘yicha pedagogik tajriba	153
33.	<b>BAHRONOVA</b> <i>Shaxlo Islom qizi</i>	Umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fanining “Pazandachilik asoslari” bo‘limini o‘qitishning	160

		me’yoriy-huquqiy asoslari	
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM			
34.	<b>ADIZOVA Nigora Baxtiyorovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish orqali divergent tafakkurini rivojlantirish	164
35.	<b>BAXRIDDINOVA Dilobar Zaynitdinovna</b>	Boshlang‘ich ta’limda STEAM texnologiyasini qo‘llashning ahamiyati	168
36.	<b>DJURAYEVA Dilfuza Nuriddin qizi</b>	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “tarbiyachi-bola”, “tarbiyachi-bola-bola”, “bola-bola” hamkorlik texnologiyasini takomillashtirishning innovatsion usullari	173
37.	<b>DJURAYEVA Salomat Nabiyevna</b>	Boshlang‘ich sinfda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari	177
38.	<b>FARMONOVA Shabon Muhamadovna</b>	Boshlang‘ich ta’lim mazmunini yangilashda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini rivojlantirish texnologiyalari	181
39.	<b>HAYDARQULOVA Mahliyo Zafarovna</b>	Boshlang‘ich sinflarda darslarni loyihalash ta’lim tamoyili asosida tashkil etish	187
40.	<b>JAHONOVA Nargiza Yunus qizi</b>	Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish	192
41.	<b>JO‘RAYEVA Dilnoza O‘ktam qizi</b>	Bolani maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o‘rni	197
42.	<b>JUMAYEVA Habiba G‘aforovna</b>	Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish muammosining yoritilishi	201
43.	<b>MADAMINOVA Yarkinoy</b>	Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish	206
44.	<b>MUXSINOVA Umriya Barnoyevna</b>	Ilk yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari	210
45.	<b>NE‘MATOVA Shirinoy Nizomiddinovna</b>	Tasviriy faoliyat – estetik tarbiyaning zaruriy vositasi sifatida	216
46.	<b>O‘KTAMOVA Mehriyoz Azamovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati	220
47.	<b>RASHIDOVA Mehriya Muzaffarovna</b>	Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda xorij tajribalari	225
48.	<b>SUVANOVA Nodirabegim Sadir qizi</b>	Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarda kompyuter savodxonlik faoliyatida axborotning o‘rni	229
49.	<b>TOYIROVA Dilrabo Sattorovna</b>	Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli savodxonlik ko‘nikmalalarini rivojlantirish	233
50.	<b>ПЎЛЛОТОВА Юлдуз</b>	Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларида ахборот-ресурслар интеграцияси сифатида ўқувчиларнинг нутқини ўстириш	237
51.	<b>ESHOVA Dilbar Shonazarovna</b>	Kichik yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oilaning o‘rni	242



## DOLZARB MAVZU

### ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА УНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТДАГИ МОҲИЯТИ



*Махмудов Носир,  
Тошкент давлат иқтисодиёт  
университети профессори, иқтисодиёт  
фанлари доктори, Халқаро ахборотлаштириш  
академиясининг ҳақиқий аъзоси*

Янги Ўзбекистон иқтисодиётини жадал ривожлантириш, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш кенг маънода янгича ёндошувни талаб қилади. Ушбу ёндошув “яшил” иқтисодиётга асосланган, мавжуд ресурслардан самарали фойдаланиш ҳамда тежамкорлик асосида мамлакат иқтисодиётини жадал ривожлантиришга қаратилган мураккаб тизим фаолиятидир. Ушбу ўзаро боғлиқ ва ўзаро алоқали фаолиятни амалга оширувчи, бажарувчи инсон, яъни юқори малакали мутахассис кадрлардир.

Ўтган даврни таҳлил қилсак, жадал ривожланиш 2017-2022 йиллар – Ҳаракатлар стратегияси даври ва ўтаётган, амалга оширилаётган 2022-2026 йиллар – Тараққиёт стратегиясини ўз ичига олади.

Жадал ривожланишни, жадал иқтисодий ўсишни шакллантирувчи бу – инсон. Инсон билгувчи, яратувчи, ихтиро – кашф қилувчи ва самарали бошқарувчидир. Қайт этилган фаолиятларни амалга оширувчи инсон юқори даражада илмий-интеллектуал салоҳиятли бўлиши лозим. Инсон туғилибдики авваломбор атроф муҳитни билишга ҳаракат қилади, улғайгандан кейин икки тоифага бўлинади, яъни ақлий меҳнат ва жисмоний меҳнат қилувчиларга бўлинади. Мутахассисларнинг фикрича, инсоннинг умумий яшаш даврида энг кўп билиши, атроф-муҳит бўйича ахборот қабул қилиши саккиз ёшгача экан.

Жамиятдаги ҳар бир инсон илмли ва билимли бўлишни хоҳлайди, лекин ҳамма ҳам бунга эриша олмайди. Интеллектуал салоҳияти юқорилар ҳаракат қилади, изланади. Шунинг билан бирга уларнинг интеллектуал салоҳияти ҳар хил, ижод қилиш қобилияти ҳар хил, танлаган ихтисослиги ҳар хил, қолаверса имконияти ҳар хил. Бунинг ҳар хил бўлишининг сабаблари наслга, ота-онага, атроф-муҳитга, билим олишни ташкил қилинишига боғлиқ.

Инсоният бир неча ўн минг йиллик тарихга эга бўлсада, бугунги кунгача яратилган замонавий ҳаётий эҳтиёжлар – техника-технологиялар, транспорт ва алоқа воситалари, ишлаб чиқариш ускуналари ва хизмат кўрсатишдаги ихтиролар 1-1,5 асрда, яъни 1850 йилдан ҳозиргача ўтган даврда яратилган. Ушбу жараёнда Ўзбекистонда яшаб ижод қилиб ўтган алломаларимизнинг ҳиссаси бекиёс катта, яъни улар бугунги кундаги мавжуд фундаментал фанларнинг асосини яратиб кетдилар.

Бутун дунё кенг фойдаланаётган рақамлар тизими, кимё ва астрономия ҳамда тиббиёт соҳалари бўйича алломаларимиз Ал-Хоразмий ва Ал-Беруний, Ибн-Сино ва Мирзо Улуғбек ҳамда Ал-Фарғонийлар ва бошқаларнинг ихтиролари алоҳида аҳамиятли эканлигини таъкидлашимиз лозим. Таклиф сифатида Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги бошчилигида алломаларимиз туғилиб-ўсиб, ижод қилган юртларда-вилоятлардаги университетларда улар номидаги халқаро фонд ва музейлар мажмуаси ташкил қилинса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Албатта, халқаро фондга турли манбалардан маблағлар келиб тушади ва шунинг ҳисобидан алломаларимизнинг кўплаб асарларини инглиз, рус, немис ва француз тилларида таржима қилиб чоп этиш мумкин бўлади, бутун дунёга уларнинг ҳаёти ва ижодини тарғибот қилишга имконият яратилади, Ўзбекистонни дунё танийди, ўз навбатида ёшларимизни ҳам илмий тадқиқотга, инновацион фаолиятга ундайди.

Инновацион фаолият интеллектуал салоҳият билан бевосита боғлиқ бўлади. Интеллектуал салоҳият эса ўз навбатида ота-она, оилавий муҳит, насл, соғлом ҳаёт тарзи ҳамда ақлий меҳнатга боғлиқдир.

Интеллектуал салоҳиятни шакллантириш, уни ривожлантириш, кенгайтириш (1-расм) асосан билим олувчи ва сифатли билим берувчига боғлиқ. Шунинг билан биргаликда улар ўз навбатида юқорида кўрсатилган асосий омиллар ҳамда педагогик маҳоратга боғлиқ бўлади.

Ҳар бир педагог ўзининг билим даражасига эга ва ҳар бир билим олувчи ёшлар ўзининг илм қабул қилиш салоҳиятига эгаллиги бу ҳақиқат.



**1-расм. Шахнинг интеллектуал салоҳиятини шакллантириш модели**

Демак, ушбу ўзаро боғлиқ тизим фаолиятининг самарали бўлиши, яъни, интеллектуал салоҳиятнинг ошиши 3 та асосий омилларга боғлиқ экан. Яъни, булар билим берувчи, билим оловчи ва ушбу жараёнига оптимал ташкил этувчи ҳамда бошқарувчилардир. Ўз навбатида қайт этилган омиллар ҳам ўнлаб уларни шакллантирувчи омиллардан ташкил топган.

Агар шаклланган интеллектуал салоҳиятни 100 фоиз деб белгиласак, шундан неча фоизи билим берувчига ва неча фоизи билим оловчига боғлиқлигини билиш мумкинми? Ўз навбатида, билим берувчи ва билим оловчилар улушини белгилувчи омилларнинг таъсир микдорини аниқлаш мумкинми? Агар биз шу саволларга жавоб топсак, ушбу тизимдаги муаммоли бўғинларни аниқласа бўлади. Албатта, интеллектуал салоҳиятни шакллантириш статик эмас, ўзгарувчан динамик тизим ҳисобланади. Бунинг учун илғор тадқиқот усулларида, жумладан эконометрик моделлардан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Шундагина ушбу тизим янада самаралироқ фаолият кўрсатиши мумкин бўлади.

Юқорида қайт этилган муаммоларнинг баъзи жиҳатларини қуйидагича эконометрик моделлар асосида ифодалаш мумкин:

Агар,  $A_i$  – билим берувчи, педагог,

$B_j$  – билим оловчи, ёшлар бўлса,

$$A_i = f(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n)$$

$$B_j = f(y_1, y_2, y_3, \dots, y_n)$$

кўринишида ифодалаш мумкин.

Агар,  $IS$  – интеллектуал салоҳият бўлса,

$$IS = f(A_i, B_j)$$

кўринишида эконометрик модель тузиш ва амалда қўллаш мумкин бўлади.

Албатта, мураккаб жараёнлардаги муаммоларни илмий тадқиқотлар асосида уларнинг ечимини топиш серқиррали ишланишларни, меҳнатни талаб қилади. Шунинг учун ушбу масалаларнинг ечимларини топиш билан узлуксиз таълимнинг барча бўғинларидаги мутасаддилар, айниқса педагогика университетлари, педагогика соҳасидаги илмий тадқиқот институтлари шуғулланишлари керак бўлади.

Ҳар бир даврнинг инновацион ривожланиш тенденцияси ҳар хил бўлади. Мустақилликнинг дастлабки йилларида, яъни 1991-2000 йилларда мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий

ривожланиши оғир аҳволда эди. Собик иттифоқ давридаги меҳнат тақсимоти “иплари” узилди. Энди ҳар собик республика мустақил давлат сифатида ўз кунини ўзи кўриши, мустақил ривожланиши керак бўлиб қолди. Тан олиш керак, ушбу мураккаб ҳолларда инновацион фаолиятга етарли даражада эътибор берилмади. Интеллектуал салоҳият асосида инновацион фаолиятни олиб бориш учун керакли микдорда молиялаштиришда ҳам муаммолар келиб чиқди. Ўзбекистон Республикаси фанлар Академиясининг илмий текшириш институтлари олимлари оилавий моддий қийинчиликлар сабабли ўзларининг сеvimли касбларини ташлаб хизмат соҳасига ўтиб кетиш ҳолатлари ҳам бўлди, баъзи Илмий текшириш институтлари бекитилди, ўз фаолиятини тўхтатишга мажбур бўлишди. Қанчалик аччиқ бўлса ҳам бу ҳақиқат. 2017 йилгача ҳар йили Ўзбекистонда инновацион фаолият учун давлат бюджетидан ажратиладиган маблағ 0,2 фоиздан ошмас эди. Бугун жаҳон амалиётида мамлакатнинг барқарор ривожланишини таъминлаш учун давлат бюджетининг 2 фоиздан кўпрогини илмий тадқиқотларга, яъни инновацион фаолиятларга сарфланиши лозимлиги кўрсатилган. Ривожланган мамлакатлар ўз-ўзидан юқори даражадаги ютуқларга эришмаган. Жанубий Корея, Япония, Германия ва Сингапур давлатлари 4-6 фоиз микдордаги давлат бюджети маблағларини инновацион фаолиятларга сарфлашгани бу ҳақиқат.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ташаббуслари билан 2017 йилнинг ноябр ойида Президент фармонлари асосида “Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги” ташкил этилди. Вазирликнинг бошқарув ва ташкилий тизими шакллантирилди, зарур бўлган мутахассислар билан таъминланди.

Ўзбекистонни Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан ўтган даврда маълум даражада ижобий ишлар амалга оширилди. Лекин, давлат бюджетидан ажратилган маблағлар асосида бажариладиган илмий лойиҳалар бўйича туб ўзгаришлар оширилди, деб бўлмайди. Фундаментал лойиҳаларни бажариш муддати 4 йил, амалий лойиҳалар учун 2 йил (Собик Иттифоқ даврида 5 ва 3 йил) эди. Бугунги кунда ушбу ёндошувга ижобий ўзгаришлар амалга оширилди. Нима учун барча тармоқлар учун, барча мавзулар учун бир хил ва узоқ муддат белгиланиши керак? Фикримизча, илмий лойиҳаларни бажариш муддатини дифференциал ёндошув асосида, ечилиши керак бўлган муаммони мураккаблик даражаси, тадқиқот учун иш ҳажми, илмий тадқиқот олиб борилаётган тармоқнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиб муддат белгиланса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Яъни, кишлок хўжалиги, ўсимликшунослик, генетика ва лаборатория билан боғлиқ узоқ муддат талаб қиладиган кимё соҳаларида аниқ натижаларга эришиш учун ҳақиқатда узоқ вақт талаб қилинишини инобатга олиниши лозим. Лекин, ижтимоий-иқтисодий ва ҳуқуқий ҳамда педагогика йўналишларда объектив вақт белгиланса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Ўтган давр амалиёти шуни кўрсатадики, лойиҳа бажарувчилари тадқиқот муддатини 4 йил деб белгиланса, 4 йилгача чўзиларди, 2 йил деб белгиланса, 2 йилга чўзишарди. Хорижий мамлакатлар тажрибаларидан келиб чиқиб, буюртмачи томонидан қўйиладиган тадқиқот топшириғини бажариш ҳажмидан келиб чиқиб реал давр белгиланса, яъни 2 ойли, 6 ойли, 1 йилли ва ҳ.в. мақсадга мувофиқ бўлар эди ҳамда тадқиқот натижаларини тезроқ амалиётга қўллашга имконият туғилар эди. Барча илмий лойиҳаларнинг бажарилиш даврини қисқартириш керак, демоқчи эмасмиз, лекин реал ҳолатдан келиб чиқиб, масалан 6 ой талаб қилинса 6 ой, 3 йил талаб қилинса 3 йил, деб белгиланиши керак.

Инновацион фаолият учун давлат бюджети томонидан молиялаштирилайдиган лойиҳалар мавзуларини шакллантириш лозим, деб ҳисоблаймиз. Бугунги кунда лойиҳаларни бажарувчилар, яъни Академия тизимидаги Илмий тадқиқот институтлари ходимлари – олимлар ва Олий таълим тизимидаги профессор-ўқитувчилар ҳамда Илмий марказлар ходимлари ўз илмий салоҳиятидан келиб чиқиб мавжуд муаммоларнинг ечимини топишга қаратилган мавзуларни шакллантирадилар. Аксарият ҳолларда баъзи мавзулар бўйича лойиҳа бажарилаётганлигини амалда қўллаши керак бўлган объектлар – вазирлик ёки ташкилотлар билишмайди.

Танлов эълон қилингандан сўнг ушбу лойиҳалар кўп босқичли экспертизадан ўтиши керак. Кўп ҳолларда юқорида қайт этилган мавзулар ёки лойиҳаларда бажарилаётган мақсад ва вазифалар реал сектор, ишлаб чиқариш ва хизматлар соҳаларининг юқори ташкилотлари, вазирликлар билан етарли даражада ҳамкорлик қилмасдан мавзулар шакллантирилади. Ушбу жараённи самарали ташкил қилиш учун фикримизча, биринчидан, иқтисодиётнинг барча тармоқлари, вазирликлар ўзларидаги мавжуд муаммоларини илмий лойиҳалар мавзуларини, молиявий таъминотини ва бажариш муддатини кўрсатилган ҳолда “Илмий лойиҳалар базаси”ни шакллантириб “Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги”га тақдим этилса ва ушбу вазирлик юқорида қайт этилган база ахборотларини эълон сифатида лойиҳа бажарувчи ташкилотларга етказса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Шунда бажарилаётган лойиҳалар ҳақиқатда амалиётга керак бўлган муаммоларни самарали ечимини топган натижаларни шакллантирган бўлар эди.

Иккинчидан, ташаббуслари асосида олий таълим тизимидаги профессор-ўқитувчилар, илмий тадқиқот институтлари олимлари томонидан ҳам лойиҳа мавзулари шакллантирилиб “Илмий лойиҳалар мавзулари базаси”ни яратилса ва мавзуларнинг интернет орқали эълон қилиниши мавжуд муаммолар ечимининг амалий жиҳатлари юқори бўлар эди. Албатта, олимлар, профессор-ўқитувчилар шакллантирилган мавзулар буюртмачи-амалиётчилар билан уларнинг ҳақиқатдан долзарблиги, тармоққа кераклиги бўйича ўзаро ҳамкорликда бажарилиши керак бўлади.

Бугунги кундаги илмий лойиҳаларни молиялаштириш тизими ҳам маълум даражада таъкомиллаштиришни талаб қилади. Вилоятларда ўнлаб олий таълим муассасалари мавжуд бўлиб, юзлаб профессор-ўқитувчилар, олимлар фаолият олиб бормоқда. Уларнинг илмий фаолиятлари қониқарсиз ҳолда, яъни кўпчиликлари турли хилдаги тадбирлар билан бандлар. Шунини таъкидлаш лозимки, ўз вилояти, ҳудудларидаги муаммоларни улар яхши билишади. Аксарият ҳолларда вилоят ОТМларидан келган лойиҳалар танлавланган ўтмагандан кейин кўпчиликлари илмий лойиҳалар билан шуғулланмай қўйишади. Фикримизча, давлат бюджетидан инновацион лойиҳаларни молиялаштиришда маълум қисмини (40-45%) дифференциал ҳолда, яъни ҳудуддаги муаммолар, ҳудуднинг илмий салоҳиятини инобатга олган ҳолда маблағ ажратилса вилоятларни пропорционал ривожлантиришни таъминлаган бўлар эдик, ҳудудларнинг илмий салоҳиятидан самарали фойдаланилган бўлар эдик. Бунинг учун вилоят ҳокимлигида Инновацион марказ ташкил қилиб, унда Илмий кенгаш ташкил қилинса, вилоят ҳокими Илмий кенгаш раиси ва аъзолари эса туман ҳокимлари, вилоятдаги ОТМ ректорлари, Илмий ишлар проректорлари аъзо бўлар эди. Ушбу Илмий кенгаш ҳудудни янада жадал ривожлантириш учун инновацион лойиҳаларни сифатли даражада шакллантириш, ҳақиқий самара берадиган ихтироларни бажарилишига эришишни, назорат, мониторинг қилиш вазифасини бажариши керак бўлади. Айни вақтда Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги бошқармаларидан назорат ва координация талаб қилинади. Натижада, вилоятлардаги интеллектуал салоҳиятдан тўлиқроқ, самаралироқ фойдаланилган бўлар эди. Шунингдек, бюджетдан инновацион фаолиятга ажратилаётган маблағлардан ҳам оқилона фойдаланишга эришилар эди.

Ўзбекистондаги олий таълим муассасалари халқаро рейтинглар бўйича юқори ўринни эгаллаши учун ҳаракат қилишмоқда. Бу борада кўп бўлмаса ҳам маълум натижалар бор. Халқаро рейтинг талаблари бўйича махсус кўрсаткичлар мавжуд. Жумладан, олий таълим муассасасининг илмий салоҳияти, яъни илмий даражали профессор-ўқитувчиларнинг салмоғи, фоизда. Мамлакатимизда 1991 йилгача 1 та университет, яъни ҳозирги Ўзбекистон миллий университети бор эди, холос. Бугунги кунга келиб, университетлар кўпайиб кетди, дастлаб вилоятлардаги Педагогика институтларига “университет” мақоми берилди.

Олий таълим муассасалари таркибий тузилиши бўйича уч хил турдан, яъни юқори поғонада университет, кейин академия ва институтдан иборат. Университет бўлишнинг шартлари, талаблари бўлиб, улардан асосийси илмий салоҳият ҳисобланади ва у 60 фоиздан юқори бўлиши, илғор даражада илмий тадқиқот ишлари бажарилиши керак. Тошкент шаҳридаги етакчи олий таълим муассасалари, айниқса вилоятларда фаолият кўрсатаётган университетлар ушбу талабга жавоб бермайди.

Президентимиз ташаббуслари билан ёшларни таълим олишини кўпайтириш мақсадида олий таълим муассасаларига қабул қилиш камровини ошириш учун хусусий олий таълим муассасаларини шакллантиришга руҳсат берилди ва унлаб хусусий университетлар қанчалик университет мақомига, шартларига мос келади? Фарғона политехника институти 60 йилдан бери, Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти 90 йилдан бери фаолият кўрсатиб, юқори кўрсаткичларга эга, булар институт. Ҳали мутахассис тайёрлаб улгирмаган, илмий салоҳияти етарли бўлмаган хусусий таълим муассасалари университет! Давлат олий таълим муассасасими ёки хусусий ОТМми улар университет мақомига мос келса, унда “университет” деб айтилиши мантиқан тўғри бўлади.

Демак, мамлакатимиздаги фаолият кўрсатаётган университетлар кўплаб муаммоларнинг ечимини топишлари лозим бўлади, айниқса илмий тадқиқот соҳасига алоҳида эътибор бериш лозим. Университет нафақат билим ва тарбия бериш маскани, балким кенг маънода инновацион фаолият билан шуғулланадиган даргоҳ. Хорижий мамлакатлардаги университетлар таркибида ўнлаб илмий-тадқиқот институтлар фаолият кўрсатади.

Илмий-тадқиқот билан шуғулланмаган профессор-ўқитувчини сифатли дарс ўтишига ҳеч қанақа қафолат йўқ. Шунинг учун ҳар бир хусусий олий таълим муассасаси ҳақиқий университет мақомига эришишга ҳаракат қилиши керак ва улар ҳам Ўзбекистонда олий таълим тизимини таъкомиллаштиришга, халқаро танловларга муносиб қатнашишлари лозим бўлади.

Илмий ва илмий-педагогик кадрлар 2 босқичли докторантурада тайёрланади. Магистратура ва докторантурага чет тилини билиш даражаси, яъни сертификат билан қабул амалга оширилади. Албатта, чет тилини ёшларимиз билиши керак, бу ҳақида мухтарам Президентимиз ҳам кўплаб кўрсатмалар берганлар. Чет тилини билса, хорижий адабиётлардан кенг фойдаланишга имконият туғилади. Илмий иш фаолияти кенгаяди, муҳокама майдони кенгаяди, халқаро лойиҳаларда иштирок этилади. Мамлакатимизда турли халқаро ташкилотлар тузилмоқда, реал секторда қўшма корхоналар кўпайиб бормоқда, буларда ишлаш чет тилини мукамал билишни тақоза қилади. Шунинг учун бу талаб жуда ўринлидир.

Ёшларимиз, айниқса шаҳар ёшлари чет тилини мукамал ўрганишга ҳаракат қиляпти, мактаб ва лицейларда, яқка ҳолда тил марказларида шуғулланишмоқда. Айниқса, Президент мактабларида болалар фаол ҳаракат қилиб, чуқур билим олиб, хорижий тилларни ўрганиб дунёнинг нуфузли олий ўқув юртларига ўқишга қабул қилинаётганлигини ҳаммамиз гувоҳимиз.

Қишлоқларда-чи, ёшларимизга хорижий тилларни ўқитиш, ўргатиш бўйича талаб даражасида шароит яратиб бера олаётми? Охириги йилларда бу соҳада анча ижобий ишлар амалга оширилмоқда. Олис қишлоқларга қўшимча моддий рағбатлантиришлар асосида ўқитувчилар жалб қилинапти. Лекин, бу борада ҳали қилиниши керак бўлган кўплаб муаммолар ўз ечимини кутмоқда.

Бугунги кунда докторантура ва магистратурага хорижий тилни билиш даражасини белгиловчи сертификат билан қабул қилинмоқда. Чет тилини тезроқ ўрганиш учун бу ёндошув яхши, лекин бизни ёшларимиз бунга қанчалик тайёр? Магистратурада амалда нима бўляпти? ОТМга 100 та қабул квотаси берилган бўлса, амалда 15-20 та қабул қилинмоқда. Қабул қилинганлар ҳам ҳар хил мутахассисликлардан иборат. Натижада, гуруҳлар 2 та ёки 3 та магистрантдан иборат. Катта аудиторияда, ўнлаб электр чироқлар ёнган, техника-компьютерлар мавжуд ҳолда профессор-ўқитувчи 2 та ёки 3 та магистрантларга 80 дақиқа дарс машғулоти ўтади, бу қанчалик мантқиққа тўғри? Реал секторда – ишлаб чиқаришда маҳсулот таннархини камайтириш учун тийинларни тежашга ҳаракат қилинади. Таълим тизимида-чи? Ҳолбуки, профессор-ўқитувчи 80 дақиқа мобайнида 20 та, 30 та магистрантларга дарс бериши мумкин эди-ку.

Магистратурада ўқимаса докторантурага қира олмайди.

Вилоятлардаги ОТМларнинг илмий салоҳияти 30-35 % дан ошмайди. Бу чеклов асосида вилоятларда магистратурада ўқимаса, улар қандай қилиб илмий салоҳиятини ошириши мумкин? Фикримизча, ушбу ёндашувни такомиллаштириш керак, яъни сертификати борларга мавжуд имтиёزلардан фойдаланган ҳолда қабулни амалга ошириш ва қабул квотасини контракт асосида қабул қилиб, уларга 2 йил магистратурада ўқиш давомида сертификатга эга бўлишни шарт қилиб қўйилса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Шунингдек, ҳозирдан ёшларга эълон тариқасида, яъни 5 ёки 6 йилдан кейин ҳозирги талаб бўйича, яъни сертификат билан қабул қилиниши айтилса, ёшларимиз анча тайёргарлик кўрган бўлар эди. Олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш самарадорлиги анча юқори бўлар эди. Юқоридагига ўхшаб чегара қўймасдан Ўзбек халқининг кўпроқ қисмининг билими, юқори савияси, интеллектуал салоҳияти ошса яхши-ку!

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ташаббуслари билан олий таълим тизимида қабул салмоғи 9 фоиздан 30-35 фоизга етказилди ва келажакда 50 фоизга етказиш стратегияси қабул қилинган. Фикримизча, олий таълим муассасалари салоҳиятидан тўлиқ фойдаланиб, халқимизни олий маълумотлик даражасини ошириш керак. “Олий маълумотчилар ишсиз қолибди” деган иборадан узоқ бўлиш керак. Биринчидан, олий маълумотчилар мавжуд ёки янгидан шаклланаётган иш ўринларида ўз фаолиятини бошлайди. Иккинчидан, уларнинг кўпчиликлари иш жойи яратишади. Учинчидан, агар олий маълумотли бўлиб хорижий мамлакатларга бориб ишлашса, улар ўз ўринларини малакали мутахассис сифатида фаолият кўрсатишлари мумкин. Бугунги кундагидек, касбсиз, тил билмасдан бориб касб талаб қилмайдиган оғир меҳнат қилиб қийналиб юришмайди. Чунки, Ўзбекистон ёшлари атрофимиздагиларга нисбатан тадбиркорлиги билан ажралиб туради.

Инновация ва инвестиция мазмун-моҳияти ва фаолияти жиҳатидан бир-бирдан ажралмас иборалардир. Иқтисодий ўсиш, мамлакатнинг жадал ривожлантириш даражасини айнан шу икки фаолият асосида амалга ошириш мумкин. Чунки, инновацияни ривожлантиришга капитал-инвестиция зарур. Айни вақтда инвестиция асосида яратилган техник-технологиялар, кашфиётлар инновациянинг маҳсулотидир. Реал секторни, яъни ишлаб чиқариш ва хизмат соҳаларини жадал ривожлантириш шу икки омилга кўпроқ боғлиқлиги ҳукумат раҳбариятининг алоҳида эътиборидалиги бу ҳақиқат, шундай экан Ўзбекистондаги зиёли-олимлар, тадқиқотчилар, ишлаб чиқарувчи амалиётчилар ва тадбиркорлар олдида улкан вазифалар турибди, буларнинг ечимини топиш асосида иқтисодиётни янада жадал ривожлантиришга замин яратилади.

## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

### OLIV TA'LIM TALABALARIDA O'QUV MOTIVLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

*Ag'amurodov Sarvar Istamovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasida o'qituvchi  
sarvaragamurodov4948@gmail.com*

*Ushbu maqolada talabalarda o'quv motivlarining namoyon bo'lish usullari, shu bilan birgalikda talaba yoshlarda o'quv motivatsiyalarini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning roli va ahamiyati keng yoritilgan. O'quv motivatsiyalarini talabalarda takomillashtirish va yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi tahlillarni amalga oshirishingiz mumkin. Talabalarni o'z maqsadlari va qiziqishlari bilan bog'lash juda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Ularga o'z oldlariga qo'ygan maqsadlarini aniqlash va bu maqsad yo'lida qanday faoliyat olib borish lozimligi to'g'risida talabalar bilan muntazam ravishda muloqotlar o'tkazing. Bu faoliyat esa ularni o'qishga, o'rganishga va o'zlarini yanada rivojlantirishga qiziqish uyg'otadi.*

**Kalit so'zlar:** talabalarning shaxsiy sifatlari, o'quv motivi, motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mukammallik, o'ziga ishonch hissi, ijtimoiy shart-sharoit, individual, qiziqish, munosabat, o'z-o'zini anglash, pedagogik odob.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНЫХ МОТИВОВ У СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

*В данной статье широко освещены способы проявления учебной мотивации у студентов, а также роль и значение факторов, влияющих на формирование учебной мотивации у студентов. С целью улучшения и дальнейшего развития учебной мотивации студентов можно провести следующие анализы. Соединение студентов с их целями и интересами имеет решающее значение. Регулярно общайтесь со студентами, чтобы помочь им определить свои цели и способы их достижения. Эта деятельность вызывает у них интерес к чтению, обучению и саморазвитию.*

**Ключевые слова:** личность студента, мотивация обучения, мотивация, социальная поддержка, успеваемость, уверенность в себе, социальная обусловленность, личность, интерес, отношение, самооценка, педагогический этикет.

### PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IMPROVING STUDY MOTIVES IN HIGHER EDUCATION STUDENTS

*In this article, the ways in which educational motivations are not evident in students, as well as the role and importance of factors influencing the formation of educational motivations in young students are widely covered. In order to improve and further develop the educational motivation of students, you can perform the following analysis. Connecting students with their goals and interests is of utmost importance. Have regular conversations with students to help them determine their goals and how to work toward them. This activity makes them interested in reading, learning and self-development.*

**Keywords:** student personality traits, learning motivation, motivation, social support, excellence, self-confidence, social conditioning, individual, interest, attitude, self-concept, pedagogical etiquette.

**Kirish.** Bugungi kunda globallashuv sharoitida har qanday axborotning juda tez sur'atlar bilan inson ongu-shuuriga kirib borayotgan bir vaqtda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish, shaxsni jamiyatning oliy qadriyatini sifatida har tomonlama kamol toptirish birinchi darajali ahamiyatga ega vazifaga aylanib bormoqda. Buning uchun esa millat, xalq va davlatning taraqqiyoti birinchi navbata intellektual shakllangan kadrlarga, bunday kadrlar esa yoshlarni o'quv faoliyatiga yo'nalganligi va ularning ijobiy motivlari bilan bog'liq hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri talabalar uchun motivatsiyaga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishdir. Har bir pedagog avvalombor talabaga qanday yondashishni bilishi lozim, talabalarning har tomonlama yetuk va ertangi kunda mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishda, kelajakda tanlaydigan kasbini haqiqiy egasi bo'lishda talabalarga motivatsiyon yondashishni o'rgatib borish lozim.

**Asosiy qism.** Har bir pedagog ta’lim jarayonida, ya’ni dars berish davomida psixologik bilimlarni bilish bilan birgalikda talabalarning qiziqishlarini o’rgangan holda, qanday qilib o’quv jarayonini tashkil etish va talabalarda o’quv motivatsiyasini oshirishga yordam berishi kerak. Ular o’zlarini o’rganish usullari va ilmiy tadqiqotlar orqali talabaning qanday yaxshi natijalarni olib chiqarishi mumkinligini tushinishlari kerak. Talaba yuqori bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish uchun ta’lim-tarbiya faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga talabalarning motivlari sohasini o’rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O’quvchilarni o’qishga bo’lgan qiziqishlarida oilaning o’rnini alohida e’tiborga olish bilan bir qatorda, maktab ta’limiga ilg’or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan milliy o’quv dasturini to’laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritishni ham unutmazlik lozim.

**Motivatsiya** (lot. *motivatio*) — subyektning qandaydir maqsadlar, qiziqishlari mavjudligi asosidagi faoliyatga tashqi va ichki xohishining ifodasidir. Motivatsiya barcha pedagogik ta’sir tizimida shakllanadi, biroq avvalo bevosita o’qish faoliyatida tarbiyalanadi. Ijobiy motivatsiyani shakllantirishda ta’lim mazmuni, ta’limni tashkil etish, shaxsiy o’qitish kabi masalalar muhim o’rin tutadi. Hozirga qadar fundamental bilimlar va amaliy muammolarini qamrab olgan motivatsiya nazariyasi aniq batafsil o’z ifodasini topmagan. Motivatsiyaning quyidagi: bu subyektning ehtiyojlarini qondirishga bog’liq bo’lgan faoliyatga tomon intilishidir; ma’lum kuchga predmetli-yo’naltirilgan faolligidir; predmet (moddiy yoki ideal)ga qaratilgan faoliyatni uyg’otuvchi va belgilovchi tanlovni amalga oshirish; shaxsiy harakat va intilishlar asosida yotuvchi anglangan sabablar ifodasi sifatidagi ta’riflari mavjud. Motivatsiya tushunchasi inson faoliyatidagi xulq-atvorini tushuntirish uchun foydalaniladi hamda jarayon, uslub, vosita sifatida foydalanadi. O’z navbatida, ehtiyojlarning rivojlanishi yanada samarali motivatsiya shakllanishiga olib keladi. «Motivlar shaxsning yo’nalganligi bilan bog’liq bo’lib, inson o’z oldiga qo’ygan hayotiy muhim maqsadlari yig’indisining ifodasi bo’ladi. Motivlar yuzaga kelishida inson o’zi uchun zarur ehtiyojlarni anglab boradi.

Motivlar — bu ehtiyojlarning anglanishidir. Bir motiv inson shaxsi uchun muhim sanalgan bir necha ehtiyojlar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Motiv va motivatsiya muammolari jahon psixologlari L.S.Vigotskiy, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananev, L.I.Bojovich, V.V.Davidov, D.B.Elkonin, V.G.Aseev, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin, A.K.Markova, N.E.Efimova, M.V.Matyuxina, V.I.Kovalyov va boshqa psixologlar asarlarida o’rganilgan.

Motiv va motivatsiya muammolarini o’zbek psixologlardan M.G.Davletshin, E.G.G’oziyev, B.G’.Shoumarov, V.A.Tokareva, R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullayev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova kabi psixolog olimlar o’rganib, bu sohada o’ziga xos yo’nalish yaratishga muvaffaq bo’lishdi. Olimlarning fikricha, talabalarda o’qish motivlarini shakllanishiga qadriyatlar, oilaviy an’analar, oliy ta’limidagi ijobiy pedagogik munosabatlar va talabalarni o’z-o’zini anglash kabi omillar o’quv motivatsiyasining shakllanishiga olib keladi. Talabalarga muvofiq yondashuvlar va o’quv rejalari bilan ta’minlash, talabalarni boshqarish, ularga muvofiq yondashuvlar va o’quv rejalari taqdim etish ham motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

O’rganuvchining o’qish jarayoniga munosabatini hal qiluvchi omillardan biri – bu uning motivatsiyasi. Motivatsiyani 2 ga bo’lishimiz mumkin: ichki va tashqi. Ichki motivatsiyasi bor inson biror ishni shunchaki o’sha ish unga yoqqani uchun bajaradi. Tashqi motivatsiya esa shu ishdan biror manfaat bo’lganda yuzaga keladi.

Masalan, matematikadan qaysidir masalani qiziquvchanligi sababli yechishga intilish bu ichki motivatsiya. O’sha masalani yaxshi baho olish yoki o’qituvchidan dakki eshitmaslik uchun yechish – bu tashqi motivatsiya.

Ayrim o’qituvchilarning xatosi shuki, ular ta’lim jarayonida asosan tashqi motivatsiyaga suyanib qolishadi. Turli sovg’alar, stikerlar, maqtovlar ko’rinishidagi mukofotlash va jarima, qattiq tanbeh asosiga o’qish jarayoni tashkil etiladi. Ko’p sonli tadqiqotlar natijasiga ko’ra, tashqi motivatsiya shundoq ham ichki motivatsiyasi bor insonning ana shu ichki motivatsiyasini yo’qotishiga olib kelishi mumkin.

Tashqi motivatsiyaga urg’u berilgan darslarda o’quvchi fanga oid ma’lumotni emas, unga berilgan mukofot yoki jazoni eslab qolishi osonroq bo’ladi.

Qolaversa, mukofot va jazo tizimi vaqt o’tgan sari o’z ta’sirini yo’qotadi, va talabalarda motivatsiya saqlash uchun mukofot va jazolar darajasini tobora oshirib borishga to’g’ri keladi. Mukofot va jazolar berilmay qo’yganda esa, motivatsiya butkul yo’qolish xavfi bor. Shu sababdan, asosiy e’tibor jazo va mukofotlarga, baho va imtihonlarga emas, fanning o’ziga qaratilishi lozim. O’qituvchi iloji boricha darsga va topshiriqlarga qiziqish uyg’otishi, talabalar bilan yaqindan muloqot o’rnatib, ularning hayotiy sharoitlari, maqsadlari va ularni ruhlantiruvchi omillarni o’rganishi talab etiladi.

Ichki motivatsiyaning kamchilik tomoni shundaki, uni shakllantirish ko’proq vaqt talab etadi. Bundan tashqari, ichki motivatsiyani uyg’otish har bir o’quvchiga alohida yondashuv talab qiladi va o’quvchilar

shaxsiyatini yaxshi bilishni taqozo etadi. Garchi qiyin tuyulsa ham, odatda inson o'rganishga bo'lgan tabiiy ichki motivatsiyaga ega bo'ladi.

Faqat ana shu motivatsiyani dars mazmunini boyitish, o'rganuvchilarning qiziqish va kechinmalarini hisobga olish orqali chaqirilsa, bas. Ichki motivatsiyaga ega insonlar yaxshiroq natijalarni ko'rsatishadi, o'rganishlari osonroq kechadi va ichki motivatsiya uzoqroq muddat yo'qolmay turadi. Va yana bir muhim jihat, ichki motivatsiya insonning ruhiy holati hamda salomatligi yaxshiroq bo'lishiga ham xizmat qiladi. Ichki motivatsiyaning kuchli bo'lishi ko'plab ruhiy muammolar, hayotdan bezish, zo'ravonlik va hatto narkomaniyaning ham oldini olib, o'quv muassasa hududidagi tartib-intizom va ma'naviy muhit yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Tashqi motivatsiyadan butunlay voz kechish ham shart emas. U ham muayyan turtkiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, dastlabki davrda, hali ichki motivatsiya shakllanib ulgurmagani paytda u ham qo'l kelishi mumkin. Lekin, yoshlarda ichki motivatsiya shakllangan sari, tashqi motivatsiya omillarini asta-sekin kamaytirib borish maqsadga muvofiq.

Ichki motivatsiyaning asosiy shartlaridan biri bu – ixtiyoriylik. Har ikki tomon, talaba ham, o'qituvchi ham darsga xohlab, o'z ixtiyori bilan kelayotgan bo'lishi juda muhim. Shu bois, o'rganuvchi va o'rgatuvchilarning xohish-istaklarini yaxshi aniqlash, ularga nima kerag-u, nima kerak emasligidan ogoh bo'lish zarurdir. O'quv muassasa rahbariyati o'qituvchilarning kayfiyati, ishga bo'lgan intilishini ijobiy bo'lishi uchun mehnat sharoitlari hamda muassasadagi psixologik muhitni yaxshi holatda saqlashi ham juda muhim. Zero, o'qituvchidagi intilish va qiziqish talabaga ham o'tadi, va aksincha, o'qituvchi ham faqat tashqi motivatsiya asosida ishlayotgan bo'lsa, darsda u talabalardagi ichki motivatsiyani so'ndirib qo'yishi ham hech gap emas.

Motivatsiya masalasi nafaqat ta'lim, balki deyarli hamma sohalarga tegishli. Buni anglagan ish beruvchilar tobora ko'proq ish joyini xursandchilik joyiga aylantirishga, har bir xodim o'z mehnatidan chinakamiga rohatlanishiga e'tibor qaratishmoqda. Oddiy misol sifatida, Google kompaniyasini olishimiz mumkin. U yerda ishchilar uchun o'yin maydonlari, massaj kursilari, alohida shinam xonalar, tekin taom va shirinliklar kabi qulayliklar yaratilgan. Maqsad shuki, xodimlar bu yerda o'zini erkin va yoqimli his qilsin.

Natija qanday bo'layotgani ma'lum – Google dunyodagi eng muvaffaqiyatli kompaniyalardan bo'lib kelmoqda. Albatta, bunday darajadagi sharoitlarni hosil qilish katta mablag'ni talab etadi. Hamma ham bunga qodir emas. Lekin, ba'zi bir arzimasi ko'ringan holatlarni yaxshilash, hech bo'lmasa behuda uzundan-uzoq majlis yoki hujjatbozliklarni kamaytirish, xodimlarni bir-biri bilan taqqoslayverishni bas qilishning o'zi ham muhitga va ish sifatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

**O'quv motivlari.** Psixologiya fanida shaxsni aqliy, amaliy harakatga va xulq-atvorini amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liq sababiyat motivlar deb ataladi. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ularning asosiy funksiyasi insonni harakatga, xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi sabablar (omillar), ichki turtkilar vazifasini o'tashdan iboratdir. Bu holatni o'quv faoliyatiga ko'chirish uchun quyidagi voqelikni izohlab berish ayni muddaodir.

**Ijtimoiy motiv.** Ma'lumki, talaba (o'smir) bilim dargohida ilm olishdan tashqari tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va hayotida qatnashadi, shu boisdan unda o'z o'rtoqlari, o'qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi. Uning o'quv faoliyatiga undovchi motivlari bilan bir qatorda boshqacha xususiyatli xulq-atvor motivlari ham mavjuddir, jumladan, ijtimoiy motiv jamoa bilan bo'lish istagini anglatib, uning hayotida ishtirok etish xohishini o'zida aks ettiradi.

Talabalarni o'qishlarida yaxshi natijalarga erishishlari uchun ularga pozitiv ma'lumotlar bermoq va ularni muvofiq baholash juda muhimdir. Ularga muvofiq taqdirlash ya'ni natijalariga qarab rag'bat berish ba'zi hollarda o'rtacha natija ko'rsatgan talabaning ham natijasini yuksak baholash pedagoglar tomonidan talabalarni o'qishga yo'naltirish uchun ma'lum bir yordam beradi. O'quv motivlarini talabalarda takomillastirish va rivojlantirish uchun eng muhim narsa, har bir talabaning individual xususiyatlarini va maqsadlarini hisobga olgan holda yondashish va o'rganishdir. O'smirlar xatti-harakatining yetakchi motivi ularni o'z tengdoshlari jamoasida muhim o'rin egallash ehtiyoji hisoblanib, ular bilan muomala qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy turmush va faoliyatning ko'rsatishiga qaraganda, har qanday shaxsda o'z qadr-qiyamatini his etish tuyg'usini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ta'lim-tarbiya jarayonida ota-ona va pedagogning talabalarga nisbatan pedagogik odobi muhim ahamiyat kasb etadi, shuning bilan birga o'z xatti-harakati natijasini oldindan ko'ra bilish ko'nikmasi bu borada muhim turtki vazifasini bajaradi. Pedagogik odob qoidalari va muomala qilish, ta'sir o'tkazish mexanizmlariga rioya qilish shaxslararo munosabatni barqarorlashtiradi. Zamonaviy o'smir o'zining shaxsiy xususiyatlarini boyitishda uning boshqalar uchun foydali bo'lish istiqbolini ko'radi. Ammo o'smirning intilishlari, o'z qobiliyatlarini anglashi, o'zini shaxs sifatida ko'rsatishi va kattalarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lgan maktab pozitsiyasi o'rtasidagi tafovut, o'z-o'zini hurmat qilish inqirozining chuqurlashishiga olib keladi. Kattalarning bahosini



rad etish, ularning to‘g‘riligidan qat‘i nazar, aniq namoyon bo‘ladi sababi birinchi navbatda, o‘smirning jamoatchilik e‘tirofiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun tegishli shart-sharoitlar yo‘qligida, bu o‘z-o‘zini aniqlashning sun‘iy kechikishiga aylanadi, ayniqsa, o‘smirlarning tengdoshlari bilan samimiy-shaxsiy va o‘z-o‘zidan guruhli muloqotga intilishi, har xil turdagi o‘smirlar kompaniyalari, norasmiy guruhlar paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zidan guruhli muloqot jarayonida tajovuzkorlik, shafqatsizlik, bezovtalanish, izolyatsiya va boshqalar barqaror xarakterga ega bo‘ladi. O‘qituvchi nafaqat o‘qitish motivlarini bilishi, balki o‘quvchilarni tushunish va ularning motivatsion sohasiga ta‘sir qilish uchun bu bilimlarni qo‘llay olishi kerak.

Jumladan, talabalar o‘quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish ehtiyoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni baholash, qo‘llab-quvvatlash, tengdoshlari jamoasida muayyan o‘rin egallash singari talablarda o‘z aksini topadi. Mazkur motivlar o‘quv faoliyatining mohiyati bilan bog‘liq bo‘lmay, balki unga yondosh yordamchi faktorlarni anglatadi. Ammo ushbu motivlar talaba o‘qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi. Ta‘limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan yoshlarni tarbiyalashdir. Chunki ta‘lim yoshlar ma‘naviyatiga yaratuvchanlik baxsh etishi, o‘z kelayotgan yosh avlodning barcha orzu-umidlari zamonaviy ta‘lim-tarbiya orqali ro‘yobga chiqishi aniq va ravshandir. Pedagog nafaqat o‘qitish motivlarini bilishi, balki talabalarni tushunish va ularning motivatsion sohasiga ta‘sir qilish uchun bu bilimlarni qo‘llay olishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning o‘qishga bo‘lgan munosabati birinchi navbatda o‘qituvchining ish sifati va uning talabalarga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq.

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va talabalarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e‘tibor qaratsak. Ta‘limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi. Bularning barchasi o‘qituvchining ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta‘lim jarayonida o‘qituvchi talabalariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u talabalarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati talaba shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytish, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda talabalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Talabalarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta‘lim jarayonini tashxis qiladi. Ta‘lim jarayonida talabalarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

**Xulosa va tavsiiyalar.** Ta‘lim-tarbiya jarayonida ota-ona va o‘qituvchining talabalarga nisbatan munosabati va pedagogik odobi, psixologik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak o‘qituvchi va ota-onalarning farzanlariga bo‘lgan munosabatini ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi va bilimlarni egallashdagi harakatlarida namoyon bo‘lishida odob axloqi ham katta ahamiyatga egadir, bolaning yoshligidan to‘g‘ri motivatsiya berib qilgan ishidan rag‘batlantirib kelajakdagi ishlariga yo‘naltira olsa, har bir bola o‘z qobiliyatlarini yaxshi rivojlantirib namoyon qila oladi, o‘z oldiga maqsadlar qo‘ya oladi va maqsadlar sari intilishda o‘zida motivatsiya topa oladi.

#### Adabiyotlar:

1. Клинберг Л. Проблемы теории обучения: Пер с нем. — М.: Педагогика, 1984. — 256 с. 2.
2. Роберт Мертон. Социальная теория и социальная структура. М.: АСТ, Хранитель, 2006. 880 стр. ISBN: 5-17-029089-6, 5-9713-0703-7, 5-9762-0143-1
3. Ag‘amurodov S.I “O‘smirlarda kasbiy o‘zini-o‘zi anglash, tadbirkorlik qobiliyatlari shakllanishi va bu jarayonga ta‘sir etuvchi omillar” // Pedagogik mahorat - ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 2.
4. Ag‘amurodov S.I “Biznes faoliyati va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘smirlar faoliyatiga tatbiq etish” // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 1).
5. Ag‘amurodov S.I “O‘smirlarda kasbiy qobiliyatlar shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari” // International journal of scientific researchers Volume: 2, Issue: 2, 2023.
6. Ag‘amurodov S.I “O‘smirlik davrida shaxsning shakllanish psixologiyasi” ISSN (E): 2992-9148 ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2023 Volume-1, Issue-5.
7. Axmedovich R. O. (2022). Globallashgan axborot davri va shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi. // International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 38-44.

## KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARI

*Begmanova Gulsara Shanjarovna,  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi  
begmanovagulsara@gmail.com*

*Ushbu maqolada oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish mavjud ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili asosida yaxlit tizimda o‘rganilgan hamda pedagogik muammo ekanligi asoslangan. "Kreativlik" atamasi keng ma’nodagi ko‘rib chiqildi. Oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish texnologiyasining pedagogik shart-sharoitlari va mazmuni, prinsiplari va yo‘llarini ishlab chiqildi. Oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish texnologiyasi amalga oshirish yo‘llari ochib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, boshqaruv, pedagogik texnologiyalar, ta’limning interaktiv shakllari, kreativlik, innovatsion texnologiyalar.*

## ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

*В данной статье управление образовательным процессом высшей школы на основе творческого подхода рассматривается в целостной системе на основе анализа существующей научно-педагогической литературы и исходит из того, что это педагогическая проблема. Термин «творчество» рассматривался в широком смысле. Разработаны педагогические условия и содержание, принципы и способы управления образовательным процессом высшей школы на основе творческого подхода. Выявлены пути реализации технологии управления образовательным процессом высшей школы на основе творческого подхода.*

*Ключевые слова: информационные технологии, менеджмент, педагогические технологии, интерактивные формы обучения, творчество, инновационные технологии.*

## TECHNOLOGIES OF MANAGEMENT OF EDUCATIONAL PROCESS BASED ON CREATIVE APPROACH

*In this article, management of higher educational process based on a creative approach is studied in a holistic system based on the analysis of existing scientific and pedagogical literature, and it is based on the fact that it is a pedagogical problem. The term "creativity" was considered in a broad sense. Pedagogical conditions and content, principles and ways of managing the higher education educational process based on a creative approach were developed. Ways to implement the technology of management of the educational process of higher education based on a creative approach have been revealed.*

*Keywords: information technologies, management, pedagogical technologies, interactive forms of education, creativity, innovative technologies.*

**Kirish.** Jahondagi oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish asosida bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Zamonaviy oliy ta’lim tizimini kreativ yondashuv asosida o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va ularni innovatsion tizim asosida amaliyotga tatbiq etish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali raqobatbardosh mutaxassis-kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash hamda rivojlangan mamlakatlar ta’lim standartlari talablariga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga qaratilgan o‘qitish jarayonini takomillashtirish zaruratini yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish, kompetitsiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish dolzarb hisoblanadi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta’lim

tizimi sifatini oshirish va olim ta’lim qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kiritish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o’qishga yuborish ko’lamini ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. [1]

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so’nggi yillarda barcha sohalar qatori oliy ta’lim tizimini sohasini isloh qilish, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashga, oliy ta’lim tizimiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tabiiq etishga alohida e’tibor qarata boshladi. Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarorida o’z ifodasini topgan. Qolaversa, “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlash to’g’risida”da ham oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilishga alohida to’xtalib o’tilgan. Mazkur hujjatda “oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” [2] strategik maqsad sifatida belgilangan.

O’quv-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish va zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan yuqoridagi hujjatlarning barchasida ta’lim va tarbiya tizimiga yangiliklarni kiritish, kreativ g’oyalarni asosida fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, xorijiy tajribalarni o’zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo’llab-quvvatlash, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog’liq umumiy jihatlarni mavjud. Binobarin, bajariladigan magistrlik dissertatsiya tadqiqotining asosiy maqsadi oliy ta’lim o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish texnologiyalarini kreativ yondashuv asosida yaratishdan iborat.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida» Qarorlari, O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda respublikamizda barcha sohalar qatorida oliy ta’lim muassasalarida o’quv-tarbiya jarayoni takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning sifat darajasini yaxshilash, xalqaro tajribalar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o’rnatishi, o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda kreativ usullardan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. [3]. “Kreativlik” tushunchasi haqida turlicha ta’riflar mavjud bo’lib, respublikamiz hamda xorijlik olimlarining kreativ yondashuv borasidagi bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Kreativlik kundalik professional faoliyatga ko’proq kiradi va nafaqat yakka tartibdagi korxonalar, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo’lib xizmat qiladi [4]. Falsafiy ensiklopediya lug’atida kreativlik (lot. creo- ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko’rinishda yechimini topishga yo’naltirilgan ijodiy o’zgarishlarga bo’lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi [5]. G.M.Kodjaspirovaning pedagogik lug’atida kreativlik ijodiy qobiliyat va shaxsning barqaror xarakteristikasini tashkil etuvchi omil sifatida talqin qilinadi [6]. Shuningdek kreativlikni mezonlari L.L.Tyorstouna, Dj.P.Gilforda, E.P.Torrans tomonidan belgilangan:

- ravonlik: ma’lum bir vaqt oralig’ida ko’plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- o’ziga xosligi: aniq, taniqli, umum e’tirof etilgan, oddiy yoki qat’iy belgilanganidan farq qiluvchi g’ayrioddiy, nostandart g’oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- sezuvchanlik: g’ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o’tishga tayyorlik;
- mo’tadillik: g’ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo’lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga

moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko‘rish qobiliyati;

- rivojlanish: paydo bo‘lgan g‘oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni o‘zaro va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;

**Muhokamalar va natijalar.** Jahondagi globallashtirish va ta‘limning integratsiyalashuvi jarayonlarida mutaxassislarining kreativ fikrlashga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, AQShning Garvard universitetida tashkil etilgan Career Services markazi tomonidan ish beruvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra ishtirokchilarning 74,8% qismi malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida kreativlik va nostandart tafakkur tarzi bilan bog‘liq sifatlarni belgilagan. Singapurdagi Nan‘yan texnologiya universiteti Biznes maktabida ham aynan shunga o‘xshash so‘rovnoma natijasida 62,5% ish beruvchilar bitiruvchining kreativlik sifatlarni muhim sifatlarni qatoridagi uchlikka kiritishgan.

Ta‘lim sohasidagi nufuzli Xalqaro ekspertlar tomonidan ta‘lim-tarbiya jarayoniga ikki xil kompetensiyalarni uyg‘un joriy etish taklif etilmoqda. Bular: “Hard skills - (ingliz. “qattiq” malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda “Soft skills” - (ingliz. “yumshoq”, “moslashuvchan” malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar.

Barcha shaxslarda bo‘lgani kabi bo‘lg‘usi pedagoglarda ham kreativlik sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Shunga ko‘ra kreativlik sifatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo‘llari mavjud.

Birinchi yo‘l - kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg‘u kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy e‘tibor markazida bo‘lib, talabalar fe‘llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Xususan, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmasini yuqori darajada shakllantirish maqsadida talabalarni fikrlashga chorlovchi savollar tarkibida zarur fe‘llarning bo‘lishiga alohida ahamiyat berishlari talab etiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan «yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘riflang» mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Chunki, savol tarkibidagi «ta‘riflang» tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra «o‘zida bor bilimlaringizni birma-bir aytib bering» deyish bilan teng.

Talabalarga savol berishda ularni tafakkur qilishga undovchi so‘z (fe‘l)lardan foydalanish kreativ fikrlash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan talabalarda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo‘liga ko‘ra o‘qituvchilar turli, antiqa, noan‘anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so‘z (fe‘l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, «bog‘liqlikni toping», «yarating», «bashorat qiling», «mantiqan davom ettiring», «tasavvur qiling» kabi so‘z (fe‘l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda o‘qituvchi talabalardan «yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘riflang»ni talab qilish o‘rniga, «yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikning barcha turlarini keltirish»ni so‘rashi lozim bo‘lsa, natijada talabalar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘qituvchilar birinchi yo‘lni qo‘llash – talabalarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda yosh mutaxassislarining «Kreativlik xaritasi»dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi yo‘l – amaliy kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘qituvchilar ko‘rsatilmali metod va usullardan foydalangan holda talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar va takomillashtiradilar.

Uchinchi yo‘l - kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yo‘lda talabalarni muammoni yechish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beriladi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, talabalarga «Yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni toping» topshirig‘ini bajarar ekanlar, odamning qon aylanish tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qiladilar. Nati- jada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

To‘rtinchi yo‘l - kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish. «Odamning qon aylanish tizimi» mavzusini o‘qitishda o‘qituvchi talabalarga Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimot tayyorlash topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi.

Kreativ kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan asosiy vazifalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsning maksimal rivojlanishiga ko‘maklashadigan o‘quv muhitini yaratish;
- kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlarni takomillashtirish;
- o‘quv va kognitiv faoliyatni singdirish;
- o‘z-o‘zini tarbiyalash tajribasini shakllantirish.

**Xulosa.** Shunday qilib, oliy ta‘lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish uchun quyidagi tashkiliy - pedagogik shartlar kerak:

- 1) ilmiy - pedagogik motivatsiya qo‘llashni aniqlash;
- 2) o‘quv jarayonini pedagogik g‘oya, sayt, blog va x.k.lar, ya’ni real pedagogik loyihalar asosida ishlab chiqarilgan ishni aniqlash ko‘rinishidagi aniq mahsulotni olishga yo‘naltirilganlik;
- 3) dars mashg‘ulotlarini olib borishda interfaollikdan va kreativlikni rivojlantiruvchi metodlardan, shuningdek ijodiy muhitni yaratishda dizayn - fikrlashdan foydalanish;
- 4) uzluksiz o‘z ruhiy holati haqida fikr yuritish (refleksiya);
- 5) o‘quv - metodik ta‘minotni yaratish uchun pedagogik innovatsiya va innovatsion faoliyat natijasini qo‘llash.

Yuqorida berilgan har bir tashkiliy - pedagogik shartlarga alohida to‘xtalamiz.

Birinchi shart. Motivatsiya bu har bir faoliyatga, jarayonga, harakatga sabab bo‘lgan turtki. Shuning uchun bo‘ljak mutaxassislar kreativligini oshirish uchun ularning professional kreativligini rivojlantirishda motivatsiya alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi talabalarni motivatsion sohani faollashtirishning turli usullaridan foydalanib, kreativlikning rivojlanish darajasini o‘stirishga undashlari kerak. Har bir darsda talabani ijodiy his - tuyg‘ularga duch kelishi muhimdir, shundagina u o‘ziga bo‘lgan ishonchga ega bo‘ladi va ta‘limga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Ikkinchi shart. O.Lebedev ta’kidlaganidek, kompetentli yondashuv - ta‘lim maqsadlarini aniqlash, ta‘lim mazmunini tanlash, o‘quv jarayonini tashkil etish va ta‘lim natijalarini baholashga qaratilgan umumiy tamoyillar majmuidir. Shunday tamoyillarga quyidagi qoidalar kiradi:

- 1) ta‘limning ahamiyati - ta‘lim oluvchilarda o‘z tajribasiga asoslanib ijtimoiy tajribani qo‘llashda turli sohalaridagi va faoliyatdagi muammolarni mustaqil yechishni rivojlantirish;
- 2) ta‘lim mazmuni - bilim, mafkuraviy, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishning didaktik tarzda moslashtirilgan ijtimoiy tajribasi;
- 3) o‘quv jarayonini tashkil etishning ma’nosi talabalarning ta‘lim mazmunini tashkil etuvchi bilim, muloqot, tashkiliy, ma’naviy va boshqa muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish uchun shart - sharoitlar yaratishdan iborat;
- 4) ta‘lim natijalarini baholash o‘quvchilarning muayyan bosqichda olgan ta‘lim darajasini tahlil qilishga asoslangan.

Kompetentli yondashuv loyiha metodidan foydalanishni talab etadi. Talabalarni guruhda ishlagan holda kreativ g‘oyalarini shakllanishi uchun pedagogik loyihalar bajariladi, ya’ni o‘zlarining metodik ishlarini taqdimot shaklida (PowerPoint, Ispring va b.), MindMapda yaratilgan aqliy xaritalar, videofilmlar va videokliplar, bloglar, o‘quv - uslubiy dasturiy mahsulotlar va boshqalar yordamida namoyish etadilar.

Uchinchi shart. Tadqiqotni ko‘rsatishicha, kreativlikni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarni interfaol turlaridan, kreativlikni rivojlantirish metodlaridan va ijodiy ta‘lim muhitini yaratish uchun dizayn - fikrlashdan foydalanish lozim. Bunday muhit qulay vaziyat, har qanday ijodiy mahsulotni qabul qilish, rag‘batlantirish bilan harakterlanadi. Bunday kreativ ta‘limda asosiy talabalar o‘z qiziqishlarini muhokama qilish, muhokamalarda ishtirok etish, bayonot va hatti - harakatlarda bir - birlarini rag‘batlantirish va faollashtirish kabi faoliyatni amalga oshiradilar.

To‘rtinchi shart. Fikrlash - bu ong, xulq-atvori, ichki aqliy harakatlar va davlatlar, o‘z tajribasi, shaxsiy tarkibi mavzusida o‘z - o‘zini tahlil qilish jarayoni va natijasi. Fikrlash orqali, shaxs o‘z harakatlarini tahlil qiladi (muvaqqiyatli yoki muvaqqiyatsiz). Bunda o‘z - o‘zini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlari aks ettirilgan. Quyidagi kabi savollar berishni tavsiya qilamiz: Nima qildingiz (natija)? Qanday qilib buni qildingiz (texnika, vositalar, usullar, texnologiyalar)? Muammoni hal qilishda qanday qiyinchiliklar paydo bo‘ldi? Eng yaxshisi nima bo‘ldi? Sizing fikringizcha, o‘qituvchining yordamidan iborat bo‘lishi kerakmi? Muammoni yechishda qanday yangi narsalar oldingiz? Muammoning mazmuni va yechimi sizning professional manfaatlaringiz va imkoniyatlaringizga mos keladimi? Fikrlash yordamida ta‘sirning qanchalik izchil, maqsadga muvofiq va samarali ekanligi va oldindan rejalashtirilgan natijaga qanchalik erishilganligi aniqlanadi.

Beshinchi shart. Kreativ ta‘lim shartlarini yaratish uchun pedagogik innovatsiyaga asoslangan o‘quv - uslubiy majmua yaratilishi lozim.

**Xulosa.** Oliy ta‘lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda quyidagilar xosdir:

- kreativ qobiliyatdan pedagogik amaliyotda, uning maqsad va vazifalari, shakllari, uslublari va o‘qitish vositalaridan keng foydalanishda qo‘llaniladi;
- kreativlik nafaqat individual faoliyatda balki guruhli faoliyatda ham qo‘llanilishi mumkin;
- kreativlik amaliyotda tatbiq etilgandagina namoyon bo‘ladi, ya’ni ijodiy fikrlash jarayonlarida: tajribalar o‘tkazishda, yangiliklar yaratishda va h.k;

- yangi texnologiyalarning ishlab chiqilishi kreativ fikrlashni rivojlantirishga yangi imkoniyatlar beradi, shuningdek yangi g‘oyalarga, ma’lumotlarga va insonlarga eshik ochadi;
- kreativ ta’lim o‘quv dasturida fan sifatida qaralmaydi, u ta’limning umumiy funksiyasi hisoblanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонуни ҳужжатлар тўплами – Т.; 2022 – б.23.
2. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/4545884>.
3. [https://www.researchgate.net/publication/341481206\\_Buhoro\\_viloatini\\_innavacion\\_rivozlantiris](https://www.researchgate.net/publication/341481206_Buhoro_viloatini_innavacion_rivozlantiris).
4. Закирова Ф.М., Позилова Ш.Х. Олий таълим муассасаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси. Т.: Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети, 2018, 9-бет.
5. Кукушин В.С. Педагогические технологии: учеб. пособие / В.С. Кукушин. Ростов-на-Дону : МарТ, 2002 319 с.
6. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. М.: Издательский центр «Академия», 2003. — 176с.
7. Философия: Энциклопедический словарь. — М.: Гардарики. Под редакцией А.А.Ивина. 2004. Большой психологический словарь. — М.: Прайм-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г. Мещерякова, акад. В.П. Зинченко. 2003.
8. Смирнов С.А. Педагогика. Теории, системы, технологии : учеб. пособие / С.А. Смирнов. М. : Академия, 2006. 512 с.
9. Maslow A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.
10. Закирова Ф. М., Позилова Ш. Х. Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений // Science for Education Today. – 2018. – Т. 8. – №. 3. – С. 23-36.
11. Usmonboeva A. To‘raev, Kreativ pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy majmua. - TDPU, 2016.

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING O‘ZIGA ISHONCHINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Dawkeeva Aydin Oralbaevna,  
Nukus davlat pedagogika instituti  
Psixologiya kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik va psixologik xususiyatlar tahlil qilinadi. O‘ziga ishonch pedagogning professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishi, talabalarga bilim va ko‘nikmalarni samarali yetkazishi uchun muhim omil hisoblanadi. Maqolada bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini shakllantirishda ijobiy fikrlash, o‘z-o‘zini anglash va qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvlarning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Faol o‘quv metodlari, refleksiya va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish kabi usullar orqali talabalarning o‘ziga ishonchini oshirish yo‘llari tavsiflanadi.*

***Kalit so‘zi:** pedagog, o‘zini anglash, o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi himoyalash.*

**ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ УВЕРЕННОСТИ  
В СЕБЕ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

*В данной статье анализируются педагогические и психологические особенности развития уверенности в себе у будущих педагогов. Уверенность в себе является важным фактором для успешной профессиональной деятельности педагога, что способствует эффективной передаче знаний и навыков студентам. В статье рассматривается роль позитивного мышления, самопознания и поддерживающих педагогических подходов в формировании уверенности в себе у будущих педагогов. Описываются методы, такие как активные учебные методы, рефлексия и создание поддерживающей среды, с целью повышения уверенности студентов в себе.*

***Ключевые слова:** педагог, самосознание, уверенность в себе, самоанализ, самоуправление, самозащита.*

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF SELF-CONFIDENCE  
DEVELOPMENT IN FUTURE TEACHERS**

*This article analyses pedagogical and psychological features of self-confidence development in future teachers. Self-confidence is an important factor for the successful professional activity of a teacher, which contributes to the effective transfer of knowledge and skills to students. The article considers the role of positive thinking, self-knowledge and supportive pedagogical approaches in the formation of self-confidence in future teachers. Methods such as active learning techniques, reflection and creation of a supportive environment are described in order to increase students' self-confidence.*

***Keywords:** educator, self-awareness, self-confidence, self-reflection, self-management, self-protection.*

**Kirish.** Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy mahoratlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, shaxsiy sifatlarini ham shakllantirish juda muhimdir. Ushbu sifatlar orasida o‘ziga ishonch, ya‘ni kasbiy o‘zlikni anglash, qaror qabul qilishda qat‘iyatlilik va pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli boshqarish qobiliyati alohida o‘rin tutadi. O‘ziga ishonchli pedagog o‘z faoliyatida innovatsiyalarni joriy qilishga intiladi, ta‘lim-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirish uchun ijodiy va mantiqiy yondashuvni qo‘llaydi.

O‘ziga ishonchning yetarli darajada shakllanmaganligi, ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarda kelajakdagi kasbiy faoliyatida muayyan qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu sifat yetarli darajada rivojlanmagan pedagoglar o‘z vazifalarini bajarishda sustkashlikka, o‘z imkoniyatlariga shubha qilishga moyil bo‘ladi, bu esa ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish pedagogik ta‘limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaraladi.

Bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchi ularning professional muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi. O‘ziga ishonch shaxsning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishida, ta‘lim jarayonida

o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishida va samarali pedagogik ta‘sir ko‘rsatishida asosiy omillardan biridir. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish uchun pedagogik va psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

**O‘ziga ishonchning ahamiyati.** Bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogning o‘ziga bo‘lgan ishonchi uning talabalarga o‘z bilimini aniq va ishonchli tarzda yetkazishiga, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilishiga va ularda ham ishonch hissini uyg‘otishiga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘ziga ishonchning yuqori darajasi pedagogning stress va qiyinchiliklarga qarshi kurasha olish qobiliyatini mustahkamlaydi.

**Psixologik xususiyatlar.** Bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirishda shaxsiy xususiyatlar va ruhiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon shaxsning ijobiy o‘z-o‘zini baholashi, o‘z maqsadlarini aniq belgilashi va ularga erishish uchun irodaviy sifatlarni rivojlantirishni talab qiladi. Psixologik jihatdan qaraganda, pedagogning o‘ziga ishonchini shakllantirish quyidagi omillar bilan bog‘liq:

1. **Ijobiy fikrlash:** Bo‘lajak pedagoglarda ijobiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish, ular o‘zlarining imkoniyatlariga ishonishlari uchun muhimdir. Ijobiy fikrlash ularning qiyinchiliklarga nisbatan bardoshlilikini oshiradi.

2. **Shaxsiy muvaffaqiyatlarni tan olish:** O‘z yutuqlarini tan olish va ulardan qoniqish hosil qilish pedagogning o‘ziga ishonchini oshiradi. Bu jarayon o‘z-o‘zini rag‘batlantirishga yordam beradi.

3. **O‘z-o‘zini anglash va qabul qilish:** Pedagog o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglash va qabul qilish orqali o‘ziga nisbatan realistik yondashuvni shakllantiradi, bu esa o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi.

**Pedagogik yondashuvlar.** Bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalarga o‘zlariga nisbatan ishonchni oshirish imkoniyati yaratiladi. Quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali deb hisoblanadi:

1. **Faol o‘quv metodlari:** Faol o‘quv metodlari, jumladan, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar tahlili, amaliy mashg‘ulotlar bo‘lajak pedagoglarda o‘ziga ishonchni shakllantirishga yordam beradi. Bu usullar orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llab, o‘zlarining qobiliyatlariga ishonch hosil qiladilar.

2. **Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish:** Pedagogik jarayonda qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish talabalarga o‘zlariga nisbatan ishonchni oshirish imkonini beradi. Darslarda ochiq va ishonchli muloqot, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi samarali munosabatlar o‘ziga ishonchni shakllantiruvchi muhim omillardir.

3. **Refleksiya va tahlil:** Talabalarining o‘z faoliyatini tahlil qilish, refleksiya qilish imkoniyatini berish ularning o‘ziga ishonchini oshiradi. Refleksiya orqali talabalar o‘z yutuqlari va kamchiliklarini anglaydilar, bu esa ularga o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘lida yordam beradi.

Ushbu tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish borasida turli metodlar va yondashuvlar qo‘llanilgan holda olingan qiyosiy natijalar tahlili o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil orqali, turli ta‘lim metodlarining bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘ziga ishonch darajasiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi aniqlanadi. Shu bilan birga, turli guruhlar o‘rtasidagi o‘ziga ishonch darajalarining o‘zaro farqlarini tahlil qilish orqali, qaysi metodlar eng samarali ekanligi haqida xulosa chiqariladi.

Biz respondentlarimiz orasidan o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi past bo‘lgan 180 nafarini tajriba guruhiga ajratib oldik. mazkur guruhda 10 ta mashg‘ulotdan iborat trening dasturimizni qo‘lladik. Buning uchun tajriba guruhini 8 ta kichik guruhga bo‘lib ishladik. Har bir guruhda 20-23 nafardan talabalar qamrab olindi. Trening mashg‘ulotlarimiz o‘zining mazmuniga ko‘ra 1,5 soatdan 3 soatgacha olib borildi. Bunda asosan talabaarning o‘ziga ishonchini oshirishi uchun kognitiv terapiyadan introspektiv xususiyatlarni rivojlantirishga e‘tibor qaratdik. Psixologik trening mashg‘ulotidan keyin nazorat tajribasini olib bordik. Mazkur tajriba davomida talabalarining rivojlantiruvchi mashg‘ulotlardan keyingi o‘zgarishlari tahlil qilindi. Quyidagi jadvald aniqlovchi va nazorat tajribasining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval.

“Bo‘lajak pedagoglarda o‘ziga ishonchining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so‘rovnomma” orqali olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=450)

Omillar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	Farqlanish
		M <sub>1</sub>	M <sub>2</sub>	t	p
O‘ziga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	5,5	7,3	-2,1	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	5,6	5,7	-1,0	0,17
Boshqalarga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	6,9	9,3	-2,4	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,3	0,10



Emotsional Barqarorlik	Tajriba guruhi (n=180)	5,4	8,1	-2,7	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	5,6	5,8	-0,9	0,24
Kognitivlik	Tajriba guruhi (n=180)	7,0	9,4	-2,2	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,0	0,23

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01;\*\*\*p<0,001.

“Bo‘lajak pedagoglarda o‘ziga ishonchining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini aniqlovchi” mualliflik so‘rovnomamizdagi mezonlar bo‘yicha rivojlantiruvchi trening dasturlarimizdan keyin ahamiyatli farqlar qayd etildi. Jumladan, “O‘ziga ishonch” (t=-2,1; p<0,05), “Boshqalarga ishonch” (t=-2,4; p<0,05), “Emotsional barqarorlik” (t=-2,7; p<0,05) hamda “Kognitivlik” (t=-2,2; p<0,05) omillarida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar kuzatildi. Biz rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar davomida talabalarda introspeksiyaning kuchayishiga e‘tibor qaratib, individual refleksiyaning kuchayishiga olib keldik. Talabalar o‘zlarini tahlil qilish ekanlar, o‘z shaxslariga nisbatan konstruktiv munosabatni shakllanishiga erishdik. Mashg‘ulotlardagi kaususli topshiriqlar talabalarining emotsional holatlarini barqarorlashtirishga, konstruktiv munosabat o‘rnatish uchun ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga, o‘zini tahlil qilish orqali o‘z shaxsiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni tarkib topishiga xizmat qilgan. Natijada talaba o‘zini adekvat baholab, o‘ziga ishonchi ortganligi kuzatildi. Nazorat guruhi vakillarining natijalarida ahamiyatli o‘zgarishlarning kuzatilmaganligi esa biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dasturning samaradorligini tasdiqlab beradi.

Tadqiqotimiz izlanishimizdagi shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ko‘rsatib beruvchi muhim mezonlardan biri – bu uning o‘ziga bo‘lgan munosabatidir. Shu boisdan, nazorat tajribasida “Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash” metodikasidan olingan natijalarni ham tahlil qildik.

2-jadval.

“Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash” metodikasiorqali olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=450)

Omillar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	Farqlanish
		M <sub>1</sub>	M <sub>2</sub>	t	P
Samimiylik	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,5	-2,4	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,3	7,5	-1,1	0,10
O‘z-o‘ziga ishonch	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,6	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,2	7,4	-1,4	0,10
O‘z-o‘zini idora qilish	Tajriba guruhi (n=180)	7,8	10,2	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	8,0	8,2	-1,2	0,18
O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi	Tajriba guruhi (n=180)	7,8	11,1	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,9	8,1	-1,3	0,12
O‘z-o‘zini qabul qilish	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,4	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,3	7,5	-0,8	0,20

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01;\*\*\*p<0,001

“Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash” metodikasi orqali rivojlantiruvchi trening dasturlarimizdan keyin barcha omillarda ahamiyatli farqlar qayd etildi. Jumladan, “Samimiylik” (t=-2,4; p<0,05), “O‘z-o‘ziga ishonch” (t=-2,5; p<0,05), “O‘z-o‘zini idora qilish” (t=-2,5; p<0,05) “O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi” (t=-2,3; p<0,05) hamda “O‘z-o‘zini qabul qilish” (t=-2,5; p<0,05) omillarida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar kuzatildi. Tajriba guruhining natijalaridan ko‘rib turibmizki, talabarda o‘ziga munosabat adekvatlashgan. Bunda bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga munosabatini ijtimoiy determinanti hisoblangan shaxslararo munosabatlardagi samimiylik konstruktiv muloqot o‘rnatish ko‘nikmasini shakllantirish orqali barqarorlashtirildi. Talabalarining o‘ziga ishonchini ko‘rsatib beruvchi subyektiv omillar, ya‘ni o‘ziga ishonch, o‘zini idora qilish, o‘zini qabul qilish, o‘ziga munosabat bevosita hissiy hamda kognitiv sohaga korreksiya ta‘sir etish orqali rivojlantirildi. Eng avvalo, bo‘lajak pedagoglarning o‘zi haqidagi tasavvurlari adekvatlashtirildi va o‘ziga ijobiy emotsional munosabat shakllantirildi. Shu orqali bo‘lajak pedagogning o‘zini qabul qilishi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchining ichki asoslari mustahkamlandi. Nazorat guruhi vakillarining natijalarida o‘zgarishlarni kuzatilmaganligi biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dasturning samaradorlik darajasini yana bir karra tasdiqlash imkonini beradi.

**Xulosa.** Bo‘lajak pedagoglarning o‘ziga ishonchini rivojlantirish ularning kasbiy rivojlanishi va ta’lim jarayonida samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun muhim hisoblanadi. O‘ziga ishonchning rivojlanishi pedagogning nafaqat shaxsiy farovonligiga, balki o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun pedagogik va psixologik yondashuvlarni birgalikda qo‘llash muhimdir.

**Adabiyotlar:**

1. Маслоу А. Самоактуализация. – В кн.: Психология личности. Тексты. М., 1982 с 69.
2. Прохоров А.О. Методы психической саморегуляции // Казань: КГПИ, 2000. - 107 с.
3. Вильданова А.Р. Особенности самосознания, предопределяющие аддиктивное поведение: Автореф дис... канд. психол. наук. – Ташкент: НУУз, 2005. 22 с.
4. Воротникова А.А. Психологические условия становления профессиональной компетентности будущего педагога: автореферат дис. ... кандидата психологических наук: 19.00.07 / Ин-т пед. инноваций. - Москва, 1998. - 23 с.

**DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLAR ORASIDA O‘Z JONIGA QASD QILISH HOLATI  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Elov Ziyodullo Sattorovich,*

*Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)*

*Bugun o‘z joniga qasd qilish muammosi har qanday jamiyatning asosiy masalasiga aylanib borayotganligi to‘g‘risida fikr yuritilgan bo‘lib, bunda turli hamjamiyatlarning bu salbiy psixologik masalani oldini olish yuzasidan olib borayotgan ishlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada, deviant xulq-atvorli o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan holatlarning psixologik sabablariga e‘tibor qaratilib, o‘smirlar orasida bu kabi holatning ko‘payishi tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *deviant, jamiyat, suitsid, stress, kayfiyat, emotsiya, buzilish, o‘lim, qasd, ontogenez, yosh davrlari, depressiya, affekt, gender.*

**СУИЦИД СРЕДИ ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ КАК  
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

*Сегодня проблема суицида становится главной проблемой любого общества, анализируется работа различных сообществ по предотвращению этой негативной психологической проблемы. Также в статье уделяется внимание психологическим причинам случаев совершения подростками девиантного поведения, и анализируется рост таких случаев среди подростков.*

**Ключевые слова:** *девиантный, общество, суицид, стресс, настроение, эмоция, расстройство, смерть, намерение, онтогенез, возрастные периоды, депрессия, аффект, пол.*

**SUICIDE AMONG ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR AS A SOCIAL-  
PSYCHOLOGICAL PROBLEM**

*Today, the problem of suicide is becoming the main issue of any society, and the work of various communities to prevent this negative psychological issue is analyzed. Also, the article focuses on the psychological causes of cases committed by teenagers with deviant behavior and analyzes the increase of such cases among teenagers.*

**Keywords:** *deviant, society, suicide, stress, mood, emotion, disorder, death, intention, ontogenesis, age periods, depression, affect, gender.*

**Kirish.** Jahonda «suitsid» - lotincha «o‘zini o‘ldirish», o‘z joniga qasd qilish – jamiyatning muammosi sifatida dolzarblashib bormoqda. JSST mamlakatlarni suitsidni oldini olishning keng qamrovli milliy Strategiyasi orqali LIVE LIFE - HAYOTNI YASHA dasturini amalga oshirish choralari ko‘rish muhimligiga jahon ommasini chaqirmoqda. Hayotda o‘zini-o‘zi o‘ldirishga qaratilgan urinishlarning o‘n barobar ortiq kuzatilishi tufayli 2018 yilda tashkil etilgan Milliy qo‘mita tomonidan 2021-2026-yillarda suitsid xatti-harakatlarini oldini olish bo‘yicha keng qamrovli strategik vazifalarni bajarish zarurligi belgilanganligi, ayniqsa, zaif guruh sifatida – o‘smirlik va yoshlik davridagi o‘lim sabablari orasida suitsidning yuqori darajada sodir etayotganligi tufayli uning ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish, bartaraf etish - bugungi kunda insoniyat oldida turgan global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda[1].

Jahon ta‘lim va ilmiy-amaliy markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari, qadriyatlar tizimi, suitsident yashayotgan oila, ta‘lim olayotgan, faoliyat yuritayotgan jamoadagi psixologik muhitni o‘rganish hamda korrektsiyalashning psixologik mexanizmlarini yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada suitsidentlar yoki suitsid haqida o‘ylaydigan odamlar to‘g‘risida ma‘lumot to‘plash, ularning ruhiy holati va hatti-harakatlarini kuzatish, aholi orasida alkogol va giyohvand moddalarni iste‘mol qilishni kamaytirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ta‘lim muassasalarida o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bog‘liq psixologik muammolarini aniqlash asosida bartaraf etish, Butunjahon o‘z joniga qasd qilishning oldini olish kuni 10-sentyabrni har yili Yer sayyorasi miqyosida nishonlash bo‘yicha tadbirlarni targ‘ib qilish, o‘smirlar bilan ishlaydigan psixolog-mutaxassislar faoliyatini takomillashtirish, masalalariga ahamiyat berish zarurati ko‘rinmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda o‘smir va yoshlar orasidagi o‘z joniga qasd qilishning sabablarini o‘rganish, aholi ruhiy salomatligini saqlashga qaratilgan vazifalarni bajarishning zaruriy huquqiy-me‘yoriy

asoslari yaratildi: «Oʻtgan vaqt mobaynida aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish milliy xizmatini takomillashtirish, ruhiy holat buzilishidan aziyat chekuvchi shaxslarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya qilish boʻyicha sogʻliqni saqlash tizimining barcha darajalarida muayyan ishlar amalga oshirildi». Suitsid muammosida psixologik omillardan - insonlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlarini, ularning dunyoqarashi, eʼtiqodi, hayotning mazmuni, oʻzini-oʻzi baholash xususiyatlarini shakllantirishda psixokorreksiya sifatini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

**Ilmiy tahlillar va mulohazalar.** Jahonda deviant xulq-atvorli oʻsmirlarda suitsidal holatlarni oʻrganish boʻyicha ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy taʼlim muassasalari, jumladan, Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (Amerika Qoʻshma Shtatlari); University of Michigan (AQSh), Kaliforniya universiteti (AQSh), Leiden University (Niderlandiya), Vuppertal Universiteti (Germaniya), University of Haifa (Isroil), Jiangsu University (Xitoy), The University of Queensland (Avstraliya), A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Fanlar Akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi), M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetlarida (Rossiya Federatsiyasi) taʼlim tizimi va ijtimoiy institutlarda mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlar oʻtkazilmoqda[2].

Jahonda oʻsmirlar xulq-atvorida suitsidal holatlarning sabablari, turli omillari hamda ijtimoiy-psixologik muammolarini aniqlash va oʻrganish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: oʻsmirlarda suitsidal xulq va holatlarni yuzaga keltiruvchi omillar oʻrganilgan (Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi, Amerika Qoʻshma Shtatlari); yoshlarda «normadan ogʻish» va «deviant xulq-atvor» tadqiq etilgan; yoshlarni turli salbiy holatlarda oʻzini psixologik himoya qilish mexanizmlari sifatida reabilitatsiya qilish mashqlari yaratilgan (University of Michigan, Amerika Qoʻshma Shtatlari); psixodiagnostik usullar orqali oʻsmirlardagi psixologik barqarorlikni taʼminlashning ilmiy-nazariy asoslari va yoshlar bilan olib boriladigan xulq ogʻishlarining oldini olish boʻyicha maxsus dasturlar yaratilgan (Kaliforniya universiteti, Amerika Qoʻshma Shtatlari); oʻsmir va yoshlardagi hayotiy motivatsiyasini oshirish xususiyati va refleksiv jarayonlari takomillashtirilgan (Leiden University, Niderlandiya); oʻsmir va yoshlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari aniqlangan (Vuppertal Universiteti, Germaniya); suitsid haqida oʻylaydigan odamlar toʻgʻrisida maʼlumot toʻplash, ularning ruhiy holati va hatti-harakatlarini kuzatish ishi amalga oshirilgan (University of Haifa, Isroil), sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, taʼlim muassasalarida oʻqituvchi-oʻquvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bogʻliq psixologik muammolarini aniqlash (Jiangsu University, Xitoy), taʼlim muassasalari, shahs faoliyati maskanlarida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, munosabatlarni yaxshilash, yuzaga keladigan nizolarni oldini olishga bogʻliq psixologik muammolarini aniqlash (The University of Queensland, Avstraliya); oʻsmir va yoshlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari, talaba-yoshlarni oʻquv va kelgusidagi kasbiy faoliyatiga yoʻnaltirish, ularning hatti-harakatlarini kuzatish, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, mehnat jamoalaridagi shaxslararo munosabat tizimini ilmiy va ijtimoiy-psixologik tamoyillar yordamida asoslab beruvchi konsepsiya yaratilgan (A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti, Rossiya Fanlar Akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi) [2,3].

Jahon psixologiya fani sohasiga zamonaviy bilim, ilgʻor xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida, oʻsmir yoshlarda namoyon boʻluvchi deviant xulq-atvor va uni oldini olishning ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan: oʻsmir yoshidagi shaxslarda jamiyatda dezadaptatsiya jarayonlari, emotsional-irodaviy boshqaruv, individual-tipologik xususiyatlar, oʻsmirlarda taʼlim muhitida ijobiy emotsional muhitni taʼminlash, turli yosh bosqichlarida namoyon boʻladigan inqirozli holatlarni oʻrganish tizimini shakllantirish, oʻsmirlardagi oʻzini-oʻzi boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini aniqlash, muvaffaqiyatli oʻquv faoliyatini shakllantirishda irodaviy jarayonlarning ahamiyatini tizimli tahlil qilish, deviant xulq-atvor namoyon boʻlishidagi gender tafovutlarni aniqlash masalalari shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz psixolog olimlaridan Y.M.Asadov, Z.R.Ibodullayev, N.G.Kamilova, E.J.Nurimbetova, B.M.Umarov, G.B.Shoumarov, U.D.Qodirov Z.S.Elov va boshqalarning tadqiqotlarida shaxs, xulq, deviant xulq, suitsidal xulq-atvor namoyon boʻlishining psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan[7,9].

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi mamlakatlari olimlaridan A.G.Ambrumova, A.V.Boeva, D.S.Isayeva, Y.G.Kasperovich, I.A.Kudryavsev, M.M.Kochenov, A.E.Lichko, I.I.Mamaychuk, A.M.Sisoyeva, F.S.Safuanov, A.A.Frolova, M.Y.Fenomenov, I.V.Vachkov va boshqalar tomonidan oʻsmir yoshdagi oʻquvchilarda xulqi ogʻishganlik va addektiv xulq shakllari borasidagi tadqiqotlar keng qamrovli oʻrganilgan.

Xorijiy psixolog olimlardan V.Arango, A.Bandura, V.Boyses, J.Vedrin, E.Dyurkgeym, K.Lorens, Ch.Lomborzo, J.J.Man, K.Menninger, Z.Freyd va boshqalar tomonidan suitsidal xulq motivatsiyasining komponentlari va funksiyalari masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab har yili 1 mln odam suitsid orqali hayotdan ko‘z yumadi (*Jahon sog‘liqni Saqlash Tashkilotining keyingi ma‘lumotlariga ko‘ra*). Bu ko‘rsatkich 100 000 aholiga o‘rtacha 16 kishini tashkil qiladi. Dunyo miqyosida suitsid bo‘yicha eng oldinda borayotgan davlatlardan Rossiya (26,5), Litva (25,7) va Qozog‘iston (22,8). Janubiy Koreya (20,2), Belgiya (15,7), Yaponiya (14,3), AQSh (13,7), Fransiya (12,1), Shvesariya (11,3), Germaniya (9,1), Isroil (5,2) kabilarda muayyan darajadagi suitsidal xarakterlar tendensiyasi kuzatilmog‘da. Ushbu ko‘rsatkichlar har yili o‘zgarib turibdi[9].

Ayni paytda, suitsidal xulq motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilash va ularning har birini chuqur o‘rganish uchun tegishli usullarni tanlash va saralashga to‘g‘ri keldi. Unga ko‘ra, ko‘p yillik tajriba va tegishli ilmiy adabiyotlar ustida olib borilgan tahlillarimizga asoslanib, suitsidal xulqning psixologik xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan maxsus metodikalar va o‘smirlar orasida suitsidal xulqqa moyillikning namoyon etilishini tadqiq qilish bilan bog‘liq tadqiqot uslubi belgilandi.

Dastlab tadqiqot muammosiga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan so‘rovnoma orqali deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidal holatlarga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar o‘rganildi, 1-jadvalga qarang.

1-jadval.

«Suitsidal xulq-atvorni aniqlash so‘rovnoma» b‘yinch olingan dastlabki statistik tahlillar, U-Manna- Uitni mezon, (n=620)

Omillar	Deviant xulq-atvorli o‘smirlar	O‘smirlar	U-Manna-Uitni mezon,	p
	M (o‘rtacha qiymat)			
Xavotirlanish	13,6	7,2	1094	0,005
Umidsizlik	10,9	6,7	726	0,005
Tajovuzkorlik	9,9	8,9	832	0,018
Dezadaptatsiya	11,9	7,4	892	0,005
Suitsidal xulq-atvor	46,3	30,2	1014	0,005

Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01,\*\*\*-p<0,001.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar orasida **suitsidal** holatlarga moyillik aniqlanmadi, ammo ba‘zi omillarga ko‘ra, natijalar biroz yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Jadvaldagi ma‘lumotlarga ko‘ra, 1-guruh respondentlarida yuqori darajadagi havotirlanish aniqlandi (*12-16 ball yuqori darajadagi xavotirlanishni anglatadi*). Havotirlanish darajasini yuqori bo‘lishi asosan ekstremal vaziyatlarda o‘zini namoyon qilish bilan belgilanadi. Bu holat o‘smirlardagi oddiy holatlarda ham tez-tez kuchli tashvishlarni boshdan kechirish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Havotirlanish omili yuqori bo‘lgan talabalar muammoli vaziyatlarga, qiyinchiliklarga haddan tashqari kuchli munosabat bildirishadi. Bundan tashqari mazkur holatning yuqori bo‘lishi ulardagi o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarni, aqliy jihatdan tez toliqishlarga olib keladi. Havotirlanish ruhiy holatlarni belgilaydi, hissiy sohaga, xulq-atvoriga va kasbiy shakllanish jarayoniga ta‘sir qiladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, havotirlanish o‘z joniga qasd qilish xatti-harakati uchun xavf omillaridan biri bo‘lishi mumkin. 2-guruh o‘smirlarida esa xavotirning past darajasini ko‘rishimiz mumkin. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar hamda o‘smirlar orasida mazkur omil bo‘yicha ishonchli farq kuzatildi (U=1094, p≤0,005) [5].

«Umidsizlik» omilida ham 2 ta guruh sinaluvchilari orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi (U=726, p≤0,005). Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda mazkur omil bo‘yicha yuqori natijani ko‘rishimiz mumkin (10-15 ball yuqori darajadagi umidsizlikni anglatadi). Ma‘lumotlarga ko‘ra emotsional tushkunlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda o‘z ehtiyojlarini qondirish darajasi past darajada bo‘ladi. Umidsizlik shaxslarda butun e‘tiborini muammoga va uni hal qilishga qaratilishini ta‘minlaydi. «Tajovuzkorlik» shkalasi bo‘yicha har ikkala guruhda sezilarli farqlar kuzatilmadi. Har ikkala guruhda ham tajavuzkorlik nisbatan past darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin (U=832, p≤0,018).

«Dezadaptatsiya» omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi (U=892, p≤0,005).

Bu shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlarlar uchun yangi vaziyatlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar, har bir holatlarga kuchli emotsional munosabatda bo‘lish, xulq-atvordagi muammolar, mavjud muammolarni bartaraf etishdagi qaror qabul qilish darajasining passivligini bildiradi. «Dezadaptatsiya» omiliga teskari bo‘lgan adaptatsiya omili yuqori bo‘lishi, o‘smirlarda turli vaziyatlarda tez moslasha olish, emotsional holatlarini nazoart qilish va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni yenga olish xususiyatlarini mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Suitsidal xulq-atvor omilida ham omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi ( $U=1014$ ,  $p \leq 0,005$ ) (1-jadval).

Tadqiqotimizda T.N.Razuvayeva modifikatsiyasi asosidagi «Suitsidal xavf so‘rovnomasi» metodika orqali olingan natijalarni gender jihatdan tahlil etildi, 2-jadvalga qarang.

2-jadval.

T.N.Razuvayevaning “Suitsidal xavf so‘rovnomasi” asosida olingan natijalar, o‘smir qiz va o‘gil bolalar tahlili (n=620)

Omillar	O‘smir Qiz bolalar	O‘smir O‘gil bolalar	p
Namoyishkoronalik	20,0 ± 3,0	22,2 ± 1,9	<b>0,002</b>
Affektivlik	50,3 ± 2,0	35,8 ± 3,2	<b>0,000</b>
Noyoblik	24,1 ± 2,9	16,1 ± 2,2	0,005
Layoqatsizlik	30,8 ± 2,9	24,6 ± 2,6	0,005
Ijtimoiy pessimizm	50,8 ± 2,5	41,3 ± 2,3	0,005
Madaniy to‘siqlarni buzish	30,7 ± 2,3	31,7 ± 2,6	0,005
Maksimalizm	41,3 ± 4,3	39,6 ± 3,3	<b>0,002</b>
Vaqtinchalik perspektiva	17,5 ± 2,1	18,5 ± 1,6	0,005
Antisuitsidal faktor	88,1 ± 2,7	84,2 ± 3,0	0,005

Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01,\*\*\*-p<0,001.

Mazkur metodika bo‘yicha olingan natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, deyarli barcha omillarda yigitlar va qizlarda statistik farqlar kuzatildi. Eng yuqori farqlar «namoyishkoronalik» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,002$ )), «affektivlik» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,000$ )) va «maksimalizm» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,002$ )) da aniqlandi. Masalan, qizlarda «namoyishkoronalik» omili yuqori ekanligi ulardagi salbiy emotsional holatlarda atrof-muhitni e‘tiborini o‘ziga tortishda bo‘lgan harakatlarida, boshqalar ular uchun qayg‘urishini istashlarida ko‘rinadi. Yigitlarda esa mazkur omillar teskarisiga, ya‘ni o‘zi bilan bo‘layotgan voqelarni atrof muhitdan nisbatan yashirishga intilar ekanlar[10].

«Affektivlik» omili esa qizlarga nisbatan yigitlarda ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa ularda vaziyatlarni adekvat baholashda ko‘pincha intellektal sohaga emas, balki emotsional sohaga e‘tibor qaratahida namoyon bo‘lar ekan. Qizlarda esa mazkur omil nisbatan pastroq ekanligi qayd etildi.

«Maksimalizm» omili qizlarda ustun ekanligi aniqlandi. Ya‘ni aynan o‘smirlik yoshida xos xususiyat bo‘lib, atrofda narsa va hodisalarga faqat o‘zining “qarichi” bilan munosabat bildirishidir. Ularning fikrlashi asosan ijtimoiy munosabatlarga zid bo‘ladi. Bu esa ularda turli ko‘rinishda, dezadaptatsiya, destruktivlik, turli zararli odatlarga berilish bilan tugashi mumkin[6,8].

Mazkur metodika deviant xulq-atvorli o‘smirlar va deviant xulq-atvorga ega bo‘lmagan o‘smirlar kesimida tahlil qilindi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobida, ya‘ni, tadqiqot obyekti haqidagi bo‘limida deviant xulq-atvorli o‘smirlarni viloyat, tuman kesimida aniqlab olgan edik. Tadqiqot maqsadi asosida har ikkala guruh respondentlaridagi suitsidga moyillik darajasi aniqlandi, 3-jadvalga qarang.

3-jadval.

T.N.Razuvayevaning “Suitsidal xavf so‘rovnomasi” tahlili (n=620)

Omillar	Deviant xulq-avorli o‘smirlar	O‘smirlar	U-Manna-Uitni mezon	p
	M (o‘rtacha qiymat)			
Namoyishkoronalik	3,1	3,2	867	0,584
Affektivlik	3,6	2,7	356	0,005
Noyoblik	3,2	3,4	962	0,117
Layoqatsizlik	4,7	3,2	426	0,005
Ijtimoiy pessimizm	3,9	2,6	384	0,005
Madaniy to‘siqlarni buzish	1,6	1,9	1014,2	0,047
Maksimalizm	2,8	2,9	1123,2	0,352
Vaqtinchalik perspektiva	3,4	2,4	364	0,005
Antisuitsidal faktor	3,2	3,9	983	0,025

Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01,\*\*\*-p<0,001.

Olingan natijalar tahliliga oʻtadigan boʻlsak, har ikkala respondentlar guruhida maʼlum bir farqlar kuzatildi. Jumladan, «affektivlik» ( $U=356, p \leq 0,05$ ), «layoqatsizlik» ( $U=426, p \leq 0,05$ ), «ijtimoiy pessimizm» ( $U=384, p \leq 0,05$ ) hamda «vaqtinchalik perspektiva» ( $U=364, p \leq 0,05$ ) omillarida yuqori farqlar kuzatildi.

«Affektivlik» omili deviant xulq-avorli oʻsmirlar guruhida oʻrtacha qiymat ( $Me=3,6$ ) ni, deviant xulq-atvoriga ega boʻlmagan oʻsmirlarda esa ( $Me=2,7$ ) ni koʻrsatdi. Mazkur natijalar shuni anglatadiki, ularda stressli vaziyatga haddan tashqari hissiy munosabat bildirish tendensiyasi hamda kuchli emotsional holatlarda aqlning affektiv blokadasini oʻzini namoyon qilgan ekan.

«Layoqatsizlik» omili ham deviant xulq-avorli oʻsmirlar guruhida ( $Me=4,7$ ) ni koʻrsatdi. Bu esa ularda hayotni anglashdagi muammolar, oʻz rejalarini amalga oshirishda ishonchsizlik va oʻziga oʻzi qarama-qarshi munosabatda boʻlishini anglatadi.

«Ijtimoiy pessimizm» ( $Me=3,9$ ) boʻyicha ham deviant xulq-avorli oʻsmirlarda natijalar salbiy ekanligini koʻrishimiz mumkin.

«Vaqtinchalik perspektiva» ( $Me=3,4$ ) omilida ham deviant xulq-avorli oʻsmirlarda 3 baldan yuqori natija qayd etildi. Bu esa mazkur guruhda kelajak hayotga boʻlgan ishonchsizlik, rejalashtirish qobiliyatining pastligi bilan belgilanadi. Bu esa ularning ayni holatidagi ruhiy zoʻriqishlar, havotirlanish darajasining yuqoriligidan ham kelib chiqishi mumkin. Yuqoridagi maʼlumotlardan aytish mumkinki, deviant xulq-atvorli oʻsmirlarda mazkur omillar suitsidal holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, mazkur guruhda «antisuitsidal faktor» ( $Me=3,2$ ) ham majud boʻlib, suitsidal holatlarga taʼsir etuvchi omillar ularda yuqori chiqqan boʻlsada, ulardagi maʼsuliyyat, burj hislari mazkur holatlarni pasaytirishi mumkin, 4-jadvalga qarang.

4-jadval.

**Suitsidal xulq-atvorni aniqlash soʻrovnomasi hamda suitsidal xavf soʻrovnomasi orasidagi korrelyatsion bogʻlanish natijalari (n=620)**

Omillar	Xavotir-lanish	Umidsizlik	Tajovuz-korlik	Dezadaptatsiya
Namoyishkoronalik	0,118	0,434**	0,147	0,142
Affektivlik	0,150	0,110	0,599**	0,118
Noyoblik	0,138	0,062	0,150	0,128
Layoqatsizlik	0,042	0,137	0,120	0,215
Ijtimoiy pessimizm	0,646**	0,172	0,225	0,466**
Madaniy toʻsiqlarni buzish	0,091	0,238	0,198	0,105
Maksimalizm	0,039	0,142	0,463**	0,254
Vaqtinchalik perspektiva	0,247	0,570**	0,230	0,122

Izoh: \*- $p < 0,05$ , \*\*- $p < 0,01$ , \*\*\*- $p < 0,001$ .

Tadqiqotimiz davomida suitsidal xulq-atvorni aniqlash soʻrovnomasi hamda suitsidal xavf soʻrovnomasi orasidagi korrelyatsion bogʻlanishlar aniqlandi. Bundan asosiy maqsad deviant xulq-atvorli oʻsmirlardagi suitsidal holatlarga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash edi. 4-jadvalda keltirilgan malumotlar tahliliga oʻtadigan boʻlsak, bunda eng koʻp korrelyatsion bogʻlanish «Ijtimoiy pessimizm» omilida kuzatildi. Agar oʻsmirlarda qanchalik atrofdagi olamga va oʻzining ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy qarashlar, dushmanlik ruhidagidek olamni qabul qilish va atrofdagilar bilan qoniqarsiz munosabatda boʻlish darajalari yuqori boʻlsa, ularda «xavotirlanish» ( $r=0,646**$ ) va «dezadaptatsiya» ( $r=0,466**$ ) omillari ham yuqori boʻlishi aniqlandi. «Namoyishkoronalik» omili «Umidsizlik» bilan oʻzaro korrelyatsion bogʻliqligi kuzatildi ( $r=0,434**$ ). Bu shundan dalolat beradiki, agar oʻsmirlarda oʻzining baxtsizligiga atrofdagilar diqqatini tortish xohishi, achinishga boʻlgan xarakterlarining ustun boʻlishi, ulardagi oʻz istaklarni qondira olmaslik, gʻazab, xavotir yoki disforiya ifodalari bilan hissiy darajaga taʼsir qilishi bilan belgilanadi. «Affektivlik» ( $r=0,599**$ ) va «Maksimalizm» ( $r=0,463**$ ) omillari «Tajovuzkorlik» bilan bogʻliqlik kuzatildi (4-jadval). Deviant xulq-atvorli oʻsmirlarda tajovuzkorlik sifatini yuqori boʻlishi, ularning ijtimoiy munosabatlarni baholashda intellektual nazorat ustidan emotsiyalarning balandligi hamda jamiyatdagi voqea-hodisalarga oʻta jiddiy munosabatda boʻlishi bilan izohlanadi. Demak, deviant xulq-atvorli oʻsmirlardagi suitsidal holatlarni aniqlash hamda uni oldini olishda mazkur holatga taʼsir etuvchi omillarni kompleks tarzda oʻrganish maqsadga muvofiqdir [2,9].

Tadqiqotimizning navbatdagi metodikasi «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» (K.N.Tomas) boʻlib, mazkur metodikani qoʻllashimizdan asosiy maqsad, deviant xulq-atvorli oʻsmirlarning shaxslararo munosabatlardagi oʻrnini aniqlash edi. Chunki shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlarning koʻpayishi, ulardagi oʻz ijtimoiy hayotidagi norozilik, oʻz-oʻzidan qoniqmaslik, oʻziga nisbatan past baho berishiga olib kelishi mumkin. Tomas testi asosida tadqiqotimiz davomida olingan oʻziga xos empirik tahlillar talqini deviant xulq-atvorli oʻsmirlardagi ziddiyatli holatlardan chiqish motivatsiyasi bilan bogʻliq

holatlarini ilmiy interpretatsiya qilishni taqozo etadi. Chunki, mazkur yo‘nalishdagi tahlil asosida deviant xulq-atvorli o‘smirlarning turli xil muammolar bilan bog‘liq turli xil ziddiyatlardan chiqish motivatsiyasi ko‘rsatkichlari haqida tegishli ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi. Zero, ushbu test natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad shuki, unda har bir o‘smir uchun xarakterli bo‘lgan motivatsiya ko‘rsatkichlariga empirik jihatdan baho berish orqali ulardagi ziddiyatli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan o‘ziga xos individual – psixologik yondashuvlar ko‘lamini belgilab olishdir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidal holatlarni uchrashi, ularni ijtimoiylashuvi jarayonida ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarining buzilishi singari salbiy tendensiyalar, muhim hayotiy ahamiyatga ega tushunchalarning noto‘g‘ri idrok etilishi natijasida vujudga keladigan stixiyali ijtimoiylashuv, o‘smirlarning o‘zini namoyon qilishga intilishi bilan bog‘liq ravishda shakllanadigan deviant xulq-atvor, dezadaptatsiya kabi sifatlarni rivojlanishi uchun xizmat qilishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 13 февралдаги ПҚ-4190-сон «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг руҳий саломатлигини муҳофаза қилиш хизматини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори.
2. Elov Z.S. “O‘smirlarda suitsid muammosi”. Monografiya. 2023 y. 156 b.
3. Usmonov F.F., Elov Z.S. Suicide – as a global problem facing humanity. // Web of scientist: international scientific research journal. Volume 3, Issue 2, Feb., 2022 349-354.
4. Elov Z.S., Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
5. Elov Z.S. Suicide as a global problem facing humanity. // Science and Education № 2. 2022 1247-1252
6. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child’s psyche. // Academia globe: inderscience research volume: 3, issue 1, january-2022 39-42
7. Elov Z.S. Causes and analysis of suicidal thoughts among adolescents. // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76
8. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164.
9. Elov.Z.S. Qadimgi xalqlar urf-odatlari va rivojlangan jamiytda ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологик сабаблари. Тарих ва бугун (қадимги халқлар урф-odatлари ва бугунги замон) // Jamiyat va innovasiyalar. 10.2021 169-173
10. Элов З.С. Суицид - ўз жонига қасд қилиш ижтимоий психологик муаммо сифатида. Conference on social and humanitarian research. // International Conference on Social Humanitarian Research 17-18 th September, 2021 Poland 188-189
11. Elov Z. Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o‘rni va danning-kryuger effekti. // Pedagogik mahorat 2021/10/30 № 5, стр. 143-144.
12. Elov Z.S. Conditions and the reasons of cases of the suicide among the staff of law-enforcement bodies. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017.
13. Элов З.С. Причины суицидального поведения: социальные и асоциальные факторы. // Вестник интегративной психологии 2016 14/112-115.
14. Элов З.С. Исследования причин условий, факторов суицидального риска. // Евразийский юридический журнал. 7 (86) 2015. 310-312.



## FIZIKA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK OMILLARI

*Axmedov Axat Axrorovich,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti professori, p.f.d.*

*Izbasarov Bahridin Faxridinovich,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti professori*

*Abdullaev Jalil Malikovich*

*Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashning metodikasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada eksperimental kompetentlikni rivojlantirish hamda laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasini rivojlantirish mexanizmlari ko‘rsatilgan*

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, laboratoriya, texnologiyalar, didaktika, eksperiment, asboblari, jihozlar, o‘qitish metodikasi, nazariy va amliy kompetentlik, tajriba.

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ

*В данной статье особое внимание уделено методике подготовки будущих учителей физики. В статье показаны механизмы развития экспериментальной компетентности и методики проведения лабораторных занятий.*

**Ключевые слова:** компетентность, лаборатория, технологии, дидактика, эксперимент, инструменты, оборудование, методика обучения, теоретическая и практическая компетентность, опыт.

## MODERN METHODOLOGICAL FACTORS OF TRAINING PHYSICS TEACHERS

*In this article, special attention is paid to the methodology of aircraft training of teachers of future physics. The article shows the mechanisms for the development of expert competence as well as the development of the methodology for conducting laboratory training.*

**Keywords:** competence, laboratory, technology, didactics, experiment, tools, equipment, teaching methods, theoretical and practical competence, experience.

**Kirish.** Pedagogika oliy talim muassasalarida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash mexanizmi uning alohida yagona standartini va malaka talablarini ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga jalb etish orqali ta‘lim samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisini tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, uni nazariy va amaliy tomonlaridan tashqari o‘quv eksperimentning o‘quv jarayonidagi vazifasini bilishi va uni o‘tkazish hamda ularga chuqur va puxta bilim berishdagi funksiyasini aniqlash muhim hisoblanadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlash zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakasini rivojlantirish talabalik davridan boshlanadi. Umumiy fizika kursi va fizika o‘qitish metodikasidagi har qanday eksperimental tajriba aniq, esda qolarli, qat‘iy maqsadga yo‘naltirilgan natijadorligi bo‘lishi lozim. Ushbu muammolarni yechmasdan turib talabalarni fizik tajribalarni qo‘yishdagi to‘laqonli tayyorlash mumkin emas;

1) O‘qituvchi tomonidan ayni bir tajribani qo‘yishning turli variantlari ko‘rsatilsa-da talaba ularning ichidan eng optimalini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tajribalar qo‘yishning xilma-xilligi bo‘lajak fizika o‘qituvchisiga fizika laboratoriyasi imkoniyatidan (o‘qituvchi ba‘zi fizik sodda asboblarni qo‘lda yasashi va bunga talabalarni o‘rgatishi) kelib chiqib tajriba jihozlarini tanlash va qurilmalarni mustaqil yig‘a olishi eksperimental kompetentligini egalashga yordam beradi. Bu yo‘nalishda muntazam ishlash talabalarni ixtirochilik imkoniyatlarini kengaytirib, kelajakda kashfiyotlar qilishga asos yaratadi, o‘quv eksperimentini qo‘yishdagi ijodiy yondashishlarini rivojlantiradi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga imkoniyat yaratadi;

Talabalarda har bir fizik tajribaning maqsadini laboratoriya daftariga yozish, tajriba sxemasini foydalanayotgan asboblarning parametrlarini ko‘rsatgan holda aniq chizish kompetentliklarini rivojlantirishi lozim. Bu ularning kelgusidagi amaliy ishlarda (jumladan, pedagogik amaliyotda) tajribalarni mustaqil va ijodiy tashkil qilishlari uchun zamin yaratadi.

3) Talabalar zamonaviy maktab jihozlarining, fizik asboblari, jihozlar, qurilmalarning asoslarini o‘rganishlari va ulardan belgilangan vazifaga qarab foydalanishning eksperimental kompetentligiga ega bo‘lishlari lozim.

4) Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida asboblardagi nosozliklarni aniqlash (elektromagnetizm, elektrotexnika mashg‘ulotlarida) va uni bartaraf qilish ba’zi bir fizik asboblarni mustaqil konstruksiyalash yoki qo‘lda yasash, bunga talabalarni jalb qilish ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi lozim. Yuqoridagi ko‘nikmalarning rivojlantirilishi o‘qituvchiga laboratoriya praktikumi ishlarini tashkil qilishda va namoyish tajribalarini o‘tkazish vaqtida yetishmayotgan (yoki nosoz) asbobni boshqasi bilan almashtirishda, laboratoriya ishlarini zamonaviylashtirishda hamma vaqt yordam beradi. Laboratoriya praktikumi talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliyotga qo‘llash kompetentliklarini egallashga, kelgusidagi pedagogik faoliyatida tayyorgarlik darajasi va xususiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Laboratoriya praktikumi talabalarning nazariya bilan amaliyot orasidagi ko‘prik vazifasini bajarib eksperimental kompetentlikni egalashda, pedagogik komponentlarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchisi eksperimentator bo‘lishi, uning eksperimentni tashkil etish va o‘tkazishi kompetensiyani o‘quvchilik davridayoq shakllanganligi keyinchalik ilmiy-tadqiqot natijalarini olishda muhim hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Ta’lim tizimida axborotlar ko‘lamining kengayib borishi fizika o‘qitish tizimida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi, fan va texnologiyalarni jadal rivojlanayotgan tezkor zamonda o‘quv jarayonida kompetentli yondashuvni taqozo qilayotgani hech kimga sir emas.(1). Bo‘lajak fizik o‘qituvchisini fizika darsi jarayonida murakkab vaziyatlardan omilkorona foydalana olishi orqali chiqib keta olishi va qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Kompetentli yondashuv orqali pedagogika oliy talim muassasalarida fizikani o‘qitish metodikasini takomillashtirishda bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqish, ta’lim sifatini oshirishga va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ustuvor masalani yechishga xizmat qiladi.

Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda [1, 2, 3, 4].

Fizika fanini o‘qitish sifatini takomillashtirish va yuqori samaradorlikka erishishda kompetentli yondashuv asosidagina bo‘lajak yuqori saviyali fizik o‘qituvchilarini pedagogika oliy talim muassasalarida tayyorlash mumkin. Bunda talabalarga mashg‘ulotlarda fizika o‘qitish uslubiyotining zamonaviy yutuqlarini keng qamrab oluvchi imkoniyatlarini kompetentli yondashuv orqali ta’lim sifatini oshirish bo‘lajak fizik o‘qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish omillari rivojlana boradi.

Murakkab pedagogik vaziyatlarda aniq yechimga kelish uchun ma’lumotlar yetarli bo‘lmagan holda ilmiy-ijodiy yondashuv orqali xulosa chiqarish va qaror qabul qilish orqali holatdan chiqish -kompetentli yondashuv ko‘rinishlaridan biridir.

Ta’lim tizimidagi ilg‘or g‘oya va texnologiyalarni qo‘llanilishi fizika didaktikasi-mazmunini tashkil etuvchi umumiy nazariy savollar ko‘lamini takomillashishi statistik g‘oya va tushunchalarni qo‘llanilishi sababli fizika o‘qitish metodikasida o‘zgacha yondashuvni talab etmoqda. Ta’limda o‘qitish-o‘rganishning bir tomoni bo‘lsa, qolganlari – faol o‘rganish va olgan bilimlarni o‘zlashtirish, baholash, ijodiy faoliyat uning ikkinchi tomonidir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompetentlikni rivojlantirish, o‘rta umumta’lim maktablarida fizika kursini o‘qitishdan boshlanadi. Umumtalim maktablarda fizik praktikum onda-sonda ishlatilsa-da, oliy ta’lim muassasalarida laboratoriya mashg‘ulotining asosi fizik praktikum hisoblanib, uni tashkil etish va o‘tkazish uchun eksperimental malaka, ko‘nikmalarning, rivojlantirishda, umumlashtirishda, chuqurlashtirishda, takrorlashda asos bo‘lib fizik bilimlar xizmat qiladi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchisi kompetentligini, uning dunyoqarashini rivojlantirish ko‘rsatilgan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishga ko‘rsatilgan meyorlari ko‘lamini kengaytirish orqali erishiladi. Adabiyotlar tahlili asosida kasbiy kompetensiyaning asosiy belgilari aniqlandi:

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarlik darajasini oshirishda uning kompetentligini rivojlantirishda o‘quv fanida nazariy va amaliy jihatlarini chuqur bilishdan tashqari, uslubiy kompetensiyaga ega bo‘lish, bugungi zarurat hisoblanadi. O‘quv jarayoniga kompetensiyali yondashuv muammosini bugungi holati, bo‘lajak fizik o‘qituvchilar tayyorlashda muhim omil hisoblanib, quyidagi faktorlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Kompetensiyali yondashuvni asosiy kategoriyalarini aniqlash va uni meyoriy-huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlash;

2. Bugungi kunda umumta’lim maktablarida milliy qadriyatlarni saqlagan holda kompetentli yondashuvning milliy o‘zbek modelini yaratish, uni bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashdagi aniq va istiqbolli rejasini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish;

3. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda, ta‘lim tizimida uning faoliyatini mahsuldorligini ta‘minlaydigan ta‘lim menejmenti asoslarini takomillashtirish;

4. Kelajakda ma‘nan yetuk, raqobatbardosh fizika o‘qituvchilarni tayyorlashda, ularning qiziqishlari, texnik jihozlar va qurilmalarda ishlay bilish ko‘nikmasini laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazish jarayonida rivojlantira borish;

5. Ta‘lim tizimidagi ustuvorlikni ta‘minlash tayyorlanayotgan bo‘lajak fizika o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga nazariya va amaliyot uyg‘unligini o‘rganish darajasidan tashqari, texnikaviy bilimdonlik kompetentligini shakllantirish;

6. Kompetentliklar rivojlantirish majmuasi pedagogika institutlarida talabani professional kompetentligini xarakterlash orqali, jamiyatdagi psixologik, pedagogik jarayonlarda talabani bilim, malaka va ko‘nikmalariga tayangan holda, tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlarga o‘z munosabatini mustaqil bildira olishi;

7. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarini tayyorlash bilan birga ularda qo‘shimcha mutaxassisliklar berish mexanizimi joriy etish;

Bo‘lajak fizika o‘qituvchisini tayyorlashda ularda talabalik davrida maktab, akademik litseylarda fizika kurslarini ilmiy asosini chuqur o‘zlashtirish, tarixiy bosqichlarini bilish, pedagogik kompetentligini shakllantirish orqali erishiladi. Buning uchun esa ular turli bosqichlarda fizika o‘qitishda didaktikaning izchilik prinsipini amalda qo‘llashni yaxshi bilishlari kerak. Ammo, pedagogika oliy talim muassasalarida o‘qitish jarayonida bu masalaga yetarli darajada e‘tibor bermoqda, deb bo‘lmaydi. Ko‘pchilik talabalar pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida olgan kompetentliklarini maktab fizika kurslarini o‘qitishga tatbiq etishda qiynaladilar. Buning asosiy sababi, umumta‘lim maktablarida, akademik litseylarda fizikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda fizikaviy tajribalarni tashkil etish va o‘tkazishda kompetensiyalarini yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda. Ularning fizikaviy dunyoqarashida asosiy o‘rinni dinamik qonuniyatlar egallab, ehtimoliy statistik qonuniyatlarga deyarli o‘rin qolmagan. Bunday bo‘lishiga sabab, pedagogika oliy talim muassasalarida o‘qitiladigan umumiy fizika, nazariy fizika va fizika o‘qitish metodikasi kurslari orasida izchilikni e‘tiborga olmaslikdir.

Umumta‘lim tizimidagi o‘quv yurtlari takomillashgan dasturlarga o‘tish orqali yangi o‘quv darsliklari yaratilishi uning ilmiy darajasini ortishiga olib kelmoqda.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan fikrlar namunaviy o‘quv rejadagi laboratoriya mashg‘ulotlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko‘tarish muammosi fizika fanini o‘qitishda dolzarbligini saqlagan holda turibdi. Agarda amaliy mashg‘ulotlarda talabalarda ixtiro va kashfiyotga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantira olsak, tabiiy holki, mamlakatimiz fan va texnikasi, texnologiyasi va sanoati, shuningdek, iqtisodiyotimizning jadal rivojlanishiga munosib turtki bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

#### Adabiyotlar:

1. Джораев М., Ахмедов А.А., Камолов И. “Модернизация лабораторных работ по физике в высших педагогических вузах”. Монография докторской диссертации. Lambert Akademik Publishing. Heinrich-Bocking Str6-8, 66121, Saarbruken, Germaniye. Mail: info@lap-publishing, 2015.

2. Akhmedov A A // Development of experimental competence of future Physics teachers // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. february, 2021. III. -P.26-30.

3. Ахмедов А.А., Джораев М.// “Модернизация компетентности будущего учителя физики”. //Физика в школе. -№7. -2015. -С. 20-23.

4. Akhmedov A.A. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining eksperimental kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish. // Monografiya. –Toshkent: A.Navoiy nashriyoti, 2019. -102 b.

## ZOOLOGIYA FANIDAN INNOVATSION ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH VA JORIY ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Asallayev O'ktam Xayriddinovich,  
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Ushbu maqolada respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalari yoritilgan bo'lib, ta'lim jarayonlarida zamonaviy elektron ta'lim resurslarini joriy etish bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, elektron darsliklarning yangi avlodini yaratish, zoologiya fanidan innovatsion elektron darsliklarni ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish hamda innovatsion elektron darsliklarning an'anaviy darsliklardan afzallik tomonlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, innovatsion elektron darsliklar, didaktika tamoyillari, kompyuter texnologiyalari, elektron o'quv materiallari, o'qitish samaradorligi, informatsion-pedagogik texnologiyalar, zoologiya ta'limi, talabalarning intellektual imkoniyatlari.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЗДАНИЯ И ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ ПО ЗООЛОГИИ

*В данной статье освещены вопросы модернизации системы образования в нашей республике, воспитания личностей, обладающих интеллектуальным потенциалом, способных вести самостоятельное мышление и наблюдение на основе современных достижений науки, подготовки конкурентоспособных, высококвалифицированных кадров по внедрению ресурсов. Также освещено создание электронных учебников нового поколения, разработка инновационных электронных учебников по зоологии, их эффективное использование, а также преимущества инновационных электронных учебников перед традиционными учебниками.*

**Ключевые слова:** система образования, инновационные электронные учебники, принципы дидактики, компьютерные технологии, электронные учебные материалы, эффективность обучения, информационно-педагогические технологии, зоологическое образование, интеллектуальные возможности студентов.

## IMPROVING MECHANISMS OF CREATING AND PUBLISHING INNOVATIVE ELECTRONIC TEXTBOOKS IN ZOOLOGY

*In this article, the issues of modernization of the education system in our republic, education of individuals with intellectual potential, who can conduct independent thought and observation based on the modern achievements of science, and training of competitive, highly qualified personnel are covered. comments on the introduction of resources are presented. Also, the creation of a new generation of electronic textbooks, the development of innovative electronic textbooks in zoology, their effective use, and the advantages of innovative electronic textbooks over traditional textbooks are covered.*

**Keywords:** educational system, innovative electronic textbooks, principles of didactics, computer technologies, electronic educational materials, teaching effectiveness, information and pedagogical technologies, zoology education, intellectual capabilities of students.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda. Mafkuraviy hamda mazmun va mohiyati jihatdan eskirgan, to'liq an'anaviy (bosma) usulda nashr etilayotgan darsliklarning ma'lum qismi yangi ta'lim tizimining talab va ehtiyojlariga javob bera olmay qoldi. Shulardan kelib chiqib, elektron adabiyotlar yaratish hozirgi zamon talablaridan biriga aylandi. Jumladan, innovatsion elektron darsliklar didaktikaning asosiy tamoyillarini ishonchli va yuqori darajada joriy qilish imkonini beruvchi, samarali o'qitish vositasi hisoblanadi. Shu o'rinda innovatsion elektron darsliklarning mazmun – mohiyati va ularni yaratishdagi talablarga to'xtalib o'tish joz.

**Asosiy qism.** Innovatsion elektron darsliklar – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanishga mo’ljallangan o’qitish vositasi bo’lib, undan mustaqil ta’lim olishda va o’quv materiallarini har tomonlama samarali o’zlashtirishda foydalanish mumkin [1].

Innovatsion elektron darslikda fanning o’quv materiallari talabaga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o’rinli foydalaniladi [2].

Elektron darslik ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan, zamonaviy informatsion texnologiyaning mahsuli hisoblanadi. Elektron darsliklar yangi ta’lim shakli-masofaviy ta’limning asosiy o’quv-uslubiy yadrosini tashkil etadi. O’qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy informatsion-pedagogik texnologiyalar, jumladan, elektron darsliklardan foydalanish alohida o’rin egallaydi [3].

Innovatsion elektron darsliklar elektron texnologiyalarga tayangan holda, quyidagilarni o’z ichiga oladi: animatsiya, ko’p darajali va ko’p variantli topshiriqlar, gipermatnlar va hokazo [4]. Innovatsion elektron darsliklarni yaratishda asosiy tamoyillarga amal qilish, ularga qo’yiladigan didaktik, texnik-texnologik, ergonomik, estetik va talablarga rioya qilish tavsiya etiladi [5].

Oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlar qatori, zoologiya ta’limida ham o’quv jarayonlarini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat ta’lim standartlari hamda xalqaro ta’lim standartlariga to’liq javob bera oladigan o’quv adabiyotlari bilan ta’minlash masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan o’quv hamda elektron o’quv adabiyotlarning tahlili o’z yechimini kutayotgan masalalardan biriga aylanmoqda [6].

Amaliy sharoitda, eskirgan konsepsiyalar innovatsion elektron darslik sifatida talqin etishga harakat qilinayotgan elektron mahsulotlar (disketlarda elektron shaklda mavjud bo’lgan matnlar va o’quv materiallari va boshqalar)ning yaratilishiga olib keladi. Lekin aslida, bular kam samarali vositalardir, chunki ular elektron darsliklar emas. Shuning uchun innovatsion elektron darslikka tegishli tushunchalarni aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Darslik - talaba uchun zaruriy qurol, chunki u darsliklarsiz fan bo’yicha mustahkam va keng qamrovli bilim va malakalarga ega bo’la olmaydi.

Innovatsion elektron darslik oddiy qog’ozli shakldagi darslik singari muayyan o’quv fani dasturining barcha asosiy savollarini, mazmun va mohiyatini qamrab olishi kerak. Shu bilan birga, unda aniq ilmiy mazmunda, talabadagi yig’ilgan bilimlar doirasini hisobga olish kerak. Oddiy darslik bilan qiyoslaganda, innovatsion elektron darsliklarga qator qo’shimcha talablar qo’yiladi: matn varaqlarga bo’lingan bo’lishi, tugallagan mazmunli bo’lakni qamrab olgan, istalgan varaqni xohlagan tartibda ekranga chiqarib berilishi ta’minlangan, matn bezakli tasvirlangan, asosiy qonunlar, formulalar, grafiklar, tasvirlar va boshqalar bo’lishi kerak.

O’z-o’zini nazorat qilish maqsadida, bilim oluvchining xohishiga ko’ra, qo’yilgan savol masalalarining javoblari, grafiklari, diagrammalarini kompyuter ekraniga chiqarish mumkin. Darslik tarkibi bir qancha nazariyalar blokini, o’z-o’zini tekshirish uchun savollar va ularning javoblarini, test savollari va hisoblash uchun masalalarni o’z ichiga oladi [7].

**Muhokama va natijalar.** Zoologiya fani bo’yicha yaratilgan innovatsion elektron darsliklarning an’anaviy darslikdan asosiy farqlaridan biri uni ishlab chiqarishda, majmuaviy va jamoaviy yondoshuvning mavjudligidir. Haqiqatdan ham, agar an’anaviy darslik bitta muallif tomonidan yaratilishi mumkin bo’lsa, elektron darslik bir yoki bir necha mualliflar tomonidan emas, balki bir qator mutaxassislardan iborat alohida ijodiy jamoa tomonidan yaratiladi [8]. Shuningdek, innovatsion elektron darsliklar – bo’lajak biologiya fani o’qituvchilarining bilim olishi va mustaqil ishlash uchun zarur, chunki u:

– o’rganilayotgan materialni an’anaviy qog’ozga chop etilgan o’quv adabiyotlariga nisbatan boshqacha: induktiv yondoshish, eshitish, emotsional xotiralarga ta’sir qilish yo’llari bilan materialni yetkazish hisobiga uni tushunishni yengillashtiradi;

– talabalarining ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga va ambitsiyalariga mos holda ko’niktiradi;

– fanning mohiyatiga diqqatni jalb etgan hamda ko’p sondagi misollarni ko’rib chiqish va ko’proq masalalar yechishga imkon yaratgan holda, murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi;

– o’rganishning hamma bosqichlarida o’z-o’zini tekshirib ko’rish uchun keng imkoniyatlar beradi;

– ishni chiroyli va aniq rasmiylashtirilishiga hamda uni o’qituvchiga fayl yoki qog’ozga chop etgan holda topshirishga imkon beradi;

– o’ta toqatli ustoz rolini cheklanmagan tushuntirishlar, sanoqsiz takrorlashlar, eslatishlarni taqdim qilgan holda bajaradi [9].

Ayniqsa, innovatsion elektron darsliklar zoologiya fani bo’yicha tashkil etiladigan laboratoriya, amaliy mashg’ulotlar uchun juda qulay, chunki u:

– kompyuterli qo‘llab-quvvatlashlardan foydalangan holda, katta miqdordagi masalalarni yechishga, topilgan yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan vaqtdan ozod bo‘lishiga;

– o‘qituvchiga o‘zida rahbarlik va maslahatchi (konsultant) rolini qoldirgan holda, kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg‘ulot o‘tkazishga;

– o‘qituvchiga tekshirish tadbirlari tarkibi va murakkablik darajalarini belgilagan holda kompyuter yordamida talabalar bilimni tez va samarali nazoratdan o‘tkazishga imkon beradi.

Shu sababli, innovatsion elektron darsliklarni o‘qituvchi uchun juda qulay ta’lim resursi deyish mumkin, chunki u:

– ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zining xohishi bo‘yicha hajmi jihatidan kichik, ammo tarkibi bo‘yicha o‘ta muhim bo‘lgan materiallarni yetkazishiga, auditoriya mashg‘ulotlari doirasidan tashqari o‘rganish mumkin bo‘lgan masalalarni mustaqil shug‘ullanishlari uchun qoldirgan holda yetkazishga imkon beradi;

– mustaqil ta’lim topshiriqlarini va nazorat ishlarini tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan ozod etadi;

– auditoriyada bajariladigan va uyga topshiriladigan misol va vazifalar nisbatini optimallashtirishga imkon beradi;

– talabalar bilan mustaqil va nazorat tadbirlariga oid ishlashni individuallashtirishga imkon beradi.

Innovatsion elektron darsliklarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va o‘quv jarayonida keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta’lim sohasida qo‘llanila boshlandi.

Bugungi kunda yaratilayotgan innovatsion elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

• matnning elektron versiyasi;

• kitobning gipermatnli elektron versiyasi;

• grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;

• animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;

• animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Innovatsion elektron darsliklarning an’anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

1. O‘quv axborotlarining taqdim etilish shakli.

2. Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati.

3. Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi.

4. O‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi.

Shulardan kelib chiqib, innovatsion elektron darsliklarni yaratishning quyidagi *tamoyillarini* keltirish mumkin:

• multimedia ma’lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;

• qidirish va yo‘llash imkoniyatlarini kiritish;

• olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning ob’yektiv tizimini kiritish;

• tarmoq texnologiyalari asosida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro interaktiv va teskari aloqasining yo‘lga qo‘yilishi.

Zoologiya ta’limida innovatsion elektron darsliklardan o‘quv jarayonida keng foydalanishning asosiy muammosi - bu kompyuter ekranidan katta hajmdagi axborotlarni o‘qishdir [10]. Ushbu muammoni hal qilish uchun elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida taqdim etish mumkin. Bu ikki usul bitta o‘quv materialini turli shaklda taqdim etishi bilan farqlanadi, xolos. Innovatsion elektron darslikning matn usulida material, gipermatn ko‘rinishida taqdim etilib, unda rrafik, chizma, diagramma, fotografiya, animatsiya va video qo‘llaniladi.

Zoologiya faniga doir innovatsion elektron darsliklarni yaratishda quyidagi bosqichlarga amal qilish tavsiya etiladi:

- fanga oid manbalarni tanlab olish;

- manbalardan foydalanish va qayta ishlash huquqi to‘g‘risida shartnomalar tuzish;

- mundarija va tushunchalar ro‘yhatini ishlab chiqish;

- bo‘limlardagi (modullardagi) matnlarni qayta ishlash va yordam berish bo‘limini tuzish;

- gipermatnli elektron shaklda amalga oshirish;

- kompyuterli qo‘llab-quvvatlanishni ishlab chiqish;

- materiallarni multimediyali obyektlarga keltirish uchun tanlab olish;

- tovush jo‘rligida amalga oshirishni ishlab chiqish va tatbiq etish;

- materialni vizuallashtirish uchun tayyorlash;

- elektron darslikdan foydalanishga tayyorlash;

- o‘qitish metodikasini ishlab chiqish.

Shuningdek, innovatsion elektron darsliklarni ishlab chiqish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

1-bosqich. Zoologiya fani bo'yicha innovatsion elektron darsliklar o'qituvchi tomonidan to'liq tanishilgan holda tanlanishi kerak. Elektron darslikning sifati bevosita uning yaratilishida qo'llanilgan videoaudioanimatsiyalardan qanchalik samarali foydalanilganligiga bog'liq. Shuning uchun elektron darslikni yaratishda ijodiy guruh a'zolari hamda fan o'qituvchilarining yetarli darajada bilimdonligi alohida ahamiyatga ega. Kompyuterdagi amaliy mashg'ulotlar umumiy hajmning 65-70 % ni tashkil etishi kerak.

2-bosqich. Innovatsion elektron darslikni yaratish bo'yicha ijodiy jamoani tashkil etish. Ijodiy guruh-bo'lajak jamoa a'zolarining elektron darslik yaratishga tayyorgarligini, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalardan to'liq xabardor ekanligini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Elektron darslikning dizayn va texnik talablari, sifatiga bevosita ta'sir qilishini e'tiborga olib, ijodiy guruhni quyidagi tartibda shakllantirish mumkin: - muayyan fan bo'yicha pedagog yoki pedagoglar guruhi; - dasturlovchi yoki dasturlovchilar guruhi; - badiiy-dizayner; - pedagog-psixolog. Zarur hollarda, ijodiy guruh tarkibiga s'yomka qiluvchi operatorlar guruhi, s'yomka rejissyori va ovoz beruvchi diktorlarni ham kiritish mumkin.

3-bosqich. O'quv kursini tarkiblash (strukturizatsiyalash) lozim. Bu bosqichda, elektron darslikda o'quv materialini o'rnatilgan modullar talablariga mos, bo'limlar bo'yicha materiallar taqsimlangan, hajm bo'yicha kichik, lekin mazmun bo'yicha keng bo'lishi kerak. Ularga kalit so'zlari, iboralar va izohlarni ham kiritish kerak.

4-bosqich. Innovatsion elektron darsliklarni yaratish uchun yondoshuvlarni tanlash. a) individual yondoshuv. Bunda elektron darslik-yaxlit majmua sifatida yaratiladi, ya'ni kompyuterning o'qitish dasturidagi alohida modul va bezaklariga mos. b) davomli yondoshuv. Mazkur yondoshuvda elektron darslik avvaldan mavjud dastur - qobiq asosida yaratiladi.

5-bosqich. Innovatsion elektron darslikning rejasi, o'quv-uslubiy ssenariysi texnik va psixologik-pedagogik talablar asosida bo'lishiga ahamiyat berish kerak.

6-bosqich. Yaratilgan elektron darslikni taqrizdan va aprobatsiyadan o'tkazish.

7-bosqich. Olingan taqriz va takliflar ustida ishlash.

8-bosqich. Innovatsion elektron darslikni ekspertizadan o'tkazish. Elektron darslik maxsus ekspertizadan-elektron darsliklarga qo'yiladigan talablar asosida o'tadi va unga toifa beriladi.

9-bosqich. Tasdiqlash (Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan).

10-bosqich. Innovatsion elektron darslikni davlat reestriga kiritish va tugallangan dasturmahsulot sifatida ko'paytirish [11].

Innovatsion elektron darslikni yaratish jarayonida *psixologo-pedagogik, texnik-texnologik, estetik va ergonomik* talablar qo'yiladi. Elektron darslik, o'quv va uslubiy kullanna kabi an'anaviy o'quv nashrlariga kuyilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. Didaktik talablar ta'lim berishning spesifik konuniyatlariga va mos ravishda ta'lim berishning didaktik tamoyillariga mos kelishi kerak. Quyida innovatsion elektron darslikka bulgan an'anaviy didaktik talablar keltirilgan:

- o'qitishda ilmiylikni, fan, texnika va texnologiyalarni so'nggi yutuklarni xisobga olish o'quv materialini mazmunning yetarlicha chukurligini, ishonchliligini ta'minlaydi. O'quv materialini elektron darslik yordamida uzlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari bilan mos ravishda kurulishi kerak. Masalan tajriba, eksperiment, solishtirish, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, uxshashlik, taxlil va sintez, modellashtirish uslubi, shu bilan birga matematik modellashtirish, shuningdek tizimli taxlil uslubi.

- *o'qitishning erishuvchanlik talablari* – innovatsion elektron darslik vositasida amalga oshiriladi va talabalar yoshga va individual xususiyatlariga xos o'quv materialini urganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruriyatini bildiradi. O'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, unda ta'lim oluvchi bu materialni egallashga ojizlik qiladi.

- *o'qitishning muammoylinini ta'minlash talablari* - ta'lim olish faoliyatining tavsifi va mavjudligi bilan shartlashtirilgan. Agar talaba ijozat surashni talab qiluvchi o'quv muammoli vaziyat bilan duch kelsa, uning fikrlash faolligi usadi. Ushbu didaktik talabni bajarilish darajasi, an'anaviy darsliklar va qo'llanmalarni qo'llashdan ko'ra, elektron darslik yordamida bajarish sezilarli darajada yuqori bulishi mumkin.

- *o'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlash talablari*, talabalar tomonidan o'rganilayotgan obyektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilishi va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

- o'qitishni ongliligini, ta'lim oluvchining mustaqilligi va faoligini ta'minlash talablari.

- o‘quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o‘quv axborotini jalb qilish bo‘yicha talabalarning mustaqil holatini elektron darslik vositalari bilan ta‘minlashni ko‘zda tutadi. Bunda talaba uchun o‘quv faoliyati yunaltirilgan mazmunini anglatadi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishda ta‘lim jarayonlarini zamonaviy ta‘lim resurslari va vositalari, xususan, innovatsion elektron darsliklarni yaratish va joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Zero, axborotlashgan jamiyatda mamlakat istiqbolini ta‘minlaydigan asosiy omillardan biri bu - innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta‘lim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Абдурахманова Ш.А. Технология создания электронных образовательных ресурсов. Учебник. – ГРИФ № 133-237. –Т.: Навруз, 2020. – С. 204.
2. Begimqulov U., Sharipov Sh., Mamarajabov M.. Elektorn axborot-ta‘lim resurslarini yaratish va joriy etish. Qo‘llanma. Toshkent. “BAYOZ” 2011.
3. Яковлев Е.В. Педагогическая концепция: методологические аспекты построения / Яковлев Е.В., Яковлева О.Н. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2006. – 239 с.
4. Назаров М.М. Массовая коммуникация и общество. Введение в теорию и исследования / М.: Аванти-плюс, 2003;
5. David M.Marcovitz. “Powerful Power Point for Educators: Using Visual Basic for Applications to Make Power Point Interactive”. Westport, Connecticut • London. 2004. 17 p.
6. Asallayev O.Kh. Methodology of using electronic information educational resources in biology education. // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Hosted from New York, USA. August, 28th 2023.
7. Визуальные коммуникации в рекламе и дизайне. Автор: Пигулевский Виктор Гуманитарный центр, 2011 г., 404 с.
8. Asallayev O.Kh. Methodology of using web-quest technology in the educational system. // International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities Hosted from Barcelona, Spain. August, 26th 2023.
9. Syed Mahbubur Rahman. “Multimedia Technologies: Concepts, Methodologies, Tools, and Applications” Minnesota State University, Mankato, USA 2008.
10. Asallayev O.Kh. Theoretical Principles Of Improving The Professional Training Of Future Biological Science Teachers // The Electronic Information Education Environment. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 21, August , 2023.
11. Shashank Khanvilkar, Faisal Bashir, Dan Schonfeld, and Ashfaq Khokhar. Multimedia Networks and Communication. University of Illinois at Chicago. 2003.



## RAHBAR XODIMLARDA STRESS HOLATINI BARTARAF ETISHGA YO‘NALTIRILGAN IJTIMOY-PSIXOLOGIK TRENING DASTURI VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

*Fayziyev Zohiddin Hasanboyevich,  
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti*

*Maqolada rahbar va xodimlar shaxsida namoyon bo‘ladigan stress holati darajalari ijtimoiy-psixologik treningni qo‘llash orqali uning samaradorlik ko‘rsatkichlari empirik tadqiq qilinganligi va undan olingan natijalar batafsil yoritilgan. Empirik o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, rahbar va uning qo‘l ostidagi xodimlar faoliyatida stressli kechinmalarni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan bosqichli psixokorreksion dasturning qo‘llash orqali treningdan oldingi va treningdan keyingi natijalar tahlili, solishtirma jadvallar mazkur maqolada o‘z ifodasini topdi.*

**Kalit so‘zlar:** stress, stressli kechinmalar, stress darajasi, trening, psixokorreksion dastur.

## ПРОГРАММА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ТРЕНИНГА, НАПРАВЛЕННАЯ НА ЛИКВИДАЦИЮ СТРЕССОВОГО СОСТОЯНИЯ У РУКОВОДИТЕЛЕЙ И ОЦЕНКА ЕЁ ЭФФЕКТИВНОСТИ

*В статье подробно описаны эмпирические исследования уровня стресса, проявляемого руководителями и сотрудниками, эффективности социально-психологического тренинга и полученных от него результатов. Эмпирические исследования показали, что анализ пред- и посттренировочных результатов применения поэтапной психокоррекционной программы, предназначенной для устранения стрессовых переживаний в работе руководителя и его подчиненных, а также сравнительные таблицы представлены в данной работе.*

**Ключевые слова:** стресс, стрессовые переживания, уровень стресса, тренинг, психокоррекционная программа.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL TRAINING PROGRAM AIMED AT ELIMINATING STRESS IN MANAGERS AND ASSESSING ITS EFFECTIVENESS

*The article describes in detail empirical studies of the level of stress exhibited by managers and employees, the effectiveness of socio-psychological training and the results obtained from it. Empirical studies have shown that the analysis of pre- and post-training results of the use of a step-by-step psychocorrection program designed to eliminate stressful experiences in the activities of the manager and his subordinates, and comparative tables are expressed in this article.*

**Keywords:** stress, stressful experiences, stress level, training, psychocorrectional program.

**Kirish.** Stress fenomeni ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida XIX-asrning 60-70 yillarida fanda dolzarb masala tariqasida tanlanib, hozirga qadar jahon psixologiyasi fanida turli psixologik ta’limot va konsepsiyalar doirasida o‘rganib kelinmoqda.

**Maqola mavzusining dolzarbligini va zarurati.** Tashkilotlarda boshqaruv tizimini tizimli tashkil etish, psixologik barqaror kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifati qaralmoqda. Bu borada rahbar va hodimlarda namoyon bo‘ladigan stressli kechinmalarni aniqlash va uni bartaraf etish choralarni izlab topish, ilmiy jihatdan tahlil etish va uning salbiy jihatlari bilan bog‘liq ijtimoiy-etnik omillarni aniqlash muammosi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Mavzu bo‘yicha olimlar izlanishlarining qisqacha tahlili.** Shaxsda namoyon bo‘ladigan stressli kechinmalarni o‘zbek olimlaridan M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, V.M.Karimova, D.G.Muxamedova, B.M.Umarov, Z.Nishonova, A.I.Rasulov, O.E.Xayitov, E.Z.Usmanova, E.Usmanov, R.Samarov, B.Sirliyev, N.Boymurodov, I.Mahmudov, D.S.Qarshiyeva va N.Z.Ismoilova va boshqalar tomonidan milliy psixologiyada tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda stress va stressli omillar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari aniq, tizimli ravishda asoslab berilgan. Lekin aynan rahbar faoliyatidagi stress va uni bartaraf etish yo‘llari hamda ijtimoiy-psixologik mexanizmlari mazkur ilmiy izlanishlarda alohida tadqiqot predmeti sifatida tahlil qilinmaganligi ushbu muammoga alohida yondashuvni talab etadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan S.V.Subbotin, V.L.Marishuk, L.A.Kitayev-Smik, Sh.Ye.Melnik, B.X.Vardanyan, V.A.Bodrov, L.V.Kulikov, K.V.Sudakov va

boshqalarning ilmiy izlanishlarida stress terminiga oid ilmiy atamalar va uni namoyon bo‘lish determinanlari batafsil yoritib berilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan G.Sele, Dj.S.Everli, T.Koks, Dj. Atkinson, Z.Freyd, E.Fromm va boshqalar stressni keltirib chiqaruvchi omillar, uni bartaraf etish mexanizmi, yengish usullari va strategiyasini ilmiy tadqiq etganlar.

**Muallif olib borgan tadqiqotning asosiy mazmuni.** Tadqiqot maqsadini amalga oshirishda belgilangan vazifalarni bajarish uchun korreksion bosqichda ma’lum bir shkalalar, ya’ni xavotirlanish, stressni yaqqol ifodalanishi, subdepressiya, va kasbiy stress bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan (122 nafar) rahbar va xodimlar bilan korreksion treninglar amalga oshirildi.

Treningning asosiy maqsadi rahbar va xodimlarning stressga barqarorligini shakllantirish hamda stressni yengish mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat edi. Shunga ko‘ra, trening vazifasi sifatida quyidagilar belgilandi: kasbiy stress darajalarini meyorlashtirish; stressga nisbatan barqarorlikni oshirish va toliqish–zerikish–tanglik-stress omillarini kamaytirish; psixokorreksion mashqlardan so‘ng sinaluvchilardagi o‘zgarishlarni qayd qilish va baholash ishlari olib borilgan.

Psixokorreksion kompleks dasturi yordamida amalga oshirildi. Mashg‘ulot bir-biriga bog‘liq bo‘lgan to‘rt bosqichdan iborat bo‘ldi. Bular: tayyorgarlik (diagnostik) bosqich; korreksion bosqich; korreksion faoliyatni samaradorligini aniqlovchi bosqich; yakunlovchi (baholovchi) bosqichlar shakllantirildi.

Trening o‘tkazilganidan ikki haftadan so‘ng sinaluvchilarda postdiagnostika o‘tkazildi. Postdiagnostika bo‘limiga D.Fotanning “Kasbiy stressni aniqlash shkalasi” metodikasi, N.V.Kirsheva va N.V.Ryabchikovalarning “Shaxsning stressga barqarorligini aniqlash” testi va A.B.Leonovanning “Toliqish–zerikish–tanglik-stress” so‘rovnomalari qo‘llanildi.

Asosiy respondentlar orasidan korreksiyaga muhtoj bo‘lgan sinaluvchilar tanlab olindi va ularning natijalarini korreksiyadan oldingi hamda korreksiyadan keyingi metodikalar tahlilini ishonch darajasidagi farqlar bilan solishtirildi. Natijalar tahliliga ko‘ra quyidagi holatlar kuzatildi.

**D.Fotanning “Kasbiy stressni aniqlash shkalasi” metodikasi bo‘yicha tajriba guruhidan olingan natijalarning qiyosiy tahlili (n=122)**

1-jadval.

Kasbiy stress shkalasi	Guruhlar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
		M <sup>1</sup>	S <sup>1</sup>	M <sup>2</sup>	S <sup>2</sup>	t	p
Yuqori daraja	Tajriba guruhi (n=122)	52,5	4,5	35,4	3,2	-2,9	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	45,1	5,2	34,5	4,0	-1,0	0,14
O‘rta daraja	Tajriba guruhi (n=122)	34,7	1,4	30,2	1,2	-2,7	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	34,5	1,5	18,6	1,3	-1,2	0,13
Past daraja	Tajriba guruhi (n=122)	19,3	1,2	16,8	1,0	-2,2	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	15,8	1,5	13,5	1,2	-1,1	0,26

Izoh: \*-p <0,05, \*\*-p <0,01, \*\*\*-p <0,001

Rahbar va xodim sinaluvchilar orasidan ajratib olingan, natijasi salbiy ko‘rsatkichga ega “tajriba” guruhi (n=122)da ham kuzatuvda olingan “nazorat” guruhi (n=200)da ham kasbiy stressni bartaraf etish, yengish va kurashishga bo‘lgan ishtiyoq o‘tkazilgan eksperimentlardan so‘ng ko‘rsatkichlar ijobiy o‘zgarishga ega bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, “tajriba” guruhida kasbiy stress natijasi treningdan avval umumiyning o‘rtacha ko‘rsatkichi 35,5 ballni tashkil etgan bo‘lsa, treningdan keyingi natija esa, 27,4 ballga pasayganligini ko‘rishimiz mumkin(\*p≤0,05).

**N.V.Kirsheva va N.V.Ryabchikovalarning “Shaxsning stressga barqarorligini aniqlash” testi bo‘yicha tajriba guruhidan olingan natijalarning qiyosiy tahlili (n=122)**

2-jadval.

Stressga barqarorlik darajasi	Guruhlar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
		M <sup>1</sup>	S <sup>1</sup>	M <sup>2</sup>	S <sup>2</sup>	t	p
Yuqori daraja	Tajriba guruhi (n=122)	34,2	5,0	21,0	5,2	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	30,5	4,2	22,6	4,8	-1,4	0,12
O‘rta daraja	Tajriba guruhi (n=122)	34,3	4,8	33,9	3,9	-2,8	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	41,8	3,9	34,3	3,3	-1,6	0,15
Past darajada	Tajriba guruhi (n=122)	52,8	2,5	19,0	1,0	-2,7	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	46,1	3,7	20,1	1,1	-1,3	0,33

Izoh: \*-p <0,05, \*\*-p <0,01, \*\*\*-p <0,001

Ushbu metodika bo'yicha stressga barqarorlik darajasi past sinaluvchilar orasidan ajratilgan “tajriba” guruhi (n=122)da va “nazorat” guruhi (n=200)da trening mashg'ulotlaridan so'ng natijalari yuqori barqarorlik darajasiga o'sganligiga guvoh bo'lindi (\*p≤0,05). Demak, “tajriba” guruhida stressga nisbatan barqarorlik darajasi treningdan avval umumiyning o'rtacha ko'rsatkichi 36,7 ballni tashkil etgan bo'lsa, trening mashg'ulotlaridan keyin esa, 24,6 ballga pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

**A.B.Leonovanning “Toliqish–zerikish–tanglik-stress” so'rovnomasi bo'yicha tajriba guruhidan olingan natijalarning qiyosiy tahlili (n=122)**

3-jadval.

Psixologik holatlar	Guruhlar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
		M <sup>1</sup>	S <sup>1</sup>	M <sup>2</sup>	S <sup>2</sup>	t	p
Toliqish	Tajriba guruhi (n=122)	22,2	3,4	15,3	3,1	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	20,4	4,2	14,8	3,6	-1,4	0,21
Zerikish	Tajriba guruhi (n=122)	24,1	4,4	19,4	3,8	-1,7	0,10
	Nazorat guruhi (n=200)	23,8	5,3	18,3	4,7	-1,2	0,52
Tanglik	Tajriba guruhi (n=122)	28,5	3,7	18,6	2,9	-2,8	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	26,6	4,9	17,9	4,1	-1,1	0,49
Stress	Tajriba guruhi (n=122)	32,1	3,1	16,7	2,2	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	30,3	3,6	17,2	2,5	-1,1	0,62

**Izoh:** \*-p <0,05, \*\*-p <0,01, \*\*\*-p <0,001

O'tkazilgan psixotrening mashg'ulotlari o'z natijasini berganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Sinaluvchilarda ushbu metodika natijalari ham ijobiy ko'rsatkichga o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin (\*p≤0,05). Demak, natijalar empirik tahlil qilinganda quyidagicha namoyon bo'ldi. “Tajriba” guruhi sinaluvchilarida “toliqish”, “zerikish”, “tanglik”, va “stress” holati trening mashg'ulotlaridan oldin o'rtacha ko'rsatkich yuqori ya'ni 26,7 ballda ifodalangan bo'lsa, treningdan so'ng esa, 17,5,6 ballni tashkil etdi. Bu o'z-o'zidan ma'lumki, olib borilgan psixokorreksion ishlar ijobiy natija berganligidan dalolatdir.

**Xulosa.** Rahbar-xodimlar jamoasida maqsadni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat bosqichlari, ijtimoiy-psixologik treninglar mexanizmi (modeli), ya'ni korporativ va individual treninglar hamda ssenariylar majmuasi o'zining samaradorligi, qulayligi va maqsadga yo'nalganligi bilan tarbiyaviy afzalligini tasdiqladi. Rahbar-xodim shaxsiy fazilati va xulq-atvoridagi salbiy ko'rinishlarni va ular psixikasida yuzaga kelgan hissiy-irodaviy o'zgarishlar yoki noto'g'ri yo'nalganlik bilan bog'liq muammoli masalalarni yechish amaliyotida korporativ hamda individual treninglarning samarasi va ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi.

#### Adabiyotlar:

1. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. 136 с. 20.
2. Зильберман П.Б. Эмоциональная устойчивость оператора /П.Б. Зильберман //Очерки психологии труда оператора. - М.: Наука, 1994. -С. 138-172.
3. Маришук В.Л., Евдокимов В.И. Поведение и саморегуляция человека в условиях стресса. - СПб., 2001. - 290 с.
4. Мельник Ш.Е. Стрессоустойчивость. Как сохраняют спокойствие и эффективность в любых ситуациях. - М.: «МИФ», 2014. - 240 с.
5. Селье Г. Стресс без дистресса.–М.: Прогресс. 1999. -134с.
6. Субботин С.В. Устойчивость к психическому стрессу как характеристики метаиндивидуальности учителя. Дис...канд. психол. наук: 19.00.07 / С.В. Субботин Пермь, 2012 152 с.
7. Черепанова Е. М. Психологический стресс. М.: «Академия», 1997. С.61- 62.
8. Эверли Дж.С. Стресс: природа и лечение. Пер.с англ. /Дж.С.Эверли, Р.Розенфельд. - М.: Медицина, 2013. – 224 с.
9. Варданян Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости // Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. – М. Дело, 2011. – 194 с.

## O‘QITUVCHINING INDIVIDUAL TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHDA “MALAKA OSHIRISH YO‘L XARITASI” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

*Ibragimov A‘lamjon Amrilloevich,*  
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi  
direktori, pedagogika fanlari doktori, dotsent  
alamjonibragimov@gmail.com

*Mazkur maqolada o‘qituvchi ta‘limini individuallashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, uning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashda innovatsion yondashuv sifatida malaka oshirish yo‘l xaritasini tuzish va amalga oshirish texnologiyasi imkoniyatlari yoritilgan. Jumladan, malaka oshirish yo‘l xaritasining qo‘llanilishi, afzalliklari va tuzilmasi keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *individuallashtirish, individual ta‘lim trayektoriyasi, loyihalash, yo‘l xaritasi, malaka oshirish yo‘l xaritasi, tuzilmasi.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ «ДОРОЖНОЙ КАРТЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ» ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ТРАЕКТОРИИ ПЕДАГОГА

*В данной статье освещены особенности индивидуализации педагогического образования, возможности разработки и реализации дорожной карты профессионального развития как инновационного подхода в проектировании индивидуальной образовательной траектории. В частности, представлены применение, преимущества и структура дорожной карты повышения квалификации.*

**Ключевые слова:** *индивидуализация, индивидуальная траектория обучения, проектирование, дорожная карта, дорожная карта повышения квалификации, структура.*

## UTILIZATION OF “SKILL DEVELOPMENT ROAD MAP” TECHNOLOGY IN FORMULATING THE TEACHER’S INDIVIDUAL TRAJECTORY

*This article highlights the specific features of individualizing teacher education and explores the possibilities of developing and implementing a professional development roadmap as an innovative approach to designing individual education trajectories. The article specifically presents the training road map’s application, advantages and structure.*

**Keywords:** *individualization, individual learning trajectory, design, road map, training road map, structure.*

**Kirish.** Pedagogning malaka oshirishini rejalashtirishning innovatsion qurilmalarini yaratish va tatbiq qilish tizimni boshqarishning moslashuvchanligini kafolatlash, mumkin qadar individuallashtirish, ta‘lim tizimi va subyektlariga qo‘yiladigan talablarning o‘zgaruvchanligiga tezkor va adekvat munosabat bildirish, uning shaxsiy potensialini to‘lig‘icha safarbar qilish, maqsadga erisha olmaslik hamda vazifalarni bajara olmaslik darajasini mumkin qadar pasaytirish, doimiy tahlil va nazorat qilib borish, umumiy holda o‘qituvchining kasbiy rivojlanish individual ta‘lim trayektoriyasini amalga oshirish jarayonini takomillashtirishga sharoit hozirlaydi.

Malaka oshirish ta‘limini individuallashtirish maktab o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ehtiyojiga ko‘ra o‘quv modullari va o‘zlashtirishini nazorat qilish usullarini tanlash jarayonida faol ishtirokini nazarda tutadi. Zamonaviy ta‘lim paradigmalarining muhim jihatlaridan biri nazariy materiallarning amaliyot ko‘rgazmaliligi bilan o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro bir-birini to‘ldirishi asosida belgilanadi. Bunday sharoitlarda pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirishga mas’ul tuzilmalar tegishli ta‘lim dasturlari va zaruriy taomillarni samarali joriy qilishlari uchun o‘quv mazmunining variativligini ta‘minlashi hamda ularni amalga oshirishning turli shakllarini taklif etish imkoniyatiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

**Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlili.** Yuqorida keltirilgan fikrlar hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar [1, 78-b.; 3, 184-b.; 5, 83-84-b.; 6, 92-b.] tahlili *malaka oshirish ta‘limini individuallashtirish* deganda, o‘qituvchilarning potensial imkoniyatlarini rivojlantirishni, individual xususiyatlari, ehtiyojlari va motivlarini inobatga oladigan, shaxsiy va kasbiy sifatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan hamda o‘z

oldiga qoʻygan taʼlimiy maqsad hamda vazifalari asosida individual taʼlim trayektoriyasini qurishga sharoit yaratiladigan tabaqalashtirilgan taʼlim jarayoni sifatida tushunishimizga imkon yaratdi.

Demak, malaka oshirish taʼlimi jarayonini individuallashtirish tobora dolzarblashib borar ekan, uning samarali yechimlaridan biri har bir oʻqituvchiga individual taʼlim trayektoriyasini qurishga sharoit yaratishdan iborat boʻladi. *Individual taʼlim trayektoriyasi* – oʻqituvchining taʼlim jarayonida shaxsiy potensialini amalga oshirishi, kasbiy takomillashuvi, oʻz mavqeini belgilashi va oʻzini namoyon qilishiga doir belgilagan, anglangan va tajribalariga asoslangan oʻziga xos alohida harakat yoʻlini ifoda etadi.

Shu oʻrinda yana bir muhim jihatga eʼtibor qaratish joiz. Oʻqituvchi kasbiy rivojlanishini individuallashtirishda uning loyihalash koʻnikmasiga ega boʻlishi alohida ahamiyatga ega, chunki loyihalash orqali oʻz faoliyatini rejalashtirish, maqsad hamda vazifalarini qoʻyish va natijalarini bashorat qila olish, uzluksiz malaka oshirishining shakli va mazmunini belgilash hamda tanlashiga erishishi mumkin boʻladi.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini taʼminlovchi muhim shartlardan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish, natijalarni oldindan koʻra bilish, rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda oʻqituvchining mustaqil, shu bilan birga hamkorlikda oʻquv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi oʻrin tutadi [7; 106-b.].

Oʻqituvchining individual taʼlim trayektoriyasini loyihalashda unga ilmiy-metodik hamrohlik qilish, maslahatchi va tegishli mutahassislar bilan faol oʻzaro taʼsirni vujudga keltirish, kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan metodik tadbirlar (anʼanaviy va masofaviy malaka oshirish kurslari rejasi, metodik tuzilmalarning tadbirlari, harakatdagi oʻquv mashgʻulotlari, virtual pedagogik uyushmalar, konferensiya, forum, seminar va b.) haqida aniq manzilli maʼlumotlar yetkazish lozim boʻladi.

Mazkur holatda jarayonga innovatsion yondashuv sifatida “yoʻl xaritasi” texnologiyasiga toʻxtalish oʻrinlidir. Pedagogning individual taʼlim trayektoriyasini loyihalashtirishda “yoʻl xaritasi” texnologiyasidan (Roadmap, Roadmapping, Technology roadmap) foydalanish ularning malaka oshirish faoliyatini innovatsion rejalashtirish, shaffoflashtirish va natijalarga erishishda shaxsiy tanlovi va masʼuliyatini belgilash imkonini beradi.

Tadqiqotchilar tomonidan mazkur atamaga oid bildirilgan fikrlarga murojaat qilganimizda, uni jarayonni rejalashtirishning eng ilgʻor va natijaga yoʻnaltirilgan qurilmalaridan biri sifatida eʼtirof etilishiga guvoh boʻldik. Jumladan, Yu.Kuzikning koʻrsatishicha *yoʻl xaritasi* – aniq obyekt, alohida mahsulot, mahsulotlar guruhi, biror-bir texnologiya, oʻzaro bogʻlangan texnologiyalar guruhi, biznes, kompaniya, tarmoq, sanoat, hattoki siyosiy, ijtimoiy muvaffaqiyatlar rejasi ssenariysining qadam-baqadam yaqqol taqdim etilishidir [2; 1-b.].

Bir qator tadqiqotchilar (I.N.Pak, Y.G.Doroshenko, L.B.Xegay) esa “oʻquv yoʻl xaritasi” tushunchasini loyihalashgan metodik tizimda oʻqitish sifatini oshirish va individuallashtirishning samarali vositasi sifatida qaraydilar. Ularning fikricha *yoʻl xaritasi* – yechimi umumiy maqsadga erishishga olib boradigan hamda tashabbuslarni kuzatib borishga imkon beradigan indikator hamda vazifalarning tuzilmaviy toʻplamidir. Yoʻl xaritalari loyihalar rivojlanish jarayoni harakatlar rejasining bosqichlari koʻrinishida tuzishning qulay metodi sifatida namoyon boʻladi. Yoʻl xaritalarini tuzish jarayoni loyiha rivojlanishining istiqboldagi maqsadlarini aniqlashtirish va ularni amalga oshirishning yoʻllarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Demak, yoʻl xaritasini avval qoʻllanilgan texnologiyalardan foydalanishning yangi yoʻllarini hosil boʻlishini taʼminlaydigan, tartiblangan axborotni yigʻish va jamgʻarish orqali uzoq muddatli strategik rejalashtirish vositasi sifatida qarash lozim. Yoʻl xaritasi resurslar, bajaruvchilar va muddatlar bilan bogʻliq barcha tadbirlar qatʼiy koʻrsatilgan odatiy reja va dasturlardan farqli ravishda rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan yangi gʻoyalar, texnologiyalar, resurslar asosida oxirgi natijaga erishishning variativligini nazarda tutadi. Yoʻl xaritasini tuzish oʻquvchiga rejalashtirilgan oʻquv faoliyatini vizuallashtirish vositasida oʻzining akademik kelajagini koʻrishga yordam beradi hamda individual taʼlim trayektoriyasini masʼuliyat va ishonchli loyihalashga oʻrgatadi [4; 104-105-b.].

**Tadqiq va natija.** Oʻqituvchining malaka oshirish yoʻl xaritasi va texnologiyasini taʼriflashda matnda bayon qilingan yondashuvlarni tadqiq qilgan holda quyidagi natijalarga keldik.

*Malaka oshirish yoʻl xaritasi* – oʻqituvchining aniq maqsadga yoʻnaltirilgan, shaxsiy masʼuliyatiga asoslangan, kasbiy rivojlanishining eng muhim aspektlariga eʼtibor qaratiladigan, malaka oshirish turi, shakli va vositalarini erkin tanlash, ishlab chiqish va amalga oshirish hamda kutilgan natijalarga erishishining manzilli loyihalashgan individual taʼlim trayektoriyasidir.


*Malaka oshirish yoʻl xaritasi texnologiyasi* moslashuvchanlikni nazarda tutib, oʻqituvchining vizual individual taʼlim trayektoriyasini mavjud va maʼqul boʻlgan yoʻllar, shakl, metod, vositalar asosida maslahatchining ilmiy-metodik hamrohligida mustaqil tuzish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va

chuqurlashtirish hamda loyihalangan individual ta’lim marshrutini belgilangan muddatlarda amalga oshirishni ifodalaydi.

Malaka oshirish yo’l xaritasi texnologiyasi malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllarini erkin tanlash, ta’lim muassasasi va kasbiy uyushmalardagi faoliyati, masofadan o’qish va axborot resurslaridan foydalanish, turli tadbirlar va metodik ishlardagi ishtiroki, o’qitishning an’anaviy va innovatsion metod va usullaridan hamda mustaqil ta’limdan keng foydalanish va uyg’unlashtirish mumkinligi kabi afzalliklarga ega.

Malaka oshirish yo’l xaritasi o’qituvchi kasbiy rivojlanishiga samarali ilmiy-metodik hamrohlikni amalga oshirish, jarayon ishtirokchilarining o’zaro ta’sirini muvaffaqiyatli tashkil qilish, “boshlang’ich” va “yakuniy” manzil(maqсад va natija)larni belgilashning optimal trayektoriyasini tanlash imkonini beradi. Yo’l xaritasi o’qituvchining kasbiy rivojlanishiga doir strategik qaror qabul qilish va amalga oshirishning detallashtirilgan rejasini nazarda tutadi. Yo’l xaritasini ishlab chiqishda “maqсад – tashxis – rejalashtirish – amalga oshirish - takomillashtirish” shaklidagi tuzilmaviy yondashuv zarur bo’lib, u quyidagi savollarga javob topish imkonini beradi: Kasbiy mahoratim (kompetentligim yoki kompetentsizligim) darajasi qay holatda? Pedagogik faoliyatimdan maqsad va vazifalarim nimalardan iborat? Kasbiy kompetentlik darajam qanday bo’lishi kerak? Bu darajaga qanday erishaman? Nima uchun harakat qilishim kerak? Buni qachon va qanday amalga oshiraman?

Malaka oshirish yo’l xaritasi pedagogning rivojlanish vektorini ko’rsatadi va yo’l xaritasi maqsadi, tushuntirish xati, amalga oshirish, nazorat-tahlil kabi tarkibiy qismlardan iborat tuzilmaga ega bo’lishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Pedagogning malaka oshirish yo’l xaritasi tuzilmasi

Malaka oshirish yo’l xaritasini ishlab chiqishda faoliyatning barcha elementlari nazarda tutiladi: tadbirlarni rejalashtirish va tashkil qilish, maqsad va vazifalarni qo’yish, vujudga kelishi mumkin bo’lgan

xatarlar va zaruriy resurslarni baholash, malaka oshirish subyektlarining ishtiroki, tegishli mutaxassislarni jalb qilish, harakatlarni tahlil va nazorat qilish, natijalarni tahlil qilish va refleksiya.

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishini boshqarishda malaka oshirish yo‘l xaritasi texnologiyasidan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- malaka oshirish turlari va shakllaridan maqbul foydalanish, jarayonning uzluksizligini ta’minlash hamda pedagogning butun kasbiy faoliyatini qamrab olish;
- pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish va faoliyatidagi sifat o‘zgarishlarining ijobiy dinamikasi;
- pedagogning o‘z kasbiy mahoratini oshirishiga ongli munosabati va faoliyati natijalariga shaxsiy mas’uliyati;
- pedagogning kasbiy kompetentligiga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmaning qanoatlantirilishi;
- malaka oshirish ta’limi mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish.

**Tavsiyalar.** Shuni ham alohida qayd etish lozimki, barcha rejalashtirish va loyihalashtirish jarayonlariga xos bo‘lgan risklardan yo‘l xaritasi texnologiyasi ham xoli emas. Shuning uchun rejalashtirishning dastlabki bosqichida istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni ham e’tiborda tutish va ehtimoliy yechimlarni tayyorlash lozim bo‘ladi. Mazkur risklar quyidagilardan tarkib topishi mumkin:

- malaka oshirish turlari va shakllaridan parallel foydalanish va natijalarini qayd qilish uchun yetarlicha sharoitlar yaratilmasligi;
- pedagoglarning uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ichki motivatsiyasining turg‘un emasligi yoki yo‘qligi;
- ta’lim sifatini oshirishga intilayotgan pedagoglarni doimiy rag‘batlantirish tizimining to‘laqonli shakllanmaganligi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, malaka oshirish yo‘l xaritasi o‘qituvchilarning kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlarini qanoatlantirish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonini boshqarish, turfa xil individual ta’lim trayektoriyalarini me’yorlashtirishning samarali vositasidir. Malaka oshirish yo‘l xaritasini muvaffaqiyatli bajarish pedagogning kasbiy rivojlanishi va erishgan natijalarini tashxis qilib borish, korreksion muhit yaratish, reflektiv ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ilmiy-metodik hamrohlikni amalga oshirishga bog‘liq.

O‘qituvchining malaka oshirish yo‘l xaritasini amalga oshirish mexanizmi bo‘lib jamg‘ariladigan malaka oshirish tizimi xizmat qiladi. Jamg‘ariladigan malaka oshirish erishilgan natijalar portfoliosi orqali pedagogning kasbiy rivojlanish va mustaqil ta’lim olish faoliyatini moslashuvchan va insonparvarona boshqarish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Возгова З.В. Деятельностный подход к моделированию региональной системы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников: дисс... док. пед. наук. – Москва, 2014. – 388 с.
2. Кузык Ю. Что такое дорожная карта // Популярные нанотехнологии [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://pornano.ru/analit/index.php?task=view&id=1087> (дата обращения 9.09.2015).
3. Кутузов А.В. Сущность индивидуализации образования в современной школе // Учёные записки Забайкальского государственного университета. Серия: педагогические науки. – Чита, 2012. – № 5. – С. 183-190.
4. Пак Н.И., Дорошенко Е.Г., Хегай Л.Б. Учебные дорожные карты как средство личностно-ориентированного обучения // Образование и наука. – 2015. – № 8 (127). – С. 97-111.
5. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar:jamoa. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
6. Розанов В.В. Сумерки просвещения. – М.: Педагогика, 1990. – 624 с.
7. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari / o‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan”, 2006. – 261 b.

## MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISHGA ASOSLANGAN PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLARNING AHAMIYATI

*Janaberegnova Aysuliy Jaksilikovna,*

*Nukus davlat pedagogika instituti*

*«Matematika o‘qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti*

*Fan taraqqiyotining zamonaviy bosqichida xususiy metodikalar mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib, ularning o‘z nazariy konsepsiyalari shakllanmoqda, ko‘plab xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq qilinib, yangi tatbiqiy sohalar yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida fanlarni o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish uchun mustahkam asosni yaratadi. Turli fanlarni o‘qitishning xususiy metodikalarida tushunchalarni shakllantirishning asoslari yetarlicha tadqiq qilingan, shakllanish bosqichlari (tushunchani kiritish motivatsiyasi, uning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, o‘zlashtirilgan tushunchani oldingilari bilan bog‘lash va amalda qo‘llash) belgilab olingan, har bir bosqichga muvofiq harakatlar mazmuni shakllantirilgan, ushbu harakatlarni o‘zlashtirishga qaratilgan mustaqil mashqlar turlari ishlab chiqilgan. Maqolada mustaqil ishlarni tashkil etish negizida interfaol metodlar hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, mustaqil ish, metod, o‘qitish, texnologiya, dastur, axborot vositalari.

## ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ, ОСНОВАННЫХ НА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

*На современном этапе развития науки частные методы формируются как самостоятельное научное направление, формируются собственные теоретические концепции, научно исследуются многие особенности, возникают новые прикладные области. Это, в свою очередь, создает прочную основу технологического процесса преподавания предметов. В специальных методах обучения различным предметам достаточно исследованы основы формирования понятия, определены этапы формирования (мотивация введения понятия, определение его конкретных аспектов, соединение освоенного понятия с предыдущими и применение его на практике). Определено, на каждом этапе формируется содержание соответствующих действий, разрабатываются самостоятельные упражнения, направленные на овладение этими действиями. В статье рассматривается использование интерактивных методов и педагогических технологий, основанных на организации самостоятельной работы.*

**Ключевые слова:** обучение, самостоятельная работа, метод, обучение, технология, программа, средства массовой информации.

## THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS BASED ON THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK

*At the modern stage of science development, private methods are formed as an independent scientific field, their own theoretical concepts are formed, many features are scientifically researched, and new applied fields are emerging. This, in turn, creates a solid basis for the technological process of teaching subjects. In the special methods of teaching various subjects, the basics of concept formation have been sufficiently researched, the stages of formation (motivation to introduce the concept, determining its specific aspects, connecting the mastered concept with the previous ones and applying it in practice) have been determined, each stage the content of appropriate actions is formed, independent exercises aimed at mastering these actions are developed. The article examines the use of interactive methods and pedagogical technologies based on the organization of independent work.*

**Keywords:** education, independent work, method, teaching, technology, program, media.

**Kirish.** Shuni qayd etish lozimki, ta’limni texnologiyalashtirish doimo amalga oshirib kelingan, biroq uning darajasi odatda o‘z davridagi metodlarning rivojlanish darajasiga muvofiq bo‘lgan. Ilgaridan qo‘llanilib kelingan holatlar, ya’ni mavzularning rejalashtirilishi, dars maqsadi va maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi vositalar, nazorat materiallarini belgilash asosida mashg‘ulotlar rejasining ishlab chiqilishi kabilar o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning ayrim ko‘rinishlari hisoblanadi. Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot–ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olishga,



axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Aytish lozimki, ta'lim sohasi jamiyat hayotining barcha sohasida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etsa, ta'lim faoliyati esa, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muhim bir bo'lagi hisoblanadi. Shu sababli, kasbiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, aniq vazifalarni qo'ygan holda, dars mashg'ulotlarining usul va vositalarini to'g'ri tanlash orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatdagi har bir fuqaroning aniq va tabiiy fanlar bo'yicha bilim va malakasini oshirish, tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish muhimdir.

**Adabiyotlar sharhi.** Avliyoqulov fikricha [1], o'qishda mustaqillik (bilish, ta'rif etishda mustaqillik) bilish, ta'rif etish jarayonlarini va barcha o'quv faoliyatini faollashtirishning zaruriy shartlarini o'zida mujassam etadi, bir vaqtning o'zida doimiy va tez rivojlanib borayotgan bilimlar, texnika, texnologiyalarning yangilanib borishi, ma'naviyat va madaniyatning rivojlanishi, adabiyot va san'atning takomillashtirib borish sharoitida shaxsni hayotga va mehnat qilishga tayyorlashning yo'llaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'limning tashkil etish va boshqarishning mantiqiy tizimini shakllantirish hamda amalga oshirish konsepsiyasi yaratilgan bo'lib, bu o'z-o'zidan ta'limning bu turida monitoring olib borishni taqazo etadi.

B.Farberman talqinida [4] mustaqil ta'limni tashkillashtirishda talabalar uchun quyidagilar asosiy hisoblanadi:

- fikrlash qobiliyatini rivojlantirish (psixologik asoslar bo'yicha);
- amaliy qobiliyatni yuksaltirish (mutaxassislik asoslari bo'yicha);
- tashkiliy-texnik bilimlarni qo'llashni va mahoratni yuksaltirish (mahoratni orttirishorqali);
- ilmiy tashkillashtirish (ta'limda o'qishni davom ettiruvchi iqtidorli yoshlarni tarbiyalash orqali).

Mustaqil ta'lim tashkillashtirishga pedagogik muammo sifatida qaralsa unda o'qitish marketingi tashkiliy, uslubiy va tarbiyaviy nuqtayi nazarlarni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'limning samarali tashkiliy-uslubiy ta'minotining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ta'limni an'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy va uzluksiz o'zaroaloqasini yaratish;
- mustaqil ta'limdan foydalanish ehtiyojini belgilangan masalani hal etish, o'zining kasbiy va ma'naviy qiziqishlarini qondirish vositasi sifatida shakllantirish;
- mustaqil ta'limni pedagogik va shaxsiy boshqarish (jamo va individual tarzda);
- mustaqil ta'limning axborot resurslariga keng va tezkor imkoniyatni ta'minlash;
- mustaqil ta'limning samarali texnologiyalarini va uning sifati ustidan amaliy nazoratni qo'llash.

Tashkiliy jihatdan o'qituvchi va talabadan mustaqil ta'limni aniq tashkillashtirishni talab qiladi. Informatsion-axborotlar davri tez rivojlanib borayotgan bir davrda nima uchun o'quv yurtlarida barcha talabalar ham iqtidorli, ilmni o'zlashtira oladigan, mustaqil fikr yurita oladigan bo'lib yetishmaydi? Ushbu sohada mulohaza yuritadigan bo'lsak bilim beruvchi va bilim oluvchi, ya'ni talabalarni alohida o'rganishimiz kerak bo'ladi. Mustaqil ta'limni olib borish o'qituvchidan auditoriya soatlarini olib borishga qaraganda o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Ba'zi hollarda mustaqil ta'limni ma'ruzachi, o'qituvchi (amaliy, tajriba mashg'ulotlarini olib boruvchi) lar yaxshi olib borolmasliklari mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Mulohazamizni ikkinchi ishtirokchisi bu talaba qanday bo'lishi kerak. Har bir talaba o'qituvchi tomonidan yuqorida keltirilgan xususiyatlarni qadrlashini va unga javoban o'z munosabatini shakllantirishini esda tutishimiz lozim. Talabani quyidagi xususiyatlarini anglab yetmoq, o'rganmoq kerak [6]:

- bilim olishga ehtiyojini;
- hayotiy tajribasini;
- qadriyat va e'tiqodini;
- intellektual mahoratini;
- bilim olishga yondashuvini;
- o'qishga ishtiyoqini;
- fe'l-atvorini;
- ma'lumotlarni qabul qilish qobiliyatini;
- tarbiyasini;
- til bilishini;

- kompyuter savodxonligini;
- esda saqlash qobiliyatini.

**Tarbiyaviy jihatdan** o‘qituvchi tomonidan talaba mustaqil ta’limini tashkillashtirishga katta ahamiyat berilishi bilan asoslanadi. Mustaqil ta’lim tashkil etishda quyidagi tamoyillardan foydalanadi:

- o‘qitishning tarbiyaviyligi;
- o‘qitishning ilmiyligi;
- o‘qitishga tizimli yondashuv;
- nazariya bilan amaliyotni bog‘liqligi;
- talabalarni ongliligi va faolligi;
- o‘qitishning ko‘rgazmaliligi.

**Uslubiy jihatdan** mustaqil ta’limni tashkil etish auditoriya mashg‘ulotlari hajmi uchun bajariladigan ishlar bilan teng va undanda yuqori bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Mustaqil ta’limni asosiy elementlaridan biri talabalarni o‘qitishda tashqi va ichki nazoratni o‘rnatishdan iboratdir. Tashqi nazorat shakli sifatida ta’lim standarti, o‘quv rejasi, o‘quv jarayonini baholash mezonlari, o‘quv axborot resurslarini yaratilishi va o‘qituvchilarni malaka oshirishlari inobatga olinsa, ichki nazorat shakli sifatida talabaning qiziqishi, o‘quv holati, bandlik holati, ijtimoiy hayoti va o‘quv jarayonining marketingi o‘rganiladi.

Mustaqil ta’limni uslubiy jihatini tashkillashtirishda quyidagilar inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

- ijodiy ta’lim markazini tashkil etishga;
- pedagogik texnologiyalarga;
- o‘qitishni informatsion-axborot manbalar bazasiga;
- mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi bilimlarni baholash tizimiga;
- kafedralar bilan ish beruvchilarni ijtimoiy hamkorligiga;
- bozor iqtisodiyotini ta’sirini kuchayib borishiga;
- zamonaviy texnik ta’minotni yanada kuchaytirishga;
- o‘quv jarayonini boshqarishda demokratik tamoyillarga yondashuvga;
- boshqaruv bo‘g‘insi tomonidan yangiliklarni qo‘llab-quvvatlashga.

Mustaqil ta’limning turli xil shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir [8]:

**Darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish** (ularning yetarlicha miqdorda mavjudligida). Bunday tashkiliy shakl odatga ko‘ra amaliy jihatdan mustaqil ta’lim tajribasiga ega bo‘lmagan birinchi kurs talabalari uchun maqsadga muvofiqdir. Bu ishlarning natijalari bajarilgan referatlar, individual topshiriqlar va boblar bo‘yichaseminarlar tekshiriladi.

**Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish**, bu esa o‘qituvchi uchun asosiy materialni bayon etishga katta e’tibor ajratishga imkon beradi. Tarqatma material har bir ma’ruza uchun tayyorlanadi. Mustaqil ta’limning bunday tashkiliy shakli umumkasbiy va maxsus fanlar uchun odatga ko‘ra yuqori kurs talabalari uchun maqsadga muvofiqdir. Ushbu ishlarning natijalari tegishli attestatsiya bosqichlarida tekshiriladi.

**Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash**, bu esa ma’ruza mashg‘ulotlari doirasida ham, laboratoriya ishlariga yoki amaliyot mashg‘ulotlariga tayyorgarlik doirasida ham olib boriladi. Mustaqil ta’limning bunday shakli barcha kurs talabalari uchun maqsadga muvofiq bo‘lib, axborot texnologiyalar keng qo‘llaniladigan ta’lim muassasalari uchun xosdir.

**Maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash:** hisoblash, grafik topshiriqlar yoki referatlar, kurs ishlari yoki loyihalar, bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda. Mustaqil ta’limning ushbu tashkiliy shakli barcha kurs talabalari uchun maqsadga muvofiqdir. Uning natijalari tegishli reyting – nazorat bosqichlarida tekshiriladi.

**Yangi texnikalarni, jihoz va uskunalarni va texnologiyalarni o‘rganish:** malakaviy amaliyotlar o‘tkazishda, tadqiqotlarda ishtirok etishda, ishlab chiqarish buyurtmasi (real) muayyan ishlanmalarni bajarishda. Bu ish shakli ta’limning ishlab chiqarish va ilmiy-tekshirish institutlari (ITI) bilan integratsiyasida bo‘lishi mumkin. Natijalar hisobotlari qabul qilishda tekshiriladi.

**Talabalarning ixtisoslashtirilgan konstruktorli byurosi (MB) yoki ichki korxonlardagi ishlari:** o‘qituvchi yoki mutaxassislar rahbarligida davlat budjetidagi ham OTMning xo‘jalik shartnomasi asosidagi mavzulari doirasida. Mustaqil ta’limning ushbu shakli odatga ko‘ra yuqori kurs talabalari uchun xarakterlidir.

**Talabning ilmiy-tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularini chuqur o‘rganish.** Mustaqil ta‘limning bu shakli barcha kurs talablari uchun maqsadga muvofiqdir.

**Faol o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari** (xizmat o‘yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kolloviymlar va b.), talabalar tomonidan fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyat dolzarb muammolari bo‘yicha tayyorlangan.

Masofaviy (distansion) ta‘lim.

Mustaqil ta‘limda bajariladigan topshiriqlar va uning bajarish usullari va shakllari fan xususiyatidan kelib chiqib quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin.

**Yozma ish** – talaba berilgan mavzuni mustaqil o‘rganib o‘z fikrini yozma ish shaklida bayon etadi (konspektlashtiradi);

**Testlar** – talaba berilgan mavzuni mustaqil o‘rganib mavzuga taalluqli testlarni tuzadi;

**Laboratoriya hisobotlari** – talaba auditoriyada bajarilgan laboratoriya tajribalari natijalari bo‘yicha hisob-kitob ishlarini amalga oshiradi va hisobot shaklda tayyorlaydi.

**Referat** – ma‘ruza, seminar mashg‘ulotda yoritilgan savollar bo‘yicha, qo‘shimcha manbalardan o‘qib o‘rgangan bilimni yozma namoyon etadi va kelgusi seminar mashg‘ulotiga himoya qilib aytib beradi.

**Sxema chizish** – talaba mavzuga tegishli sxemalarni adabiyotlardan, Internet yangiliklaridan olib chizib keladi va tushuntirib beradi.

**Mustaqil ta‘limning birinchi asos bo‘la oladigan prinsipi** – bu o‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirishda ham, amalga oshirishda ham uning **tizimlilikidir**. Mustaqil ta‘lim materiali – bu bir butun o‘rganiluvchi fanning (yoki kursning) qismidir. Fanning o‘quv dasturida rejalashtirilgan bo‘lishi va uning uchun tegishli o‘quv-uslubiy ta‘minot ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish bosqichida uchta ko‘rinishdagi boshqaruvni: ma‘muriy, pedagogik va ta‘lim olish subyektlarini o‘z ichiga oluvchi mustaqil ta‘lim boshqaruvga **tizimli yondashish** zarur.

**Ma‘muriy boshqaruv** - mustaqil ta‘limning tashkiliy, moddiy-texnik va axborot ta‘minoti bilan bog‘liq bo‘lishi kerak;

**Pedagogik boshqaruv** – konsultatsiyalar, nazorat va mustaqil ta‘lim sifatini baholash;

**Ta‘lim olish subyektlari boshqaruvi** – mustaqil ta‘limni tashkillashtirish motivatsiyasi va shakllari bilan.

**Mustaqil ta‘limning ikkinchi asos bo‘la oladigan prinsipi** – bu talabalarning mustaqil ta‘limdagi maqsadga erishishga rag‘batlantirish motivatsiyasi. Motivatsiya talabada mustaqil ta‘limjarayoniga nisbatan kasbiy, iqtisodiy, tarif etish, ma‘naviy va boshqa qiziqishlarni uyg‘otishi lozim. Muammoni (vazifani) hal etish xohishining mavjudligi, paydo bo‘lgan savolga javob topish – bu mustaqil ta‘limda muvaffaqiyatga erishishning zaruriy shartidir.

Mustaqil ta‘lim natijalarga kasbiy motivatsiya omili ahamiyatli ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa kasbga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lishda muhim rol o‘ynaydi. Agar talaba kasbni ongli ravishda tanlasa va uni o‘zi va jamiyat uchun ma‘qul deb topsa, u holda o‘qishga nisbatan tasodifan va anglamagan holda kasb tanlaganiga qaraganda boshqacharoq (yaxshiroq) munosabatda bo‘ladi.

Shuning uchun o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biri (ham umumkasbiy, ham maxsus fanlarda) bitiruvchining muayyan amaliy faoliyati uchun tabiiy ilmiy va gumanitar fanlarning ahamiyatini argumentli tarzda tushuntirib berishidir. Biroq, kasbga nisbatan ijobiy munosabat o‘zidan o‘zi ahamiyat kasb etmasligi mumkin, agar kasb haqida layoqatli (kompetent) tasavvur bilan mustahkamlanmasa. Bu tasavvur laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlari bajarishda, malakaviy amaliyotlar o‘tish va boshqalarda shakllanadi.

Talabalarning tanlagan kasblariga bo‘lgan munosabatlari muammolarini o‘rganishda quyidagi masalalarni qarash zarur:

- kasbning qoniqarliligini;
- darsdan darsga bo‘lgan qoniqish dinamikasini;
- qoniqishni shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar (ijtimoiy-psixologik, psixologik- pedagogik, differensiallik-psixologik, shu jumladan jinsi-yoshi);
- tanlangan kasbga nisbatan ijobiy va salbiy munosabatni belgilab beruvchi motivlar ierarxiyasini;
- o‘qitish texnologiyalari va uslublarini.

**Mustaqil ta‘lim didaktikasi** – bu uchinchi prinsip bo‘lib, mustaqil ta‘limda o‘qishning maqsadi, mazmuni, qoida va uslublarini belgilaydi. Mustaqil ta‘lim bosh, yurak, qo‘l, ko‘z vaquloqlardan (o‘qituvchi-maslahatchilarning axborotlari) foydalanuvchi **faol bilish modelida** mujassam bo‘lishi lozim. Bosh –

fikrlash uchun, yurak – his etish uchun, qo‘llar esa ish uchun kerak.

Agar o‘zi ta‘lim oluvchi o‘qiydigan, ko‘radigan va bajaradigan bo‘lsa, u holda o‘zlashtirish jarayoni bosh miyaning turli qismlarida faoliyat ko‘rsatishi natijasida to‘la bo‘ladi. Mustaqil ta‘limning o‘quv-uslubiy ta‘minoti aynan shunday bo‘lishi lozim.

Mustaqil ta‘limga ikki asosiy yondashuvni belgilash zarur:

1. Ta‘lim oluvchilarda noan‘anaviy masalalarni hal etish asosida yotuvchi bilimlarni shakllantirish. Ushbu holda bilish (tafar etish) faoliyatchilar uchun yangi bo‘lgan faoliyat tajribasini avval o‘zlashtirilgan, shakllantirilgan tajriba bazasida bilimlarni, o‘quv va ko‘nikmalarni kuzatish yo‘li bilan to‘plash va namoyon etishdan iboradir.

2. Ijodiy faoliyat uchun zamin yaratish. Bunda bilish faoliyati ma‘nosi o‘rganilayotgan obyektning tub ma‘nosiga chuqur kirib borishdan, ilgari ma‘lum bo‘lmagan prinsiplar, g‘oyalarni shakllantirish, yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lish uchun zarur bo‘lgan yangi aloqalar va munosabatlarni o‘rnatishdan iborat.

**Mustaqil ta‘limning to‘rtinchi asoslovchi prinsipi** – bu olingan bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni tizimli nazorat etish va baholash bo‘lib, fanlar (yoki darslar) bo‘yicha bilim, o‘quv va ko‘nikmalarning bir butunligining qismidir.

Mustaqil ta‘lim axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta‘lim oluvchilarning kasbiy mahoratini qo‘llab-quvvatlash, mustaqil ta‘lim olish ehtiyojlarini qondirishga xizmat kiluvchi ma‘lumotlarni uzatish vositalari, axborot ashyolari, o‘zaro aloqalar kaydnomalari, dasturiy va tashkiliy-metodik ta‘minotlarning tizimli-tashkiliy majmuidir.

Mustaqil ta‘limning ochiqligini ta‘minlovchi quyidagi tamoyillar asosida shakllantiriladi:

- ta‘lim olishni ochiq rejalashtirish, ya‘ni, yo‘nalish va unga mos o‘quv rejasi doirasida bilimlarni oshirib borishning individual traektoriyasini tuzish erkinligi;

- o‘qitish vaqti va sur‘atlarining erkin tanlanishi;

- ta‘lim olish davri va urnining erkin tanlanishi;

- yetakchi professor-o‘qituvchilar kasbiy salohiyatiga tayangan holda ta‘lim olish sifatining ta‘minlashi;

- ta‘lim oluvchilar uchun uzluksiz bilim olish imkoniyatini yaratish.

Mustaqil ta‘lim ta‘lim oluvchiga qo‘yiladigan talablar, tizimga kirish uchun ro‘yhatdan o‘tish, o‘quv fanlari, o‘zlashtirishni baholash bloklaridan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagicha talqin qilinadi.

O‘quv fanlarini taqdim etishning elektron resurslari quyidagi shaklarda ishlab chiqiladi:

**Matnli materiallar.** Nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etishning matnli ma‘ruza qismi eng salmoqli o‘rinni egallaydi. Odatda, o‘quv dasturiga kiruvchi barcha materiallar matnli shaklda yaratilib, shundan so‘ng ularga qo‘shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqiladi. O‘quv materialining bu tahlitda taqdim etilishi an‘anaviy ma‘ruzalarning bir qator kamchiliklar (zarur o‘rinlarni ko‘chirib olish, qayd qilish, ma‘ruzachi tomonidan uni qayta-qayta takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi)ni bartaraf etilishini ta‘minlaydi. Ma‘ruza matnida zarur ta‘kidlashlarning rang, harflar shakli hamda illustriyalar orqali berilishi esa u orqali xissiyotlarni uzatilishini ta‘minlaydi.

**Audio materiallar.** Bu turdagi materiallar ikki rejim orqali tarqatiladi. Online rejimidagi audiomateriallar kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tarqatiladi. Off-line rejimidagi audiomateriallar audiokassetalar, audiodisklar, fayllarga yozilgan holda tarmoq texnologiyalari orqali tarqatiladi. Ta‘lim oluvchilar tomonidan ma‘ruzalarni eshitish ham shu kabi qulay va ixcham bo‘lgan audio qurilmalar orqali amalga oshiriladi.

**Video materiallar** sinxron hamda asinxron tartibda uzatiladi. Video materiallarini sinxron tartibda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilishi pedagog va ta‘lim oluvchining bevosita muloqotini ta‘minlaydi, an‘anaviy ma‘ruzalarga xos barcha ijobiy jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi, pedagog va ta‘lim oluvchilar bir-birini real vaqtda ko‘rib va eshitib turishini ta‘minlaydi.

Asinxron tartibda o‘quv materiallarni uzatishda video materiallar videokassetalar va disklarga yozib olinib tarqatiladi. Bunday video materiallar tarkibiga ma‘ruza, mavzuga ta‘luqli ilmiy-ommabop videomateriallar, shu sohaning yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv videolavhalari kiritiladi. Bunday video materiallardan foydalanish ixtiyoriy joyda va vaqtda, takror va takror bajarilishi mumkin.

**Animatsion ma‘ruzalar** Ta‘lim oluvchilarga interfaol tuzilishga ega bo‘lgan o‘rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali yetkaziladi. Animatsion ma‘ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalanib shakllantiriladi. Bunda har bir ta‘lim oluvchi o‘zining psixofiziologik xususiyatidan kelib chiqib, animatsion ma‘ruzadagi traektoriyasi, o‘zlashtirish sur‘ati va o‘rganish usulini tanlaydi.

Amaliy mashg‘ulotlar kompyuter texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarini mujassamlashtiruvchi trenajerlar, virtual reallik asosida o‘qitish vositalari, ekspert o‘rgatuvchi tizimlarga asoslanadi.

Masofaviy malaka oshirish intellektual tizimida trenajyorlar aqliy va mehnat amaliyotlarini imitatsiyalash asosida o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Virtual reallik muhitni ideallashtirish tamoyillari asosida malaka oshirish jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi.

**Xulosa va munozara.** Ta’lim oluvchilar tayyorgarlik sifatining kompyuter texnologiyalari asosida aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, olingan natijalar o‘zlashtirish darajasini baholashda foydalanilishi mumkin.

O‘zlashtirishni baholash natijalarini tegishli parol asosida ta’lim oluvchi va tizim administratori olishi mumkin. Ushbu blokda o‘zlashtirishni nazorat qilish asosan test savollari asosida tashkil etilib, olingan natijalar 100 ballik tizimda baholanadi. Taklif etilayotgan bilim olishning intellektual tizimida fanlarni o‘zlashtirishda minimal 70 ball, yakuniy attestatsiyani topshirish uchun fanlardan o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi minimal 75 ballni tashkil qilishi talab etiladi. Talab etilgan o‘zlashtirish darajasiga erisha olmagan ta’lim oluvchi o‘quv fanlari blokiga murojaat qilib, test savollariga qaytadan javob berishi mumkin bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish natijalari axborot-tahliliy karta shaklida rasmiylashtirilib, u ta’lim muassasasida malaka oshirish sifatini ta’minlash borasida chora-tadbirlar belgilashda foydalaniladi.

Oliy ta’limda fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanib, dars jarayonida o‘quvchilar faolligini kuchaytirish va ta’lim samarasini oshirish maqsadida ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borish shu kunda o‘qituvchilar oldida turgan dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Mustaqil ta’limni olib borish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni talabalarning mustaqil ishlashlari jarayonida qo‘llash ularning kelajakda ijodiy fikr yurita oladigan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lgan raqobatbardoshlik talablariga javob beradigan yosh mutaxassis kadrlar bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

1. Olib borilgan kuzatishlarning ko‘rsatishicha, real o‘quv imkoniyatlarini o‘rganishda quyidagi shartlarni aniqlashtirish kerak bo‘ladi: talabalarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligi (o‘quv ishlarini rejalashtirish, mashg‘ulot maqsadi va vazifalarini to‘liq belgilab olish ko‘nikmasi, o‘z-o‘zini nazorat, teskari aloqa o‘rnatish va qo‘shimcha didaktik jarayonni qurish); talabalarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligi (fikrlash mustaqilligi, o‘quv materiallaridagi asosiy g‘oyani ilg‘ab olish ko‘nikmasi, topshiriq shartlarini belgilash va uni yechish metodlarini mustaqil topish ko‘nikmasi); o‘qishga munosabati va boshqalar.

2. Fanlarni o‘rganish soha bo‘yicha erishilgan zamonaviy yutuqlarni amaliyot bilan bog‘lash dolzarb muammolarni aniqlash, ularni yechimini topishga yo‘naltirilishi bilan boshqa fanlardan ajralib turishi lozim deb topildi.

3. Oliy ta’limda fanlarni o‘qitish metodlarini tanlashda fan bo‘yicha kasbiy bilimlarni egallash, asosiy ta’rif va tushunchalarni yodda saqlash zarurligini hisobga olgan holda, ularni puxta o‘zlashtirish barobarida tafakkurni o‘stirishga, mustaqil fikrlashga, ko‘proq o‘ylashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga qaratilgan metodlarni tanlashga alohida ahamiyat berish lozim deb e’tirof etildi.

4. Olingan natijalar fanlardan mashg‘ulotlar orlib borishda, darslarga mustaqil topshiriqlarni uyg‘unlashtirish, talabalarda fanga qiziqish uyg‘otishi, savollarda berilgan masalalarga ijodiy yondoshishi, o‘z fikr mulohazalarini hayot bilan bog‘lagan holda erkin bayon etishlari uchun zamin yaratishi va shulardan kelib chiqqan holda o‘zlashtirish ko‘rsatkichining ayniqsa a’lochi talabalar hajmini oshirishga olib kelishini ko‘rsatdi.

#### Adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2011.
2. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiyalar. – Namangan, 2014.
3. Azizxo‘jaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2013.
4. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: FAN, 2011. – 146 b.
5. Razzoqov D.N., Qayumova F.E. «Zamonaviy talim texnologiyalari» kursi bo‘yicha o‘quv dasturi. –T.: 2014.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2013.
7. Mavlonova R. Pedagogika. - T.: O‘qituvchi, 2012.
8. Ismoilova Z.K. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: Fan, 2011.
9. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta’lim texnologiyalari seriyasi. – T.: «Iqtisodiyot» nashriyoti, 2011. – 206 b.

## TEXNIKA YO'NALISHDAGI BAKALAVRIAT TALABALARINING ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIGA IJTIMOYIY-AMALIY TAYYORGARLIGI MOHIYATI

*Sodikov Xabib Tolibovich,*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi*

*Maqolada texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalarining ishlab chiqarish korxonalariga ijtimoiy-amaliy tayyorgarligi mohiyati yoritilgan. Funktsional yondashuv orqali shaxsning tayyorligi keltirilgan. “Tayyorlik” tushunchasining mohiyati va mazmuni batafsil bayon etilgan. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida tayyorlikning qator mazmunli xususiyatlari aniqlangan.*

*Kalit so'zlar:* texnika, bakalavr, ijtimoiy-amaliy, kasbiy, pedagogik, tahlil, tayyorlik, tizimli, kasbiy, ta'lim, talaba.

## СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНОЙ И ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ БАКАЛАВРИАТА ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ К РАБОТЕ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

*В статье освещена сущность социальной и практической подготовки студентов бакалавриата технического направления к работе на производственных предприятиях. Через функциональный подход представлена готовность личности. Подробно раскрыты суть и содержание понятия «готовность». В результате анализа научной литературы был выявлен ряд содержательных характеристик готовности.*

*Ключевые слова:* техника, бакалавр, социально-практический, профессиональный, педагогический, анализ, готовность, системный, профессиональный, образование, студент.

## THE ESSENCE OF THE SOCIAL AND PRACTICAL TRAINING OF UNDERGRADUATE STUDENTS IN TECHNICAL FIELDS FOR WORK IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

*The article highlights the essence of the social and practical training of undergraduate students in technical fields for work in industrial enterprises. The readiness of individuals is presented through a functional approach. The essence and content of the concept of "readiness" are thoroughly explained. As a result of the analysis of scientific literature, several meaningful characteristics of readiness have been identified.*

*Keywords:* technical, undergraduate, social-practical, professional, pedagogical, analysis, readiness, systematic, professional, education, student.

**Kirish.** Texnika yo'nalishdagi bakalavrlarning muvaffaqiyatli moslashuvi muammosi, odatda, asosan mehnat sharoitlarini optimallashtirish va ishlab chiqarish jamoasi bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishga qaratilgan kadrlar boshqaruvi nazariyasi nuqtai nazaridan hal etishga harakat qilinadi. Kasbiy pedagogikaning imkoniyatlari ta'lim jarayonidan foydalanish orqali belgilanadi. Shu munosabat bilan texnik yo'nalishdagi bakalavrlarning ishlab chiqarishda moslashuv muammosini pedagogik yo'l bilan hal qilish texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalarini tayyorgarligini oliy ta'limda kasbiy tayyorgarlik jarayonida ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashishga qaratish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu tayyorgarlikni shakllantirish vazifasini hal qilish uchun “ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik” tushunchasini texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalarini uchun aniqlashtirish, shuningdek, tayyorgarlikni shaxsga xos integrativ ta'lim sifatida tushunish va uning tarkibiy qismlarini belgilash zarur, bu esa mazkur bo'limning mazmunini tashkil etadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tayyorgarlik muammosiga bevosita yoki bilvosita tegishli bo'lgan ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularni tahlil qilish orqali texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalarini ishlab chiqarishga ijtimoiy-amaliy moslashishga tayyorgarlik tushunchasining mohiyatini aniqlash, shuningdek, tayyorgarlik tarkibini belgilash mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ijtimoiy-amaliy (kasbiy) moslashuvga tayyorgarlikning umumiy masalalari va ushbu jarayonning pedagogik nuqtai nazardan talqini Begimqulov U.Sh, Muslimov N.A. kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tayyorgarlik turlari bo'yicha tadqiqotlarning katta qismi quyidagilarni o'rganishga bag'ishlangan:

- haqiqiy kasbiy tayyorlik (Ismailova Z.K, O'rinov U.A. va boshqalar);

- psixologik tayyorlik (Begimqulov U.Sh, Muslimov N.A., Ismailova Z.K, O’rinov U.A. va boshqalar);
- moslashuv tayyorligi (Begimqulov U.Sh, Muslimov N.A. va boshqalar);
- motivatsion tayyorlik (Ismailova Z.K, O’rinov U.A. va boshqalar);
- kommunikativ tayyorlik (Begimqulov U.Sh, Muslimov N.A. va boshqalar).

Ko’plab tadqiqotlar talabalarning bilim olishga tayyorlik muammosini o’rganishga qaratilgan (Ismailova Z.K, O’rinov U.A. va boshqalar). Talabalarni oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-amaliy (kasbiy) moslashuvga tayyorlash muammosi Begimqulov U.Sh, Muslimov N.A. va boshqalar kabi mualliflarning tadqiqotlarida yoritilgan. Bo’lajak mutaxassislarining kasbiy moslashuvga tayyorligi xususiyatlari Ismailova Z.K, O’rinov U.A. va boshqa mualliflar ishlarida o’rganilgan. O’z navbatida, bo’lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga moslashishga tayyorligi Begimqulov U.Sh, Muslimov N.A., Ismailova Z.K, O’rinov U.A. va boshqalar tomonidan yoritilgan [2,3,4,5].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish tayyorgarlik tushunchasining umumqabul qilingan ta’rifi yo’qligini ko’rsatdi. Bugungi kunda yagona nuqta “tayyorgarlik” va “tayyorlik” tushunchalarini o’zaro bog’liq va bir-birini to’ldiruvchi deb hisoblashdir, ammo bu tushunchalar bir-biridan shunday farq qiladi: birinchi holda jarayon, uning o’ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari nazarda tutiladi, ikkinchi holda esa uning natijasi ko’zda tutiladi.

Tayyorlikning o’ziga kelsak, uning mohiyatini tushunishga asoslangan metodologik yondashuvlarga qarab, tayyorlik quyidagicha ta’riflanadi: shaxs sifati (xususiyati), shaxsning integrativ xususiyati, inson tizimlarining safarbarlik holati, murakkab dinamik tizim va h.k.

Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan tayyorlik quyidagicha talqin etiladi:

- shaxs sifati;
- qobiliyatlar namoyishi;
- kasbiy o’z-o’zini anglash.

Tayyorlik, shaxsiy xususiyat sifatida, yetarlicha uzoq vaqt davomida shakllanadi. Shaxs tayyorligini shakllantirish jarayonining xarakteri va tezligi uning o’ziga xos xususiyatlari va harakatlarining yo’nalishiga bog’liq. Tayyorlik faoliyat samaradorligini belgilaydigan shart sifatida namoyon bo’ladi va bir qator xususiyatlarni o’z ichiga oladi. Masalan, V.A. Krutetskiyning ishlarida tayyorlik shaxsning quyidagi xususiyatlarining sintezi sifatida belgilanadi: “faol, ijobiy munosabat, ushbu faoliyat bilan shug’ullanish istagi, u ehtirosli qiziqishga aylanishi; qator xarakterologik xususiyatlar va barqaror intellektual qobiliyatlar, faoliyat jarayonida uning bajarilishiga qulay psixik holatlar mavjudligi, tegishli sohadagi bilim, malaka va ko’nikmalar jamg’armasi, ushbu faoliyat talablariga javob beradigan sezgi va aqliy sohalardagi ma’lum psixologik xususiyatlar” [1].

**Natija va mulohazalar.** Olimlar shaxsning tayyorgarligini bir vaqtning o’zida uning sifati, holati va faoliyatni amalga oshirishga «tayyorlanish» deb qaraydilar. Tadqiqotchilarning fikricha, kasbiy faoliyat davomida shaxsning quyidagi jihatlari aniq namoyon bo’ladi: yuqori darajadagi barqarorlik bilan tavsiflangan shaxsiy xususiyatlari, shaxsning mehnat jarayoniga jalb qilinganligi bilan bog’liq vaziyatli psixik holatlar. Tayyorlik shaxs holati sifatida uning ayni damdagi kasbiy faoliyatdagi imkoniyatlarining “tayyorlanishi” va ularni faollashtirishni ifodalaydi. Shaxsning psixologik xususiyatlari va uning motivlari tayyorlikka ta’sir qiladi, bu shaxs tayyorligini ham holat, ham integrativ sifat sifatida ko’rib chiqishga imkon beradi.

Funksional yondashuv nuqtai nazaridan tayyorlik quyidagicha talqin qilinadi:

- insonning faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun safarbarlik holati sifatida;
- samarali faoliyatni amalga oshirish uchun psixofiziologik resurslardan foydalanish qobiliyati sifatida;
- shaxsning munosabati bilan o’zaro bog’liqlikda.

Bir qator tadqiqotchilar tayyorlikni funksional yondashuv doirasida tahlil qilgan holda, uni shaxsning psixik funksiyalarini rivojlantirish orqali faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlashning bir sharti sifatida talqin qiladilar.

Funksional yondashuv doirasida “tayyorlik” tushunchasini shaxsiy munosabat bilan o’zaro bog’liqlikda ko’rib chiqadigan yo’nalish mavjud, ya’ni bu shaxsning o’z faoliyati maqsadlari va vazifalariga nisbatan belgilangan pozitsiyasi bo’lib, bu resurslarning safarbar qilinishini va ularni amalga oshirishga tayyorligini ifodalaydi.

Masalan, munosabatni shaxsiy tajribaga asoslangan va uning bog’liq bo’lgan obyektlarga (vaziyatlarga) reaksiyalarini yo’naltiruvchi psixologik tayyorlik holati sifatida ko’rib chiqadi. Uning konsepsiyasida tayyorlik shaxsning barcha faoliyat holatlarida namoyon bo’ladigan va uning resurslarini tanlab safarbar qilish hamda faoliyatga tayyorlikni ifodalaydigan munosabatning muhim belgisidir[2].

Umuman olganda, funksional yondashuv nuqtai nazaridan shaxsning tayyorligi uning turli

munosabatlarni, kelajakdagi faoliyat maqsadlari, yo'llari va usullarini tushunishni, shuningdek, real imkoniyatlarni o'z ichiga olgan maxsus psixologik holat sifatida aniqlanadi, ya'ni tayyorlik munosabatdan ko'ra murakkabroq tuzilishga ega bo'lgan struktura sifatida namoyon bo'ladi.

Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan tayyorlik quyidagicha ko'rib chiqiladi:

- turli sifatlar majmuini o'z ichiga olgan murakkab shaxsiy tuzilma sifatida;  
- uning rivojlanishiga yordam beradigan mazmuniy va dinamik jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab tizim sifatida;

- ma'lum bir faoliyat turini bajarishga o'tish sifatida;

- tuzilgan munosabatlari va qadriyatlar tizimi sifatida.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan tadqiqotlarda tayyorlikning struktura komponentlarini aniqlash va asoslashga e'tibor qaratiladi. Tayyorlik strukturasi bilan bog'liq jihatlar ushbu tadqiqotning keyingi qismida, texnik profilli bakalavriat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorligi komponentlarini aniqlash bilan bog'liq holda batafsil yoritiladi.

Tayyorlik mohiyatini tushunish va uning mazmunini aniqlashga qiymatlar nuqtai nazaridan qarash qiziqarli hisoblanadi. Masalan, J. Ravn shunday yozadi: «Shaxsning qiymat yo'nalishlarini aniqlash, qiymatli nizolarini hal etish kasbiy tayyorlik rivojlanishining asosini tashkil etadi».

«Tayyorlik» tushunchasining mohiyati va mazmunini tushunishning yuqorida aytib o'tilgan yondashuvlaridan tashqari, zamonaviy pedagogika fanida kompetentlik yondashuvi ham qo'llaniladi, u «ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmuasi» sifatida qaraladi[3].

Kasbiy ta'limda kompetentlik yondashuvi bo'yicha bitiruvchilarning tayyorligini aniqlash uchun ilmiy muomalaga «kasbiy kompetentlik» tushunchasi kiritilgan bo'lib, u bitiruvchilarning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligini ifodalaydi.

Tuzilma jihatidan tayyorlik va kompetentlik tadqiqotchilar tomonidan ajratilgan komponentlarning xilma-xilligiga qaramay o'zaro yaqin bo'lib, odatda, motivatsion, kognitiv, faoliyat, refleksiv komponentlarni o'z ichiga oladi (turli shakllarda), bu texnik yo'nalish bo'yicha bakalavriat talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorligi tuzilma tarkibiy qismlarini aniqlashda inobatga olinadi.

Adabiyotlarni o'rganish natijasida tayyorlikni murakkab shaxsiy tuzilma sifatida aniqlash mumkin bo'lib, u muvaffaqiyatli faoliyatning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi, belgilangan xatti-harakatlarga tayyorlik munosabatida ifodalalanib, subyekt tomonidan muhim vazifalarni hal qilish uchun resurslarni safarbar qilishda namoyon bo'ladi.

Faoliyatning har bir turi o'ziga xosdir, tayyorlik shakllanadigan jarayonlarning mazmuni ham o'ziga xosdir, bu esa ijtimoiy-amaliy moslashuvga, umuman olganda, va texnik profilli bakalavriat talabalari misolida tayyorlikni aniqroq tushunishni talab qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda tayyorlik odatda kasbiy moslashuvga nisbatan ko'proq qo'llaniladi, ijtimoiy-amaliy moslashuvga esa kamroq uchraydi. Biroq, oldin ta'kidlab o'tilganidek, mazmunan bu ishlar kasbiy moslashuv jarayoni nafaqat yosh mutaxassislarni mehnat faoliyati orqali kasbga jalb qilish, balki ularning tashkilot madaniyatining ijtimoiy muhiti bilan moslashuvini ham o'z ichiga oladi, bu esa “ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik” va “kasbiy moslashuvga tayyorlik” tushunchalarini sinonim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi[4].

Masalan, ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlikni “mutaxassisning kasbiy ta'lim jarayonida shakllanadigan shaxsiy sifati bo'lib, u bitiruvchining ishlab chiqarish faoliyati sharoitida muvaffaqiyatli kasbiy moslashuvi uchun asosiy shart hisoblanadi” deb ta'riflaydi.

Ijtimoiy-amaliy (kasbiy) moslashuvga tayyorlik muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida bu tayyorlikning qator mazmunli xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ldi.

Birinchidan, ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik rivojlanayotgan integrativ shaxsiy tuzilma sifatida qaraladi, u dinamiklik va ko'p darajalilik bilan tavsiflanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik oliy o'quv yurtida talabalarining kasbiy tayyorgarligi natijasidir. Tayyorlik darajasi ko'pincha oliy ta'lim jarayonida uni shakllantirishga qaratilgan maqsadlilik bilan belgilanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik oliy o'quv yurtini bitiruvchining muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati uchun asos sifatida namoyon bo'lib, uni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik bitiruvchining subyektiv pozitsiyasida namoyon bo'ladi, bu esa ijtimoiy-amaliy rivojlanish yo'lini va kasbiy kompetensiyalarni amalga oshirishni ongli ravishda shakllantirishda faollik, mustaqillik, mas'uliyat va ongli yondashuv bilan tavsiflanadi.

“Texnika oliy ta'lim muassasalari bakalavrlarining ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvi”



tushunchasi, “tayyorlik” va “ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik” tushunchalarining mazmuniy tahlili natijasida, “texnika profilli bakalavriat talabalarining ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorligi” tushunchasi shakllantirildi. Bu tushuncha ostida oliy o’quv yurtining ta’lim jarayonida shakllanadigan, texnika profilli bakalavrni ijtimoiy-amaliy faoliyatga kiritishga ko’maklashadigan va ishlab chiqarishda optimal moslashuv darajasiga erishishini ta’minlaydigan, shaxsiy-kasbiy o’zini rivojlantirish va kasbiy o’sish uchun sharoit yaratadigan dinamik ravishda rivojlanadigan integrativ shaxsiy tuzilma nazarda tutiladi.

Ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlikni integrativ shaxsiy tuzilma sifatida ko’rib chiqish uning strukturasi, ya’ni tayyorlikning mohiyati va mazmunining ichki asosini aniqlashni talab qiladi. Tayyorlik strukturasi (lot. Structure – tuzilma, joylashuv, tartib) tizim komponentlari o’rtasidagi barqaror munosabatlar va bog’liqliklar majmuasini anglatadi, bu esa uning ishlash darajasi va sifatini belgilaydi. Shu munosabat bilan texnik profilli bakalavriat talabalarini ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik komponentlarini aniqlash muammosi tug’iladi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda kelajakdagi mutaxassislarining oliy ta’lim jarayonida, shu jumladan ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorligini shakllantirishga oid yagona nuqtai nazar mavjud emas[5].

Masalan, kasbiy moslashuvga tayyorlikni o’rganish jarayonida motivatsion, kognitiv va konativ komponentlarni ajratib ko’rsatadi. Shunga o’xshash tayyorlik komponentlarini ham ajratadi, u kelajakdagi mutaxassislarining kasbiy moslashuvga tayyorlik modelini ishlab chiqib, ularni pedagogik faoliyatning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mazmunan to’g’riyladi. O’z navbatida, oliy o’quv yurtida shakllantirilgan mutaxassislarining kasbiy moslashuvga tayyorligi tarkibida “motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat va emotsional-irodaviy” komponentlarni ajratib ko’rsatish mumkin.

Texnika yo’nalishi bakalavriat talabalarini ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlik komponentlarining mazmunini aniqlash (ya’ni ko’rsatkichlar qatorini belgilash) uchun ular oliy o’quv yurtining ta’lim jarayonida shakllanadigan kompetensiyalarini hisobga olish kerak.

Shunday qilib, Oliy ta’limning standarti bo’yicha 60711400 - transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalarida umumiy madaniy, umumiy kasbiy va kasbiy kompetensiyalar shakllantirilishi lozim. Ular birgalikda kasbiy faoliyatga tayyorlikning asosini tashkil etadi[6].

Umumiy madaniy kompetensiyalar orasida kelajakdagi bitiruvchilarning ijtimoiy-amaliy moslashuvda muhim o’rin tutadigan kompetensiyalarni ajratish mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- “Falsafiy bilim asoslaridan foydalanish qobiliyati, ijtimoiy faoliyatining ahamiyatini anglash uchun tarixiy rivojlanishning asosiy bosqichlari va qonuniyatlarini tahlil qilish” (ya’ni kelajakdagi kasbiy faoliyatga nisbatan qadriyatlarga asoslangan munosabatning shakllanishi);

- “Turli sohalarida faoliyat natijalarini baholashda texnik bilim asoslaridan foydalanish qobiliyati” (ya’ni zamonaviy mehnat bozorini anglashni shakllantirishga qaratilgan, bu esa kasbiy va shaxsiy rivojlanish istiqbollari mehnat resurslari bozorining talablari bilan moslashtirishni anglashga yordam beradi);

- “Shaxslararo va madaniyatlararo o’zaro aloqalar masalalarini hal qilish uchun rus va xorijiy tillarda og’zaki va yozma shaklda muloqot qilish qobiliyati”, shuningdek, “Jamoada ishlash qobiliyati, ijtimoiy, etnik, konfessional va madaniy farqlarni bag’rikenglik bilan qabul qilish” (ya’ni ushbu kompetensiyalar birgalikda bo’ljak muhandisning ishlab chiqarish jarayonida samarali kasbiy muloqot va ijtimoiy-amaliy hamkorlik texnologiyasini o’zlashtirishga qaratilgan);

- “O’zini tashkil qilish va o’z-o’zini o’qitish qobiliyati” (bu ijtimoiy-amaliy moslashuv jarayonida kasbiy maqsadlarni belgilash, faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish bo’yicha zarur ko’nikmalarni o’z ichiga oladi; shaxsiy salohiyatni kasbiy faoliyatda amalga oshirishga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek, o’z-o’zini tahlil qilish, o’zini baholash va o’z-o’zini tuzatishga intilishni nazarda tutadi).

Umumiy kasbiy va kasbiy kompetensiyalarga kelsak, ular talabalar tomonidan kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasida maxsus kasbiy bilimlar tizimini, shuningdek, ularni amaliyotda qo’llash ko’nikma va malakalarini shakllantirishning asosini tashkil etadi. Bu ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlikning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarkibiy qismlar orasida quyidagilar ajratib ko’rsatildi:

- motivatsion;
- mazmuniy-kognitiv;
- faoliyat-kommunikativ;
- refleksiv-baholovchi.

Texnika yo’nalishdagi bakalavriat talabalarini kasbiy-ijtimoiy moslashuvga tayyorgarligining motivatsion tarkibiy qismi ularning faoliyatida turtki rolini bajaradi, unga shaxsiy ahamiyat baxsh etadi va shaxsiy resurslarni faollashtiradi. U quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- kelajakdagi kasbiy faoliyatga munosabat;
- kasbiy faoliyatda shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyoj;
- kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan motivatsiya;
- ijtimoiy-amaliy moslashuv vaziyatlarida faoliyatga yo'naltirilgan izlanish shakllari.

Texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalari tayyorgarligining tarkibida motivatsion komponentning ajratilganligi munosabati bilan shuni ta'kidlash kerakki, bu komponentni deyarli barcha tadqiqotchilar tayyorgarlikning mohiyatini turli metodologik pozitsiyalardan anglashlaridan qat'i nazar qayd etishgan. Bu yagona fikr biron-bir faoliyatni amalga oshirishda motivlarning yetakchi roli haqidagi ilmiy tan olingan holat bilan izohlanadi. Bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi muammosini o'rganar ekan, “shaxs motivatsiyasi psixologik moslashuv va mehnatga tayyorgarlikning asosiy mezonini hisoblanadi” deb ta'kidlaydi.

Texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligining tarkibida motivatsion komponent bilan bir qatorda mazmuniy-kognitiv komponent ham ajratib ko'rsatiladi. Ushbu komponentning mohiyati va vazifasi axborot funksiyasini amalga oshirishga qaratilgan. Shaxsning muvaffaqiyatli moslashuvda (shu jumladan, ijtimoiy-amaliy moslashuvda) axborotning muhimligini bir qator tadqiqotlarda qayd etiladi[7].

Axborot funksiyasini amalga oshirish talabalarni kasbiy faoliyat, o'zlarini ijtimoiy-amaliy moslashuv subyekti sifatida va moslashuv jarayonini yaxlit tasavvur qilishlariga imkon beradi. Shu munosabat bilan, texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikning mazmuniy-kognitiv komponentiga quyidagilar kiradi:

- kelajakdagi kasbiy faoliyatga oid bilimlar;
- zamonaviy mehnat bozori va ishga joylashish sharoitlari haqidagi tasavvurlar;
- ijtimoiy-amaliy moslashuv va samarali ijtimoiy-amaliy o'zaro aloqalar usullari haqida tasavvurlar;
- o'zlarini ijtimoiy-amaliy moslashuv subyekti va kelajakdagi mutaxassis sifatida anglashga oid bilim va tasavvurlar.

Yuqorida qayd etilgan bilimlar va tasavvurlar texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik tarkibida muhim o'rin tutadi, biroq bu bilimlarning o'zi yetarli emas. Ularni qo'llash tajribasi ham muhimdir, ya'ni ma'lum ko'nikmalar va malakalar zarur. Avval aytib o'tilganidek, aynan yosh muhandislarda kasbiy faoliyat tajribasining yetishmasligi moslashuv davridagi eng jiddiy muammolardan biridir. Shu munosabat bilan ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik tarkibida faoliyat-kommunikativ komponent ajratilgan bo'lib, unga kasbiy ko'nikmalar va malakalar hamda ijtimoiy-amaliy o'zaro aloqalar kiradi. Faoliyat-kommunikativ komponent instrumental funktsiyani bajaradi, ya'ni kasbiy faoliyat va ijtimoiy-amaliy o'zaro aloqalarni amaliyotda amalga oshirish uchun zarur vositalarni taqdim etadi.

Faoliyat-kommunikativ komponent o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- kasbiy ko'nikma va malakalar, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga tayyorlik;
- ijtimoiy-amaliy moslashuv sharoitida kasbiy maqsadlarni qo'yish, rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish ko'nikmalari;
- samarali kasbiy muloqot va ijtimoiy-amaliy o'zaro aloqalar texnologiyasini egallash;
- ijtimoiy-amaliy moslashuv sharoitida o'zining psixo-emotsional holatini boshqarish ko'nikmalari.

Yosh muhandisning ijtimoiy-amaliy moslashuvining samarali bo'lishi ushbu jarayonni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqishni, tahlil qilishni va to'g'rilashni talab qiladi. Shu bilan bog'liq holda, ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik tarkibida refleksiv baholash komponentini ajratish zarurati tug'iladi. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu komponentni ajratish asosi sifatida refleksiya fenomeni qo'yiladi, bu o'z faoliyatini anglash va uning chuqurroq tushunilishi, tahlil qilinishi va takomillashtirilishini anglatadi.

Texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikdagi refleksiv baholash komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kasbiy-shaxsiy rivojlanish istiqbollari anglash va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyat va mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish;
- kelajakdagi mutaxassis sifatida “Men-tasviri” ni tushunish;
- ijtimoiy-amaliy moslashuv sharoitida faoliyatni o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini baholash va to'g'rilashga intilish.

Ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik integrativ ta'lim sifatida ko'riladi, bu barcha tayyorgarlik komponentlarining (motivatsion, mazmuniy-kognitiv, faoliyat-kommunikativ va refleksiv baholash) o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liq bo'lishini belgilaydi. Bu tushuncha, professional tayyorgarlik jarayonida texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalari uchun ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni

shakllantirishning muhim prinsipi sifatida yaxlitlik prinsipini ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitlarda yuqori ta'lim jarayonini amalga oshirishda, texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalari tayyorgarligiga va ularning ishlab chiqarishdagi ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirishga ta'sir qiladigan bir qator tendentsiyalar mavjud. Texnik oliy o'quv yurtlarida kasbiy tayyorgarlikning xususiyatlarini va bakalavrlilik dasturida texnik yo'nalishdagi tayyorgarlikni o'rganish natijasida quyidagi tendentsiyalar aniqlangan.

Birinchi, oliy ta'lim muassasalarida asosiy shaxslarning o'rni o'zgarib bormoqda. O'qituvchilar, talaba va ijtimoiy hamkorlar, ish beruvchilar ta'lim jarayonida teng huquqli ishtirokchilar sifatida ko'rilmogda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini o'qituvchidan talabaning ehtiyojlarini qondirish va uning shaxsiy va ijtimoiy-amaliy muvaffaqiyati uchun sharoit yaratishga yo'naltirish aniq namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonda ish beruvchilar muhim rol o'ynaydi, ular bilan o'zaro aloqalar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi va ijtimoiy-amaliy moslashuvning og'irliksiz amalga oshirilishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Ikkinchi, talabalarning kasbiy tayyorgarligi real amaliy ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi, ishga joylashishni osonlashtiradi, ijtimoiy-amaliy moslashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi, va keyingi kasbiy o'z-o'zini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Uchinchi, zamonaviy sharoitlarda talabalarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida texnologiyalashuv aniq sezilmogda. Bu ularning texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini shakllantirishni ta'minlaydi va innovatsion ishlab chiqarish sharoitida ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash ijtimoiy buyurtmasiga javob beradi.

**Xulosa.** Yuqori malakali texnika yo'nalishdagi bakalavrlarga zamonaviy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun professional tayyorgarlik, yuqorida qayd etilgan tendentsiyalarga asoslangan holda, oliy texnik ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu muammoni hal qilishda faqat kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish emas, balki ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni ham e'tiborga olish zarur. Texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalari uchun ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni maqsadli shakllantirish zarurati, tegishli modelni ishlab chiqish ehtiyojini belgilab berdi. Ushbu masala keyingi bo'limning mazmunini tashkil qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Adizova S.Yu. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim muassasasining o'quv jarayonidagi shart-sharoitlar tahlili // *Pedagogik mahorat*. – Buxoro, 2021. №5. B.19-23.
2. Begimqulov U.Sh. *Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti*.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.
3. Muslimov N.A. *Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari* // *Kasb-hunar ta'limi*. – 2004. - № 3. – B.24.
4. Ismailova Z.K. *Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari*: Diss. ... ped. fan. dok. – T.: 2006. – 345 b.
5. O'rinov U.A. *Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta'limning afzalliklari*. // “O'zMU xabarlari”. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.
6. O'rinov U.A. *Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish prinsiplari*. // “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari”. Ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent, 2020. №3, 196-203b.

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOG – KOUCHINGNI TATBIQ ETISH VA  
RIVOJLANTIRISH

*Mirxodjayeva Nargiza Baxtiyorovna,*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti*  
*Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi magistranti*

*Ushbu maqolada pedagogik kompetensiyani oshirishning tobora ko'proq foydalanilayotgan shakli kouching texnologiyasi va uning kommunikativ rivojlanishiga hissa qo'shadigan kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi haqida. Ta'lim muassasalarida pedagogik kouching tizimini yangi bosqichlarda rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini balki pedagogning yuqori malakasini ham aks ettiradi. O'qituvchilarning malakasini oshirish shakli bo'lgan o'quv mashg'ulotlari so'nggi yillarda ta'limni yaxshilash tashabbuslarining asosiga aylandi. Ta'lim tizimida kouching jarayonini tashkil etish o'qituvchilarga samarali o'qitish strategiyalarini amalga oshirishda shaxsiy yordam ko'rsatish orqali o'qitish va o'qitishni yaxshilashga qaratilgan hamkorlikdagi, doimiy jarayondir. Ushbu maqolada pedagogik bilimlarga taalluqli asosiy atama va tushunchalarning keng qamrovli lug'ati berilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, zamonaviy yondashuvlar, o'qitish, kouching, zamonaviy yondashuv.

ВНЕДРЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГО-КОУЧИНГА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ  
ПРОЦЕСС

*В данной статье всё более используемой формой повышения педагогической компетентности является технология коучинга и её роль как мощного инструмента, способствующего коммуникативному развитию. Развитие системы педагогического наставничества в образовательных учреждениях на новых уровнях отражает не только качество образования, но и высокую квалификацию педагога. В последние годы учебные занятия, форма профессионального развития учителей, стали центральными в инициативах по улучшению образования. Коучинг в образовании – это совместный непрерывный процесс, направленный на улучшение преподавания и обучения путём предоставления личной поддержки учителям в реализации эффективных стратегий обучения. В этой статье представлен подробный глоссарий ключевых терминов и понятий, связанных с педагогическими знаниями.*

**Ключевые слова:** образовательная система, современные подходы, преподавание, коучинг, современный подход.

IMPLEMENTATION AND DEVELOPMENT OF PEDAGOG - COACHING IN THE  
EDUCATIONAL PROCESS

*In this article, an increasingly used form of pedagogical competence improvement is coaching technology and its role as a powerful tool that contributes to communicative development. The development of the pedagogical coaching system in educational institutions at new levels reflects not only the quality of education, but also the high qualification of the pedagogue. Training sessions, a form of professional development for teachers, have become central to educational improvement initiatives in recent years. Coaching in education is a collaborative, ongoing process aimed at improving teaching and learning by providing personal support to teachers in implementing effective teaching strategies. This article provides a comprehensive glossary of key terms and concepts related to pedagogical knowledge.*

**Keywords:** educational system, modern approaches, teaching, coaching.

**Kirish.** Koucherlik - bu shaxsning imkoniyatlarini ochib berish texnologiyasidir. Ta'lim sohasidagi koucherlikga hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ta'lim sohasida ham yuqori natijalarga erishishga yordam beradigan ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik sifatida qaraladi. Koucherlik - bu pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalash, tarbiyachilarning o'z-o'zini rivojlantirishga ko'maklashish, maslahat (treninglar, suhbatlar, seminarlar) orqali sharoitlar yaratish usuli. Koucherlik o'rgatish, ko'rsatma berish, ilhomlantirish demakdir. Ta'lim sohasidagi koucherlikga hayotning barcha sohalarida, shu jumladan ta'lim sohasida ham yuqori natijalarga erishishga yordam beradigan ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik sifatida qaraladi. Koucher (maslahatchi) yechimlar uchun ijodiy izlanishni rag'batlantiradi va maqsadlarga erishish va o'zgarishlarni

amalgga oshirish uchun tarbiyachilarning qat’iyatligini qo’llab-quvvatlaydi ularning kasbiy faoliyatida motivatsiya beradi. Boshqacha aytganda, koucherlik jarayonida tarbiyachilar maqsadga erishishning o’ziga xos yo’lini topadilar va murabbiy yaratadi.

Kouching – esa rivojlanish bo’yicha maslahat. An’anaviy maslahat va koucherlik o’rtasidagi farq shundaki, koucherlik kasbiy faoliyatni shaxsiy qo’llab-quvvatlashga qaratilgan faol ta’lim shaklidir. Ushbu uslubning asosi interaktiv muloqot, munozara (savol-javob, bu yerda tarbiyachi maslahat va tavsiyalar olmaydi, faqat koucher unga bergan savollariga javob beradi va tarbiyachi o’z muammolarini hal qilish uchun zaxira va yo’llarni topadi. Kouching - psixologik yordamning bir turi bo’lib, murabbiylik tamoyillari asosida, psixologik yordam shakli sifatida mashg’ulotlar tashkil qilinib mijozlarga yordam beriladi. Kouching-bu mijoz bilan birgalikda yechim topishga qaratilgan maslahat berish va o’qitish usuli. Kouching mijozning maqsadlarini tushunishda tizimli ravshanlikni yaratilishini ta’minlaydi, shunda mijoz o’zining hozirgi maqsadini va unga erishish bosqichlari bilan bog’liqligini tushunadi va bu mijozga o’z maqsadlariga erishishda yordam beradi.

**Asosiy qism.** O’qituvchilarning malakasini oshirish shakli bo’lgan o’quv mashg’ulotlari so’nggi yillarda ta’limni yaxshilash tashabbuslarining asosiga aylandi. Bu o’qituvchilarga samarali o’qitish strategiyalarini amalga oshirishda shaxsiy yordam ko’rsatish orqali o’qitish va o’qitishni yaxshilashga qaratilgan hamkorlikdagi, doimiy jarayondir. Ushbu maqolada o’quv mashg’ulotlariga asos bo’lgan pedagogik bilimlar, uning turli jihatlari va ularning o’qitish va o’rganishga ta’siri o’rganiladi. Pedagogik bilimlarni tushunish o’qituvchi murabbiylari uchun juda muhim, chunki bu ularning ishining asosini tashkil qiladi. Bu o’qitish strategiyalarini, o’rganish nazariyalarini, sinfni boshqarish usullarini va baholash usullarini tushunishni o’z ichiga oladi. Ta’limdagi murabbiylik so’nggi o’n yil ichida barqaror o’sish davrini ko’rdi. Maktablar, Avstraliya, Buyuk Britaniya va AQShdagi kollej va universitetlar bo’lgan o’quvchilar uchun yaxshi natijalarga erishish uchun murabbiylik tadbirlarini joriy etish "Pedagog kouching" atamasi keng doirani qamrab oladi o’quvchilar uchun va ta’lim doirasidagi natijalarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar sozlamalar. Murabbiylik to’g’ridan to’g’ri o’qituvchilar, talabalar va a’zolar bilan qo’llaniladi ta’lim hamjamiyati. Ushbu maqolada biz kouching haqida turli usullar haqida umumiy ma’lumot berishdan oldin "ta’limda murabbiylik" murabbiylik ta’lim muassasalarida ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Murabbiylik tadqiqotida davom etayotgan muammo bu murabbiylikni aniq aniqlashdir topilgan tadqiqotlarda metodologiya yoki yondashuv. Ba’zi tadqiqotlar aniq ko’rsatsa-da tavsiflar, boshqalari haqiqiy aralashuvni aniqlamaydi, bu esa taqqoslashni qiyinlashtiradi. Murabbiylik bo’yicha chop etilgan bo’ylama miqdoriy tadqiqotlar sezilarli darajada kam ta’lim sozlamalari, shu bilan uzoq muddatli ta’siri haqidagi bilimimizni cheklaydi maktablarda murabbiylikni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Biz o’qituvchilarga o’z fanlarini har bir tizimning o’rganish obyekti, metodologiyalari, tushunchalari, nazariyalari, topilmalari yoki ijodlari bo’lgan bilim tizimlari sifatida ko’rishni tavsiya qilamiz. Shuningdek, o’qituvchilarni o’zlarining bilim tizimlarining kelib chiqib va ta’lim jarayonini tashkil etishlari lozim. Bundan tashqari, o’qituvchilar o’zlarining bilim tizimiga aniq odamlarning rollarini kiritishlari mumkin. Har bir koucher har xil, lekin odatda yuqorida sanab o’tilgan barcha qadamlar koucherlik texnologiyasining har bir bosqichida mavjud. Har bir koucherlik sessiyasi tarbiyachi uchun maqsadga erishish uchun hal qilinishi kerak bo’lgan ba’zi bir vazifa bilan keladi va shuning uchun mavjud vaziyat, mavjud resurslar va nima yaxshi bo’lishini bilish uchun reja tuzilishi muhimdir.

Kouching texnologiyasining asosiy xususiyatlari:

- davri (haftada 1-2 marta, koucherlik mashg’ulotlarining davomiyligi o’rtacha 30 dan 90 minutgacha, koucherning o’zi o’rtacha 2 oydan 1 yilgacha, ba’zan uzoqroq maqsad va vazifalarga qarab);
- sessiyalar oralig’ida mijozning mustaqil ishi (uy vazifasi);
- koucherlar tomonidan nazorat qilinadigan muayyan suhbat rejasi mavjud, agar tarbiyachi mavzudan chetga chiqsa, koucher suhbatni to’g’ri yo’lga qaytaradi:
  - har bir koucherlik mashg’ulotidan so’ng xulosa tuziladi, ushbu mashg’ulotdan keyingi mashg’ulot oralig’idagi davr uchun chora-tadbirlar rejasi tuziladi. Koucher shunchaki savol bermaydi balkim, u so’raydi, fikr bildiradi va tarbiyachiga hali so’ramagan yoki berishni istamagan savollariga javob topishga yordam beradi, shuningdek, tarbiyachi tomonidan ilgari o’rganilgan muammoga boshqa tomondan yondashishga yordam beradi. Koucherlik san’ati - tarbiyachining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam berishdir. Koucherlik pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun tarbiyachilarni tayyorlash shakli sifatida tarbiyachilarga;
  - o’qituvchilarning samarali yo’nalishdagi qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan o’zaro munosabatlarni yaxshilaydi;
  - ularda belgilangan maqsadlarga erishishda samarali yordam ko’rsatadi kasbiy faoliyatda o’sish imkonini beradi.

Pedagogik bilimlar deganda ta’limni osonlashtiradigan o’qitish usullari va strategiyalarini tushunish va qo’llash tushuniladi. U o’quvchilarning qanday o’rganishi, o’quv rejasining tabiati, o’qitish va o’qitishda texnologiya integratsiyasi haqidagi bilimlarni o’z ichiga oladi. Pedagogik bilimlar o’qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo’lib, ularning darsdagi qarorlari va harakatlariga ta’sir qiladi. Instruktor murabbiylari uchun pedagogik bilim faqat turli xil o’qitish usullarini bilishdan iborat emas; bu usullarni turli kontekstlarda qanday qilib samarali amalga oshirish mumkinligini tushunish haqida. Bu o’qituvchilarga ushbu bilimlarni o’z sinflarida qo’llashda yordam berish, o’quvchilarning noyob ehtiyojlarini qondirish uchun strategiyalarni ishlab chiqishdir. Pedagogik bilimlar o’rganish nazariyalari, o’qitish strategiyalari, sinfni boshqarish texnikasi va baholash usullari haqidagi bilimlarni o’z ichiga olgan bir qancha asosiy komponentlarni o’z ichiga oladi. Ushbu komponentlarni tushunish o’qituvchi murabbiylariga o’qituvchilarga maqsadli yordam ko’rsatish, ularning o’qitish amaliyotini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, ta’lim nazariyalari o’quvchilar bilim va ko’nikmalarni qanday egallashlari haqida tushuncha beradi. Ta’lim strategiyalari mazmunni yetkazish va o’rganishni osonlashtirish uchun qo’llaniladigan usullarni nazarda tutadi, sinfni boshqarish usullari esa ijobiy ta’lim muhitini yaratish strategiyalarini o’z ichiga oladi. Boshqa tomondan, baholash usullari o’quvchilarning o’rganishini o’lchash va ta’limni xabardor qilish uchun ishlatiladi. Samarali o’qitish uchun pedagogik bilim juda muhimdir. Bu o’qituvchilarga qanday o’qitish usullarini qo’llash, darslarini qanday tuzish va o’z sinflarini qanday boshqarish haqida ongli qaror qabul qilish imkonini beradi. Pedagogikani yaxshi tushunmagan holda, o’qituvchilar o’quvchilarni o’rganishga jalb qilishda qiynalishi mumkin, bu esa o’quv yutuqlarining pasayishiga olib keladi. O’qituvchi murabbiylar uchun pedagogik bilim bir xil darajada muhimdir. Bu ularning faoliyatining asosini tashkil etib, ularga o’qituvchilarga o’z amaliyotini takomillashtirishda zarur yordam ko’rsatish imkonini beradi. Pedagogikani tushungan holda, murabbiylar o’qituvchilarga samarali o’qitish strategiyalarini amalga oshirishda, o’z sinflarini samarali boshqarishda va o’z yo’riqnomalarini xabardor qilish uchun baholash ma’lumotlaridan foydalanishda yordam berishi mumkin. Ta’lim bo’yicha kouching - bu o’qituvchilarga samarali o’qitish strategiyalarini amalga oshirishda shaxsiylashtirilgan, doimiy yordam ko’rsatadigan kasbiy rivojlanish shakli. Bu hamkorlikdagi jarayon bo’lib, o’qituvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilib, ularning o’qitish amaliyotini yaxshilashga qaratilgan bo’lib, yakuniy maqsad o’quvchilar bilimini yaxshilashdir. Murabbiylik ko’plab ta’lim yetakchilik dasturlarining asosiy tarkibiy qismidir. Ishtirokchilar odatda murabbiy bilan yakkama-yakka mashg’ulotlar o’tkazish va ba’zilarini ham o’tkazishi mumkin (odatda cheklangan) murabbiylik malakasini oshirish. Kouching rivojlantirish bo’yicha murabbiylar eng qiyin ishlayotgan o’rta darajadagi yetakchilarni qo’llab-quvvatlash uchun faoliyat yuritadi. Koucher va murabbiy o’rtasidagi munosabatlar, bu ularning murabbiy sifatidagi roliga ta’sir qildi. O’qituvchi murabbiylar o’qituvchilarning kasbiy o’sishini qo’llab-quvvatlashda muhim rol o’ynaydi. Ular o’qituvchilarga o’z amaliyotlari haqida fikr yuritish, yaxshilash uchun yo’nalishlarni aniqlash va yangi strategiyalarni amalga oshirishga yordam beradi. Ular, shuningdek, o’qituvchilarga o’z qobiliyatlariga ishonchni mustahkamlashga yordam berib, fikr-mulohaza va dalda beradi. Koucherlar o’qituvchilarni qo’llab-quvvatlash uchun turli xil strategiyalardan foydalanadilar, jumladan, modellashtirish, kuzatish, fikr-mulohazalar va hamkorlikda rejalashtirish. Modellashtirish samarali o’qitish strategiyalarini namoyish qilishni o’z ichiga oladi, kuzatish esa murabbiylarga o’qituvchilarning ushbu strategiyalarni amalga oshirishini baholashga imkon beradi. Fikr-mulohazalar o’qituvchilarga konstruktiv tanqid va takomillashtirish bo’yicha takliflar beradi va hamkorlikda rejalashtirish dars rejalari va o’quv materiallarini ishlab chiqishda birgalikda ishlashni o’z ichiga oladi. Bu strategiyalar alohida foydalanilmaydi; balki ular murabbiylikka kompleks yondashuv bilan birlashtirilgan. Bu yondashuv har bir o’qituvchining shaxsiy kuchli, zaif tomonlari va maqsadlarini hisobga olgan holda uning ehtiyojlariga moslashtiriladi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, o’quv mashg’ulotlari o’qitish va o’rganishga sezilarli ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bu o’qituvchilarning ta’lim amaliyotini yaxshilashga, talabalarning faolligini oshirishga va o’quvchilarning yuqori yutuqlariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, u o’qituvchilar o’rtasida uzluksiz o’rganish va takomillashtirish madaniyatini rivojlantirishi, kasbiy o’sish va hamkorlikni rag’batlantirishi mumkin.

**Xulosa.** Biroq o’quv mashg’ulotlarining samaradorligi bir qancha omillarga bog’liq, jumladan, murabbiylik sifati, o’qituvchilarning xushmuomalaligi va maktab rahbariyatining qo’llab-quvvatlashi. Shu sababli, maktablar yuqori sifatli murabbiylik dasturlariga sarmoya kiritishlari va murabbiylik rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishlari muhimdir. Pedagogik bilimlar bo’yicha murabbiylik o’qituvchilarga ta’lim nazariyalari, o’qitish strategiyalari, sinfni boshqarish va baholash kabi sohalarida maqsadli yordam ko’rsatishni o’z ichiga oladi. Bu o’qituvchilarga o’quvchilar qanday o’rganishini tushunishga yordam berish, samarali o’qitish usullarini ko’rsatish, sinfni boshqarish usullari haqida fikr bildirish yoki baholash ma’lumotlarini tahlil qilishda yordam berishni o’z ichiga olishi mumkin. Ushbu turdagi koucherlarning maqsadi o’qituvchilarning pedagogik bilim va ko’nikmalarini oshirish, ularga samarali o’qitish

strategiyalarini amalga oshirish va talabalarning bilimni yaxshilash imkonini beradi. Bu pedagogikani chuqur tushunishni, shuningdek, konstruktiv fikr-mulohaza va yordam berish qobiliyatini talab qiladi. O‘quv mashg‘ulotlari juda samarali bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, uning qiyinchiliklari yo‘q emas. Bularga o‘qituvchilarning qarshiliklari, maktab rahbariyatining yordamining yetishmasligi va cheklangan resurslar kiradi. Ushbu qiyinchiliklarni tushunish o‘qituvchi murabbiylari uchun juda muhim, chunki bu ularga ularni yengish va murabbiylik ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. O‘qituvchilarning qarshilik ko‘rsatishi turli omillardan, jumladan, tanqiddan qo‘rqish, murabbiyga ishonchsizlik yoki o‘zgarishlardan noqulaylikdan kelib chiqishi mumkin. Ushbu qarshilikni bartaraf etish uchun murabbiylar o‘qituvchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishlari, ishonchni o‘rnatishlari va qo‘llab-quvvatlovchi, tanqidsiz fikr-mulohazalarni taqdim etishlari kerak.

Ushbu yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib shunday xulosa qilish mumkin: koucherlik bu inson salohiyatini ochish san’atidir. Hozirgi davr talabi bo‘lgan kreativ fikrlovchi yosh avlodni kamolga yetqizishda xizmat qiladigan tarbiyachilar bilan kouching texnologiya asosida ish olib boish uning ilmiy salohiyatini ochishga va komil insonlarni tarbiyalashdek mashaqqatli mehnatlarida ildam harakat qilishga yordam beradi. Maqolani buyuk faylasuf olim Konfutsiyning quyidagi fikrlari bilan yakunlamoqchiman: “Faqat ilm izlaganlarga ko‘rsatma bering. Faqat o‘z fikrlarini aniq ifoda etishni bilmaganlarga yordam bering. Maydonning bir burchagini o‘rganib, qolgan uchtasini tasavvur qilishga qodir bo‘lganlarga o‘rgating”. Ushbu jarayonda o‘z oldiga kasbiy va shaxsiy o‘shish, shaxsiy kompetentsiyani oshirish vazifasini qo‘ygan tarbiyachilarga individual yordam ko‘rsatiladi. Kouching texnologiyasi tarbiyachilarni ijtimoiy tashabbuskor, faol, kreativ, o‘z fikrini erkin bayon eta olishlari uchun asosiy daturul amal bo‘la oladi deb hisoblaymiz. Shunday ekan zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimiga ushbu texnologiyani jadallik bilan olib kirib, amaliyotga qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga samarali hissa qo‘shadi.

#### Adabiyotlar:

1. Shabanov A.G. Yoshlarning ijtimoiy faolligi ijtimoiy-pedagogik hodisa / A.G. Shabanov // Sibir pedagogikasi jurnali. - 2010. - No 2. - B. 384–393. - 0,7 p.l.
2. <file:///C:/Users/User/Downloads/autoref-formirovanie-sotsialnoi-initsiativnostistudentov-sredstvami-kouching-tekhnologii.pdf>
3. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0742051X21001086>
4. “Coaching to support teacher technology integration in elementary classrooms” Yin-Chan Liao
5. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0742051X22000683>
6. <https://www.maam.ru/detskijasad/pedagogicheskaja-ideja-kouching-kakinovacionaja-forma-podgotovki-nachinayuschih-pedagogov-k-vzaimodeistviyu-sdetmi-i-roditeljami.html>
7. Karimova B. K., & Oripova M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness.
8. Karimova M. O., & Saidullaeva A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. // PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8547-8555.

## МАНИПУЛЯЦИЯ ПСИХОЛОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА

*Давронов Фирдавс Пардабой ўгли,  
Низомий номидаги Тошкент давлат  
педагогика университети мустақил тадқиқотчи  
firdavsdavronov@gmail.com*

*Мазкур мақола манипуляцияни психологик феномен сифатида ўрганишга бағишланган. Унда манипуляциянинг турли соҳа ва даврлардаги таърифлари ҳамда унинг ижтимоий муносабатлардаги аҳамияти таҳлил қилинади. Психологияда манипуляциянинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, унинг ахлоқий жиҳатлари, шунингдек, унинг ижтимоий ва профессионал соҳалардаги қўлланилиши усуллари ҳам кўриб чиқилган. Манипуляциянинг стратегик усуллари, унинг ижтимоий таъсири ва эҳтимолий хавфлари таҳлил қилинади.*

**Калит сўзлар:** *манипуляция, психологик феномен, ижтимоий таъсир, ахлоқий жиҳатлар, шахсият хислатлари, профессионал муҳит, ижтимоий муносабатлар.*

## МАНИПУЛЯЦИЯ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

*Данная статья посвящена изучению манипуляции как психологического феномена. В ней рассматриваются определения манипуляции в различных сферах и эпохах, а также её значение в социальных взаимодействиях. Исследуется возникновение и развитие манипуляции в психологии, её этические аспекты, а также применение в социальных и профессиональных областях. Анализируются стратегические методы манипуляции, её социальное влияние и потенциальные риски.*

**Ключевые слова:** *манипуляция, психологический феномен, социальное влияние, этические аспекты, черты личности, профессиональная среда, социальные взаимодействия.*

## MANIPULATION AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

*This article is dedicated to the study of manipulation as a psychological phenomenon. It examines the definitions of manipulation across various fields and eras, as well as its significance in social interactions. The emergence and development of manipulation in psychology, its ethical aspects, and its applications in social and professional contexts are explored. The strategic methods of manipulation, its social influence, and potential risks are analyzed.*

**Keywords:** *manipulation, psychological phenomenon, social influence, ethical aspects, personality traits, professional environment, social interactions.*

**Кириш.** Ахборот технологиялари ривожланиши, натижада инсонлар орасида маълуот алмашилиш жараёнинг тезлашиб бориши фонида, жамиятда зарарли ахборотлардан ҳимоланишга бўлган эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Хусусан инсонларга ахборот орқали таъсир ўтказишда манипуляциянинг роли ортмоқда.

**Тадқиқот методологияси ва адабиётлар таҳлили.** Манипуляция тушунчаси кўп қиррали ва мураккаб бўлиб, унинг таърифлари ва тушунчалари турли замонлардаги кенг кўламда ўрганилган. Манипуляция турли илмий соҳаларда, жумладан, психология, ижтимоий фанлар, сиёсат, ва иқтисодиётда турлича талқин қилинади. [1] Мазкур мақолада манипуляция тушунчаси психологик феномен ва илмий муаммо сифатида таҳлил қилинади, унинг ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий жабҳалардаги роли кўриб чиқилади.

“Манипуляция” атамаси латинча “manipulus” сўзидан келиб чиққан бўлиб, бошланғич маънолари бир ховуч, бир гуруҳ ёки Рим армиясидаги кичик отрядни англатган. Замонавий маъноларидан бири, ушбу атама бошқа шахсларнинг хулқ-атворида таъсир қилиш жараёнини англатади. Луғатлардаги таърифлар, масалан, Д.Ушаков, Т.Ефремов ва Оксфорд луғатлари, манипуляциянинг яширин таъсир қилишни ўз ичига олишини таъкидлайди.

Манипуляция тушунчаси фаолият соҳаларига қараб турлича талқин қилинади, аммо шунга қарамадан унинг асосий хусусияти - мақсадни яширин амалга ошириш орқали бошқа инсонларнинг фикр ва хатти-ҳаракатларига таъсир қилади. [2]



Психологияда манипуляция бошқа шахсларнинг фикр ва хатти-ҳаракатларини ўзгартиришга йўналтирилган яширин таъсир тури сифатида ўрганилади. [3] Психология фанлари доктори, Тюмен давлат университети профессори Е.Доценко ҳамда психология фанлари доктори, психотерапияда эклектик ёндашув асосчиси Э.Шостром манипуляцияни ижтимоий таъсирнинг бир тури деб ҳисоблайдилар. Улар манипуляциянинг асосий хусусияти сифатида яширин ниятлар ва алдамчи усуллар орқали бошқа шахсларга таъсир қилишни таъкидлайдилар. [4]

Сиёсатда манипуляция ҳукмронлик қилиш ва иродани назорат қилиш воситаси сифатида намоён бўлади. Сиёсатчилар ва оммавий ахборот воситалари манипуляция орқали электорат фикрини ўзгартиришга ҳаракат қиладилар. Иқтисодий жараёнларда эса, манипуляция воситасида реклама ва чегирмалар орқали истеъмолчиларнинг маҳсулотга бўлган қизиқишини ошириш мақсад қилинади.

Манипуляциянинг ижтимоий-этик жиҳатлари унинг мақсадлари ва кутилаётган натижалар билан боғлиқ. Е.Доценко фикрича, агар манипуляция объект манфаатларига зиён етказмаса, уни зарарсиз деб баҳолаш мумкин. Бироқ манипуляция жараёнининг яширинлиги кўпинча унинг аҳамиятини тушунишни қийинлаштиради.

Фалсафа доктори, “Нью-Мексико” университети фахрий профессори Р.Миллер одамларнинг қарорларига таъсир ўтказиш учун қўлланиладиган турли психология тактикалари ва технологиянинг роли ҳақида сўз юритиб, технологияларнинг ривожланиши нафақат манипулятив таъсир ўтказишни осонлаштирганлигини ва масофавий иш шароитлари учун қулай муҳит яратганлигини таъкидлайди. [5]

Манипуляцияда икки асосий иштирокчи мавжуд: манипулятор ва манипуляция қурбони. Манипулятор мақсадларини яширин тарзда амалга оширишга ҳаракат қилиши орқали объектни ўз таъсири қаршисида психологик заиф субъектга айлантиради. [6]

Ижтимоий муносабатларда манипуляция субъект ва объект ўртасидаги ўзаро таъсирни белгилаб беради. Манипуляция субъектларининг мақсади объектларнинг заиф томонларидан фойдаланган ҳолда уларнинг хатти-ҳаракатига таъсир қилиш бўйича ўз стратегияларини ишлаб чиқади. [7]

Объектнинг руҳий ҳолати таҳлил қилинса, манипуляция аслида зўравонлик эмас, балки васваса эканлигини кўриш мумкин. Манипуляция ижтимоий муносабат воситаларидан бири бўлиб, унинг кўриниши манипулятор мақсадларидан келиб чиқиб белгиланади.

Кўпол равишда ҳамда малакасизлик билан амалга оширилган манипуляциялар норозиликларга сабаб бўлади ва зиддиятли ҳолатларни келтириб чиқаради. Юқори савияда амалга оширилган манипулятив таъсир кўпинча ҳурматни, нозик ва чиройли тарзда амалга оширилган таъсир эса, хайратни келтириб чиқаради.

Профессор, социология фанлари доктори, Ҳалқаро ахборот технологиялари академияси академиги В.Шейнов ва профессор, социолог ҳамда сиёсатшунос С.Кара-Мурза манипуляциянинг субъекти ва объекти ўртасидаги тенглик ва нотенглик муаммосини кенг тадқиқ қилишган. Уларнинг фикрича, субъект ва объект яширин психологик таъсир ўтказилиши жараёнида тенг имкониятларга эга бўлади. [8]

**Натижалар.** Хусусан, манипуляция амалга оширилиши жараёнида объект ўзига нисбатан бўлаётган таъсирни англайди ва уни тўхтатиш ёки жараёнда иштирокини давом эттиришга ҳар доим унда танлов имконияти мавжуд бўлади. Агар объект ўтказилган таъсир натижасида ўз қарашларини, кайфиятини ва мақсадларини ўзгартирса, манипуляция амалга оширилган ҳисобланади. Агар таъсир объекти шубҳаланса ва ўз руҳий ҳолатини қатъийлик билан ҳимоялаш позициясига ўтса, у қурбон ҳисобланмайди.

Мазкур ўринда шуни таъкидлаш керакки, барча ижтимоий муносабатларга киришувчи субъектлар бошқа субъект томонидан бўладиган руҳий таъсирни пайқаш салоҳиятига эга бўлмайдилар. Аксинча, ўтказилган бир қатор тажрибалар шуни кўрсатадики, манипуляция тасирга тушишга бўлган мойиллик ёки бошқача қилиб айтганда “манипуляцияга қарши иммунитет” одамларнинг ёши ва жамиятда эгаллаб турган ижтимоий мавқеига қараб ўзгариб туради.

Манипуляцияда турли стратегиялар ва психологик механизмлар қўлланилади. Масалан, фаол, пассив ва аралаш манипуляторлар турлари мавжуд. Жумладан:

**Фаол (қучли) манипулятор.** Бунда манипулятор стратегияси юқори даражадаги ваколат ва ресурсларни бошқаришга асосланади. Шахсларни бошқаришга бўлган истак манипуляторнинг асосий мотивларини шакллантиради. Манипулятор учун ҳокимиятга доимий равишда интилиш ҳаётнинг асосий фалсафаси бўлиб, у одамларни ҳақиқий ёки потенциал рақиб сифатида кўради. Қоида тариқасида, таъсир субъекти ўзининг ижтимоий мавқеидан фойдаланади, масалан, ота-она, раҳбар, ўқитувчи ва бошқалар. У ўзгаларнинг заифлигига (жисмоний, ахлоқий, моддий ва б.) таянади ва улар

устидан назоратга эришади. Ушбу турдаги манипулятор учун таъсир объектлари унинг иродасини бажарувчилар бўлганлиги сабабли, экстремал вазият учун барча жавобгарлик манипуляторга юкланади. Фаол манипуляторнинг фалсафаси ғалаба қозониш ва ҳукмронлик қилишдир.

**Пассив (заиф, юмшоқ) манипулятор.** Пассив манипулятив стратегиялар заифроқ ҳокимият даражасига ва ресурслар устидан назоратга асосланган. Ушбу стратегиялардан фойдаланадиган манипулятор фаол манипуляторнинг мутлақо тескарасидир: у ўзини ночор ва аҳмоқ қилиб кўрсатиб, мағлуб ролини бажарган ҳолда ғалаба қозонади. Пассив манипулятор объектнинг эркин ҳаракатланишига ҳамда раҳбарлик қилишига изн беради, вазият учун барча жавобгарликни объектнинг зиммасига юклайди. Мазкур типдаги манипуляторлар асосан аёллар, болалар ва кекса ёшли шахслар ҳисобланади.

**Аралаш манипулятор.** Бунда субъект вазиятдан ёки объектдан келиб чиққан ҳолда фаол ёки пассив стратегиялардан фойдаланади. Аралаш манипуляторнинг фалсафаси ўз мақсадларига (бошқаларни назорат қилиш ва жавобгарликдан қочиш) ҳар қандай воситалар билан эришишдир. Мазкур турдаги манипуляторлар универсал манипулятор деб ҳам номланади.

Э.Шостромнинг назариясига кўра, манипулятор ҳаётга ва одамларга нисбатан турлича муносабатда бўлади. Ёлғон ва онгсизлик манипуляция жараёнида муҳим роль ўйнайди, чунки манипулятор ўз ниятларини яшириб, объектнинг ишончини қўлга киритади. [9]

Э.Шостром томонидан ишлаб чиқилган стратегияга кўра, фаол ва пассив манипуляторлар бир нечта жуфтлаштирилган вариантларга бўлинади.

<b>Фаол стратегиялар</b>	<b>Пассив стратегиялар</b>
<b>Диктатор</b> - ўз ҳокимиятини урғу беради. Усуллари: кучлар, буйруқлар, қонунга, кўрсатмаларга, ҳокимиятга таянади.	<b>Заиф</b> – камтарлигига урғу беради. Усуллари: рози бўлади, кўнгил очади, қаршилиқ қилмайди, хушомад қилади ва ўзини камситади.
<b>Тажовузкор</b> ўзининг шафқатсизлигига, душманона кайфиятига урғу беради. Усуллари: таҳдид қилади, ҳақорат қилади, жисмоний таъсир кўрсатади.	<b>Яхши йиғит</b> - ўзининг дўстоналиги ва эътиборига урғу беради. Усуллари: “севги билан забт этади”, мамнун қилади, ғамхўрлик қилади. Унга қаршилиқ кўрсатиш агрессорга нисбатан қаршилиқ кўрсатишга қараганда қийинроқ бўлиши мумкин.
<b>Ҳакам</b> – танқидийлигига урғу беради. Усуллари: айблайди, ахлоқга чорлайди, виждонга чақиради, ғазабланади, қора-лайди, шарманда қилади, кечирмайди, ишонмайди.	<b>Айбдор</b> – ўзини айбдор сифатида кўрсатишга урғу беради. Усуллари: ўзини айблайди, тавба қилади, кечирим сўрайди, айбини ювишни таклиф қилади, натижада зиддиятнинг олдини олади.
<b>Ақлли йиғит</b> - интеллектуал қобилиятларига урғу беради. Усуллари: танқид қилади, хатоларга ишора қилади, қобилиятсизлик, ҳокимиятдан иқтибослар келтиради.	<b>Чойнак</b> – ўзини қобилиятсиз сифатида кўрсатишга урғу беради. Усуллари: ўзининг ақлий қобилият-ларини камситади, билими, тажрибаси етишмаслигини, унутувчанлигин намоён қилади.
<b>Том</b> - вазиятни назорат қилиш қобилиятига урғу беради. Усуллари: тинчлантиради, ташвиш, кўркувни йўқотади, барча муаммоларни ўз зиммасига олишини айтади.	<b>Шивирловчи</b> - вазиятга доим боғлиқ бўлишга урғу беради. Усуллари: раҳм-шафқат уйғотади, бировнинг ғамхўрлигининг объекти бўлишни хоҳлайди, бошқаларга ўз ишини бажаришига имкон беради.
<b>Ташвиқотчи</b> - ҳар қандай бизнесга бўлган қизиқишни оширишга урғу беради. Усуллари: манипуляция объектнинг ҳар қандай ҳаракатларининг аҳамиятини ошириб кўрсатади, илҳомлантиради, оптимизм билан руҳлантиради.	<b>Ажратилган</b> - ўзининг бефарқлигига урғу беради. Усуллари: ҳеч қандай ишга ёки муносабатларга қизиқиш билдирмайди, гарчи бундай бўлмаса ҳам, фаоллик кўрсатмайди, доим пессимистик баёнотлар билан мурожат қилади.
<b>Ҳимоячи</b> ўзгани камситишга урғу беради. Усуллари: маънавий қўллаб-қувватлайди, ҳимоя қилишни ваъда қилади, ҳамдардлик билдиради, тасалли беради, чексиз даражада объектни оқлайди.	<b>Қурбон</b> – ўзининг қийинчиликлари ва шикоятларини бўрттириб кўрсатишга урғу беради. Усуллари: ўзининг бахтсиз -ликлари ва муваффақиятсизликлари ҳақида гапиради, ўзини “бўрилар подасидаги бегуноҳ қўй” сифатида кўрсатади, тақдирдан шикоят қилади.

Психолог ҳамда психиатр М.Канторнинг фикрича, ишонувчан, таъсирчан, содда ва бўйсунмишга мойил шахслар психопатик манипуляторларга нисбатан заифроқдир. Бу тоифадагилар манипуляциянинг турли шаклларига осонгина берилувчи шахслар қаторига киради. [10]

Британиялик файласуф ҳамда психолог Р.Харе ва психология фанлари доктори, профессор П.Бабиакнинг назариясига кўра, манипуляция жараёни уч босқичдан иборат: баҳолаш, манипуляция қилиш ва алоқани тугатиш босқичлари. [10]

**Баҳолаш босқичи.** Биринчи босқичда манипулятор таъсир объектининг моддий, маънавий ҳолатини, жисмоний ва жинсий потенциалларини ҳамда таъсир манбаи сифатидаги имкониятларини баҳолайди. Манипулятор потенциал жабрланувчининг заиф томонларини аниқлаб олади ва унга таянган ҳолда ўз стратегиясини тузади.

**Манипуляция босқичи.** Ушбу босқич аввалида манипулятор манипуляция учун мўлжалланган махсус никобига (*образ ёки ҳолат*) киради. Жараённинг моҳирона амалга оширилиши учун тўқима образдаги сохта маълумотларни объектга етказа бошлайди ва кўзлаган мақсадига эришмагунга қадар объектга таъсир ўтказишда давом этади.

**Алоқани тугатиш босқичи.** Яқунловчи босқичда манипулятор ўз мақсадига эришганлигини ва объект билан алоқа қилишдан наф йўқлигини англагандан сўнг муносабатлар дастлабки ҳолатига қайтарилади.

**Хулоса.** Мавзуни тадқиқ қилиш натижасида ўрганилганлардан келиб чиққан ҳолда шуни хулоса қилиш мумкинки, манипуляция психологик феномен сифатида инсонларнинг ожиз томонларига таъсир қилиш тактикасига асосланади ва шахсларнинг хатти-ҳаракатига яширин таъсир кўрсатиш жараёнини ўз ичига олади.

Манипуляция жамиятда, иқтисодиётда, сиёсатда ва ижтимоий муносабатларда кенг тарқалган бўлиб, унинг мақсадлари ва натижалари жамиятнинг ривожига турли даражада таъсир кўрсатади. Манипуляция жараёнини тушуниш ва унинг ижобий ёки салбий таъсирларини баҳолаш ижтимоий муносабатларни яхшилашга ёрдам беради.

**Тавсия.** Инсонларнинг ўз мақсадларини аниқ белгилаб олиши ва ундан келиб чиққан ҳолда ҳаракатларини сарҳисоб қилиши манипулятив таъсирга тушиш ҳамда манипулятор манфаатлари йўлида ҳаракатланишдан сақланишнинг бирламчи самарали усули сифатида кўрилади.

#### Адабиётлар:

1. J.Smith, Understanding Manipulative Behavior: A Psychological Perspective. Psychology Today, 2019, pp. 12-14.
2. A.Brown, The Evolution of Psychological Terms: A Deep Dive into Manipulation, Oxford University Press, 2020, pp. 45-49.
3. R.Hare & P.Babiak, Snakes in Suits: When Psychopaths Go to Work, Harper Business, 2006, pp. 75-80, 83-88.
4. Е.Доценко, Психология манипуляции, феномены, механизмы и защита, 1996, с. 4.
5. R.Miller, Manipulation in the Workplace: How Technology Influences Behavior, Psychology Today, 2021, pp. 16-20.
6. L.Johnson, Manipulation as a Form of Social Influence: A Review, ResearchGate, 2021, pp. 22-28.
7. E.Thompson, Political Influence and Manipulation: Strategies for Control, SAGE Journals, 2020, Vol. 32, Issue 4, pp. 134-140.
8. С.Кара-Мурза, Манипуляция сознанием, 2004, с. 58.
9. Э.Шостром, Человек-манипулятор. Внутреннее путешествие от манипуляции к актуализации, 2004, с. 47.
10. M.Kantor, The Psychopathy of Everyday Life: How Antisocial Personality Disorder Affects All of Us, 2004, p. 208.

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING AXBOROT  
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNI LOYIHALASH**

*O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
“Informatika va uni o'qitish metodikasi” kafedrası o'qituvchisi  
oktamovm03@mail.ru*

*Ushbu maqola pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida axborot kompetentligini shakllantirish jarayonini loyihalashga bag'ishlangan. Axborot kompetentligi zamonaviy ta'limda muhim o'rin tutib, talabalarni axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va uzatish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Maqolada ushbu kompetensiyani samarali shakllantirish uchun pedagogik strategiyalar, loyihalash metodlari va AKT vositalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Bu yondashuv talabalarning raqamli muhitda mustaqil va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot kompetentligi, oliy ta'lim, loyihalash, pedagogik strategiyalar, akt vositalari, axborotni izlash, axborotni tahlil qilish, raqamli ko'nikmalar, mustaqil ta'lim.*

**ПРОЕКТИРОВАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ  
СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА**

*Данная статья посвящена проектированию процесса формирования информационной компетентности у студентов педагогических высших учебных заведений. Информационная компетентность занимает важное место в современном образовании и предполагает развитие у учащихся умений искать, анализировать, обрабатывать и передавать информацию. В статье подчёркивается важность использования педагогических стратегий, методов проектирования и инструментов ИКТ для эффективного формирования данной компетентности. Данный подход направлен на поддержку самостоятельной и творческой деятельности студентов в цифровой среде.*

**Ключевые слова:** *информационная компетентность, высшее образование, проектирование, педагогические стратегии, инструменты действия, поиск информации, анализ информации, цифровые навыки, самостоятельное образование.*


**DESIGNING THE FORMATION OF INFORMATION COMPETENCE OF STUDENTS OF A  
HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION OF PEDAGOGY**

*This article is devoted to the design of the process of formation of information competence in students of higher educational institutions of pedagogy. Information competence occupies an important place in modern education and involves the development of students' skills in searching, analyzing, processing and transmitting information. The article highlights the importance of using pedagogical strategies, design methods and ICT tools for effective formation of this competence. This approach is aimed at supporting students' independent and creative activities in the digital environment.*

**Keywords:** *information competence, higher education, design, pedagogical strategies, act tools, information search, information analysis, digital skills, independent education.*

**Kirish.** Hozirgi vaqtda pedagogika fanidan juda ko'p dissertatsiya tadqiqotlari OTM talabalarining kompetensiyalarini shakllantirishga bag'ishlangan va kompetensiya modeli ishlab chiqilgan. Olimlar tomonidan ishlab chiqilgan modellar orasida I.A.Zimnyaya, V.I.Baydenko va boshqalarning modellari alohida ajralib turadi. Bizningcha, bu modellar metodologik ahamiyatga ega bo'lib, umumdaniy va kasbiy kompetensiyalarni modellashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu modellar kompetentli yondashuv hali keng tarqalmagan va model kompetensiya tushunchasi va uning tuzilishi, bosqichlari va hokazolarni belgilash talab qilinganda ishlab chiqilgan. Hozirda model kompetentli yondashuvni amalga oshirishning metodologik asoslanishini talab qiladi, ya'ni model amaliyotga yo'naltirilgan tavsifga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun biz ushbu paragrafda OTM talabalarining axborot kompetentligini modellashtirish jarayoniga asoslangan axborot kompetentlikni rivojlantirishni loyihalashning metodik aspektiga murojaat qilamiz.

**Metodika.** Nazariy va metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu modellarni tahlil qilish natijasida ko‘rsatilgandek, ularning ko‘pchiligi kompetentlik komponentlari va o‘lchanadigan elementlardan iborat iyerarxik tuzilma shaklida taqdim etilgan (1-rasm).



**1-rasm. Iyerarxik tuzilma shaklidagi kompetentlik modeli**

Ko‘pgina kompetentlik modellari, poliiyerarxikdir, ya‘ni har bir sinfda ikki yoki undan ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvchi sinflar mavjud. Iyerarxik kompetentlik modelining asosiy afzalligi uning deduktiv metodga asoslangan tuzilishining soddaligidir. Ushbu tuzilmaning muhim kamchiliklari modelning komponentlarining reytingidir, chunki bunday reyting har doim ham aniq emas. Bundan tashqari, Iyerarxik kompetentlik modelini qayta qurish ancha murakkab jarayondir, chunki kamida bitta komponentni o‘zgartirish yoki qo‘shish butun modelni qayta ishlashni talab qiladi. Bunday model pedagogik (yoki amaliyotga yo‘naltirilgan) emas, chunki uning sof shaklida umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar o‘quv jarayonida alohida mavjud emas, ular talabalarning intellektual yoki amaliy harakatlarining kombinatsiyasi tizimida namoyon bo‘ladi. Binobarin, ushbu kompetensiyalarni ajratib olish va ularni baholash va o‘lchash uchun nazorat va o‘lchov materiallarini tanlash qiyin.

**Amaliy qism.** Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz axborot kompetentligining faset tuzilmasini ishlab chiqdik (1-jadval).

**1-jadval.**


**Axborot kompetentlikning modeli**

Axborot kompetentligi	Ta‘lim yo‘nalishi	Kasb turi	Fan	Kurs	O‘quv reja bo‘limi	Metodik ta‘minot	Nazorat va o‘lchov materiallari
	Menejment	Inson resurslarini boshqarish	Informatika	1	Umumilmiy fanlar	Ishchi o‘quv dasturi, infografik kartalar banki	Integrallashgan testlar, infokartalar, infografikalar

Iyerarxik modeldan farqli o‘laroq, kompetentli model bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, undagi tuzilmaviy elementlarning reytingi yo‘qligi o‘quv jarayonini nafaqat qat‘iy Iyerarxik tizim sifatida, balki jarayon sifatida ham ko‘rib chiqish va tashkil qilish imkonini beradi. Ya‘ni, Iyerarxik modellar metodik ahamiyatga ega va tizimli fenomen sifatida o‘quv jarayonida axborot kompetentlik haqida tushuncha beradi, axborot kompetentlik nima, nimani shakllantirish kerakligi haqida tasavvur beradi. Shunday qilib, ular o‘qituvchiga oraliq va nazorat o‘rganish natijalari qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr beradi. Bunday holda, jarayoniy xususiyatlar hisobga olinmaydi, shuning uchun yuqoridagi modellar rejalashtirilgan natijalarni ta‘minlash uchun o‘quv jarayonini qayta qurish imkoniyatini bermaydi.

Ikkinchidan, shu nuqtayi nazardan, axborot kompetentlikning faset modeli o‘qituvchilar, talabalar va OTMning metodik xizmatiga axborot kompetentligi komponentlarida: o‘quv dasturida, kurslarda qanday namoyon bo‘lishini baholashga imkon beradi. Uchinchidan, bizning fikrimizcha, ijtimoiy boshlang‘ich faset modelining faoliyatli va natijaviy yo‘naltirilganligi birligi mavjud.

Yuqoridagilardan va tadqiqotimizda ko‘rib chiqqan axborot kompetentlikning mazmunidan kelib chiqib, uning modelini quramiz (2-rasm).



**2-rasm. Axborot kompetentligi modeli diagrammasi<sup>1</sup>**

Biz ishlab chiqqan axborot kompetentligi modeli eyler doiralari shaklida taqdim etilgan. Bizning fikrimizcha, aynan mana shu tuzilma har qanday kompetentlikning jarayoniy mazmunini, shu jumladan axborotni to‘liq aks ettiradi.

Bizning modelimiz markazida, barcha to‘rt komponent kesishgan joyda, yadrosi kompetentlikdir. Kasbiy kompetentlik - bu bitiruvchining mehnat bozorida raqobatbardoshligini va ijtimoiy moslashuvini ta‘minlaydigan universal bilim, ko‘nikma, sifat va malakalar. Ya‘ni bu kompetentlik kasbiy manfaatlar sohasidan qat‘i nazar, har qanday mutaxassisga xos bo‘lib, shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini aks ettiradi. Ular umumta‘lim bosqichida umumiy ta‘lim sifatida shakllanadi va keyinchalik OTMda o‘qish jarayonida to‘liq huquqli transprofessional sifatida shakllanadi. Doiralarning kesishish sohalari asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni bu har bir mutaxassislik uchun o‘ziga xos bo‘lgan kompetensiyalardir. Maxsus kompetensiyalar, ya‘ni talabalarni tayyorlash ixtisosligini aks ettiradi. Biz taklif etilayotgan model umumiy kompetensiya modelidir, uning asosida barcha kompetensiyalarni modellashtirish mumkin.


Axborot kompetentlik misolida ushbu tuzilmani tanlashni oqloylik. Bizning holatimizda asosiy nima? Bizningcha, axborot jamiyatining har qanday mutaxassisiga aynan shu narsa kerak. Yadro kompetensiyalari - bu kengaytirilgan mutaxassislik guruhleri (kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari) uchun xos bo‘lgan kompetensiyalar. Masalan, “Tashkilotlarni boshqarish” ixtisosligi iqtisodiy mutaxassisliklar guruhiga, “Menejment” yo‘nalishi ham “Iqtisodiyot va menejment” guruhiga kiradi.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, axborot kompetentlikning Iyerarxik modeli kompetentlik tuzilishi haqida tasavvur beradi; axborot kompetentlikning faset tuzilishiga asoslangan o‘quv jarayonini modellashtirish kasbiy, yadroviiy va maxsus kompetensiyalar orqali kelajakdagi kasbiy faoliyatni tizimlashtirishga yordam beradi; Biz ishlab chiqqan aylana modeli bizga o‘quv jarayonini loyihalash imkonini beradi.

Bizning modelimizdagi birinchi blok - "Kompetentlik komponentlari". Talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida ushbu komponentlarni ko‘rib chiqishga o‘tamiz.

Axborot kompetentlikni rivojlantirish vazifalaridan biri talabalarning axborot manbalari bilan ishlash qobiliyatidir: qanday ma‘lumot manbalari mavjudligini bilish, turli xil ma‘lumotlar manbalaridan foydalanish, to‘g‘ri ma‘lumot manbasini topa olish. nafaqat ta‘lim muammolarini, balki hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish. Shundan kelib chiqib, biz vazifalarni ishlab chiqdik, ularning bajarilishi axborot kompetentlikning kognitiv komponentini tashkil qiladi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan. Muallif O‘ktamov M – dissertatsiya ishi



**3-rasm. OTM talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish modeli**

Misol uchun, biz talabalarni an'anaviy kognitiv ma'lumot izlash strategiyalariga o'rgatganmiz va keyin ushbu strategiyalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy topshiriqlarni taqdim etdik. Tadqiqot quyidagi kognitiv strategiyalarni ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligini tasdiqladi (2-jadval).

**Axborotni izlash uchun asosiy kognitiv strategiyalar**

Mezonlar	Qidiruv turlari
1. Qidiruv maqsadi	1. Bibliografik qidiruv
	2. Hujjat qidiruvi
	3. Faktografik qidiruv
2. Mazmunli qidiruv	1. Universal qidiruv
	2. Mavzuiy qidiruv
3. Qidiruv metodi	1. To‘liq qidiruv
	2. Tanlab qidirish
	3. Intuitiv qidirish
	4. Induktiv qidirish
	5. Deduktiv qidirish
	6. Retseptiv qidirish
4. Adabiyotlar janri	1. Umumadabiy qidiruv
	2. Janrli qidiruv
5. Xronologik qamrov	1. Oraliq qidiruv
	2. Retrospektiv qidiruv
	3. Prospektiv qidiruv
6. Geografik qamrov	1. Umumjahon qidiruvi
	2. Davlatlararo qidiruv
	3. Mintaqalararo qidiruv
7. To‘liq qidiruv	1. Absolyut qidiruv
	2. Tanlangan qidiruv
8. Intensiv qidiruv	1. Tizimli qidiruv
	2. Turli xil qidiruv
9. Axborot iste‘molchisining toifasiga ko‘ra qidiruv	1. Ommaviy qidiruv
	2. Maxsus qidiruv
	3. Individual qidiruv

Keyinchalik, biz modelimizdagi motivatsion komponentni ko‘rib chiqamiz. Talabalarining axborot komponentligining motivatsion komponenti, bizning fikrimizcha, o‘z taqdirini o‘zi belgilash va kasbiy faoliyatni tanlash, uzluksiz ta‘lim yo‘llari va qo‘shimcha malakalarda yotadi.

**Xulosa.** Yuqorida aytib o‘tilganidek, talabalarining ta‘lim faoliyatining aspektlaridan biri ta‘lim va kasbiy muammolarni hal qilish uchun ma‘lumotlarni uzatish va o‘zlashtirishdir. Akademik turdagi haqiqiy o‘quv faoliyati asosan OTMda o‘quv jarayonini tashkil etishning an‘anaviy shakllarida, masalan, ma‘ruzalar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Ma‘ruza davomida talabalar ma‘lum bir mavzu bo‘yicha asosiy bilimlarni idrok etadilar, tushunadilar va shakllantiradilar. Amaliy mashg‘ulotlar, qoida tariqasida, muayyan harakatlar, qobiliyat va ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

**Adabiyotlar:**

1. Ўктамов Мададжон, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish. // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 432-434.
2. Abdirozzoqov Fayzulla, and Jasmina Tashpo‘lotova. "Methods of using the mytest program in the organization of final control processes for students of higher education institutions. // Молодые ученые 2.8 (2024): 88-90.
3. Madadjon O‘ktamov. "Pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talabalarining informatikadan axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi. // Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.
4. Jasmina Toshpo‘lotova, and O‘ktamov Madadjon. "Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish. // Pedagog 51.1 (2024): 115-119.
5. Madadjon O‘ktamov. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari. // Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
6. Uktamov M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training. // Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.



**AXBOROT TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK INFORMATIKA  
O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA‘LIMINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY-  
TASHKILY TUZILMASI**

*Orinbaev Ansatbay Amanbaevich,*

*Nukus davlat pedagogika instituti*

*“Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o‘qitish”*

*kafedrasi stajyor o‘qituvchisi*

*Zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda mustaqil ta‘lim alohida o‘rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hamma ma‘lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlarida berib bo‘lmaydi. Qo‘yilgan muammo va vazifalar bo‘yicha ma‘lum yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerak bo‘lgan mustaqil fikrlash ko‘nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlanib boradi. Mustaqil ta‘limni rivojlantirish, ayniqsa bu borada dasturiy-tashkiliy jihatlarni takomillashtirish masalalari maqolaning obyekti bo‘lib xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *mustaqil ta‘lim, metod, o‘qitish, informatika, dars, jarayon, texnologiya.*

**ПРОГРАММНО-ОРГАНИЗАЦИОННАЯ СТРУКТУРА РАЗВИТИЯ  
САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ  
ИНФОРМАТИКИ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

*Самостоятельное образование играет особую роль в подготовке всесторонне подготовленных, конкурентоспособных специалистов, способных отвечать требованиям времени, поскольку в настоящее время, когда спектр информации и знаний развивается быстрыми темпами, не вся информация может быть предоставлена только на уроках. Навык самостоятельного мышления, необходимый для достижения определённого решения поставленных задач и выбора оптимального его варианта, формируется и закрепляется в процессе самостоятельной творческой работы. Объектом статьи служат вопросы развития самостоятельного обучения, особенно, совершенствования программно-организационных аспектов в этом отношении.*

**Ключевые слова:** *самостоятельное обучение, метод, обучение, информатика, урок, процесс, технология.*

**SOFTWARE-ORGANIZATIONAL STRUCTURE FOR THE DEVELOPMENT OF  
INDEPENDENT EDUCATION OF FUTURE INFORMATICS TEACHERS THROUGH  
INFORMATION TECHNOLOGIES**

*Independent education has a special place in the training of well-rounded, competitive specialists who can meet the requirements of the times, because nowadays, when the range of information and knowledge is rapidly developing, not all information can be given only in classes. The ability to think independently, which is necessary to come to a certain solution for the given problems and tasks and to choose its optimal option, is formed and strengthened in the process of independent creative work. The development of independent education, especially the improvement of programmatic and organizational aspects in this regard, serves as the object of the article.*

**Keywords:** *independent education, method, teaching, informatics, lesson, process, technology.*

**Kirish.** “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”da “mustaqil ta‘lim” tushunchasi olingan bilim, ko‘nikma va malakani mustahkamlash, qo‘shimcha materialni o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli deb qaraladi. Ayni vaqtda ilmiy va o‘quv adabiyotlarda “Mustaqil ta‘lim olish”, “O‘zini tarbiyalash”, “Mustaqil o‘qish” tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning o‘quv faoliyatini kuzatish davomida shu narsa aniqlandiki, ongli qiziqish mustaqil faoliyatga undovchi, havas uyg‘otuvchi kuch bo‘lib hisoblanadi. Ongli qiziqish - mustaqil faoliyatning eng muhim ko‘rsatgichi, yuqori darajasidir. Bu esa ijtimoiy fandalardan dars berayotgan o‘qituvchilar mahoratining darajasiga bog‘liqligi sababli talabalarda u yoki bu fan yoxud kasb mutaxassisligiga nisbatan qiziqish shakllanadi.

Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg‘ulot turi mustaqil ta‘lim

bilan bog‘liq bo‘ladi. Mustaqil ta‘limning asosiy masalasi ham aynan talabning dars va darsdan so‘nggi faoliyati faolligini ta‘min etishga yo‘naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas‘uliyatni his qilishni ta‘min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat. Mustaqil ta‘lim ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalar hamda tajribalar zaxirasi asosida amalga oshadi. O‘quv fanlarini chuqur va puxta o‘zlashtirish, ta‘lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlarni mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish, ilmiy-ijodiy tafakkurni boyitish, o‘quv-biluv jarayonidagi savol-javob va bahs- munozaralarda faol qatnashish, o‘z fikr-mulohazasini asosli dalillar bilan bayon qilish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir talaba - bo‘lajak mutaxassis olida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘qitishning mazmuni va jarayonini tashkil etishga texnologik asosda yondoshish zarurligi XX asrning 30-yillarida buyuk pedagog A. S. Makarenko tomonidan uning: «Bizning pedagogik ishlab chiqarishimiz hech qachon texnologik mantiq asosida qurilmagan, balki u ahloqiy va‘zxonlikka asoslangan. Aynan shuning uchun ham: “texnologik jarayon, mehnat operatsiyalarini hisobga olish.., yordamchi uskunalar, me‘yorlash, qo‘yimlar, yaroqsiz mahsulotlar bo‘limi kabi ishlab chiqarishga hos bo‘lgan muhim bo‘g‘imlar unda o‘zidan o‘zi ishtiroksiz qolmoqda” [1] qabilidagi mulohazalaridan boshlab olg‘a surilgan bo‘lsada, lekin bunday g‘oyaning amalda o‘z tadbig‘ini topa borishi, asosan, XX asrning 50-yillariga to‘g‘ri keladi.

Pedagogik texnologiyalarga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlarida ta‘kidlanganidek, ularga oid g‘oyalar dastlab AQSh ning taniqli pedagoglari B. Skinner, B. Blum, D. Kravol, N. Gronlund, J. Kerrol, L. Andersen kabilar tomonidan ishlab chiqildi va keng ko‘lamda amaliyotga joriy etildi [3].

Shunga o‘xshash tadbirlar Angliya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarning xalq ta‘limi tizimlarida ham amalga oshirildi. 70-yillarning boshlaridan e‘tiboran, ushbu masalani hal etish yo‘lida YuNESKO ham katta ishlarni amalga oshirdi.

Pedagogik texnologiya g‘oyalarining sobiq Sho‘ro davlati va hozirgi Rossiya Federatsiyasi, shuningdek, MDH hududlarida keng quloch yoyishida taniqli pedagoglardan V.P. Bepalko, V.S. Bezrukova, M.V. Klarin, I.P. Podlasiy, V.M. Polonskiy, N.F. Talizina, M.J. Aristanov, J.S. Haydarovlarning xizmatlari kattadir. O‘zbekiston Respublikasida pedagogik texnologiyalar ilg‘or g‘oyalarining keng ko‘lamda ommalashuvida N.N. Azizxo‘jaeva, B.L. Farberman, R.H. Jo‘raev, U.N. Nishonaliev, N.S. Saidahmedov kabi bir qator pedagog-olimlar o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ushbu ishlarda pedagogik maqsadlarning qo‘yilishi, ularga erishish yo‘llari haqida juda qimmatli ma‘lumotlar o‘rin olgan [4].

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Respublikamiz oliy ta‘lim tizimida talabning mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘limni joriy etish borasida bir qator me‘yoriy xujjatlar qabul qilingan hamda unda belgilangan talablarni amalga oshirish borasida amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim shakli, bosqichi va yo‘nalishidan qat’iy nazar ta‘limning mazmuni keskin o‘zgarmagani holda uni talabalarga yetkazish borasida, amaldagi o‘quv rejalarida fanlar bo‘yicha umumiy soatlar miqdori deyarli saqlanib, mustaqil ta‘lim soatlari miqdorini bosqichma- bosqich ko‘paytirish hisobiga auditoriya mashg‘ulotlariga ajratilgan o‘quv soatlari miqdorining tobora kamaytirib borilishida ko‘zga tashlanmoqda.

Hozirgi kunda amaldagi o‘quv rejalariga ko‘ra aksariyat fanlar bo‘yicha mustaqil ta‘lim uchun ajratilgan soatlar miqdori umumiy soatning deyarli 50 foizini tashkil qilmoqda.

Ta‘lim yo‘nalishlarining amaldagi o‘quv rejalarida ayni bir fan uchun belgilangan umumiy o‘quv soati ikki qismga: auditoriya va mustaqil ta‘lim soatiga ajratilgan. Auditoriya soati o‘quv rejalarida auditoriya mashg‘ulotlari (ma‘ruza, amaliy, seminar va laboratoriya ishlari) uchun taqsimlangan holda berilgan. Mustaqil ta‘lim soati yaxlit holda berilgan bo‘lib, talabalarining mustaqil o‘quv faoliyatini qanday materiallar asosida yo‘lga qo‘yish har bir fanning o‘ziga hos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu fan o‘qituvchilarining uquvi, bilimi tajribasi va pedagogik mahoratiga havola qilingani holda mustaqil ta‘lim soatlarini bajarish tavsifi va ko‘rsatmalar bir qator me‘yoriy xujjatlarda berildi [5].

Mazkur loyiha doirasida oliy ta‘lim tizimida mustaqil ta‘lim talabalarining bilim olishdan maqsadlari va shu maqsadlarga qanday erishishlari – mavjud o‘quv resurslardan foydalangan holda amaldagi o‘quv dasturlari doirasidagi materiallarni qanday o‘zlashtirishlari bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilishlarini nazarda tutadi. O‘qituvchilar talabalarni ta‘lim olishdagi individul strategiyalarni shakllantirish bo‘yicha talabalarining intilishlarini olqishlash va to‘g‘ri yo‘naltira olishlari lozim. Talaba yakka holda samaraliroq ishlaydimi yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi, talaba vaqtini kutubxonada o‘tkazadimi, yoki unga Internet tarmog‘idagi mavjud elektron materiallardan foydalanish qulayroqmi – mustaqil ta‘lim sharoitida talaba ishni qanday qilib yaxshiroq, samaraliroq va qulayroq tashkil etish kerakligini o‘zi yaxshi bilishi kerak. Talaba olgan bilimlari sifatiga javobgarlikni o‘ziga olishi kutiladi. Talabalarining bilim manbai faqatgina o‘qituvchi ma‘ruzalarida berayotgan mavzular bo‘lishi kerak emas.

Talaba o‘zi anglashi va harakat qilishi, o‘qituvchi esa, o‘z navbatida, talabalarining tadqiqot olib borish

ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ta'lim tushunchalari adashtiriladi.

Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan o'quv yurtiga bormay turib, uyda o'z materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qish, ta'lim olish mumkin. Bu qiziq pedagogik hodisa bo'lsada, ushbu loyihada mustaqil holda o'qish (o'quv yurtiga bormay turib ta'lim olish) o'rganilmaydi. Mazkur loyiha doirasida mamlakatimiz kelajagi uchun mustaqil fikrlaydigan, bilimli va malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida rasmiy oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim unsurlarini tatbiq etish va rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora-tadbirlar tahlil qilinadi [6].

Odatda o'quvchi o'qituvchini bilim o'chog'i hamda talabani qanday bilim olishini yaxshi bilguvchi inson sifatida qabul qiladi. Haqiqatda esa o'qituvchi talabalarni oliy o'quv yurtida o'qishi davomidagina ularga javobgar bo'ladi, lekin u har doim ham uning yonida bo'ladimi? Talaba o'quv dargohini tamomlaydi va bir o'zi o'z kelajagi bilan qoladi. U mehnat faoliyatini boshlay-, u yerda u va faqat u olgan bilimlarini ko'rsatib, amaliyotga tatbiq eta olishi kerak bo'ladi. Xalqda bir naql bor: «Bir kishiga baliq bersang, u bir kun qorni to'q yuradi. Bir kishini baliq tutishga o'rgatsangiz, siz uni bir umrga to'ydirgan bo'lasiz». Bugungi kunda bu azaliy naql har doimdanda dolzarb. Davlatimizdagi zamonaviy iqtisod qonuniyatlari o'z shartlarini ilgari surmoqda va shuning uchun bilimga faqat egalik qilish bilan chegaralanib bo'lmaydi. Zamon bilan hamnafas bo'lish, mustaqil qaror qabul qila olish, o'z ustida doimiy ravishda ishlash, o'z malakasini oshirib borish darkor. Shuning uchun talaba yoshlarning yangi avlodini mustaqil qaror qabul qila oladigan, bilim olishiga o'zi mas'ul bo'la oladigan qilib tarbiyalash ehtiyoji sezilmoqda. Mustaqil fikrlaydigan talabalarni tarbiyalash davlatimiz ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir.

Mustaqil ta'limning ustuvor omillaridan biri talabani bilim olishi uchun o'zi mas'ul bo'lishi, javobgarlikni his qilishidir. U o'qituvchiga qaram emas, u nimani va qanday qilib o'rganishni hal qila oladi. Bunday talaba o'zining kamchiliklarini biladi va ular ustida ishlaydi. Bunda o'z ta'limini mustaqil rejalashtirish qobiliyati ham muhimdir.

An'anaviy ta'lim bilan talabani mustaqilligini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim o'rtasidagi farqni quyidagicha ko'rsatish mumkin [7].

An'anaviy ta'lim	Mustaqil ta'lim
Talabalar o'qituvchining ko'rsatmalarini sustlik bilan bajaradilar.	Talabalar o'qish jarayonida faol ishtirok etadilar.
O'qituvchi talabalar nima o'rganishi zarurligi borasida qaror qabul qiladi.	Talabalar o'zlari nima o'rganishlari borasida qaror qabul qiladilar.
Talabalar o'qituvchiga “qaram”, o'qish jarayonida qanday axborot manbalaridan foydalanish haqida qaror qabul qila olmaydilar.	Talabalar tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, kerakli adabiyotlarni mustaqil tanlaydilar va ma'lumolarni qayta ishlaydilar.
Darsdagi mashqlar talabalarni hayotiy masalalarni yechishga tayyorlamaydi. Talabalar o'qishga haqqoniy qiziqmaydilar.	Talabalar nafaqat o'qish uchun, balki hayot uchun ham zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantiradilar. Talabalarning darsga qiziqishi ortadi.

Kichik guruhdagi har bir talabani ishtiroki zarur bo'lgan topshiriqlar tavsiya etish mumkin. Kichik guruhlarda bajariladigan ishlarning samarasi qandaydir bir mahsulot (tadqiqot, devoriy gazeta, buklet va b.) bo'lib, har bir talaba uni tayyorlashda o'z hissasini qo'shishi kerak bo'ladi. Kichik guruhlarda bajariladigan ommaviy topshiriqlardan biri talabalarning o'tilgan mavzular bo'yicha takrorlash testlari tuzishidir. Talabalar bilimni baholash shakllari.

**Baholash shakli.** Ushbu shakl yordamida baholash mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalar:

**Odatiy yozma ishlar** – talaba bir nechta majburiy savollarga javob beradi va qo'shimcha bir nechta savollardan tanlash huquqi beriladi:

- ma'lumotni esda olib qolish qobiliyati;
- tig'iz vaqt sharoitida ishlash qobiliyati;
- o'z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- ma'lumotni yozma shaklda to'g'ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tez qaror qabul qilish mahorati.

**Oldindan e'lon qilingan savollar yordamidagi yozma ish** – savollar imtihondan bir qancha muddat avval tarqatiladi:

- tadqiqot ko‘nikmalari;
- manbalardan foydalanish mahorati;
- tahliliy (analitik) fikrlash qobiliyati;
- ma’lumotni esda olib qolish qobiliyati;
- qisqa muddat ichida ishlash qobiliyati;
- o‘z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- ma’lumotni yozma shaklda to‘g‘ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tez qaror qabul qilish mahorati.

**Kitoblar ochiq bo‘lgan holda yozma ish** – imtihon paytida darslik va boshqa materiallardan foydalanishga ruxsat beriladi [8].

- tig‘iz vaqt sharoitida ishlash qobiliyati;
- o‘z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- ma’lumotni yozma shaklda to‘g‘ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tez qaror qabul qilish mahorati;
- kitob bilan ishlash ko‘nikmasi.

Testlar:

- ma’lumotni esda olib qolish qobiliyati;
- tig‘iz vaqt sharoitida ishlash qobiliyati;
- bilimlarni tatbiq qila olish qobiliyati;
- bilimlarni sintezlash mahorati;
- bilimlarni to‘g‘ri talqin qilish qobiliyati;
- tez qaror qabul qilish mahorati.

Laboratoriya hisobotlari, qaydlari:

- kuzatish ko‘nikmalari;
- sinovlar o‘tkazish ko‘nikmalari;
- tahliliy (analitik) fikrlash qobiliyati;
- natijalarni talqin qilish va baholash mahorati.

Kuzatuv o‘quv kundalik daftarini yuritish:

- yozma ma’lumotni taqdim qilish mahorati;
- ma’lumotni yozma shaklda to‘g‘ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tashkiliy va rejalashtirish mahorat

Referatlar:

- ma’lumotni tadqiq etish, tanlash va taqdim etish ko‘nikmasi;
- tanqidiy baholash;
- o‘z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- tanqidiy muhokama qilish mahorati.

Hisobotlar:

- ma’lumotni tadqiq etish, tanlash va taqdim etish ko‘nikmasi;
- tanqidiy baholash;
- o‘z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- tanqidiy muhokama qilish mahorati;
- bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati.

Dissertatsiyalar:

- tadqiq qilish malakasi;
- tanlash ko‘nikmasi;

- rejalashtirish qobiliyati;
- loyihani boshqarish mahorati;
- tanqidiy fikrlash;
- prezentatsiya qilish mahorati.

Adabiyotlar/ matbuotni sharhlash:

- adabiyotlarni (maqola va b.) tanqidiy o‘rganish ko‘nikmalari;
- baho berish;
- xulosalar chiqarish;
- o‘z nuhtai nazarini ifodalash mahorati.

Prezentatsiyalar (yakka/guruh tartibida):

- notiqlik mahorati;
- imo-ishoralar tili;
- ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘nikmalari;
- ma’lumotni taqdim qilish va strukturalashtirish ko‘nikmalari;
- odamlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish mahorati;
- jamoa (komanda) da ishlash ko‘nikmalari;
- ishni to‘g‘ri taqsimlash;

Plakatlar (yakka/guruh tartibida):

- ijodiy mahorat;
- ko‘rgazmali qurollar tayyorlash mahorati;
- grafika taqdimoti ko‘nikmalari;
- xulosalash ko‘nikmalari;
- tanlash ko‘nikmalari;
- fanga tegishli bilimlari;
- jamoa (komanda)da ishlash ko‘nikmalari ;

Muayyan holatlar (Case studies):

- muammolarni yechish qobiliyati;
- nazariy konsepsiyalarni konkret hollarda tatbiq etish qobiliyati;
- qaror qabul qilish qobiliyati;

Og‘zaki imtihonlar:

- to‘g‘ri va ishonchli so‘zlash; talaffuz;
- fikrni qisqa muddat ichida kengaytirmoq;
- fanga tegishli bilimlar;
- odamlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish ko‘nikmalari;

Guruh loyihalari:

- rejalashtirish mahorati;
- ishni to‘g‘ri tashkil qilish va uni yuoshqarish qobiliyati;
- jamoa (komanda) da ishlash ko‘nikmalari;
- masalalarni yechish qobiliyati;
- ijodiy mahorat;
- nazariy konsepsiyalarni konkret hollarda tatbiq etish qobiliyati;
- tahlil qila olish qobiliyati;
- hisobotlar yozish ko‘nikmalari;

Portfolio:

- portfolio komponentlari va o‘tgan vaqtga qarab o‘zining o‘sish darajasini ko‘ra olish ko‘nikmalari;
- vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish mahorati;
- jamoa (komanda)da ishlash ko‘nikmalari;

Ko‘rgazmalar:

- ijodiy mahorat;
- tuzilma (struktura)ni tushunish;
- ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘nikmalari;
- ma’lumotni taqdim qilish va strukturalashtirish ko‘nikmalari;
- odamlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish ko‘nikmalari;

**Natijalar.** Talabalar bilimini baholashning ba’zi shakllari, masalan loyihaviy topshiriq haqida avvalgi bo‘limlarda ham qayd etilgan edi. Yuqorida keltirilgan jadvaldagi har bir baholash shakli o‘ziga xos maqsadlarga ega.

Savodli va malakali o‘qituvchi o‘quv yili davomida bu turli baholash shakllarini qo‘llab, ularni shunday uyg‘unlashtiradiki, bu bilan baholash zerikarli bo‘lishini oldini olib, har bir talabani qiziqtirishga harakat qiladi, talabalarni esa oldilariga yuksak maqsadlar qo‘yib, ular sari intilishga undaydi, olgan bilim va ko‘nikmalarini chig‘iridandan o‘tkazib, kelajakda ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga chorlaydi.

Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari:

• Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabani akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;
- hisob-grafik ishlarini bajarish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish (keys-stadi);
- maket, model, badiiy asar, musiqa va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarni tayyorlash;

-o‘qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

• O‘quv fanlari bo‘yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

• Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt budjetiga mos ravishda har bir fan bo‘yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakultst ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

• Mustaqil ishini bajarish uchun fanlar bo‘yicha talabalarga zaruriy metodik qo‘llanma, ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

• Talaba mustaqil ishining axborot ta’minoti

• Talaba uchun muayyan fan bo‘yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori (yoki yetakchi dotsenti) tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarini bevosita olib boruvchi o‘qituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabaga berilgan topshiriqda mustaqil ishini bajarish bo‘yicha dastlabki ko‘rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

**Xulosa va munozara.** Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va mustaqil ishlashni oqilona tashkil etish, mustaqil ishlashning forma va metodlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu fanlardan uyga berilgan vazifalarni bajarish mustaqil ishning oddiy shakli hisoblanadi. Murakkab shakliga esa o‘tilgan darslar-ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar, seminar va laboratoriyalar, bo‘limlar yuzasidan adabiyotlarni mustaqil ravishda tahliliy o‘rganib chiqish, ayrim savollarga aniq javoblar topish bilan bog‘liqdir. Manbalarni mustaqil o‘qish yo‘li bilan quyilgan savollarga bir necha adabiyotlardan umumlashtirib, javob topishga o‘rgatib borish yaxshi natijalar beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Sh. Pedagogik texnologiyalar. Ilmiy-metodik ishlanma: Kasbiy ta’lim

yo‘nalishlari talabalari uchun. – NamMPI, 2018.

2. Abduraxmonov Sh., Qobilova N. O‘qish va o‘qitish jarayonini talabalar bilimni baholashning reyting tizimiga mos ravishda tashkil etish texnologiyalari. Ilmiy maqolalar to‘plami: Professor o‘qituvchilar uchun uslubiy yordam. – NamMPI, 2010.

3. Ishmatov Q. Ta’lim sifatini baholashning zamonaviy usullari (Metodik qo‘llanma). – Namangan: NamMPI, 2016.

4. Ishmatov Q. O‘qitishning interfaol texnologiyasi (Metodik qo‘llanma). – Namangan: NamMPI, 2017.

5. Rahmonova Yo.R., Razzoqov D.N. Pedagogik texnologiyalar (O‘quv qo‘llanma). – T., Toshk. Tibbiyot akademiyasi, 2017.

6. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: «Fan», 2012.

7. Xodiev B.Yu., Abdullaev O.M., Imomov I., Abdullaeva G. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T., TDIU, 2017.

8. Majidov N.N., Abduraxmonov A.S., Atamov D.A. Innovatsion texnologiyalar tushunchasining mazmun va mohiyati //NamMPI: Iqtidorli talabalar, magistrantlar, aspirantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Namangan, NamMPI, 2011. 112-113-bb

9. <http://www.e-bozor.com/maqolalar/107-kiber-jinoyat.html>

10. [ictp.uz/downloads/publications/ar\\_2008\\_uz/chapter-9.pdf](http://ictp.uz/downloads/publications/ar_2008_uz/chapter-9.pdf)

## O‘QUVCHILAR BILIM DARAJASINI ANIQLASHDA PEDAGOGIK TASHXIS USULLARIDAN FOYDALANISH

*Pulotov Abdurayim Murotovich,  
Navoiy viloyati pedagogik mahorat  
markazi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi  
abdurayimp@mail.ru*

*Ushbu maqolada o‘quvchilar bilim darajasini ilmiy-metodik tadqiqotlar asosida tahlil qilish, kuzatish natijalarini qayta ishlash, olingan natijalar asosida ta’limning borishini nazorat qilish orqali pedagogik tashxis qilishning ilmiy-uslubiy jihatlari berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** pedagogik faoliyat, ta’lim tizimi, ta’lim-tarbiya jarayoni, pedagogik tashxis.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРИ ОПРЕДЕЛЕНИИ УРОВНЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ

*В статье рассматриваются научно-методические аспекты педагогической диагностики путём анализа уровня знаний учащихся на основе научно-методических исследований, обработки результатов наблюдения, контроля за ходом обучения на основе полученных результатов.*

**Ключевые слова:** педагогическая деятельность, образовательная система, образовательный процесс, педагогический диагноз.

## USING PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC METHODS IN DETERMINING THE LEVEL OF KNOWLEDGE OF STUDENTS

*The article examines the scientific and methodological aspects of pedagogical diagnostics by analyzing the level of knowledge of students based on scientific and methodological research, processing observation results, and monitoring the progress of learning based on the results obtained.*

**Keywords:** pedagogical activity, educational system, educational process, pedagogical diagnosis.

**Kirish.** Har qanday didaktik tizimning asosiy maqsadi ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish. Ta’lim jarayoni o‘qitish uslubiyati va o‘quvchining tafakkur faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimni tashkil etadi. Ta’lim jarayonini ma’lum bir maqsad yo‘nalishida boshqarish uchun o‘quvchilardan olinadigan bir qator ma’lumotlar kerak bo‘ladi. Shunday ma’lumotlar to‘plamini pedagogik tashxis yordamida aniqlash mumkin.

Pedagogik tashxis deganda ilmiy mezonlar asosida o‘qituvchining o‘quvchilarni kuzatishi, ilmiy-metodik materiallar asosida ta’lim jarayonini tahlil qilishi, kuzatish natijalarini qayta ishlashi, olingan natijalar asosida ta’limning borishini nazorat qilish jarayoni tushuniladi. Pedagogik tashxis amaliy pedagogik faoliyatning nazariy fundamenti bo‘lib, pedagogik tashxis o‘tkazishda zarur ma’lumotlarni to‘plash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Pedagogik tashxisning paydo bo‘lishi pedagogik faoliyat bilan uzviy bog‘liq. K.Klauyer pedagogik tashxisni mustaqil fan sifatida qarab, uning o‘ziga xos ta’riflari bo‘lishini tasdiqlashga harakat qiladi. Klauyerning ta’rifiga ko‘ra pedagogik tashxis pedagogik faoliyat muammolarini hal qiladigan jarayon [21]. K.Ingenkamp ta’rifiga binonan pedagogik tashxis shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayonlarini optimallashtirish, jamiyat uchun ta’lim natijalarini to‘g‘ri aniqlashni ta’minlash, ishlab chiqilgan mezonlar asosida, talabalarning kasbiy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda ularni bosqichdan bosqichga o‘tkazishni minimum xatoliklar bilan amalga oshirish uchun xizmat qilishi kerak [2].

Bugungi kunda ta’lim jarayonini ma’lum bir maqsad yo‘nalishida boshqarish, o‘quvchilarning shaxsiy va fanni o‘rganishga bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy-pedagogik izlanishlarda pedagogik tashxis metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada hamdo‘stlik mamlakatlari olimlaridan A.Arhangelskiy, Yu.K.Babanskiy, V.I.Mixeyev, V.G.Afanasyev, mamlakatimiz olimlari, jumladan V.Qobulov, M.Ziyoxo‘jayev, A.Abduqodirov, M.Aripov, Sh.Nazirov, X.Nigmatov, U.Yuldashev, A.Hayitov, T.Azlarovlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Biroq mazkur ishlarda o‘quvchilarning fanga oid tushunchalarni o‘zlashtirishlarini baholashga oid pedagogik dasturlar yaratish



ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlashda kerak bo‘ladigan bir qator ma‘lumotlarni olishda pedagogik tashxis metodlaridan foydalanish masalasi maxsus yoritilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta‘lim jarayonini pedagogik tashxis qilish uchun asosan quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

- solishtirish;
- tahlil (analiz);
- oldindan aytib berish;
- sharhlash;
- tashxis faoliyat natijalarini ta‘lim jarayoniga qo‘llashda o‘quvchilar haqidagi ma‘lumotlarning oldingilaridan foydalanish;
- har xil tashxis uchun zarur bo‘lgan metodlar bilan o‘quvchilarni nazoratdan o‘tkazish.

Solishtirish tashxis jarayonini o‘tkazishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda oldingi kuzatish natijalari asosida aniqlangan o‘quvchilarning bilimlaridan foydalangan holda ularning bilim darajasi taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi. Bunda, agar o‘quvchilar haqidagi oldingi ma‘lumotlar o‘zimizda bo‘lmasa boshqa pedagoglarning ma‘lumotlaridan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, yangi pedagogik faoliyatga kirgan yosh o‘qituvchining pedagogik tashxis bo‘yicha olib boradigan faoliyati misol bo‘la oladi. Yosh o‘qituvchi o‘quvchilar haqidagi zarur ma‘lumotlarga ega bo‘lmagan holda ularni pedagogik kuzatish jarayonida oldingi pedagoglar natijalariga asoslanishi mumkin.

Tahlil vaqti kuzatish sinflari asosida qo‘yilgan tashxis chegarasidan tashqariga chiqiladi. Tahlil asosida o‘quvchining hozirgi holati uning oldingi holatidan yoki talab etilgan me‘yordan qanday darajada farq qilishini ko‘rsatish mumkin. Masalan, maktab davrida o‘quvchilarning axborot texnologiyalari fanidan dasturlash tilini yaxshi o‘zlashtirmaganliklari oqibatida oliy ta‘lim muassasalarida tajriba ishlarini kompyuter yordamida bajarishga qiynalishadi.

Oldindan aytib berish metodida o‘qituvchi doimiy ravishda o‘quvchilar haqidagi ma‘lumotlarni to‘plashi, olingan ma‘lumotlar asosidagi natijalarni tahlil qilishi, o‘quvchilarning kunlik faoliyatlarini kuzatishi kerak.

Sharhlash asosida o‘qituvchi doimo o‘quvchilarning o‘zlarini shaxsiy imkoniyatlariga qarab ma‘lum vaqt oralig‘ida yuqorida keltirilgan tashxis bosqichlaridan foydalangan holda baholab borishi zarur. Shu asosda o‘quvchilar haqida ma‘lum ma‘lumotlar to‘plab borilishi zarur. Bu ma‘lumotlar tizimlashtirilgan, kritik baholangan va umumlashgan bo‘lishi kerak. Bu ma‘lumotlar har xil manbalardan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, mohir o‘qituvchilar, ota-onalar va tarbiyachilar ko‘rsatmalaridan tashkil topgan va shaxsiy kuzatish, guruh ishi, testlaridan iborat. Bu ma‘lumotlarni mazmuniga qarab bitta maqsadni ko‘zlaganligini sharhlash deb atash mumkin.

O‘quvchilar haqidagi ma‘lumotlar asosida tashxis qilish faoliyatining natijalarini qo‘llash va bu axborotlar asosida nazorat qilish jarayonida teskari aloqa bo‘lishi zarur. Chunki teskari aloqa bo‘lmasa tashxisiy faoliyat jarayonini tashkil etib bo‘lmaydi. Bu jarayon tashxis qilish faoliyati asosida ob‘yektiv va sub‘yektiv usullarga bog‘liq bo‘lib, global va differensial shakllarga asoslangan teskari aloqani tashkil etadi [3].

Tashxis qilish metodlari asosida o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasini baholash natijalari aniq va ishonchli bo‘lishi kerak. Baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- xolislik (o‘quvchining ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjudlik);
- ishonchlilik;
- haqiqiylik (validnost).

Baholashning xolislik mezoni deb olingan baholash natijalari tadqiqotchi-pedagogga bog‘liq bo‘lmagan holatga, boshqacha aytganda, bir o‘quvchini ikki pedagog tomonidan baholash jarayoni bir xil natijaga olib kelishiga aytiladi [2].

Ishonchlilik mezoni deb o‘quvchilarning bilimlar darajalarini pedagogik tashxis qilish asosida olingan ma‘lumotlar juda katta aniqlik bilan haqiqatga yaqin bo‘lishiga aytiladi. Ishonchlilik mezoni olingan natijalar qancha darajada aniq ekanligini baholash. Ishonchlilik mezoni va baholash darajasi ishonchlilik koeffitsenti orqali bir-biri bilan bog‘lanadi.

O‘quvchilar bilimini baholashning haqiqiylik mezoni olingan natijalarni baholash jarayoni haqiqiy, olingan natija baholanadigan jarayonga ta‘luqlimi yoki ta‘luqli emasmi kabi savollarning ishonchligini aniqlaydi.

**Tahlil va natijalar.** Har qanday didaktik tizimning asosiy maqsadi - har bir o‘quvchining ta‘lim jarayonidagi faoliyatini usul va uslubiyatlar majmui yordamida boshqarish. Boshqarish uchun o‘quvchining fikrlash faoliyati to‘g‘risida aprior va aposterior ma‘lumotlar to‘plami zarur. Aprior ma‘lumotlarni psixologik-pedagogik va fiziologik parametrlar yordamida aniqlash mumkin. Aposterior ma‘lumotlarni esa

ma’lum bir bosqichda o’quvchi erishgan bilimi darajasining pedagogik tashxis natijalaridan foydalanib aniqlanadi.

Taklif etilayotgan pedagogik tashxis jarayoni quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

1. Pedagogik tashxis jarayonida qanday parametrlar ishlatilishi, ularning o’lchov birliklari va o’zgarish sohalari aniqlanadi.

2. Pedagogik tashxis modelini tuzish - bu bosqichda haqiqiy voqelik, ya’ni ta’lim jarayonini borishining logik sxemasi tuziladi, u fizik va matematik qonuniyatlar bilan ifodalanadi. Tabiatdagi har qanday haqiqiy voqelikni to’liq modellashtirib bo’lmaydi. Shuning uchun tuzilayotgan model ayrim chetlanishlar va cheklanishlar bilan tuziladi.

3. Ma’lumotlarni tayyorlash - modelni qurish jarayonida kerakli ma’lumotlarni yig’ish va ularni qo’llash jarayoniga moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

4. Tajriba rejasini tuzish - bu bosqichda pedagogik tashxis o’tkazish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni yig’ish va qayta ishlash usullari ishlab chiqiladi.

5. Tajribalar o’tkazish usulini aniqlash - pedagogik tashxis o’tkazishning usul va uslublari aniqlanadi.

6. Tajriba jarayoni - bu bosqichda pedagogik tashxis o’tkazish metodlaridan foydalaniladi.

7. Natijalar tahlili - pedagogik tashxis o’tkazish metodlari asosida aniqlangan ma’lumotlar nazariy jihatdan amaliyot bilan taqqoslanadi.

8. Amaliyotga qo’llash - bu bosqichda pedagogik tashxis o’tkazish jarayonida aniqlangan ma’lumotlar haqiqiy voqelikka yaqin bo’lsa, u holda ushbu model pedagogik tashxis masalalarini hal qilishda qo’llaniladi.

9. Natijalar yetarli - yaratilgan model asosida olingan natijalarni haqiqiy natijaga yaqinligiga ishonch hosil qilinadi.

O’tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari quyidagi matematik-statistik formuladan foydalanib tahlil qilindi:

$$Z = \sum_{i=1}^N K_i / N$$

bu yerda,  $N$  – o’quvchilar soni,  $K_i$  –  $i$ -chi o’quvchining pedagogik tashxis davomida to’plagan bali,  $i=1,2,\dots,N$ ,  $Z$  – o’quvchilarning pedagogik tashxis davomida to’plagan o’rtacha ball.

Tajriba-sinovga TG (tajriba guruhi 85 nafar o’quvchi) guruhi o’quvchilari va NG (nazorat guruhi 80 nafar o’quvchi) guruhi o’quvchilari ishtirok etdi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi, bunda keltirilgan ballar mos ravishda  $K_1, K_2, \dots, K_{10}$  tushunchalarning 10 ballik sistemada o’quvchilar tomonidan o’zlashtirish ballari.

1-jadval.

TG va NG guruhlarining  $K_1, K_2, \dots, K_{10}$  tushunchalarini o’zlashtirish ko’rsatkichi.

	$K_1$	$K_2$	$K_3$	$K_4$	$K_5$	$K_6$	$K_7$	$K_8$	$K_9$	$K_{10}$	O’rtacha
TG	10	9,5	8,4	8,1	7,7	8,8	8,7	8,5	8,2	8,7	8,66
HG	8	8,3	7,3	7,1	7,5	7,2	7,3	6,4	7,3	6,3	7,27

1-jadvaldan ko’rinadiki, TG guruhida pedagogik tashxis natijasida o’zlashtirish darajasi 86,6 % ni, NG guruhida 72,7 % ni tashkil etdi. Dars samaradorligi 13,9 % ga oshdi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Pedagogik tashxis natijalarining ta’lim jarayonida alohida o’rni bor. Ular o’quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko’nikmalar bilan boyitadi va tajribalar orqali muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagogik tashxis natijalarida quyidagi afzalliklar mavjud:

**Amaliyotga yo’naltirish:** Nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash imkonini beradi.

**Qiziqishni oshirish:** O’quvchilarni fanlarga bo’lgan qiziqishini kuchaytiradi.

**Fikrni rivojlantirish:** Analitik fikrlash va ijodkorlikni rag’batlantiradi.

O’quvchilar bilimi darajasini aniqlashda pedagogik tashxis usullaridan samarali foydalanish ularning bilim darajasini yanada to’g’ri baholashga imkoniyat beradi. Ushbu integratsiya orqali o’quvchilarning nazariy va amaliy ko’nikmalarini bir vaqtning o’zida o’rganish va rivojlantirish mumkin.

O‘quvchilar bilim darajasini aniqlashda pedagogik tashxis usullarining ahamiyati katta. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini to‘g‘ri baholash, shuningdek, ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Kelajakda bu usullarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar bilimi darajasini aniqlashda pedagogik tashxis usullaridan samarali foydalanish masalasi ilmiy-uslubiy jihatdan hal etilsa va amaliyotda qo‘llanilsa, birinchidan, o‘qituvchilar uchun har bir o‘quvchining bilish faoliyatini boshqarishda katta imkoniyatlar yaratadi; ikkinchidan, har bir o‘quvchi o‘zini-o‘zi nazorat qilish imkoniga ega bo‘lib, faolligi oshadi; uchinchidan, o‘quvchilarning teskari aloqa faoliyatini rivojlantirishga erishiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Klauer K.I. (Hg.) *Handbuch der. Pedagogischen Diagnostik.* Dissel-dorf: Schwann, 1978.
2. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика: Пер. с нем.-М.: Педагогика, 1991.- 240 с. (Зарубежная школа и пед.).
3. Пулотов А.М. Инновационный подход к профессиональной подготовке педагогов дошкольных образовательных организаций. // *Вопросы дошкольной педагогики.* - 2020. - № 9 (36). - С. 3-6. - URL: <https://moluch.ru/th/1/archive/179/5669/>.

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA  
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Qurbonova Shoira Narzullayevna,*  
*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi.*  
*s.n.kurbanova@buxdu.uz*

*Maqolada o'quv jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Axborot ta'lim texnologiyalari doirasida axborot jarayonlarini tashkil etish ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash, saqlash va to'plashni tashkil etish, bilimlarni rasmiylashtirish va avtomatlashtirish kabi asosiy jarayonlarni aniqlashni o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, texnologik jarayon, ofis dasturi, multimedia texnologiyalari, o'qitish samaradorligi, animatsiya, obyekt, maxsus ta'lim.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

*В статье рассматриваются вопросы эффективного использования информационно-коммуникационных технологий при организации учебного процесса. Информационно-коммуникативные технологии позволяют расширять кругозор обучаемых, активизировать их познавательную деятельность, получить как можно больше информации за меньшее время, формирует у ребят умение самостоятельно находить нужную информацию, повышают интерес к предмету, что положительно влияет на качество знаний.*

**Ключевые слова:** *информационно-коммуникационные технологии, современные информационные технологии, технологический процесс, офисное программное обеспечение, мультимедийные технологии, эффективность обучения, анимация, объект, специальное образование.*

USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGY  
LESSONS

*The article deals with the issues of effective use of information and communication technologies in the organisation of the educational process. Information and communication technologies allow to expand the outlook of students, to activate their cognitive activity, to get as much information as possible in less time, to form the ability to find the necessary information independently, to increase interest in the subject, which positively affects the quality of knowledge.*

**Keywords:** *information and communication technologies, modern information technologies, technological process, office software, multimedia technologies, learning efficiency, animation, object, special education.*

**Kirish.** Zamonaviy maktabni kompyuterlarsiz, axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni masalasi mahalliy tarmoqlarga ham, global tarmoqqa ham kirish imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuterlarning o'quv jarayonining amaliyotga joriy etilishi munosabati bilan eng dolzarb bo'lib qoldi. Axborot texnologiyalari - obyekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti) holati to'g'risida yangi sifatli ma'lumotlarni olish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullari to'plami. Axborot texnologiyalari nafaqat o'quv jarayonida kompyuterdan foydalanishni o'z ichiga olgan texnologiya. Aslida, axborotni qayta ishlash bilan bog'liq har qanday jarayonni axborot texnologiyasi deb atash mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning bilim faolligini faollashtirish, imkon qadar ko'proq ma'lumotni qisqa vaqt ichida olish, bolalarda kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda topish qobiliyatini rivojlantirish, fanga qiziqishni oshirish imkonini beradi. bilim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Internet - bu boy ma'lumot manbai; Axborot va ta'lim resurslari markazi, davlat organlarining rasmiy veb-saytlari, ta'lim nashriyotlari, elektron kutubxonalar va boshqalar darslarni tayyorlashda katta yordam beradi. Umumiy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri ta'lim mazmunining o'zgarishi, o'quvchilarning axborot madaniyatini egallashi zaruratidir. Yuqorida aytilganlarning barchasi zamonaviy pedagogikada ta'limning

eng yuqori ko‘rinishi, shu jumladan, insonning shaxsiy fazilatlarini va uning kasbiy malakasi sifatida e‘tirof etiladi.

Funksional muammolarni hal qilish usullari va axborot jarayonlarini tashkil etish usullarini takomillashtirish mutlaqo yangi axborot texnologiyalariga olib keladi, ular orasida o‘qitish bilan bog‘liq holda quyidagilar ajralib turadi:

- o‘quv dasturlari (elektron darsliklar, simulyatorlar, repetitorlar, laboratoriya ustaxonalari, test tizimlari);

- multimedia texnologiyalari (shaxsiy kompyuterlar, video uskunalar, optik disklar);

- ta‘lim tizimlari.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Talabalarni tayyorlash sifatini oshirishga dars soatlarida bilimlarni taqdim etishning aniq, yo‘naltirilgan va uslubiy o‘ylangan tizimi katta yordam beradi. Ta‘lim jarayoniga yangi, eng ilg‘or ta‘lim va tarbiya usullarini joriy etish, o‘qitishning texnik vositalaridan oqilona foydalanish zarur. Texnologiya darslarida o‘qitish samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan darslarda didaktik materiallar, didaktik o‘yinlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga bog‘liq.

Texnologiya darslarida ta‘lim axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasi:

- dars yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tayyorlash uchun dars vaqtini va o‘qituvchining mehnatini tejash;

- o‘quv jarayoni faollashtirilgan;

- kompyuter ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- alohida mavzular uchun o‘zingizning vizual namoyish taqdimotlarini yaratish.

Taqdimotlardan foydalanish texnologiyani ham, boshqa fanlarni ham ijodiy o‘qitish uchun keng imkoniyatlar ochadi, dars yoki mavzuning turli bosqichlarida o‘qitishning politexnika tamoyilini, tabaqalashtirilgan va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlarini ta‘minlaydi:

- yangi mavzuni tanishtirish va dastlab ma‘lumotni mustahkamlash bosqichida

- takrorlash va malakalarni mustahkamlash bosqichida;

- erishilgan o‘quv natijalarini oraliq va yakuniy nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish bosqichida;

- tuzatish bosqichida va o‘quv jarayonining o‘zi.

Taqdimotlarni yaratish jarayonida o‘qituvchi o‘zini ssenariy muallifi, rejissyor, rassom va ijrochi sifatida ko‘rsatishi mumkin. Turli illyustrativ materiallar, multimedia va interfaol modellar o‘quv jarayonini butunlay yangi bosqichga ko‘taradi. Psixologik omilni e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi: zamonaviy bola eskirgan diagrammalar va jadvallar yordamida emas, balki ushbu shakldagi ma‘lumotni idrok etishga ko‘proq qiziqadi. Darsda kompyuterdan foydalanganda ma‘lumot statik, ovozsiz rasm sifatida emas, balki dinamik video va tovush ketma-ketligi sifatida taqdim etiladi, bu materialni o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Amaliy ishlarni bajarishda slayd-plyonka bir slaydda taklif etilayotgan masalaning shartlarini, ikkinchisida esa yechimini (uning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini) ko‘rsatish imkonini beradi. Bu sizga uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi materialni taqdim etish, mustahkamlash va amaliy topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt ajratish, kelgusi ishning maqsadi va borishini to‘g‘ri tushunish, topshiriqlarni bajarish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Ko‘rsatilgan slaydlar ishning to‘g‘ri grafik bajarilishi uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Darslarda o‘quv filmlaridan foydalanish butun guruhga to‘g‘ri ish usullarini va ularning ketma-ketligini aniq ko‘rsatishga imkon beradi, bu ularni bevosita ish joyida ko‘rsatish orqali amalga oshirish juda qiyin. Talabalar texnologik jarayonning dinamikasini, har bir operatsiyaning xususiyatlarini o‘rganadilar. O‘quv filmi turli darajadagi murakkablikdagi materiallarni o‘z ichiga olishi mumkinligi sababli, o‘quv materiali va topshiriqlarini muayyan o‘quvchilar guruhining tayyorgarligiga qarab farqlash va har bir o‘quvchining imkoniyatlarini to‘liqroq hisobga olish mumkin bo‘ladi. Kompyuter texnologiyalari texnologiyani jonlantirish, uni harakat, tovush, rang bilan to‘ldirish va buning natijasida qiziqish va ma‘lumotni o‘zlashtirish darajasini oshirish imkonini berdi. Kompyuter o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash bilan shug‘ullanmaydi yoki ularda ijod qilish istagini uyg‘otmaydi. Har qanday texnik o‘quv qo‘llanma o‘qituvchi uchun ishonchli yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiya darslarida barcha mavzu va bo‘limlarni o‘rganishda axborot -kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko‘rinib turibdiki, axborot jamiyati sharoitida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni bu bilimlarni mustaqil ravishda egallashga o‘rgatish va olingan bilimlardan yangi kognitiv va amaliy muammolarni hal qilishda foydalanish kerak. Umumjahon tarbiyaviy harakatlarning shakllanishi negizida talabani muayyan faoliyat usullari majmuasini egallashi yotadi. Texnologiya darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchining zamonaviy didaktik o‘zaro hamkorligini tashkil etish vositasi sifatida qaralishi kerak. Zamonaviy texnologiya o‘quv xonasi, ta‘kidlanganidek, axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun barcha zarur vositalar bilan jihozlangan bo‘lishi, xususan, talaba ish joyida ikkita tizimli bitta kompyuter va

ofis dasturlari bo‘lishi kerak. O‘qituvchining ish joyida tizimli va ofis dasturlari bilan jihozlangan kompyuter, hujjat kamerasi, rangli printer, proyeksiya ekranli multimedia proyektori ham bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun matn muharriri, elektron jadval protsessori, ma‘lumotlar bazasi, taqdimotlar tizimi, tayyor kompyuter o‘quv dasturlari yordamida ma‘lumotlarni tayyorlaydi, o‘quv ma‘lumotlarini matn, grafik va multimedia ko‘rinishida taqdim eta oladi. Taqdimotlar o‘qituvchining hikoyasini yanada mazmunli va tasviriy qiladi. Taqdimotdan foydalanish talabalar bilan suhbat o‘tkazish, mavzu bo‘yicha savollar berish va shu orqali talabalarni boshqa fanlar bo‘yicha ilgari olingan bilimlarni yangilash, taxminlar qilish, olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga undash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, ularning kognitiv faolligini faollashtiradi, ularning xotirasi va nutqini rivojlantiradi. Taqdimotlar Microsoft Ofis Power Point -da yaratilishi mumkin. Microsoftning qiymati va asosiy afzalligi Ofis PowerPoint animatsiyadan foydalanish qobiliyati bilan boshqa ofis dasturlaridan ustundir.

Taqdimotdan foydalanish darsda zamonaviy axborot texnologiyalarini an’anaviy o‘qitish usullari bilan uyg‘unlashtirishni ko‘rsatadi. Bunda vizual metod (illyustratsiyalar) boshqa usullar (o‘yinlar, og‘zaki va boshqalar) bilan birgalikda qo‘llaniladi, bu esa o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi. Obyektlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish imkoni bo‘lmaganda va og‘zaki usullar o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisa to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lmaganda tasvirlar ayniqsa kerak. Majburiy uslubiy shart - bu slaydda joylashtirilgan ma‘lumotlardan foydalanish talabi - u tushuntirish, tajriba, tajriba, dalillar va boshqalarning to‘g‘ri daqiqalarida paydo bo‘lishi, o‘quvchilar e‘tiborini keraksiz tafsilotlar bilan ortiqcha yuklamasligi, balki talabalar uchun etarli bo‘lishi kerak. Turli xil aqliy operatsiyalardan foydalanish, bu sizga barcha kerakli umumlashtirish va xulosalarni chiqarishga imkon beradi, bu aslida o‘quv jarayonining samaradorligini kuchaytiradi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun allaqachon kompyuterga ega bo‘lgan o‘quvchilariga har xil turdagi mustaqil ijodiy topshiriqlar taklif qilinishi mumkin. Axborot texnologiyalaridan foydalanish maktab o‘quvchilarining o‘quv jarayonini ularning individual xususiyatlarini va materialni o‘rganishning individual tezligini hisobga olgan holda farqlash, o‘quvchilarning ish yukini kamaytirish va o‘quv vaqtidan samarali foydalanish imkonini yaratadi. O‘qituvchi qiyinchilik darajasiga ko‘ra o‘quv topshiriqlarini taqdim etishni tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘lib, to‘g‘ri qarorlarni tezkor rag‘batlantirish ham motivatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Microsoft matn muharriri Word bizga eslatmalar, texnologik xaritalar, so‘rovnomalalar, vazifalar kartalari va o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun kartalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Microsoft elektron jadvallari Excel turli xil ma‘lumotlarni tizimlashtirish usullarini o‘rgatish imkonini beradi. Xususan, ular ijodiy loyihalar ustida ishlash jarayonida mahsulotning iqtisodiy mezonlarini va marketing tadqiqotlarini tahlil qilish imkonini beradi. O‘qituvchi ulardan testlarni yaratish va keyin o‘tkazish uchun ham foydalanishi mumkin. Word dasturiga o‘rnatilgan grafik muharriri va Paint muharriri oddiy chizmalar va eskizlar yaratish imkonini ochib beradi. Texnologiya darslarida boshlang‘ich sinflar uchun majburiy minimal ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda elektron nashrlar va multimedia vositalaridan keng foydalanish mumkin. Hozirda texnologiyaga oid elektron darsliklardan keng foydalanilmoqda. Elektron nashrlarning mazmuni doirasida axborot birligi paragraflarga bo‘lingan mavzu bo‘lib, u qisqacha ma‘lumotnoma, asboblar va mashqlarning audio tavsifini o‘z ichiga oladi, uning davomida tarkib o‘zlashtiriladi. Elektron kutubxona o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishga ham hissa qo‘shadi.

**Natijalar.** Zamonaviy maktablarda o‘quv jarayonida kompyuter o‘quv o‘yinlari keng qo‘llaniladi. Misol uchun, qizlar uchun kompyuter o‘yini o‘quv maqsadlarida foydalanish mumkin, uning davomida siz Barbie uchun kostyum, aksessuarlar, soch turmagi, bo‘yanishning barcha elementlarini tanlashingiz, shou uchun podiumni loyihalashingiz va model sifatida harakat qilishingiz kerak. Ushbu o‘yin kostyum, soch turmagi, bo‘yanish va o‘z uslubingizni yaratish haqida materiallarni o‘rganishga yordam beradi. Undan "To‘qimachilik materiallarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyalari" bo‘limini o‘rganishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy namunaviy dasturlar va darsliklarda zamonaviy axborot texnologiyalari va ulardan moddiy mahsulotlarni ishlab chiqishda foydalanish masalalari muhokama qilinadigan maxsus bo‘limlar mavjud. Masalan, "Kiyimlarni loyihalash va modellashtirish" bo‘limida tikuv naqshlarini qurish uchun kompyuter dasturlari (7 va 8-sinflar). Robot qurilmalari konstruktor qismlarini yig‘ish, shuningdek, robotlashtirilgan qurilmalar modellarini boshqarish. Shuningdek, turli sohalarda va mehnat turlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va istiqbollari bo‘limi mavjud. Muvaffaqiyatli o‘qitishni o‘quv jarayonida talabalar faolligini rag‘batlantirmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Pedagogika faol o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish uchun ko‘plab texnika va usullarni to‘plagan. Rag‘batlantirish o‘quvchilar e‘tiborini mavzuga jalb qilish, ularda kognitiv qiziqishni uyg‘otish vazifasini bajaradi. Darsda AKTdan foydalanishda maktab o‘quvchilarining kognitiv faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, ularning intellektual kompetensiyasini shakllantirish uchun maqbul sharoitlar

yaratiladi. Bugungi kunda maktab o'quvchilari orasida o'qish uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish alohida ahamiyatga ega va dolzarbdir, chunki motivatsiya bolaning o'qish muvaffaqiyatining eng muhim shartlaridan biridir. Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolada o'qish uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish tananing kompensatsion funktsiyalarini "yoqish" ga, kasallik tufayli kelib chiqqan rivojlanish anomaliyalarini tuzatishga yordam beradi va jismoniy to'siqni engib o'tishga imkon beradi. AKTdan foydalanish maktab o'quvchilarining ta'lim motivatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi va o'quv jarayonida zaxiralarni ochadi. O'rganish, L. S. Vygotskiyning fikriga ko'ra, tabiiy emas, balki tarixiy insoniy xususiyatlarga ega bo'lgan bolada rivojlanish jarayonida ichki zarur va universal momentdir. O'rganish rivojlanish bilan bir xil emas. U proksimal rivojlanish zonasini yaratadi, ya'ni bolada hayotga olib keladi, ichki rivojlanish jarayonlarini uyg'otadi va harakatga keltiradi, bu birinchi navbatda bola uchun faqat boshqalar bilan munosabatlar va do'stlar bilan hamkorlik sohasida mumkin bo'ladi. ammo keyinchalik, rivojlanishning butun ichki yo'nalishini qamrab olgan holda, ular bolaning o'ziga xos boyligiga aylanadi. "Proksimal rivojlanish zonasi" tushunchasi yuqori aqliy funktsiyalarni shakllantirish qonunining mantiqiy natijasidir.

**Xulosa.** Darslarda taqdimot va multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'rganilayotgan jarayonlarni tasavvur qilish, olingan ma'lumotlarning bazasini ta'minlash, o'quv jarayoniga dinamiklik va ekspressivlik berish, darsning axborot mazmunini oshirish, o'quv jarayonini faollashtirish va pirovardida oshirish imkonini beradi. Talabalar global Internet tarmog'ida topilgan ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lum darajadagi axborot savodxonligiga erishganligini va ish natijalarini kompyuterda qayta ishlashni o'rganganligini aytishimiz mumkin. Microsoft matn muharriri bilan ishlashadi. Ular Microsoftda ishlayotganlarida kompyuter taqdimotlarini yaratishga harakat qiladilar. Modullarni o'rganishda "Qiz gigiyenasi. Kosmetika", "Mahsulotlarni loyihalash va modellashtirish", "Moda va kiyim uslubi" mavzularida darslarimizda disklardan foydalanadilar. Matn ma'lumotlari bilan birga chizmalar va fotosuratlarini ko'rsatish o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Dars tarkibiga AKTning maqsadli kiritilishi o'quvchilarning fikrlash jarayonlari va diqqatini faollashtirish, o'quv materialini idrok etish, tushunish va esda saqlashni yaxshilash imkonini beradi. Shunga ko'ra, fan texnologiyasini muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniyati bolalarning mustaqil hayot va mehnatga kirishiga yordam beradi. Kompyuter va interfaol texnologiyalar dasturlashtirilgan ta'lim g'oyalari rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan mutlaqo yangi, hali o'rganilmagan texnologik ta'lim imkoniyatlarini ochib beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Qurbonova S. N., & A. F. T. D. I. metodlardan foydalanish // Scientific progress.–2021. T, 2(6), 1030-1035.
2. Kurbanova S. (2021). Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 3(3).
3. Kurbanova S. (2020). Таълим жараёнида замонавий педагогик технология турларининг қўлланиши: таълим жараёнида замонавий педагогик технология турларининг қўлланиши. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2(2).
4. Kurbanova S. (2021). Barkamol avlodni shakllanishida talim jarayonini orni va unda zamonaviy oqitish texnologiyalaridan foydalanish yollari. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).
5. Kurbanova S. (2020). Technology for the development of logical thinking in students in primary school. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).
6. Курбанова Ш. Н. (2020). Преподавание математики в начальных классах. // European research: innovation in science, education and technology (pp. 97-100).
7. Qurbonova S. N., & Abdullayeva, F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish.
8. Narzullaevna K. S., & Nilufar, T. (2021). Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard. // Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 588-596.
9. Narzullaevna K. S. (2021). The Role of Educational Process in the Formation of a Harmoniously Developed Generation and Methods of using Modern Teaching Technologies. // International Journal of Human Computing Studies, 4(1), 25-28.
10. Narzullaevna K. S., & Nilufar T. (2021). Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard. // Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 588-596.

11. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., & Очилова Г. О. (2021). Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса. // Новые педагогические исследования: сборник статей IV, 20.
12. Kurbanova S. N., & qizi Razzoqova N. B. (2022). Barkamol avlodni shakllantirishda ta’lim jarayonining o’rni va unda zamonaviy o’qitish texnologiyalaridan foydalanish yo’llari. // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 84-88.
13. Kurbanova S. (2020). Boshlang’ich sinf texnologiya darslarida ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини шакллантириш. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).
14. Kurbanova S. (2023). Boshlang’ich sinf texnologiya darslariga intensiv ta’limni tashkil etish. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 27(27)



## МАНИПУЛЯЦИЯ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ

*Давронов Фирдавс Пардабой ўғли,  
Низомий номидаги Тошкент давлат  
педагогика университети мустақил тадқиқотчи  
firdavsdavronov@gmail.com*

*Ушбу тадқиқотда инсонлар ўртасидаги мулоқот жараёнида манипуляция қилиш усуллари ва уларнинг турли классификациялари таҳлил қилинади. Манипуляциянинг турлари ва усуллари, хусусан, вербал ва новербал манипуляция, онгли ва онгсиз равишдаги таъсир, ижтимоий манипуляция каби турли кўринишлари ўрганилади. Шунингдек, психологик тамойиллар, ахборот воситаларидаги манипуляция ва уларнинг жамиятга таъсири мисоллар асосида кўриб чиқилади. Мазкур таҳлил манипуляциянинг ривожланиши ва унинг замонавий технологиялар ва ахборот тарқатиш воситалари орқали қандай қилиб самарали амалга оширилади эканини кўрсатади. Тадқиқотнинг мақсади инсон онгига таъсир кўрсатувчи воситаларни яхшироқ тушуниш ва уларга қарши курашиш учун илмий асослар яратишдан иборат.*

**Калит сўзлар:** *манипуляция, вербал манипуляция, новербал манипуляция, ижтимоий таъсир, ахборот блокадаси, психологик айкидо, манипуляция усуллари, омма онги, когнитив бузилиш, таъсир психологияси, яширин бошқарув, медиа манипуляция, онг назорати, таъсир стратегиялари.*

## МЕТОДЫ МАНИПУЛЯЦИИ И ИХ КЛАССИФИКАЦИИ

*В данном исследовании анализируются методы манипуляции в процессе общения между людьми, а также их различные классификации. Изучаются такие виды и методы манипуляции, как вербальная и невербальная манипуляция, осознанное и неосознанное воздействие, социальная манипуляция. Также рассматриваются психологические принципы, манипуляции в средствах массовой информации и их влияние на общество. Данный анализ демонстрирует развитие манипуляции и то, как она эффективно осуществляется с помощью современных технологий и средств распространения информации. Цель исследования — лучше понять средства воздействия на сознание человека и создать научные основы для борьбы с ними.*

**Ключевые слова:** *манипуляция, вербальная манипуляция, невербальная манипуляция, социальное влияние, информационная блокада, психологическое айкидо, методы манипуляции, общественное сознание, когнитивное искажение, психология влияния, скрытое управление, медиа-манипуляция, контроль сознания, поведенческая стратегия.*

## MANIPULATION METHODS AND THEIR CLASSIFICATION

*This study analyzes manipulation methods in the process of human communication and their various classifications. It examines different types and methods of manipulation, such as verbal and non-verbal manipulation, conscious and unconscious influence, and social manipulation. Additionally, psychological principles, media manipulation, and their impact on society are considered with examples. This analysis demonstrates the evolution of manipulation and how it is effectively carried out using modern technologies and information dissemination methods. The aim of the study is to gain a better understanding of the tools of influence on human consciousness and to develop scientific foundations for countering them.*

**Keywords:** *manipulation, verbal manipulation, non-verbal manipulation, social influence, information blockade, psychological aikido, manipulation methods, public consciousness, cognitive bias, psychology of influence, hidden control, media manipulation, mind control, behavioral strategies.*

**Кириш.** *Инсон онгини манипуляция қилиш масаласи бирнечта ижтимоий фанларнинг ўрганиш предмети бўлиб, замонамиз олимлари томонидан кенг тадқиқ қилинмоқда. Онгни манипуляциялаш жараёни объект ва субъектнинг индивидуал хусусиятларидан келиб чиққан холда бир-биридан фарқланади. Инсон онгига яширин таъсир ўтказиш жараёнини чуқурроқ ўрганиш мазкур жараёнларда қўлланиладиган усул, восита ва ҳолатларни таснифлашни талаб этади.*

**Тадқиқот методологияси ва адабиётлар таҳлили.** *Манипуляция турларининг энг кенг тарқалган таснифларидан бири бу вербал ва новербал турларга ажратишдир. Бу тасниф инсонга маълумот етказиш ва унинг онгига таъсир кўрсатиш усуллари ўз ичига олади.*

Вербал манипуляция, яъни сўзлар орқали амалга ошириладиган таъсир, манипуляторнинг сўз, нутқ ва овоз оҳангидан фойдаланишини талаб қилади. Масалан, нутқни бошқариш орқали манипулятор овоз баландлигини ўзгартириб, маълумотларнинг таъсирини оширади.

Новербал манипуляция эса турли ҳаракатлар, имо-ишоралар, юз ифодалари ва жисмоний масофа орқали амалга оширилади. Манипуляторнинг кучли ёки мулойим кўз қарашлари суҳбатдошнинг ҳис-туйғуларига таъсир қилади.

Калифорния университети профессори А.Мехрабианнинг тадқиқотида кўра, инсонлар ўртасидаги эмоционал маълумот алмашишда: [1]

- вербал коммуникация (*сўзлар*) 7 %;
- паравербал коммуникация (*овоз оҳанги, тембр*) 38 %;
- новербал коммуникация (*жисмоний ҳаракатлар, юз ифодалари*) 55 %ни ташкил қилади.

Мазкур тадқиқот натижасидан маълум бўладики, инсонлар эмоционал маълумот алмашишда асосан новербал сигналлардан фойдаланадилар. Яъни, овознинг оҳанги ва юз ифодалари сўзлардан кўра кўпроқ аҳамиятга эга. Аммо А.Мехрабианнинг натижалари асосан ҳиссий мазмунга эга мулоқот учун мўлжалланганлигини унутмаслик керак.

Социолингвистик олим Р.Бирдвистел инсонлар ўртасидаги мулоқотда новербал алоқалар муҳим роль ўйнайди, деб таъкидлаган. [2] Унинг тадқиқотлари натижаларига кўра, инсонлар бир-бирлари билан мулоқот жараёнида маълумотларнинг тахминан 65-70 %ини новербал шаклда етказадилар. Вербал маълумот эса 30-35 %ни ташкил қилади.

Р.Бирдвистелнинг тадқиқотида кўра, инсонлар имо-ишоралар, юз ифодалари, тананинг позицияси, кўз қарашлари каби аломатлар орқали катта ҳажмдаги маълумотни узатадилар.

Манипуляция усуллари уни амалга оширишдаги субъектнинг эмоционал ҳолатига кўра ҳам таснифланади ва улар онгли ҳамда онгсиз равишда таъсир ўтказиш усулларига бўлинади. Олдиндан англаган манипуляцияда манипулятор аниқ режа асосида ҳаракат қилади ва мақсадга эришиш учун махсус усуллардан фойдаланади. Масалан, реклама орқали истеъмолчини маълум маҳсулот ёки хизматни сотиб олишга рағбатлантириш.

Онгсиз равишда манипулятив таъсир ўтказишда субъект ҳаракатлари англамаган ҳолда кучли стресс ёки кўркув натижасида автоматик тарзда юз беради. [3] Масалан, киши қийин вазиятга тушганида унинг онги онгсиз равишда ҳимоя механизмларини ишга солади.

Ижтимоий мезонлар асосида манипуляция турларини таснифлашда, уларни шартли равишда “ижобий” ва “салбий” деб ажратиш мумкин. Бу тасниф манипуляторнинг мақсад ва мотивларига боғлиқ.

“Ижобий” манипуляцияда субъект шахсларнинг манфаатларини кўзлаб иш тутати. Унинг асосий мақсади шахсларга ёрдам бериш ва уларнинг руҳий ҳолатини яхшилаш ҳисобланади. Масалан, психологик терапияда беморнинг руҳий ҳолатини яхшилашга қаратилган таъсир шулар жумласидандир.

“Салбий” манипуляцияда манипулятор шахсий ёки ғаразли мақсадларни кўзлайди ва унинг ҳаракатлари натижасида шахсларга зарар етказилади. Масалан, ёлгон ахборот тарқатиш орқали одамларга таъсир ўтказиш.

Амалиётчи психолог, бизнес мураббий, лойиҳа бошқаруви соҳаси эксперти Е.Попова илмий ишларида манипуляция турларини манипуляторнинг мақсадидан келиб чиққан ҳолда прагматик ва гедонистик турларга бўлган. [4]

Манипуляторнинг прагматик мақсади бу унинг аниқ ишлаб чиқилган режа асосида кўзланган натижага эришишидир. Мазкур ҳолатда манипуляторнинг бутун эътибори манипуляция объекти ва жараённинг ривожланиш тенденцияларига қаратилади. Субъект ҳис-туйғуларга берилмайди ва совуққонлик билан ҳаракатланади.

Гедонистик мақсадни кўзлаган ҳолда амалга оширилувчи манипуляция манипуляторнинг жараёндан завқланиши ҳамда роҳатланиши учун инсон онгига таъсир кўрсатиши билан характерланади. Манипуляторнинг жараёндан кўзлаган мақсади психологик жиҳатдан ғалаба қозониш ҳисобланади. У муносабатга киришувчи шахснинг бошқарилган ҳаракатларидан маълум ҳис-туйғуларни бошидан кечиритишни хоҳлайди.

Шунингдек, Е.Попова манипуляцияни кўлами даражаси билан таснифлаб, уни қуйидаги турларга ажратган.

**Якка ҳолдаги манипуляция** – ушбу жараён объектнинг ёлғизлиги ва манипуляторнинг якка ҳолда ҳаракатланишини билан характерланади.

**Сценарияли ёки босқичма-босқич манипуляция** – мазкур ҳолатда манипуляция бир нечта босқичларда амалга оширилади, объектни ўрганиш ҳамда унга таъсир ўтказиш ижрочиси сифатида бир гуруҳ мутахассислар иштирок этади.

**Ижтимоий манипуляция** – давлатнинг жамият турмуш тарзини шакллантириши ҳамда бошқариб боришида ижтимоий институтлардан фойдаланиши.

Ўтказилган тадқиқотлар психикага таъсир қилишга таянувчи манипуляциялар аксар ҳолатларда объектнинг руҳий ҳолати бузилишига олиб келишини кўрсатади. [5] Буни қуйидаги усуллар мисолида кўриш мумкин бўлади:

- суҳбатдошни айблаш, шунингдек, қоралаш, масхара қилиш билан руҳий мувозанат ҳолатидан чиқариш натижасида, уни ё нотўғри баёнот бериш ёки мулоқотни тўхтатишига мажбурлаш мумкин;
- тушунарсиз ибораларни қўллаш. Сиёсий дебатларда оппонентнинг бирор сўз маъноси ёки ҳолат мазмунини билмаслигини тан олиши обрўсизлантирувчи вазият сифатида қаралади;
- мунозаранинг жуда тез ёки жуда секин кечиши. Музокара олиб боришда суҳбатнинг тез суръатда кечиши объектга барча маълумотларни таҳлил қилишга имкон бермайди. Сусткашлик билан ўтадиган мунозара объектни зериктиради ва унда жараёни тезлаштириш хоҳиши юзага келади, натижада музокаранинг муҳим жиҳатлари чуқур ўрганилмайди ва вазият манипуляторнинг фойдасига ҳал бўлиши эҳтимоли ортади;

- ҳокимиятга ёки авторитетга ҳавола қилиш.

- оппонентнинг норозилиги туфайли ўзаро муносабатларни бузиш таҳдиди ва бошқалар.

Сиёсат ва бизнесда мантиқ қонун-қоидаларини атайлаб бузиш орқали манипулятив таъсир ўтказиш тез-тез учрайдиган ҳодисадир. Бунда тезисларни нотўғри ва ноаниқ шакллантириш, далиллар, ҳукмлар, аргументларни оз миқдорда тақдим этиш, муҳокама мавзусини бир томонлама очиқ бериш, шунингдек, ҳодисалар ўртасидаги сабабий боғланишга зид фикр билдириш тактикаларидан фойдаланилади.

**Натижалар.** Манипуляция бу эркин ижод маҳсули бўлиб, уни амалга оширишда усуллар манипулятор ҳамда объект табиатидан келиб чиқиб танланади. Манипуляция бугунги кунга қадар тўхтовсиз равишда ривожланиб келган ва келгусида ҳам ривожланишда давом этади. Шунга қарамадан, манипуляциянинг кенг тарқалган усуллари мавжуд бўлиб, уларни қуйида кўриб чиқишимиз мумкин:

**Айбдорлик ёки норозилик орқали манипуляция қилиш.** Объектда айбдорлик ёки хафалик хиссини уйғотиш орқали яқин ижтимоий муносабатда бўлган шахсларни манипуляция қилиш энг самарали ва кенг тарқалган усуллардан биридир. Бахтсиз жабрланувчи қиёфасига кирган манипулятор сукут орқали бир қатор имтиёзлар ва ваколатларга эга бўлади. Масалан, аразлаган ёш болани кўндириш учун ота-онаси унга қўплаб ширинликлар олиб беради. Боланинг аразлашдан кўзлаган мақсади бу ширинликларга эга бўлиш эди.

**Ҳазил орқали манипуляция қилиш.** Айрим тоифа инсонлар қаршисидаги шахснинг таслим бўлиши, унинг олдида ожизлигини тан олишига мажбурлаш учун ақлдан озадиган даражада ғазабланиш (*жазавага тушиши*) қобилиятига эга. Манипуляциянинг бу турида манипулятор тактик ғазаб деб номланувчи воситадан фойдаланади.

**Севги билан манипуляция қилиш.** Севги ва муносабатлар орқали манипуляция қилиш яқин инсонларга қаратилган бўлиб, рад этилиш кўрқуви билан боғлиқ. Манипулятор яқин инсонларга муносабатни тўхтатиш билан таҳдид қилади ва уларни керакли ҳаракатга мажбурлайди.

**Умид орқали манипуляция қилиш.** Манипуляциянинг мазкур усули асосан тиббиётда беморни маълум тиббий жараён давомида керакли ҳаракатларни амалга ошириши ёки ҳаракатсиз ҳолатда қолиши учун шифокорлар томонидан қўлланилади.

**Ҳазил ёки киноя орқали манипуляция қилиш.** Ҳазил ва киноя орқали манипулятор суҳбатдошларга таъсир ўтказади, жараён давомида турли танқидий баёнотлар ва истехзоли оҳанглар орқали ўзига қулай муҳитни шакллантиради.

**Ургунинг ўзгартириши.** Манипулятор маълумотларнинг урғусини ўзгартириб, исталмаган маълумотларни орқа фонга ўтказади ва керакли нуқталарни биринчи ўринга чиқаради. Бу усул оммавий ахборот воситаларида кенг тарқалган бўлиб, маълумотларнинг айрим қисмларини ёритиш ва бошқа қисмларини яшириш орқали манипуляция амалга оширилади.

**Ҳиссий юқумли касаллик.** Ушбу манипуляция технологияси инсон психикасининг ҳиссий юқумли касаллик каби хусусиятига эгаллигига асосланган. [6] Маълумки, инсон ўзи учун номақбул бўлган маълумотлар унга тақдим қилинганда онг ўз-ўзидан ҳимоя тўсиғини шакллантиради. Манипулятор бундай тўсиқдан (*руҳий цензура*) ўтиш учун объектнинг ҳис-туйғуларига таъсир

ўтказди ва керакли маълумотни ҳис-туйғулар билан “қувватлаш” орқали онг тўсиғини енгиб ўтади ва объектда “эҳтирослар портлашини” келтириб чиқаради.

**“Психологик айкидо”.** Айрим ҳодисаларни бўрттириб кўрсатиш орқали бошқа ҳодисаларни эътибордан яшириш имконини беради.

Америкалик ижтимоий психолог Р.Чалдини ўзининг “Таъсир психологияси” китобида одамларга таъсир қилиш ва уларнинг қарашларини ўзгартиришда перцептив контраст тамойилидан моҳирона фойдаланилган мисоллар келтирган. Мазкур усулнинг афзаллиги шундаки, у нафақат самарали ишлайди, балки у қўлланганда махсус билимга эга бўлган объектлар учун сезилмайди. [7]

**Воқеаларнинг “гувоҳлари”.** Тарқатиладиган аксар ёлғон маълумотларни чинга айлантиришда сохта гувоҳларнинг мавжудлигини таъкидлаш жиддий қурол сифатида хизмат қилади. Аксар ҳолатларда хавфсизлик юзасидан гувоҳларнинг шахси сир тутилиши иддао қилинади. Гувоҳларнинг мавжудлигига ишонтириш шубҳаланишнинг олдини олади.

**Устуворлик тамойили.** Бу усул инсон психикасини ўрганиш билан боғлиқ жабҳаларга асосланган бўлиб, онг биринчи етказилган маълумотни ишончлироқ деб қабул қилади. Кейинчалик бирламчи маълумотга зид бўлган маълумот келтирилганда ҳам, онгда унга нисбатан шубҳа туғилади. Шу боис ОАВлар маълумотларни аввалроқ етказишга ва шу орқали аудиторияда биринчи тасаввурни шакллантиришга ҳаракат қилади.

**Душман образи.** Манипуляциянинг бу усули оммага сунъий таҳдид яратишга қаратилган. Кўркув ва таҳдид ҳисси кучайтирилганда, омманинг онгини назорат қилиш осонлашади ва натижада аудиторияда рақибга нисбатан салбий фикр шакллантирилади.

**Эгри чизиқдан олдинга уриш.** Сиёсий жараёнларда қўлланиладиган мазкур усул сайловолди компанияси жараёнида жамоатчиликка рақиб ҳақидаги обрўсизлантирувчи маълумотларни етказиш ва оммада рақибга нисбатан салбий фикрни шакллантириш мақсадида амалга оширилади.

**Хулоса** ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, манипуляторлар инсон психологиясининг кучли ва заиф жihatларидан фойдаланиб, маълум бир мақсадга етишиш учун турли стратегияларни ишлаб чиқадилар ва қўллайдилар.

Ўрганиш давомида маълум бўлдики, манипуляция қилиш усулларини тадқиқ этиш, тушуниш жамиятни ёлғон ахборот ва оммавий манипуляциядан ҳимоялашда муҳим ҳисобланади. Замонавий технологиялар орқали маълумот тарқатиш тезлиги ва кўлами ошиб бораётган бир даврда манипуляциядан хабардор бўлиш ва унга қарши туриш усулларини билиш жамият учун фавқуллодда аҳамият касб этади.

#### Адабиётлар:

1. A.Mehrabian, Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes, 1971, pp. 53-55.
2. R.Birdwhistell, Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication, University of Pennsylvania Press, 1970, pp. 30-35.
3. M.Argyle, Bodily Communication, Methuen & Co Ltd, 1988, pp. 67-69.
4. Е.Попова, Психология манипуляции, Альпина Паблишер, 2013, с. 85-90.
5. P.Ekman, Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life, Holt Paperbacks, 2007, pp. 150-155.
6. Зелинский С., Социальные манипуляции и общественное мнение, Наука, 2008, с. 45-50.
7. Cialdini R., Influence: The Psychology of Persuasion, Harper Business, 2006, pp. 100-105.

**O‘QITUVCHI MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK  
PEDAGOGIKASINING O‘RNI**

**Radjabova Inobat Ravshanovna,**  
Qarshi davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasida dotsenti, p.f.n

*Ushbu maqolada o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rni adabiyotlar tahlili asosida o‘rganiladi. Tadqiqot IMRAD uslubida olib borilib, hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari, usullari va afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Natijalar hamkorlik pedagogikasining o‘qituvchi kasbiy rivojlanishiga ko‘p qirrali ijobiy ta‘siri borligini ko‘rsatadi. Xususan, tajriba almashish, refleksiv amaliyot, innovatsion g‘oyalar yaratish va kasbiy motivatsiyani oshirish kabi afzalliklar aniqlanadi. Shu bilan birga, hamkorlik pedagogikasini joriy etishdagi asosiy to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi. Xulosa qismida hamkorlik pedagogikasini ta‘lim tizimiga keng joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Maqola o‘qituvchilar, ta‘lim muassasalari rahbarlari va siyosatchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** hamkorlik pedagogikasi, o‘qituvchi mahorati, kasbiy rivojlanish, ta‘lim sifati.

**РОЛЬ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВА В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ УЧИТЕЛЯ**

*В данной статье исследуется роль кооперативной педагогики в развитии навыков учителя на основе анализа литературы. Исследование проводится в стиле IMRAD и рассматривает основные принципы, методы и преимущества педагогики сотрудничества. Результаты показывают, что педагогика сотрудничества оказывает многогранное положительное влияние на профессиональное развитие учителя. В частности, определяются такие преимущества, как обмен опытом, рефлексивная практика, генерация инновационных идей и повышение профессиональной мотивации. При этом обсуждаются основные препятствия на пути внедрения педагогики сотрудничества и пути их преодоления. В заключительной части даны практические рекомендации по широкому внедрению педагогики сотрудничества в систему образования. Статья имеет важное значение для учителей, руководителей учебных заведений и политиков и служит для повышения качества образования.*

**Ключевые слова:** педагогика сотрудничества, навыки учителя, профессиональное развитие, качество образования.

**ROLE OF COOPERATION PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF TEACHER SKILLS**

*In this article, the role of collaborative pedagogy in the development of teacher skills is studied on the basis of literature analysis. The study is carried out in the IMRAD style and considers the basic principles, methods and advantages of collaborative pedagogy. The results show that collaborative pedagogy has a multifaceted positive effect on Teacher Professional Development. In particular, advantages such as sharing experiences, reflexive practice, creating innovative ideas and increasing professional motivation are identified. At the same time, the main obstacles to the introduction of cooperation pedagogy and ways to eliminate them are discussed. In the summary part, practical recommendations are given for the extensive introduction of cooperation pedagogy into the educational system. The article is important for teachers, leaders of educational institutions and politicians and serves to improve the quality of education.*

**Keywords:** cooperation pedagogy, teacher skills, professional development, quality of education.

**Kirish.** Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda hamkorlik pedagogikasi tamoyillarini qo‘llash orqali o‘qituvchilar malakasini oshirish samarali usullardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Hamkorlik pedagogikasi - bu o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, tajriba almashish va birgalikdagi izlanishlar asosida ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi [1].

Ushbu maqolaning maqsadi o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rnini adabiyotlar tahlili asosida o‘rganish va bu borada tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.


**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.** Ushbu tadqiqot asosan adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan. O‘zbek, rus va xorijiy manbalardan foydalangan holda hamkorlik pedagogikasi va uning o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishdagi o‘rni bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar,

maqolalar va tadqiqotlar o‘rganib chiqildi. Adabiyotlar tanlashda so‘nggi 10 yil ichida chop etilgan manbalar ustuvorlik berildi.

Adabiyotlar tahlili natijasida hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari, usullari va afzalliklari aniqlandi. Shuningdek, uni amaliyotga joriy etishdagi muammolar va yechimlari o‘rganildi.

### **Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari.**

Adabiyotlar tahlili natijasida hamkorlik pedagogikasining quyidagi asosiy tamoyillari aniqlandi:



**1-rasm. Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari**

Hamkorlik pedagogikasining usullari

Adabiyotlarda hamkorlik pedagogikasining quyidagi asosiy usullari ko‘rsatib o‘tilgan:

1. Hamkorlikdagi dars rejalashtirish va o‘tkazish. O‘qituvchilar birgalikda dars rejalarini tuzish, darslarni kuzatish va tahlil qilish orqali bir-biridan o‘rganadilar [7].
2. Pedagogik seminarlar va treninglar. O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish, yangi g‘oyalar va usullarni muhokama qilish imkonini beradi [8].
3. Kasbiy o‘qituvchilar hamjamiyatlari. Bir fan yoki yo‘nalish bo‘yicha o‘qituvchilar muntazam uchrashib, o‘z faoliyatlarini muhokama qiladilar [9].
4. Mentorlik. Tajribali o‘qituvchilar yosh kadrlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, ularning kasbiy o‘shishiga ko‘maklashadi [10].
5. Onlayn hamkorlik platformalari. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida masofadan turib hamkorlik qilish imkoniyatini beradi [1].

**Munozara.** Hamkorlik pedagogikasining o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishdagi afzalliklari

Adabiyotlar tahlili hamkorlik pedagogikasining o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishda bir qator afzalliklarini ko‘rsatdi:

1. Tajriba almashish. O‘qituvchilar bir-birining ilg‘or tajribalarini o‘rganish, o‘z amaliyotiga tatbiq etish orqali kasbiy mahoratlarini oshiradilar [2].
2. Refleksiv amaliyot. Hamkorlikda ishlash o‘qituvchilarga o‘z faoliyatlarini chuqurroq tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi [4].
3. Innovatsion g‘oyalar. O‘qituvchilar hamkorlikda ishlash jarayonida yangi g‘oyalar va yondashuvlarni ishlab chiqadilar, bu esa ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [7].
4. Kasbiy motivatsiya. Hamkorlik muhiti o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi [9].
5. Stress va charchoqni kamaytirish. Hamkorlik jarayonida o‘qituvchilar bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa ularning ruhiy holatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi [8].

Hamkorlik pedagogikasini joriy etishdagi muammolar va yechimlari

Adabiyotlar tahlili hamkorlik pedagogikasini ta‘lim tizimiga joriy etishda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi:

1. Vaqt yetishmasligi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘quv yuklamasi yuqori bo‘lgani sababli hamkorlik uchun vaqt topa olmaydilar [3].

Yechim: Ta’lim muassasalari rahbarlari o’qituvchilar ish jadvaliga hamkorlik uchun alohida vaqt ajratishlari lozim.

2. An’anaviy yondashuvlarga bog’lanib qolish. Ba’zi o’qituvchilar o’z amaliyotlarini o’zgartirishga qarshilik ko’rsatadilar [5].

Yechim: O’qituvchilarni hamkorlik pedagogikasining afzalliklari bilan tanishtirish, ularni rag’batlantirish kerak.

3. Resurs va ko’nikmalar yetishmasligi. Ayrim o’qituvchilar hamkorlik uchun zarur bo’lgan resurslar va ko’nikmalarga ega emaslar [6].

Yechim: O’qituvchilarga hamkorlik ko’nikmalarini rivojlantirish bo’yicha treninglar o’tkazish, zarur resurslar bilan ta’minlash lozim.

4. Raqobat muhiti. Ba’zi o’qituvchilar o’rtasidagi raqobat hamkorlikka to’sqinlik qilishi mumkin [10].

Yechim: Ta’lim muassasalarida hamkorlikni qo’llab-quvvatlovchi madaniyatni shakllantirish kerak.

Hamkorlik pedagogikasining o’qituvchi mahoratini rivojlantirishdagi roli ko’p qirrali va chuqur bo’lib, bu yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, hamkorlik pedagogikasi nafaqat o’qituvchilarning individual mahoratini oshiradi, balki butun ta’lim muassasasi va tizimining samaradorligini ham yaxshilaydi.

Hamkorlik pedagogikasi o’qituvchi mahoratining turli jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bular quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Pedagogik mahorat: O’qituvchilar bir-birining darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali o’z pedagogik usullarini takomillashtiradilar. Masalan, Turdiyev [7] o’z tadqiqotida hamkorlikda ishlagan o’qituvchilarning 78% o’quv jarayonini tashkil etish va boshqarish ko’nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaganini aniqlagan.

2. Fanlararo bilim: Turli fan o’qituvchilari o’rtasidagi hamkorlik fanlararo yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu o’quvchilarga bilimlarni keng kontekstda tushunishga imkon beradi [9].

3. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko’nikmalari: Hamkorlik jarayonida o’qituvchilar bir-biridan yangi texnologik vositalardan foydalanishni o’rganadilar. Ergashev [1] ta’kidlaganidek, bu ayniqsa masofaviy ta’lim sharoitida muhim ahamiyat kasb etdi.

4. Kasbiy etika: O’zaro hamkorlik o’qituvchilarning kasbiy etika va mas’uliyat hissini oshiradi. Qodirov [10] o’z tadqiqotida hamkorlik muhitida ishlagan o’qituvchilarning 65% kasbiy etika masalalariga ko’proq e’tibor bera boshlaganini qayd etgan.

Hamkorlik pedagogikasining psixologik-pedagogik jihatlari

Hamkorlik pedagogikasi o’qituvchilarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi:

1. Empatiya va emotsional intellekt: O’zaro hamkorlik jarayonida o’qituvchilar bir-birining his-tuyg’ularini tushunish va qo’llab-quvvatlash ko’nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa o’z navbatida o’quvchilar bilan munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi [8].

2. Stress bilan kurashish: Hamkorlik muhiti o’qituvchilarga kasbiy stressni yengishda yordam beradi. Smirnovning [2] tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, hamkorlikda ishlagan o’qituvchilar orasida kasbiy charchash (burnout) holatlari 30% kamroq kuzatilgan.

3. O’z-o’zini baholash va refleksiya: Muntazam hamkorlik o’qituvchilarga o’z faoliyatlarini chuqurroq tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Bu esa ularning kasbiy o’sishiga kuchli turtki bo’ladi [4].

4. Ijodiy fikrlash: Hamkorlik muhiti o’qituvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradi. Johnson va Johnson [3] ta’kidlaganidek, hamkorlikda ishlagan o’qituvchilar guruhida innovatsion g’oyalar 40% ko’proq paydo bo’lgan.

Hamkorlik pedagogikasining tashkiliy jihatlari

Hamkorlik pedagogikasini samarali joriy etish uchun ta’lim muassasasida tegishli tashkiliy sharoitlar yaratilishi lozim:

1. Rahbariyat tomonidan qo’llab-quvvatlash: Ta’lim muassasasi rahbariyati hamkorlik pedagogikasini ustuvor yo’nalish sifatida belgilashi va uni qo’llab-quvvatlashi muhim. Bu nafaqat ma’naviy, balki moddiy resurslar ajratishni ham o’z ichiga oladi [5].

2. Hamkorlik uchun vaqt ajratish: O’qituvchilarning ish jadvaliga hamkorlik uchun maxsus vaqt ajratilishi lozim. Abdullayeva [4] ta’kidlaganidek, bu kamida haftasiga 2-3 soatni tashkil etishi kerak.

3. Hamkorlik infratuzilmasi: Ta’lim muassasasida o’qituvchilarning hamkorlikda ishlashi uchun qulay jismoniy va virtual muhit yaratilishi lozim. Bu o’qituvchilar xonalari, onlayn platformalar va boshqa resurslarni o’z ichiga oladi [6].

4. Ragʻbatlantirish tizimi: Hamkorlikda faol ishtirok etadigan oʻqituvchilarni ragʻbatlantirish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Bu moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirishni oʻz ichiga olishi mumkin [10].

Hamkorlik pedagogikasining taʼlim sifatiga taʼsiri

Hamkorlik pedagogikasi nafaqat oʻqituvchilar mahoratini oshiradi, balki butun taʼlim jarayoni sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi:

1. Oʻquvchilar natijalari: Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, hamkorlikda ishlagan oʻqituvchilarning oʻquvchilari yuqoriroq akademik natijalarga erishadilar. Masalan, Hargreaves va OʻConnor [9] oʻz tadqiqotlarida bunday oʻqituvchilarning oʻquvchilari standartlashtirilgan testlarda oʻrtacha 15% yuqori natija koʻrsatganini aniqlagan.


2. Innovatsion taʼlim usullari: Hamkorlik jarayonida oʻqituvchilar yangi va samarali taʼlim usullarini ishlab chiqadilar va qoʻllaydilar. Bu esa oʻquvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi [7].

3. Moslashuvchan taʼlim muhiti: Hamkorlikda ishlagan oʻqituvchilar tez oʻzgaruvchan sharoitlarga (masalan, pandemiya davrida masofaviy taʼlimga oʻtish) tezroq va samaraliroq moslashadilar [1].

4. Oʻquvchi-oʻqituvchi munosabatlari: Hamkorlik pedagogikasi oʻqituvchilarning kommunikativ koʻnikmalarini rivojlantiradi, bu esa oʻquvchilar bilan munosabatlarni yaxshilaydi va oʻquv jarayonini yanada samarali qiladi [8].

Hamkorlik pedagogikasini joriy etishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yoʻllari

Hamkorlik pedagogikasini joriy etish jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Quyida ularning asosiylarini va ularni bartaraf etish yoʻllarini koʻrib chiqamiz:



**2-rasm. Hamkorlik pedagogikasini joriy etishdagi qiyinchiliklar**

1. Vaqt yetishmasligi: Muammo: Koʻp oʻqituvchilar oʻquv yuklamasi yuqori boʻlgani sababli hamkorlik uchun vaqt topa olmaydilar [3]. Yechim: Taʼlim muassasalari rahbarlari oʻqituvchilar ish jadvaliga hamkorlik uchun alohida vaqt ajratishlari lozim. Bu kamida haftasiga 2-3 soatni tashkil etishi kerak. Bundan tashqari, oʻquv yuklamasini qayta koʻrib chiqish va optimallashtirishga eʼtibor qaratish lozim.

2. Anʼanaviy yondashuvlarga bogʻlanib qolish: Muammo: Baʼzi oʻqituvchilar oʻz amaliyotlarini oʻzgartirishga qarshilik koʻrsatadilar [5]. Yechim: Oʻqituvchilarni hamkorlik pedagogikasining afzalliklari bilan tanishtirish, ular uchun namoyish seminarlar va treninglar oʻtkazish kerak. Shuningdek, hamkorlik pedagogikasini muvaffaqiyatli qoʻllagan oʻqituvchilarning tajribasini ommalashtirish muhim.

3. Resurs va koʻnikmalar yetishmasligi: Muammo: Ayrim oʻqituvchilar hamkorlik uchun zarur boʻlgan resurslar va koʻnikmalarga ega emaslar [6]. Yechim: Oʻqituvchilarga hamkorlik koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha muntazam treninglar oʻtkazish, zarur resurslar (masalan, onlayn platformalar, hamkorlik uchun qulay jismoniy muhit) bilan taʼminlash lozim. Taʼlim muassasasi byudjetida bu maqsadlar uchun alohida mablagʻ ajratilishi kerak.

4. Raqobat muhiti: Muammo: Baʼzi oʻqituvchilar oʻrtasidagi raqobat hamkorlikka toʻsqinlik qilishi mumkin [10]. Yechim: Taʼlim muassasalarida hamkorlikni qoʻllab-quvvatlovchi madaniyatni shakllantirish kerak. Buning uchun jamoaviy maqsadlarni belgilash, hamkorlikdagi yutuqlarni ragʻbatlantirish va oʻzaro ishonch muhitini yaratishga eʼtibor qaratish lozim.

5. Baholash va monitoring tizimining yoʻqligi: Muammo: Koʻp hollarda hamkorlik pedagogikasining samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimi mavjud emas [2]. Yechim: Hamkorlik natijalarini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish kerak. Bu tizim miqdoriy (masalan, hamkorlikda oʻtkazilgan tadbirlar soni) va sifat (masalan, oʻquvchilar natijalari, oʻqituvchilar qoniqish darajasi) koʻrsatkichlarini oʻz ichiga olishi lozim.

6. Texnologik toʻsiqlar: Muammo: Ayrim oʻqituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, bu esa onlayn hamkorlikni qiyinlashtiradi [1]. Yechim: Oʻqituvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boʻyicha muntazam treninglar oʻtkazish, texnik yordam koʻrsatish xizmatini tashkil etish kerak. Shuningdek, foydalanish oson boʻlgan hamkorlik platformalarini tanlash muhim.



7. Motivatsiya yetishmasligi: Muammo: Ayrim o‘qituvchilar hamkorlik pedagogikasining ahamiyatini to‘liq anglamasdan, unga befarq yondashishlari mumkin [8]. Yechim: Hamkorlikda erishilgan yutuqlarni keng targ‘ib qilish, hamkorlikda faol ishtirok etgan o‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish lozim. Bu nafaqat moddiy, balki ma‘naviy rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga olishi kerak (masalan, ilg‘or tajriba egasi unvoni, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyati).

8. Ma‘muriy to‘siqlar: Muammo: Ba‘zi ta‘lim muassasalari rahbarlari hamkorlik pedagogikasini joriy etishga etarlicha e‘tibor qaratmaydilar [4]. Yechim: Ta‘lim tizimi rahbarlarini hamkorlik pedagogikasining ahamiyati haqida xabardor qilish, ular uchun maxsus seminarlar va treninglar o‘tkazish kerak. Shuningdek, ta‘lim muassasalari faoliyatini baholash mezonlariga hamkorlik pedagogikasini joriy etish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Hamkorlik pedagogikasining o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishdagi roli nafaqat individual o‘qituvchilar uchun, balki butun ta‘lim tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv ta‘lim sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda.

Hamkorlik pedagogikasi o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta‘minlaydi. Bu jarayonda o‘qituvchilar bir-biridan o‘rganadilar, o‘z tajribalarini tahlil qiladilar va yangi g‘oyalarni sinab ko‘radilar. Natijada, ular o‘z kasbiy mahoratlarini muntazam ravishda oshirib boradilar.

Kasbiy rivojlanishning muhim jihati shundaki, u o‘qituvchilarga o‘z amaliyotlarini real sinf sharoitida takomillashtirish imkonini beradi. An‘anaviy malaka oshirish kurslaridan farqli o‘laroq, hamkorlik pedagogikasi o‘qituvchilarga kundalik faoliyatlarida duch keladigan muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Bundan tashqari, hamkorlikda ishlash o‘qituvchilarning kasbiy o‘zligini shakllantirishga yordam beradi. Ular o‘zlarini katta pedagogik jamoaning bir qismi sifatida his qiladilar, bu esa ularning kasbiy g‘ururini oshiradi va motivatsiyasini kuchaytiradi.

Hamkorlik pedagogikasi innovatsion ta‘lim usullarini yaratish va joriy etish uchun qulay muhit yaratadi. O‘qituvchilar bir-biri bilan g‘oyalar almashish, tajribalarini muhokama qilish va yangi yondashuvlarni birgalikda ishlab chiqish orqali ta‘lim jarayonini takomillashtiradilar.

Bu jarayonda turli fanlar o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ular fanlararo yondashuvlarni ishlab chiqadilar, bu esa o‘quvchilarga bilimlarni yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, tarix va adabiyot o‘qituvchilari hamkorlikda ishlash orqali o‘quvchilarga ma‘lum bir davr madaniyatini chuqurroq tushunish imkonini beradigan integratsiyalashgan darslar ishlab chiqishlari mumkin.

Innovatsion usullar nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarning turli ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Masalan, hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha asosida o‘qitish usuli o‘quvchilarning muloqot, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Hamkorlik pedagogikasi butun ta‘lim jarayoni sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. O‘quv dasturlarini takomillashtirish: O‘qituvchilar hamkorlikda ishlash orqali o‘quv dasturlarini muntazam ravishda tahlil qiladilar va takomillashtirib boradilar. Ular o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan, zamonaviy talablarga javob beradigan va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv dasturlarini yaratishga intiladilar.

2. Baholash tizimini yaxshilash: Hamkorlik jarayonida o‘qituvchilar baholash usullarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratadilar. Ular nafaqat bilimlarni, balki ko‘nikma va kompetensiyalarni ham baholaydigan zamonaviy usullarni ishlab chiqadilar va joriy etadilar.

3. O‘quv-metodik ta‘minotni yaxshilash: O‘qituvchilar hamkorlikda o‘quv qo‘llanmalar, didaktik materiallar va boshqa o‘quv-metodik resurslarni tayyorlaydilar. Bu resurslar bir necha o‘qituvchining tajribasi va bilimini o‘zida mujassam etgani uchun yuqori sifatli bo‘ladi.

4. Ta‘lim muhitini yaxshilash: Hamkorlik pedagogikasi nafaqat o‘quv jarayoniga, balki maktabdagi umumiy muhitga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar o‘rtasidagi do‘stona va ishchan munosabatlar o‘quvchilarga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, natijada maktabda qulay psixologik muhit shakllanadi.

Hamkorlik pedagogikasi o‘qituvchilarning kasbiy etika va mas‘uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar bir-biri bilan hamkorlik qilish jarayonida o‘z faoliyatlarini chuqurroq anglab etadilar, kasbiy qadriyatlarini muhokama qiladilar va umumiy etik tamoyillarni ishlab chiqadilar.

Bu jarayonda o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatlarining keng ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq anglaydilar. Ular o‘zlarini nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatni shakllantiruvchi muhim kuch sifatida his qila boshlaydilar. Bu esa o‘z navbatida ularning kasbiy mas‘uliyatini oshiradi.

Bundan tashqari, hamkorlik jarayonida o‘qituvchilar bir-birining ishini kuzatish va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu o‘zaro nazorat va professional o‘sish uchun muhit yaratadi. Natijada, o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini muntazam ravishda tahlil qilishga va takomillashtirishga intiladilar.

**Xulosa.** Adabiyotlar tahlili natijasida o‘qituvchi mahoratini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining muhim o‘rni borligi aniqlandi. Hamkorlik pedagogikasi o‘qituvchilarga tajriba almashish, refleksiv amaliyot olib borish, innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa ularning kasbiy mahoratini oshirish va pirovardida ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hamkorlik pedagogikasini ta’lim tizimiga samarali joriy etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta’lim muassasalari rahbarlari tomonidan hamkorlik pedagogikasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish tizimini yaratish.
  2. O‘qituvchilar ish jadvaliga hamkorlik uchun alohida vaqt ajratish.
  3. Hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha treninglar va seminarlar tashkil etish.
  4. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida onlayn hamkorlik platformalarini yaratish.
  5. Hamkorlik natijalarini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish.
- Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali o‘qituvchilar mahoratini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishga erishish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Ergashev B. (2020). Hamkorlik pedagogikasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Смирнов В.И. (2018). Теория и методика профессионального образования в вопросах и ответах. Москва: ИНФРА-М.
3. Johnson D.W., & Johnson R.T. (2017). Cooperative learning: The foundation for active learning. In S. Brito (Ed.), *Active Learning - Beyond the Future* (pp. 59-73). IntechOpen.
4. Abdullayeva Q. (2019). O‘qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining ahamiyati. // *Xalq ta’limi*, 3, 12-18.
5. Полат Е.С. (2016). Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. Москва: Академия.
6. Darling-Hammond L., Hyler M.E., & Gardner M. (2017). *Effective teacher professional development*. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute.
7. Turdiyev N. (2021). Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari. Toshkent: Yangi nashr.
8. Слостенин В.А. (2019). Педагогика. Москва: Юрайт.
9. Hargreaves A., & O’Connor M.T. (2018). *Collaborative professionalism: When teaching together means learning for all*. Corwin Press.
10. Qodirov A. (2022). O‘qituvchilar malakasini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: muammolar va yechimlar. // *Uzluksiz ta’lim*, 2, 45-52.

## TALABALARDA AXBOROT KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-METODIK TA'MINOTI

*O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
“Informatika va uni o'qitish metodikasi” kafedrası o'qituvchisi  
oktamovm03@mail.ru*

*Ushbu maqola talabalar axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta'minoti masalalariga bag'ishlangan. Axborot kompetentligi talabalar uchun axborot izlash, tahlil qilish va uzatish ko'nikmalarini o'z ichiga olib, zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Maqolada axborot kompetentligini shakllantirish uchun zaruriy tashkiliy tuzilma, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va axborot texnologiyalarining roli ko'rib chiqiladi. Ushbu ta'minot, talabalar bilimlarini kengaytirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** axborot kompetentligi, tashkiliy-metodik ta'minot, oliy ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik metodlar, ta'lim jarayoni, raqamli ko'nikmalar, mustaqil o'qitish, ta'lim resurslari.

## ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

*Данная статья посвящена вопросам организационно-методического обеспечения развития информационной компетентности студентов. Информационная грамотность имеет важное значение в современном образовании, включая навыки студентов искать, анализировать и передавать информацию. В статье рассматривается роль необходимой организационной структуры, образовательных программ, методических пособий и информационных технологий для формирования информационной компетентности. Данное положение служит расширению знаний учащихся, развитию навыков творческого и критического мышления.*

**Ключевые слова:** информационная компетентность, организационно-методическое обеспечение, высшее образование, информационно-коммуникационные технологии, педагогические методы, образовательный процесс, цифровые навыки, самостоятельное обучение, образовательные ресурсы.

## ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN STUDENTS

*This article is devoted to the issues of organizational and methodological support for the development of students' information competence. Information literacy is essential in modern education, including the skills for students to search for, analyze, and communicate information. The article considers the role of necessary organizational structure, educational programs, methodical manuals and information technologies for the formation of information competence. This provision serves to expand students' knowledge, develop creative and critical thinking skills.*

**Keywords:** information competence, organizational and methodological support, higher education, information and communication technologies, pedagogical methods, educational process, digital skills, independent teaching, educational resources.

**Kirish.** Informatika va axborot texnologiyalari sohasidagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uzoq vaqt davomida oliy ta'lim nazariyasi va metodikasida faqat axborot va informatikaning texnik jihatlari ko'rib chiqilgan: kompyuterda loyihalash, kompyuterlar va hisoblash tizimlari, turli tarmoqlar, ma'lumotlar bazalari va boshqalar. Va faqat so'nggi yillarda axborot makonining ijtimoiy komponentiga tadqiqotga o'tish kuzatildi. Tadqiqotchilar axborot jarayonida shaxs haqida yozmoqdalar, ijtimoiy kontekstda axborotning mohiyati va mazmuni haqida savollar berishmoqda.

Biz tomonidan ishlab chiqilgan tanlov fani allaqachon to'liq kompetentlikka yo'naltirilgan. Quyida 1-jadvalda dasturning asosiy modullari keltirilgan.

**Tanlov fani o‘quv rejasi tarkibidagi modullar**

№	Modulning nomlanishi
1	Kirish. Axborot kompetentlik mazmuni va tuzilmasi
2	Kasbiy faoliyatda axborot kompetentlik o‘rni
3	Axborot turlari
4	AT korxonalar bilan tijorat korxonalarining o‘zaro ta’siri
5	Ijtimoiy sohada axborot kompetentlikning xususiyatlari
6	Jamiyatda axrorot texnologiyalarining roli

Shunday qilib, axborot kompetentlikni rivojlantirishni ta’minlaydigan fan dasturlarida komponentli yondashuvni amalga oshirish bosqichlari va variantlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

**O‘quv dasturlari tarkibidagi o‘zgarishlar**

Semestr	Fan	Dastur
1	Informatika	Ishchi o‘quv dasturni ishlab chiqishda kompetensiyalarni singdirish, ta’lim vazifalarini qo‘shish
2	Boshqaruvda axborot texnologiyalari	Dasturni yangilash
3	Axborot kompetentlikni rivojlantirish metodlari	Kompetentlikka yo‘naltirilgan modulli o‘qitishni tashkil etish

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida tanlangan fanlar bo‘yicha metodik ta’minot majmuasi ishlab chiqildi, ulardan foydalanish talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu majmuani ishlab chiqish jarayonida mavjud tashkiliy-metodik qo‘llanmani qisman qayta ishladik.

Biz ushbu majmuani Shaxrisabz davlat pedagogika instituti HEMIS axborot muhitiga bosqichma-bosqich joylashtirdik. Ushbu muhitdan foydalanuvchi o‘qituvchilar va turli xil ta’lim shakllarining talabalari hisoblanadi. Talabalar HEMISda joylashtirilgan o‘quv materiallaridan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda, loyihalarni ishlab chiqishda, mustaqil ishlarni bajarishda, imtihon va testlarga tayyorgarlik ko‘rishda foydalanadilar. Bu talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishni tashkiliy-metodik qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

Talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish maqsadida biz tomonidan ishlab chiqilgan metodik yordam kompleksini batafsil ko‘rib chiqamiz. Bundan tashqari, biz qaysi fan axborot kompetentligining u yoki bu komponentlarini samarali amalga oshirishini ko‘rsatamiz.

Talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish vazifalaridan biri bu turli manbalardan olingan ma’lumotlar haqida tanqidiy fikr yuritish qobiliyatidir. Bu, ayniqsa, Internet-axborot resurslari bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, talabalarda internetdan olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va natijalarni taqdim etish qobiliyatini rivojlantirish kerak, ya’ni: ishonchsiz manbalarni aniqlay olish, muqobil ma’lumotlarni topa olish, umumlashtirish, taqqoslash, sharhlay olish, o‘z ishining natijalarini tavsiflash va taqdim eta olish. Axborot kompetentligining ko‘rsatilgan komponentlarini shakllantirish uchun biz "Menejerning axborot kompetentligi rivojlantirish metodikasi" fanini o‘rganishda talabalarga taklif qilgan kvestlarni ishlab chiqdik.

Talabalarining mustaqil ishlashi uchun mo‘ljallangan veb-kvestni ishlab chiqishda ma’lum metodik talablarga rioya qilish kerak:

- Ishtirokchilarning asosiy rollari yoki kvest ssenariysi, dastlabki ish rejasi va butun kvestning umumiy ko‘rinishi aniq tasvirlash.

- Topshiriqlarni tushunarli, qiziqarli va bajarilishini ta’minlash. Talabaniing mustaqil ishining yakuniy natijasini aniq belgilash.

Talabalar topshiriqni bajarishlari uchun zarur bo‘lgan axborot resurslari ro‘yxatini shakllantirish. Ushbu ro‘yxat izohli bo‘lishi kerak.

- Har bir talaba topshiriqni mustaqil bajarishda bajarishi kerak bo‘lgan ish tartibi keltirilishi kerak.

- O‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etuvchi yo‘l-yo‘riqli savollar ko‘rinishida taqdim etilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirilishi lozim.

O‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan savollar banki ishlab chiqilishi kerak.

An’anaga ko‘ra, veb-kvestning tuzilishi quyidagi asosiy qismlardan iborat: kirish; markaziy vazifa; ish jarayonining tavsifi; ball kartasi; xulosa; mualliflik huquqi; o‘qituvchi uchun ma’lumot.

Ta’lim jarayonida kvestlardan foydalanish loyiha faoliyatining bir turi sifatida qaralishi mumkin. Bu usul talabalarga kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda o‘z yondashuvlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Kvestlar bilan ishlashning quyidagi metodik aspektlarini aniqladik. Talabalar o‘z harakatlarining aniq rejasi bilan birga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar oldilar. Topshiriqlar internetdagi turli saytlardan ma’lumotlarni izlash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, baholash va qo‘llashga qaratilgan.

**Metodika.** Shundan kelib, pedagogika OTM talabalarida axborot kompetentlikni rivojlantirishning uch bosqichini belgilab oldik. Birinchi bosqichda asosiy faoliyat - ta’lim va o‘quv turi. Bu yerda talaba ta’lim faoliyatining subekti va obykti hisoblanadi. Shunday qilib, "Informatika" fanini o‘rganishda talabalar axborotning nazariy asoslarini, matn, grafik va raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarini o‘rganadilar. Ikkinchi bosqichda “Menejment axborot texnologiyalari” fanini o‘rganishda talabalar oldingi bosqichda o‘zlashtirilgan barcha mazmun va metodlarni kvaziprofessional faoliyat jarayonida, ya’ni kelajakdagi menejer sifatida qo‘llaydilar. Bu bosqichda subyektiv komponent ta’limning subyekt-obyekt tashkilotiga aylanadi. Uchinchi bosqichda esa “Menejning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi” tanlov kursini o‘rganishda talabalar o‘quv va kasbiy faoliyat jarayonida axborotning ijtimoiy komponentini o‘rganadilar. Ushbu bosqichda talabaning subyektiv yondashuvi haqida gapirish qonuniydir.

Yuqorida aytilganlarning barchasi 3-jadvalda o‘z aksini topgan bo‘lib, unda talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida faoliyat turlari, axborot kompetentligining komponentlari va shakllari, o‘qitish metodlari aks ettirilgan.

3-jadval.

**Pedagogika OTM talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish bosqichlari**

Bosqichlar	Fanlar	Kurs	Faoliyat turlari	Metodlar va shakllar	Axborot kompetentlik komponentlari
Birinchi	Informatika	1	O‘quv	Vizual-ma’ruza, press-konferensiya	Motivatsion-kognitiv
Ikkinchi	Boshqaruvda axborot texnologiyalari	2, 3	Kvaziprofessional	Ish o‘yinlari,	Kognitiv-faoliyatli
Uchinchi	Axborot kompetentlikni rivojlantirish metodlari	3, 4	O‘quv-kasbiy	Aylana stol, ishlab chiqarish amaliyoti, individual loyiha, diplom loyihasi	Faoliyatli-refleksiv

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ushbu bosqichlarning har birida biz axborot kompetentligining shakllanish bosqichi, komponentlikga yo‘naltirilgan dastur varianti va talabalarining ustunlik qiladigan faoliyatidan kelib chiqqan holda o‘qitishning turli shakllari va usullaridan foydalanamiz.

Faol ta’lim metodlari - bu o‘quv jarayonini tashkil etish va maxsus vositalar orqali talabalarni kognitiv faoliyat jarayonida o‘quv materialini mustaqil, tashabbuskor va ijodiy o‘zlashtirishga undaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan pedagogik harakatlar va metodlar majmuidir.

O‘quv va kognitiv faoliyatning tabiatiga ko‘ra, biz faol o‘qitish metodlarini: kasbiy faoliyatga taqlid qilishga asoslangan taqlid metodlari va taqlid qilmaslik usullariga ajratdik. Imitatsiya, o‘z navbatida, o‘yin va o‘yin bo‘lmaganlarga bo‘lingan. Shu bilan birga, biz aniq vaziyatlarni tahlil qilish, menejning ish xatini tahlil qilish, ko‘rsatmalarga muvofiq harakatlar va hokazolarni o‘yindan tashqari deb tasnifladik. O‘yin metodlari quyidagilarga bo‘lingan: ishbilarmonlik o‘yinlar, didaktik yoki o‘quv o‘yinlari, o‘yin vaziyatlari va o‘yin texnikasi va boshqalar.

Biz tanlagan metodlar uzoq vaqt davomida o‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Ammo savol tug‘ildi, bu metodlarni qo‘llash jarayonida olingan natijalarni qanday o‘lchash va baholash kerak, chunki an’anaviy metodlar etarli emasmi?

Birinchidan, biz yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ushbu o‘qitish metodlaridan foydalanishni taklif qildik. Biz birinchi navbatda ma’ruzalarni modernizatsiya qilishdan boshladik, chunki fanni o‘qitishda ularning soni kamayib bormoqda va o‘qitish samaradorligini oshirish zarur.

**Amaliy qism.** “Informatika” fanini o‘rganish jarayonida ma’ruza-vizualizatsiyadan foydalanish misolini ko‘rib chiqamiz. Ushbu turdagi ma’ruzalar aniqlik tamoyilini amalga oshirishning yangi imkoniyatlarini izlash natijasida paydo bo‘ldi. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, vizuallashtirish nafaqat o‘quv materialini yanada muvaffaqiyatli idrok etish va eslab qolishga yordam beradi, balki bizga ma’lum bo‘lgan hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi. Shuning uchun biz talabalar

ta'limining birinchi yilida ma'ruza-vizualizatsiyadan foydalanishni eng samarali deb hisoblaymiz. Informatika fani birinchi semestrda o'rganilganligi uchun yangi o'quv jarayonini o'zlashtirishga ulgurmanligi sababli fanlar mazmunini o'zlashtirishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Shundan kelib chiqib, biz talabalarga “Kompyuter tarixi”, “Algoritmash”, “Lokal kompyuter tarmoqlari” mavzularida vizual ma'ruzalarni taklif qildik.

Semestr yakunida mazmuni o'zlashtirish sifatini oshirish maqsadida talabalarga “Informatika” fanidan ma'ruza – matbuot anjumani o'tkaziladi. Ma'ruza-matbuot anjumanini o'tkazish metodikasi quyidagicha: guruhdan ikki yoki uchta talaba tanlab olinadi, keyin o'qituvchi qolgan talabalarga butun kurs bo'yicha yozma ravishda savollar berishlarini so'raydi. Javoblarni tayyorlash uchun besh daqiqa vaqt beriladi, agar talaba javob berishga qiynalsa, u holda barcha guruh topshiriqlarni bajarishga jalb qilinadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, axborot kompetentlikni rivojlantirishning ikkinchi bosqichida biz ishbilarmon o'yinlardan va aniq vaziyatlarni tahlil qilishdan foydalandik. “Menejment axborot texnologiyalari” fanini o'rganishda bir nechta misollar keltiramiz. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabalar biznes o'yiniga biroz tayyorgarlik ko'rishlari maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun, biz birinchi navbatda keys-stadini taklif qilamiz. “Tashkilotning avtomatlashtirilgan axborot tizimi” mavzusini o'rganish jarayonida talabalar quyidagi vaziyatni o'rganishlari kerak: zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sayyohlik kompaniyasi faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash.

Keys-stady metodikasi talabalar faoliyatini guruhli tashkil qilishni o'z ichiga oladi: bu vazifani bajarish uchun talabalar guruhlarga bo'lingan, so'ngra har bir guruh taklif qilingan vaziyatni hal qilish uchun loyiha tuziladi. Shundan so'ng har bir loyiha taqdimoti bo'lib o'tdi, unda talabalar ushbu muammoni hal qilish bo'yicha o'z takliflarini bildirdilar. Taqdimotlar natijalariga ko'ra har bir guruh baholandi va natijada eng samarali yechimlar ro'yxati tuzildi.

Axborot kompetentlikni rivojlantirish uchun ishbilarmonlik o'yinlari o'qituvchidan ham, talabalardan ham alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun, qoida tariqasida, o'yin shaklida darslar fanni o'rganish oxirida o'tkaziladi. Ishbilarmonlik o'yiniga tayyorgarlik ko'rishda talabalar MS Office dasturlar paketiga tegishli barcha dasturlardan foydalanishlari kerak edi. Masalan, ular MS Word matn muharriri yordamida ishbilarmonlik o'yinini o'tkazish uchun zarur bo'lgan ishchi hujjatlar to'plamini ishlab chiqdilar: taklifnoma, tashqi ko'rinish varag'i, kun tartibi, reglament, protokol, transkript, qaror loyihasi va boshqalar. Guruh muhokamasi uchun talabalar MS Excel elektron jadval muharririda tuzilgan grafik va diagrammalar ko'rinishidagi ilustrativ material ishlab chiqdilar. O'z-o'zini taqdim etish uchun talabalar MS PowerPoint kabi taqdimot dasturidan foydalanishlari kerak edi. Loyihani ishlab chiqishga bag'ishlangan darslarda talabalar MS Project dasturidan foydalanishlari kerak edi. Shunday qilib, bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, biznes o'yinlari sharoitida menejning kelajakdagi faoliyatining mazmuni, shakllari va metodlari, shuningdek uning predmeti va ijtimoiy aspektlari modellashtirilgan.

Dasturiy ta’lim vositalari asosida talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda masofali ta’lim – talabalar konstruktorlikka oid qo’shimcha bilim olishi uchun mutaxassislik fanlarni o’qitishda keng foydalaniladi. Dasturiy ta’lim asosida o’qitishning muhim xususiyatlaridan yana biri bu o’qituvchi va talabaning bir-birlaridan muayyan masofada turib, vaqt tejab, o’quv jarayonini erkin grafik asosida amalga oshirish mumkinligini anglatadi. Bunda ta’lim jarayonlarining barcha bosqichlari zamonaviy axborot telekommunikatsion texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Keyingi vaqtlarda amalga oshirilayotgan internet orqali masofadan o’qitish talabalarga o’quv materiallarining asosiy qismini yetkazib berish va global tarmoqning texnikaviy va dasturiy vositalaridan foydalangan axborotlarni yetkazish maqsadida tashkil etilmoqda.

Hozirgi kunda bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilari rahbarligida talabalarda dastlabki texnik bilim va ko’nikmalarni shakllantirishdan, ularni unumli mehnatga jalb qilishdan tashqari, o’g’il va qizlarda texnik tafakkurni hamda konstruktorlik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.

Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini o’quvchilarning texnik-konstruktorlik hamda dizayn faoliyatini boshqarishga tayyorlash uchun talabalar konstruktsiyalash va modellashtirish ishlarini o’zlashtirishlari lozim. Konstruktsiyalash jarayoni detalning shaklini, o’quv ustaxonasida uni tayyorlash imkoniyatini aniqlash bo’yicha mustaqil fikr yuritib ishlashni taqozo qiladi.

Konstruktsiyalash amaliy mashg’ulotlari dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanib o’tilsa, talabalarining aqliy faoliyat malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi, kuzatuvchanlikni oshiradi hamda o’quv materialini ongli, aniq, puxta o’zlashtirishda yordam beradi, kasbiy ko’nikma va malakalarining shakllanishini tezlashtiradi.

Bo’lajak texnologiya fani o’quvchilari dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanganda texnik ijodkorlik qobiliyatini, texnika sirlarini anglashi va shu yo’nalishda ta’lim berilsa, respublikamizda erishilgan fan va texnika yutuqlariga tayanib ish ko’rilsa, uning ildizini yanada chuqurroq tushunib kelajakda innovatsion

texnik mutaxassislar, fan va texnika yutuqlariga o‘z hissasini qo‘sha oladigan pirovardida esa shu yoshlar chet el mahsulotlari va asbob-uskunalaridan kuchliroq mashinalar kashf qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan hamda shu yo‘lda xizmat qila oladigan bo‘lishlari lozim.

Texnik loyihalash va modellashtirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar deganda - mehnat faoliyatining izchil tashkil etilishi tushuniladi. Bu faoliyat ham kollektiv, ham individual ish turlarini o‘z ichiga oladi va bu ishlar pedagog tomonidan tashkil qilinib, bunda talabalarning o‘quv materiallarini aktiv, ongli va mustahkam o‘zlashtirishi ko‘zda tutiladi.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining ijtimoiy va kasbiy tayyorgarligini, texnik-konstruktorlik kompetentligini shakllantirishda o‘ziga xos usul, metod hamda vositalarini ishlab chiqish kabi muhim pedagogik vazifalarini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va internet saytlaridan barcha sohalarida keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, buyumlarini texnik-konstruksiyalash va modellashtirishda kompyuter dasturlaridan keng foydalanilib, animasion tasvirlar, videoroliklar, virtual stentlar, elektron darsliklar yaratilmoqda. Bu talabalarning texnik-konstruktorlik ijodkorligini, texnik fikrlashini, ishga ijodiy yondashishini va ijtimoiy va kasbiy mahoratini, buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishda maxsus kompetentligini rivojlantirishini oshirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda “Texnologiya” fani muhim o‘rin tutadi. Fanning ilmiy - metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta‘lim bilan qo‘shib olib borish, talabalarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Texnologiya fani darsi oliy ta‘limdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo‘llasada, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Talabalar texnik-konstruktorlikni bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Texnologiya fanida texnik-konstruktorlik predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish obyekti sifatida emas, balki o‘quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta‘limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o‘quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o‘rgatadi.

Talabalarga texnik konstruksiyalash va modellashtirishda bir xil tipdagi qurilmalar, modellar hamda maketlarni tayyorlashda ta‘limning frontal shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda pedagog talabalar uchun tegishli murakkablikdagi ob‘yektlarni tanlaydi. Ular loyihalash bo‘yicha ta‘limning frontal shaklidan foydalanishda butun gruppani modellashtirishning faqat bitta ob‘yekt bilan shug‘ullanishga tayyorlaydi hamda bu tadbir ularni tayyorlashga sarflanadigan vaqtni, texnik - texnik hujjatlar hajmini, bir xil tipdagi asbob va moslamalarni, o‘xshash mehnat usullarini ko‘rsatish va hokazolarni ancha kamaytiradi. Texnik konstruksiyalash va modellashtirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar deganda o‘quv - mehnat faoliyatining izchil tashkil etilishi tushuniladi. Bu faoliyat ham kollektiv, ham individual ish turlarini o‘z ichiga oladi va bu ishlar pedagog tomonidan tashkil qilinib, bunda talabalarning o‘quv materiallarini aktiv, ongli va mustahkam o‘zlashtirishi ko‘zda tutiladi.

Texnik konstruksiyalash va modellashtirish uchun tegishli bo‘lgan materiallar detallarning hamda yig‘ish birliklariga ta‘sir etadigan kuchlarning xarakterini nazarda tutgan holda tanlanadi. Bunda materiallarning tegishli lug‘atlardan topish mumkin bo‘lgan xossalarini ham albatta hisobga olish kerak bo‘ladi..

Texnik konstruksiyalash va modellashtirish uchun tegishli materiallar detallarning hamda yig‘ish birikmalarining ishlash sharoitlari, ana shu detallar va yig‘ish birikmalariga ta‘sir etadigan kuchlarning xarakterini nazarda tutgan holda tanlanadi. Bunda materialning tegishli spravochniklaridan topish mumkin bo‘lgan xossalarini ham albatta hisobga olish kerak.

Ilm-fan texnika taraqqiyoti sohasidagi izlanishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ta‘lim tizimiga dasturiy ta‘lim vositlaridan to‘laqonli joriy etishning zarurligi quyidagicha asoslanadi:

➤ birinchidan, o‘quv va tarbiya jarayonida o‘qitishning avvaldan qo‘llanilib kelingan texnik vositalari yoki didaktik materiallari bilan kompyuter texnikasini taqqoslaganda, kompyuterning texnik- operatsion imkoniyatlari cheksizligi;

➤ ikkinchidan , fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor kadrlar tayyorlash masalasi hal etuvchi rol o‘ynashi bilan izohlanadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, texnik-konstruktorlik kompetentligi ta‘lim va tarbiya vositalari, metodlari, shakli va mazmunini sifatli o‘zgartirib, quyidagi imkoniyatlar yaratadi:

➤ talabalarning shaxsiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarib va rivojlantirib, ularning individual sifatleri bilan muvofiqlashtiradi;

➤ talabalarda bilish qobiliyati va mukammalikka intilishini shakllantiradi;

➤ ta‘lim va tarbiya metodi, shakli hamda mazmunini har doim yangilab turadi.

Ma'lumki, o'qitish metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usuli bilan, u o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borishni hamda shu jarayonda talabalar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

Talabalarning ongi davr taraqqiyoti bilan ancha ilgari bormoqda shuning uchun ularning o'qituvchidan ko'p narsani talab qilishi tabiiy hol. Bugungi kunda o'qituvchilar darsni turli xil raqamli texnik vositalar yordamida o'tish imkoniyatiga ega. Kompyuter o'qituvchi uchun texnik va texnik vosita sifatida shunday zahira manbaiki, u yordamida o'qituvchi talabalar bilan ishlashi uchun darsga ajratilgan soatning ma'lum miqdorini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ayniqsa, “texnologik ta'lim” yo'nalishidagi Texnik jarayonlarni loyihalash, ijodiy-konstruktorlik faoliyatini asoslari, 3D modellash tirish fanlari o'qituvchisi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

**Xulosa** qilib aytganda, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir texnologiya fani o'qituvchisining texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishga oid pedagogik faoliyatida yangicha usul, dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish, uzluksiz o'z-o'zini tahlil qilish, zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, texnik-konstruktorlikka oid loyihalar bajarish, dasturlash texnologiyalaridan foydalanish, o'zining butun bilim va tajribasini, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasi.

### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016 y. 34 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 y. 484 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston 2017 y. 20 b.
4. Ahmadaliev S.Y. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashishining ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. nomz. ... diss. - T.: TDPU. 2008 y. – 187 b.
5. Doniev B. Mehnat ta'limi o'qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishning uslubiy asoslari: Ped. fan. nomz. ... diss. - T.: TDPU, 2008 y. - 190 b.
6. Jo'rayev A.R. Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –T.: 2019 y. – 144 b.
7. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: дисс. ... канд. пед. наук. – T.: 2008 г. – 314 с.
8. Mamatov D.N. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –T., 2017 y.

## SHAXS PSIXOLOGIK SALOMATLIGINING KO'P O'LCHOVLILIGI

*Sobirov Abdulaziz Abdurozegovich,*  
*psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Iqtisodiy inqiroz aholining ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, xususan, o'z joniga qasd qilishdan o'lim va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning yomonligini oshiradi. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy siyosatning boshqa choralari yordamida ushbu patologik harakatga qarshi turish mumkin: masalan, faol dastur bozor bozori, maqsad qilingan kuch bir xil bo'lib qolish yoki qarz yukini yengillashtirish uchun yangi ish yoki dasturlarni topish. Oilani qo'llab-quvvatlash dasturlari xuddi shu maqsadga xizmat qiladi. Spirtli ichimliklar narxining oshishi va uning mavjudligini cheklash uning ruhiy salomatlikka kiruvchi ta'sirini kamaytiradi va inson hayotini saqlab qoladi.*

**Kalit so'zlar:** *psixologik salomatlik, "sog'liqni saqlash", shaxsiy salomatlik, o'z-o'zini anglash, subyektiv farovonlik, "ideal sog'liq".*

## МНОГОМЕРНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ЛИЧНОСТИ

*Экономический кризис оказывает серьезное влияние на психическое здоровье населения, в частности, повышает смертность от самоубийств и злоупотребления алкоголем. Противодействовать этому патологическому влиянию можно с помощью социального обеспечения и других мер социальной политики, например, активных программ на рынке труда, нацеленных на помощь в сохранении прежней или обретении новой работы или программ по облегчению долгового бремени. Той же цели служат программы поддержки семьи. Повышение цен на алкоголь и ограничение его доступности снижает его нежелательное воздействие на психическое здоровье и спасает человеческие жизни.*

**Ключевые слова:** *психологическое здоровье, "здоровье", личное здоровье, самосознание, субъективное благополучие, "идеальное здоровье".*

## MULTIDIMENSIONALITY OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL HEALTH

*The economic crisis has a serious impact on the mental health of the population, in particular, increases mortality from suicide and the evils of alcohol consumption. It is possible to counteract this pathological influence with the help of social security and other social policy measures – for example, active labor market programs aimed at maintaining the same or finding a new job or debt relief programs. Family support programs serve the same purpose. Increasing the price of alcohol and limiting its availability reduces its undesirable effects on mental health and saves human lives.*

**Keywords:** *psychological health, "health", personal health, self-awareness, subjective well-being, "ideal health".*

**Kirish.** "Shaxsiy salomatlik" tushunchasining ma'nosini tahlil qilib, M. V. Sokolskaya bu shaxsning xususiyatlarini ko'rsatish uchun etarlicha hajmli va mazmunli ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u "aqliy va psixologik salomatlik" kabi tushunchalar shaxsiyatni to'liq tavsiflashga imkon bermaydi, deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, A. V. Shuvalov psixologik salomatlikni aniqlab, shunday yozadi: "bu inson haqiqati usullarini aks ettiruvchi murakkab, ko'p o'lchovli hodisa: tana mavjudligi, psixologik hayot va ma'naviy mavjudot" [1]. Shunga ko'ra, insonning somatik, aqliy va shaxsiy (mavjud terminologik an'analarda – psixologik) sog'lig'ini baholash mumkin. I. E. muallif somatik salomatlikni tana bilan, psixologik salomatlikni ruh bilan va psixologik (yoki psixologik) ruh bilan bog'laydi, shu bilan birga uni "psixologik salomatlik" deb belgilamaydi. Shunday qilib, mualliflar tomonidan "sog'liqni saqlash" tushunchasiga nisbatan turli xil ta'riflarni qo'llash natijasida, ushbu tushunchalar o'rtasida aniq farqlar yo'qligi sababli ma'lum bir terminologik chalkashlik paydo bo'ladi.

M. V. Sokolskaya, shaxsiy salomatlikni tizim sifatida tahlil qilib, shunday xulosaga keldi: "u shaxsning metakachiyasi vazifasini bajaradi, shaxsning subyektiv faoliyati, ijtimoiy yo'nalishi, o'zini o'zi anglash istagi bilan tavsiflanadi va o'zini subyektiv farovonlikda namoyon qiladi..." [2].

**Asosiy qism.** Ushbu muallif professional jihatlarni ta'kidlab, temir yo'l ishchilarining shaxsiy sog'lig'ini o'rganishga e'tibor qaratadi. Shunday qilib, u shunday deb yozadi: "poezd dispatcherlarining

professional guruhi mutaxassisning shaxsiy salomatligi (tizim darajasi) asosan tartibga solish va o‘zini o‘zi anglash quyi tizimlari mavjudligi, o‘qituvchilar uchun – yo‘nalish va o‘zini o‘zi anglash, Lokomotiv haydovchilarining professional guruhi – talabalar uchun – o‘z – o‘zini anglash va tartibga solish mavjudligi tufayli, professionallar uchun-o‘z-o‘zini anglash va yo‘naltirish quyi tizimlari mavjudligi sababli" [2].

Shuning uchun, aslida, o‘rganilgan kasblarning barcha toifalarida shaxsiy salomatlik asosan uchta turli xil ketma-ketlikdagi shaxsiyat xususiyatlariga bog‘liq: tartibga solish, yo‘nalish va o‘zini o‘zi anglash. Bundan tashqari, har bir kishi istisnosiz oxirgi sifatga ega.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, o‘z-o‘zini anglash shaxsiy salomatlikning asosiy sifati hisoblanadi. A. Maslou, uning sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabati "sog‘liqni saqlash psixologiyasi" deb nomlangan, sog‘lig‘ining yo‘qolishi, uni tark etish, kasallikning paydo bo‘lishi ichki tabiatning bostirilishi va o‘z-o‘zini anglashni rad etish bilan bog‘liq. Shunday qilib, biz aktuallashtirishga, faoliyatning namoyon bo‘lishiga intilish (masalan, K. A. Abulxanova-Slavskaya, 1991) shaxsiy salomatlikning asosiy determinantlaridan biri deb o‘ylashimiz mumkin. Garchi M. V. Sokolskayaning fikricha, "mutaxassisning shaxsiy salomatligi tuzilishi shaxsning subyektiv farovonligini asosiy integral mezon sifatida o‘z ichiga oladi" [3].

Shu bilan birga V. L. Marishchuk shaxsiy salomatlik holatini ijtimoiy yo‘nalish va kasbiy motivatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat bilan bog‘laydi .

Garchi bizning fikrimizcha, shaxsiy salomatlik birinchi navbatda ma‘naviy-axloqiy etuklik bilan bog‘liq bo‘lishi kerak va bu fikrni ba‘zi tadqiqotchilarning asarlarida topish mumkin [4]. Masalan, E. yu. Korjova ta‘kidlaydi: "shaxsiyat hodisasi inson mavjudligining eng yuqori darajasiga tegishli bo‘lganligi sababli, eng aniq va to‘liq shaxsni faqat uning ma‘naviy-axloqiy asoslarini hisobga olgan holda tavsiflash mumkin". Va u yana yozadi: "shaxsiyat uning mavjudligining subyektivi, ma‘naviy va axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan hayot yo‘li sifatida tushuniladi". Va shuning uchun, "ushbu ta‘rifga muvofiq, shaxsning sog‘lig‘i birinchi navbatda ma‘naviy va axloqiy etuklik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin " [5].

Bunday holda, gumanistik psixologiya vakillari o‘zlarining g‘oyalarini sog‘lom shaxsni tahlil qilishga asoslab, uning o‘zini rivojlantirish, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini namoyon qilish istagiga e‘tibor berishlarini ta‘kidlash o‘rinli.ular "shaxs o‘zimdanda qanchalik uzoq bo‘lsa, uning sog‘lig‘i shunchalik past bo‘ladi"tezisiga rioya qilishdi.

Shu bilan birga, sog‘lom odamlarda ideal fazilatlarining yuqori darajada rivojlanishiga e‘tibor qaratish "ideal sog‘liq" illyuziyasini yaratishi mumkin, bunga erishish deyarli mumkin emas, chunki A. O. Proxorov tomonidan muvozanatsiz tizimlar psixologiyasi to‘g‘risida asoslangan g‘oyalarga asoslanib, bunday subyektlar doimo psixologik muvozanat holatida bo‘lishlari kerak, bu rivojlanish jarayonining namoyon bo‘lishiga mos kelmaydi.. hatto hayotiy faoliyat bilan ham (Bauer qonuniga binoan).

Bundan tashqari, agar biz ma‘naviy va axloqiy tarkibiy qismga shaxsiy xususiyatlarning asosi va shaxsiy salomatlikni shakllantirishdagi eng muhim tarkibiy qism sifatida qaytsak, u o‘zini egosentrik va teosentrik yo‘lda rivojlanishi mumkin, ya‘ni.nafaqat miqdoriy jihatdan, balki namoyon bo‘lish yo‘nalishi va mohiyati jihatidan ham farq qilishi mumkin.

Egosentrik yo‘l shaxsning o‘z farovonligiga e‘tibor qaratishi, insonni eng muhim qadriyat sifatida tan olishi va uning Xudo bilan bog‘liq bo‘lmagan mustaqilligi bilan tavsiflanadi, bu gumanistik dunyoqarashning mohiyatidir.

Shaxsning ma‘naviy va axloqiy tarkibiy qismini rivojlantirishning teosentrik yo‘li qarama-qarshi yo‘nalishda yotadi va yuqori ma‘naviy qadriyatlarga, universal aqlga yo‘naltirilgan ehtiyojlarni qurishda namoyon bo‘ladi, natijada ajralmas shaxs shakllanadi[5], chunki bu holda "ma‘naviy va axloqiy yadro mustahkamlanadi".

Shubhasiz, E. yu. Korjova, u belgilagan ikki yo‘l va shaxsiyat rivojlanishining ikkita modeliga qarama-qarshi bo‘lib, uning haddan tashqari faolligi bilan egosentrik yo‘l o‘zini sevishtga, xudbinlikka o‘tishga olib keladi, deb hisoblaydi, ya‘ni.o‘zini o‘zi etarli darajada yuqori baholashga aylanadi. Ushbu muallifning fikriga ko‘ra, diniy va falsafiy yondashuvlar doirasida yaxlit, sog‘lom shaxs "ongli ma‘naviy o‘sishga intiladigan... <tanlash> mavjudlikni anglash orqali ma‘naviy idealga yo‘l" [6].

Shaxsning ma‘naviy va axloqiy asosi"pravoslav antropologiyasiga xos bo‘lgan Xudoda ko‘rinadigan xristian axloqiy idealiga yaqinlashishda cheksiz ongli ravishda takomillashtirish" dir. Shuning uchun korjova shaxsiy salomatlikning eng muhim mezonini "hayot yo‘lining mazmunliligi (Xudodagi hayotning ma‘nosi)" deb hisoblaydi .

Ko‘rinib turibdiki, E. yu.Korjovaning shaxsning ma‘naviy va axloqiy tarkibiy qismi rivojlanishining dixotomik shakli haqidagi g‘oyalari insonning individual mohiyatiga asoslangan gumanistik psixologiyaning

asosiy pozitsiyalarini gumanitar va antropologik yondashuv tayanadigan qoidalar bilan taqqoslash shaklida ishlaydi. Va ikkinchisi, siz bilganingizdek, ratsional psixologik fikrning diniy an’analari bilan o’zaro bog’liqligi.

Boshqacha qilib aytganda, inson salomatligi muammosini hal qilishning eng yaxshi usuli insonning ilmiy metodologiyani takomillashtirish istagi va uning postulatlarining Masihning ta’limoti bilan bog’liqligini anglash bo’lishi mumkin deb o’ylash kerak. Shu ma’noda, N. Xamitov ushbu yo’lni muvaffaqiyatli tavsifladi: "inson borlig’i o’ziga aylanadi, faqat o’z-o’zini sevish kabi erkinlik boshqasiga bo’lgan muhabbat kabi erkinlikka aylanganda. Rivojlangan erkinlik va muhabbatning to’liqligida bizda Xudoning shaxsiyati uyg’onadi. Va har doim biz boshqasiga o’zimiznikidek munosabatda bo’lsak siz, bu borada ilohiy ko’rinadi..".

Shaxsiy salomatlikni "shaxsiyat – shaxsiy salomatlik" tizimining bir qismi sifatida ko’rib chiqishda, M. V. Sokolskayaning "shaxsga metasistema sifatida kiritilgan" deb hisoblagan g’oyalari bilan rozi bo’lish mumkin.

"Psixologik salomatlik" tushunchasining mazmunini asoslashga bosqichma-bosqich yondashib, uni ko’p o’lchovli tizim sifatida "umumiy" salomatlikni majburiy hisobga olgan holda qayta ko’rib chiqish mantiqan to’g’ri keladi.

Sog’liqni saqlash haqidagi zamonaviy g’oyalar uning ma’lum darajalari tarafdorlarining qarashlarini aks ettiradi: aqliy, psixologik, ijtimoiy, kasbiy, shaxsiy va boshqalar. Shu munosabat bilan insonning psixologik salomatligi muammosini shakllantirish uchun nazariy va uslubiy asos sog’liqni saqlash psixologiyasining kontseptual apparatini asoslash uchun zarur bo’lgan g’oyalar, nazariyalar, tushunchalar majmuasini hisobga olishi kerak:

- psixologik salomatlik (Boyko, 2004; Bratus, 1988; Xuxlaeva, 2003; Bauman, 2016; Gulliver, 2017; va boshqalar) inson salomatligining ma’lum darajasini aks ettiruvchi va individual aqliy jarayonlar va mexanizmlarni tavsiflovchi shaxsiy, subyektiv va individual ko’rsatkichlar to’plami sifatida tushuniladi;

- psixologik salomatlik (Volovikova, Galkina, 2014; Jidaryan, 2014; Dubrovina, 2009; Shuvalov, 2014; va boshqalar) shaxsni yaxlit tizim sifatida tasniflash kerak;

- psixologik salomatlik (Avdeev, 2016; Danilenko, 2009, 2011; Leonov, 2014; Nevyarovich, 1997; horney, 2014; Jahoda, 1958; va boshqalar) insonda ma’no hosil qiluvchi hayotiy maqsadlarning mavjudligi va faoliyatning ijtimoiy-madaniy talablar va tabiiy muhitga etariligi sifatida;

- hissiy salomatlik (Tarabakina, 2000) salbiy his-tuyg’ularni ijobiy his-tuyg’ularga saqlash va o’zgartirish va bu tajribalarni saqlab qolish qobiliyatida ifodalanadi;

- axloqiy (ma’naviy) sog’liq (Gostev, 2014; Lisitsyn, Saxno, 1989) shaxsning ma’naviy va axloqiy sohasini aks ettiradi;

- kasbiy salomatlik

- insonning kasbiy faoliyatida ishlashni ta’minlaydigan kompensatsion xususiyatlarni saqlab qolish va saqlash qobiliyatini belgilaydigan psixofiziologik xususiyatlar;

- shaxsiy salomatlik (Sokolskaya, 2012; Kobasa, 1979) shaxsning o’ziga xos xususiyati sifatida, bu ijtimoiy yo’nalish, subyektiv faoliyat va o’zini namoyon qilish istagi bilan bog’liq.

Hozirgi vaqtda mahalliy va xorijiy olimlar inson salomatligi fenomenini turli pozitsiyalardan o’rganishga ko’plab urinishlar qilmoqdalar (chet elliklar orasida – Elderkin, Silver, Waitzkin, 1998; Gordon, 1996; Murray, 2000; Schou, Hewison, 1998; Marks, Murray, Evans, Willing, 2000; Flick, 2000; Lyons, Chamberlain, 2006; Stanescu, Vasile, 2014; Dempsey, Keen, Pennell, O’Reilly, Neilands, 2009; va boshqalar).

Tadqiqot davomida olingan ko’rsatkichlarni dastlabki qayta ishlashda Kolmogorov–Smirnov mezonlari, shuningdek assimetriya va ortiqcha ko’rsatkichlar ishlatilgan. Muayyan ehtimollik bilan, tadqiqot davomida olingan namunaning xususiyatlari normal taqsimot xarakteriga ega ekanligi haqida bahslashish mumkin. Tarqatish tahlili turli fakultet talabalari o’rtasida psixologik salomatlik parametrlarining muhim farqlarini tahlil qilish uchun talaba mezonidan foydalanish va turli fakultet talabalari psixologik salomatligi ko’rsatkichlarining mazmunli o’zaro bog’liqligini aniqlash uchun Pearson korrelyatsion tahlilidan foydalanish imkoniyati to’g’risida xulosa chiqarishga imkon berdi.

**Jadval 1. Psixologik salomatlik parametrlarining muhim farqlarini tahlil qilish**

Parametrlar	GLG	MAT	t-value	p
Hayotdagi maqsadlar	28,04	28,66	-0,49	0,62
Hayot jarayoni	30,14	28,72	1,23	0,22

Hayot samaradorligi	24,95	24,10	0,87	0,39
Men-lokus-nazorat	18,68	19,08	-0,54	0,59
lokus-nazorat-hayot	29,32	30,50	-1,06	0,29
Hayotning umumiy mazmuni	96,96	97,48	-0,16	0,87
Bog‘liqlik	102,2	103,9	-0,79	0,43
O‘z-o‘zini boshqarish	51,36	53,12	-1,01	0,32
Hissiy beqarorlik	47,73	47,10	0,25	0,80
OPZ	11,48	11,20	0,27	0,79

Talabaning t-mezonidan foydalangan holda qiyosiy tahlil natijalari sezilarli farqlarning yo‘qligini ko‘rsatadi. Ammo shuni ta’kidlash mumkinki, "hayot jarayoni" o‘lchovining ko‘rsatkichlari, ya’ni shaxsning o‘z hayoti jarayonini qiziqarli, hissiy jihatdan to‘yingan va ma’noga to‘la deb bilishini anglatadi.

**Xulosa.** Shuni ta’kidlash kerakki, qiziqish, ma’lum ilmiy maktablarga sodiqlik va mualliflarning o‘z g‘oyalari qarang sog‘liqni saqlash bo‘yicha aniq tadqiqotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ular sog‘liqni tibbiy, biologik, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, teologik, demografik, madaniy, axloqiy va boshqa nuqtayi nazardan ko‘rishadi.

Masalan, M.V. Sokolskaya temir yo‘l transporti xodimlarining sog‘lig‘i muammosi bilan shug‘ullanayotganda, "psixologik salomatlik" atamasi o‘rniga "shaxsiy salomatlik" tushunchasidan foydalanadi. Uning fikricha, "bir tomondan, psixologik salomatlik eng umumiy ma’noda ma’no hosil qiluvchi va tizimni tashkil etuvchi toifa sifatida taklif qilingan, boshqa tomondan, u aniq ilmiy mazmunga ega bo‘lmagan metafora bo‘lib qolmoqda " .

Muallif shunday yozadi: "psixologik salomatlik "" salomatlik – kasallik "dixotomiyasini," psixologik salomatlik" esa faqat salomatlikni ko‘rib chiqadi va sog‘lom shaxs haqida gap ketganda, bu atamalarining ma’nosi bir xil bo‘ladi". Va bundan keyin: " yaxlit, ajralmas ta’limni tavsiflovchi sog‘liqning maxsus darajasini ajratib ko‘rsatish kerak – shaxsiyat, uning mantiqiy nomi shaxsiy salomatlikdir " [6].

Shu bilan birga, M. V. Sokolskaya shaxsiy salomatlik mezonlarini belgilab, sog‘lom shaxsning umumiy xususiyati subyektiv farovonlik degan xulosaga keldi. Inson muayyan yashash sharoitida sog‘lom bo‘lishi mumkin (ekologik va iqlim xususiyatlari, ovqatlanish sifati, ish va dam olish rejimi, ijtimoiy-madaniy muhit va boshqalar). Bir kishi uchun qulay muhit boshqasi uchun qabul qilinishi mumkin emas va kasallik keltirib chiqarishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Хухлаева О. В. Основы психологического консультирования и психологической коррекции: Учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
2. Sobirov.A.A. Pedagogikal psychologikal factors for the formation of psychologikal health in athletes. «Scientific, applied and educational aspects for physiology, genetics, biotechnology of plants and microorganisms» // International Conference materials May 12, Kyiv, Ukraine, 2023
3. Братусь Б. С. Анатомия личности. М. 1988. С. 304.
4. Волочков А. А. Учебная активность и психологическое здоровье студента // Активность, ценностная направленность и психологическое здоровье студенчества / под ред. А. А. Волочкова. Пермь: Перм. гос. гуманитар.-пед. ун-т, 2015. С. 120-135.
5. Дубровина И. В. Психическое и психологическое здоровье в контексте психологической культуры личности // Вестник практической психологии образования. 2009. №3. С.17-21.
6. Жуланова И. В., Медведев А. Н. Традиции развивающего обучения как основа инноваций в высшем образовании // Психология обучения. № 3. 2014. С. 71-86.



**XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI O‘RGANISHDA INNOVATSION  
TEKNOLOGIYADAN FOYDALANISH**

*Umurova Ma‘rifat Yoshiyevna,*

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi  
m.yo.umurova@buxdu.uz*

*Xalq og‘zak ijodini o‘rganish, ularni zamonaviy usullar vositasida, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘rganish masalalarini targ‘ib qilish, dars jarayoniga tatbiq etish, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati tadqiq etildi*

**Kalit so‘zlar:** *xalq og‘zaki ijodi, qadriyat, ma‘naviy vorislik tuyg‘usi, interfaol metodlar aqliy hujum, charxpalak texnologiyasi, “Chuvalchang” o‘yini.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ  
ОБРАЗЦОВ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА**

*В статье рассмотрены изучение устного народного творчества посредством инновационных технологий, применение в учебном процессе современных методов, их роли и значение в воспитании гармонично развитого поколения.*

**Ключевые слова:** *устное народное творчество, ценности, чувство духовного наследия, интерактивные методы, “мозговой штурм”, технология “Карусель”, игра “Червяки”.*

**THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE STUDY OF SAMPLES OF ORAL  
FOLK ART**

*The article examines the study of oral folk art through innovative technologies, the use of modern methods in the educational process, their role and importance in the upbringing of a harmoniously developed generation.*

**Keywords:** *oral folk art, values, a sense of spiritual heritage, interactive methods, “brainstorming”, “Carousel” technology, the game “Worms”.*

**Kirish.** Milliy qadriyatlar muayyan millatning asrlar osha yashab kelayotgan bebaho ma‘naviy boyligi hisoblanadi. Ular jamiyat a‘zolarini ruhan yaqinlashtirish, yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy hayotni barqarorlashtirish, avlodlar o‘rtasidagi ma‘naviy vorislik tuyg‘usining bardavomlilikiga ta‘sir ko‘rsatishday beqiyos ahamiyatga ega. Shuning uchun ham qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga ma‘naviy-meros sifatida yetkazish masalasi bugungi kunda ham dolzarb muammo sanaladi. Ayniqsa, insonlar, mamlakatlar va qit‘alar o‘rtasidagi aloqa vositalari kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv jarayonida bu masala yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

O‘quvchi fikrlash orqali o‘zi ko‘rgan, idrok etgan, sezgan, tasavvur qilgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqiqatligi yuzasidan muayyan tushunchaga ega bo‘ladi. Mulohaza yuritib, so‘ng o‘z munosabatini bayon qiladi. Ana shu fikrlash jarayonida o‘quvchi o‘zi egallagan bilim, ko‘nikma va malakaga tayanib so‘z yuritadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘qib o‘rganish va tahlil qilish jarayonida shunday ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, yanada takomillashtirish ko‘zda tutiladi. Inson tafakkuri uning ruhiyati bilan chambarchas bog‘liqlikda harakat qiladi. O‘quvchi ruhiyati boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo‘lsa, fikrlari ham, mulohazalari ham asosli, mantiqli bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘qitish va tahlil qilishdan ko‘zlanuvchi metodik maqsadlardan eng muhimi o‘quvchini mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga o‘rgatish, ravon so‘zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma‘nolarni anglab olishga o‘rgatish, kulgu yo pand-nasihatlar ortiga yashiringan haqiqatlar mohiyatini tushunib, xulosa chiqarishga yo‘llashdir.

Xalq og‘zaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg‘or va hayotbaxsh an‘analarni o‘zida mujassamlashtirgan ma‘naviyat sarchashmasidir. Ana shu ma‘naviy merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma‘naviy kamoloti bilan bog‘liq urf-odatlar, an‘analar alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Hamza, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ijodkorlari tomonidan yaratilgan ilk darsliklarda ham ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e‘tibor berib kelingan. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda

innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ayrim maqolalarni e‘tiborga olmaganda maxsus tadqiqot olib borilgan emas. Shuning uchun ham biz tanlagan mavzu dolzarblik kasb etadi.

Xalq og‘zak ijodini o‘rganish masalasi mustaqillikgacha bo‘lgan davrda ham, istiqloq davri adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan. Ularni zamonaviy usullar vositasida, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘rganish masalalarini targ‘ib qilish, dars jarayoniga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalaladir.

**Muhokama.** Xalq ijodi namunalarini milliy qadriyatlarga bog‘lab o‘rgatish dolzarb pedagogik muammo ekanligi yoshlarda komil insonga xos sifatlarni shakllantirish va ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq jarayon ekanligida ko‘rinadi. Bu jarayonda: - o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qilish vositasida yoshlar qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirishga e‘tibor qaratiladi; - xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi milliy qadriyatlar tahlili orqali yoshlar ma‘naviy dunyosini boyitish va yuksaltirishga erishish ko‘zda tutiladi. Zotan, ma‘naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. Ma‘naviyat jamiyatning, millatning, shu bilan birga ayrim bir kishining ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir. Inson aqli, qo‘li bilan nimaniki yaratmasin, uning zamirida fikr, g‘oya, bilim, qobiliyat, iste‘dod, tajriba, mehnat malakasi sifatida shakllangan ma‘naviyat yotadi. Ma‘naviyat tushunchasi insonning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini va kamolotini ifodalaydi;

- ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi namunalarini bilan tanishtirish orqali ularda chin insoniy fazilatlarini shakllantirish, yaratuvchi, fidoyi insonlarga xos xususiyatlar tarkib toptiriladi;

- milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar xotirasiga sadoqat, ular qoldirgan ma‘naviy merosni qadrlash, ardoqlash va asrab-avaylash tuyg‘ulari shakllantiriladi;

- ota-bobolarimizning donishmandlik bilan yo‘g‘rilgan falsafiy mazmundagi pand-nasihatlarini mohiyati, ma‘no-mazmunini anglatish orqali o‘quvchi yoshlar ezgulik ruhida tarbiyalanadi;

- bugungi kunning ma‘naviy muammolarini hal etishda, taraqqiyotimizga to‘sqinlik qilayotgan illatlarni yo‘qotishda bu o‘gitlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatiladi.

- O‘zbekiston o‘z istiqloqligiga erishganidan so‘ng jamiyat ma‘naviy hayoti sog‘lomlashtirilishi va rivojlantirilishi, inson omiliga jiddiy e‘tibor qaratilishi ham mazkur muammoning ta‘lim-tarbiyaviy jihatdan nechog‘li muhim ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Ta‘lim tizimida ham barcha o‘qitish ashyolari, usul va vositalari aynan jamiyat taraqqiyotiga o‘z kuch-qudrati, imkoniyatlari, bilimlari, ko‘nikma-malakalarini safarbar etadigan insonlarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Aqliy hujum – o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan muammolarni bor bilim va imkoniyatlariga tayanib, faol hal etishlari uchun keng imkoniyat yaratuvchi metod: a) o‘quvchi oldiga qo‘yilgan muammoga xilma-xil mulohazalar bilan yondashishga undaydi; b) yangi-yangi fikrlar tug‘ilishiga imkon beradi; v) erkin fikr, ijodiy yondashuv natijasida o‘quvchilarning tasavvurlariga erk beriladi; g) har bir o‘quvchi o‘z fikrlarini asoslashga urinadi; d) har jihatdan asosli fikr to‘g‘ri xulosaga olib kelganligi kuzatiladi va bunga ishonch hosil qilinadi. ye) kuchli g‘oyaga asos bo‘lgan fikr chuqur bilimdan, nazariy farazdan tug‘iladi.

Charxpalak texnologiyasi -texnologiyaning tavsifi. Bu texnologiyada o‘quvchilar o‘tilgan mavzularni yodga olib, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga, qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan natijalar e‘tiborga olingan. Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko‘p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o‘rgatish.

Qog‘oz va flomaster, tarqatma materiallar. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: texnologiya o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo‘ljallangan. Texnologiyani mashg‘ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik yoki jamoa shaklida tashkil etish mumkin. - o‘quvchilar guruhlariga ajratiladi. - tarqatma materiallar tarqatiladi.

- har bir guruh a‘zosi o‘zi ishlagan tarqatma materialining o‘ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o‘zining biron bir belgisini chizib qo‘yadi,

- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga “charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi,

- yangi guruh a‘zolari tomonidan berilgan materiallar o‘rganiladi va o‘zgartirishlar kiritiladi ,

- jamoalar tomonidan o‘rganilgan va o‘zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo‘nalish bo‘yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi),

- materiallarini oxirgi almashishdan so‘ng har bir guruh va har bir a‘zosi o‘zlari ilk bor to‘ldirgan materiallarini tanlab oladilar.

- Har bir guruh a'zosining o'zlari belgilangan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzutishlarini taqqoslaydilar.

- O'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi.

- Har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqini aniqlaydilar kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar. O'quvchilar o'z ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va ballni guruh jurnaliga qo'yadi. Natija: o'quvchilar topshiriqlar bo'yicha mustaqil ishlashni o'rganadilar. Hamkorlikda, ijodkorlikda vazifani bajaradilar, darsga qo'yilgan maqsadga erishiladi.

“Chuvalchang” o'yini Interfaol usullardan biri “chuvalchang” (zigzag) usulidir. Interfaol metodning bunday nomlanishi sababi shundaki, unda turli kichik guruhdagi o'quvchilar vaqti-vaqti bilan o'rin almashib, bir-birlariga o'tib turadilar, materialni o'zlashtirish va javobni taqdim etish xususida o'zaro kelishib oladilar. “Chuvalchang” usulida kichik guruhning har bir a'zosi raqamlanadi. Agar biror kichik guruhda birorta a'zo ko'p yoki kam bo'lsa, raqam ham shunga yarasha bitta ortiq yoxud kam bo'ladi.

O'quvchilarning raqamlanishi sababi shundaki, o'qituvchi kichik guruhlarning har biri oldiga bajarilishi lozim bo'lgan o'quv vazifasini qo'ygach, raqamlar asosida maslahat guruhlari tashkil etadi. Chunonchi, 1-raqamlilar alohida, 2-raqamlilar o'z boshlariga, 3-raqamlilar o'z oldilariga va hakoza tarzida vaqtinchalik maslahat guruhi tashkil etiladi. Maslahat guruhi oldiga o'quv muammosini to'g'ri yechish va esda qoladigan yo'sinda taqdim etish yo'llarini belgilash vazifasi qo'yiladi. Maslahatchilar o'zaro fikrlashib olishgach, o'z guruhlarga qaytadilar.

Masalan:1-guruh: 1-o'quvchi,2-o'quvchi,3-o'quvchi kabi raqamlanadi. 2-guruh: 1-o'quvchi, 2-o'quvchi,3-o'quvchi kabi raqamlanadi. 3-guruh: 1-o'quvchi,2-o'quvchi,3-o'quvchi kabi raqamlanadi. Har bir guruhdagi 1-raqamli o'quvchilar maslahatchi guruh sifatida o'rin almashib turadi. 1.Epik asarlarni sanab o'ting va izoh bering? Savol bilan tanishilgach, maslahat guruhidagi o'quvchilar yig'ilib maslahatlashib olinadi va o'z guruhlarga qaytib ma'lumotlar bilan tanishtiriladi.

**Natija.** Jamiyat taraqqiyoti, inson ongining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq holda ta'lim-tarbiya jarayoni uzluksiz, doimiy tarixiy xarakterga ega bo'lib takomillashib bordi.

Xalq ijtimoiy, ma'naviy va madaniy turmush tarzining o'zgarishi bilan xalq qo'shiqlari ham shaklan va mazmunan boyib, uning madaniy turmush tarzi, orzu istaklarini namoyon etuvchi ta'lim-tarbiya vositasiga aylangan.

Keyinchalik «Navro'z», «Mehrjon», «Sada», «Gul» bayramlari, «Guli surx», «Chiqon», «Xatar», «Darvishona», «Ashaddarozi» o'yinlari, «Iyd al-fitr» (kichik iyd yoki ro'za hayiti), «Iyd al-kabr» (katta iyd yoki qurbon hayiti) kabi milliy udum va qadriyatlar ham xalq an'analariga qo'shildi. Har bir bayram, marosimning tabiiy ta'sir kuchi shu an'ananing mazmunini ochishga xizmat qiluvchi urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan mustahkamlanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining qadimiy namunalari mehnat va mavsum qo'shiqlaridir. Qo'shiq ijodkorlarining amaliy faoliyati ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bevosita bog'langan va ular mehnatkash xalqning qadimiy urf-odatlarini, marosim va e'tiqodlarinegizida yashab kelgan.

Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda «xo'p mayda» yoki «mayda gul», sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi, uloqlarni emizishda «xo'p-xo'p», «qurey-qurey», «churey-churey» qo'shiqlari kuylangan. Yer haydash, o'rim, yorg'uchoq tortish, charx yigirish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash tarzi, turli-tuman irim-sirimlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p xalq qo'shiqlarining namunalari yaratilgan.

«Navro'z» bayrami bilan bog'liq bo'lgan dasturxon bezash, sumalak, halim pishirish, ariq-zovurlarni tozalash, birinchi ko'chat ekish, marhumlarni xotirlash, ota-ona va keksalar, nogironlarga muruvvat ko'rsatish, qadamjolarni ziyorat qilish, shirinliklar ulashish, bir-biriga hadyalar in'om etish, mash'alalar yoqib, ariq, daryolar buyiga borish, sayllar o'tkazish kabi udumlar odat tusiga kirib qolgan. Shuningdek, Navro'z bayramida yetti xil (bug'doy, arpa, no'xat, jo'xori, guruch, mosh, loviya)dan go'ja tayyorlanib, qo'ni-qo'shnilariga ulashilgan. Bu odatlarning barchasi ramziy ma'noga ega. Xalq bu marosimlar orqali yangi yilda yog'ingarchilikning mo'l bo'lishi (yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, hosil mo'l bo'ladi, chorva uchun esa yem-xashak serob bo'ladi); tinchlik, farovonlik bo'lishi, odamlar o'rtasida mehr-muruvvat, insonparvarlik barqarorlashuviga ishora etadi.

Xalq bayramlari munosabati bilan badiiy-estetik xarakterdagi sayllar o'tkazilgan. Sayllarda xalqning ichki tuyg'usi, o'zligini anglatuvchi xarakter xislatlar og'zaki ssenariyalar, jonli muloqotlar asosida ifodalangan. Har birbayram yoki marosim munosabati bilan o'tkaziladigan sayllar shu tantananing shakliga mos qo'shiqlar, yallalar va boshqalar bilan mazmunan rang-barang tarzda o'tkazilgan.

O'tmishda sayl shaharlardagi registon maydonlari, chorsu va rastalar, shahar tashqarisidagi katta maydon va adirlarda qaror topgan saylgohlar, shuningdek, qadamjolarida o'tkazilib, bir haftadan bir va ba'zan ikki oygacha davom etgan. Saylga yoshu qari, ayollar, bolalar, butun xalq maxsus tayyorgarlik ko'rishgan, yangi kiyimlar tiktirishgan, yangisiga qurbi yetmaganlar, eskisini yuvib yamashgan, hovlilar-ko'chalar supurilgan, tansiq taomlar, shirinliklar tayyorlangan. Hunarmandlar saylgohlarda sotish uchun amaliy san'at asarlari, dehqonlar meva-cheva, noz-ne'matlari, savdogarlar, baqqollar, attorlar noyob mollardan olib borishgan. Saylgohlarda mansab va nasabiga qarab tartib bilan chodir-chaman tikilgan. Xalq savdo-sotiq qilishgan, ko'ngil ochgan, tomosha qilgan. Saylgohlarda davlat va xalq oqsoqollari tomonidan uyushtirilgan poyga, uloq, kurash, chavgon musobaqalari, chakvi deb atalmish san'at bayramlari, sozanda, hofiz, raqqos, masxaraboz, qiziqchi, nayrangboz, ko'z bog'lovchi, dorbozlarning chiqishlari, ayiq, echki, maymun, ilon uynatuvchi, xo'roz, qo'chqor, tuya urishtirish, mushakbozlik namoyish qilingan. Bayramlar, sayllarda turli narsalardan yasalgan qo'g'irchoq o'yinlari ham namoyishetilgan.

O'tkazilgan barcha bayramlar va sayllarda cholg'uchi va qo'shiqchilarning bevosita ishtiroki bu tadbirlarda ko'tarinki ruh va tantanovorlik kiritgan. Ayniqsa, ko'pchilik bo'lib kuylanadigan xalq qo'shiqlari va ommaviy raqslar xalqning erkin nafas olib, yayrashida muhim ahamiyat kasb etgan.

**Munozara.** Xalq qo'shiqlarida hayot badiiy ramzlar orqali aks ettiriladi va shu tufayli inson qalbida estetik his-tuyg'ular, hayajonlar, ko'tarinki kayfiyat, rahm-shafqat, shodlik, quvonch, g'am-qayg'u, hasrat, nafrat paydo bo'ladi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlariga barcha yoshdagi kishilar birday murojaat qiladilar.

Xalq qo'shiqlarining yana bir muhim turi bu marosim qo'shiqlaridir. Marosim qo'shiqlari insonlarning hayot, voqeylik va tabiat o'zgarishlariga bo'lgan madaniy munosabatlarini ifodalovchi qarashlari asosida vujudga kelgan san'atdir. Marosimlarda olg'a surilgan umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ko'rgazmali faoliyat targ'ib etiladi. Ruhshunoslik, san'at, pedagogika qoidalarining uzviy birligida ma'naviy qadriyatlarining uyg'unlikdagi mazmuni o'quvchilar ongiga singdiriladi. Masalan, inson u yoki bu marosimni o'tkazish uchun ruhiy jihatdan o'zini tayyorlaydi, unda musiqa ohanglari, so'z san'ati dramatik harakatlardan foydalanadi. Bu esa, xalqning ma'naviy va moddiy turmush tarzi, axloq mezonlari, o'tmish, bugun va kelajakdagi ma'naviy hayotga bo'lgan qiziqish va intilishlarini namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir marosimning o'ziga xos rejasi, maqsadi va vazifalari kishilarning ma'naviy dunyosiga ta'sir eta olish mezonini asosida baholanishi lozim.

Folklorshunos olim B.Sarimsoqovning tasnifiga ko'ra, o'zbek marosim qo'shiqlari mavsumiy va amaliy-maishiy qo'shiqlar turkumiga bo'linadi

Birinchi turkum marosim qo'shiqlari ham ikkiga: faqat mavsum bilan bog'liq ashulalar - «Sust xotin», «Choy-momo», «Yas-Yusup»; mavsumiy mehnat, xo'jalik yuritish tarzi bilan bog'liq qo'shiqlar «Loy tutish», «Shox moylar», «Oblo baraka» kabi janrlarga bo'linadi. Oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari tematik-funksional xususiyatlarga ko'ra to'rt guruhga: so'zning sehr qudratiga asoslanuvchi qo'shiqlar - kinna, gulafsho, olqish, qarg'ish, afsun, bolalarning beshik davri qo'shiqlari - chilla ko'chiriq, beshikka solish, to'y qo'shiqlari - jar, yor-yor, o'lan, lapar, kelin salom, kuyov salom, to'y olqishlari, oyna ko'rsatar, motam qo'shiqlari - yig'i-yo'qlov, motam yor-yoridan iborat.

Qo'shiq janri bir qancha oddiy turlardan ham iborat bo'ladi. Afsunli qo'shiqlar ma'lum bir marosimlarni bajo keltirish, masalan, yomg'ir chaqirish, quyosh va oy tutilishini to'xtatishni iltijo qilish hamda boshqalarda ham muhim o'rin tutadi.

Ko'p qirrali muhabbat lirikasi, satira va yumor, tarixiy mavzu, ijtimoiy norozilik ushbu guruhga tegishli har bir janr- terma (yoki cho'blama) qo'shiq, lapar, yalla va ashulalar asosini (garchi ular bir-biridan ravshan ifodalangan xarakterli musiqali xususiyatlari bilan farqlansa ham) tashkil qilishi mumkin.

Terma o'z kuyining ma'lum darajada so'zlarning kuy va ohang uyg'unligida ifodalanishi tor diapazoni va ixcham shakli bilan xarakterlanadi.

Termalar matni mazmunan turli xil bo'lib, ko'pincha barmoq vaznidagi yetti-sakkiz bo'g'inli misralardan iboratdir.

Qo'shiq janri sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan tashkil topib, barmoq vaznidagi poetik matnning to'rtlikdan iborat bir bandi yoki bir-ikki misrasini qamrab oladi, ayni vaqtda har bir she'riy misraga tugal ohang moslashtirilgan bo'ladi.

Qo'shiq juda keng tarqalgan janrlardan bo'lib, o'z mazmunining xilma-xilligi, ko'pqirraliligi bilan alohida ajralib turadi.

Lapar raqsboq kuyga ega bo'lib, ko'pincha o'yin-raqs bilan ijro etiladi. Uning matnlari asosan ishqiy-lirik, didaktik, yumoristik yoki hazil she'rlardan tashkil topadi. Ayrim tumanlarda «Lapar» atamasini o'lan deb yuritiladigan dialog shaklidagi to'y marosim qo'shiqlariga nisbatan ham qo'llaniladiki, bu aytishuv kelin

hamda kuyov tomon vakillarining har bir guruhida alohida-alohida unison xor sifatida ijro etilishi yoki yakkaxonlar dialogi tarzida bo‘lishi mumkin.

Yalla raqs jo‘rligida ijro etilib, u ikki xil bo‘ladi. Birinchisining kuyi nisbatan tor diapazonli bo‘lib, she‘rdagihar bir band va uning o‘yinlari yakkaxon yallachi, naqorat esa unison xor (bir guruh sozanda yoki ashulachilar, ko‘pincha tinglovchilar) tomonidan aytiladi. Bunday yallalarda har bir band naqorat bilan boshlanib, naqorat bilan tugallanadi.

Yallaning ikkinchi xili uchun, aksincha, nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuy xarakterlidir. Unda unison xorning yakkaxon ijrosi bilan almashinib turishini ko‘ramiz. Raqsni esa endi-ko‘shiqchi yallachining o‘zi emas, balki alohida raqqosa (yoki raqqos) ijro etadi.

Bugungi kunda yoshlarda milliy ma‘naviyatimiz tarixi, boy mazmuni haqida bilim beruvchi, o‘zligini anglashni ta‘minlovchi xalq etnografik ansambllari («Shalola», «Besh qarsak», «Chanqovuz», «Chorqarsak» va boshqalar) tashkil etilmoqda. Bunday ansambllar o‘zbek xalqining estetik-badiiy an‘analari, milliy san‘at namunalarini tiklab, qadimdan milliy-ma‘naviy qadriyat tarzida davom etib kelayotgan har bir vohaning o‘ziga xos urf-odatlarini, rasm-rusumlarini jonlantiradi. O‘zbek xalqining yor-yor, o‘lan aytish, alla, yalla, doston kuylash, chanqovuz chalish, kelin kutish, chimildiq tuzash, kashta tikish, chit to‘qish, jun savash, ip yigirish, kalava o‘rash, chiroz to‘qish, do‘ppi tikish, supra yozib xamir qorish, qaynona, qaynota, erga munosabat, bola tarbiyalash, milliy taom tayyorlash, milliy kiyim turlarini namoyish etish kabi urf-odatlarini, an‘analari o‘quvchida o‘zligini anglash tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib yuqorida qayd etilgan xalq og‘zaki ijodining sayllar, marosimlar, bayramlar, mehnat va mavsum qo‘shiqlari, marosim qo‘shiqlari, alla, afsunli qo‘shiqlar, terma, lapar, yalla va xalq ansambllari, dostonchilik xalq musiqa pedagogikasining muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi va bular o‘quvchining ma‘naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda muhim omil bo‘la oladi.

**Tahlil va muhokama.** Virtual tobelik muammosi ko'p qirrali bo'lib, uning kelib chiqishida bir qancha omillar rol o'ynaydi. Avvalo, jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ishsizlik, qashshoqlik kabi holatlar yoshlarni virtual olamga yuz tutishga majbur qiladi. Ular o'zlarining real hayotdagi muammolaridan qochish, o'zini ifoda etish va e'tirof etilish imkoniyatini ijtimoiy tarmoqlarda topishga harakat qilishadi. Bu esa asta-sekin virtual tobelikning shakllanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, yoshlardagi yolg'izlik, tushunilmaslik, o'z o'rnini topa olmaslik kabi hissiyotlar ham ularni virtual tobelikka eltuvchi sabablardan biridir. Ular o'zlari kabi dardkash insonlar bilan virtual olamda muloqot qilish orqali ma'naviy qoniqish hosil qilishga intilishadi. Afsuski, bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlariga, jumladan, yoshlarning real hayotdan uzilib qolishi, o'qishda qoloqlashuvi, sog'lig'ining yomonlashuvi kabi holatlarga olib keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, virtual tobelik muammosi faqatgina yoshlar bilan bog'liq emas. Ba'zi hollarda yoshi katta insonlar ham turli sabablarga ko'ra (masalan, yolg'izlik, o'zini keraksiz his qilish va h.k.) bu kabi guruhlariga qo'shib qolishlari mumkin. Bu esa muammoning miqyosi yanada kengayishidan dalolat beradi.

Virtual tobelikning yana bir xavfli jihati shundaki, ular destruktiv g'oyalar, shu jumladan, diniy ekstremizm, milliy va irqiy adovatni targ'ib qilish uchun qulay platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ba'zi ekstremistik guruhlar yoshlarni o'zlariga jalb qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishmoqda. Ular yosh, tajribasiz insonlarning ongini zaharlash, ularni o'z saflariga qo'shib olish maqsadida turli psixologik usullarni qo'llashadi. Bu esa nafaqat muayyan shaxslar, balki butun jamiyat xavfsizligi uchun jiddiy tahdid hisoblanadi.

Virtual tobelik faoliyatining salbiy oqibatlari nafaqat bevosita uning a'zolariga, balki ularning yaqinlari, oila a'zolariga ham ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, virtual to'belikka a'zo bo'lgan yosh o'z ota-

onasi, aka-ukalari bilan munosabatlarini yomonlashtirishi, ulardan uzilib qolishi mumkin. Bu esa oilaviy nizolarga, baʼzan esa oilaning parchalanib ketishiga ham sabab boʻlishi mumkin.

Virtual tobelik bugungi kunning global muammolaridan biridir. Ularning kelib chiqishida ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va boshqa omillar rol oʻynaydi. Virtual tobelikning salbiy oqibatlari esa nafaqat muayyan shaxslar, balki butun jamiyat hayotiga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu sababli, bu muammoga qarshi kurashish uchun davlat va jamoatchilik birgalikda harakat qilishi zarur. Bunda yoshlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, ular uchun real hayotda oʻzini namoyon etish va rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ota-onalar, taʼlim muassasalari, mahalla va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini yanada kuchaytirish talab etiladi. Zero, virtual tobelik muammosini faqat birgalikdagi saʼy-harakatlar orqaligina hal etish mumkin.

Virtual tobelik muammosining asosiy **sabablari** sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

Yoshlarda oʻz shaxsiy fikrlarini real hayotda ifoda etish imkoniyatining cheklanganligi

Jamiyatda mavjud adashuvlar va stereotiplar

Taʼlim tizimidagi kamchiliklar

Ota-onalar eʼtiborining yetishmasligi va boshqalar [6].

Shu bilan birga, bu muammoning oqibatlari ham jiddiy tashvish uygʻotadi. Virtual tobelikga aʼzo boʻlish natijasida yoshlarda xavfli xatti-harakatlar, noqonuniy faoliyat, ekstremistik gʻoyalarga moyillik kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda [7]. Bu esa nafaqat shaxs, balki butun jamiyat uchun xavf tugʻdiradi.

Virtual tobelik muammosining oldini olish va unga qarshi kurashishda **kompleks yondashuv** zarur. Bunda quyidagi jihatlar eʼtiborga olinishi lozim:

**Huquqiy aspekt.** Virtual tobelikning faoliyatini tartibga soluvchi meʼyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish talab etiladi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv gʻoyalarni targʻib qilish, yoshlarni virtual tobelikga jalb etish kabi xatti-harakatlarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish muhimdir. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va internet-platformalarning oʻzini nazorat qilish mexanizmlari ham takomillashtirilishi zarur.

**Taʼlimiy-tarbiyaviy aspekt.** Yoshlarga virtual tobelik va ularning salbiy oqibatlari haqida maʼlumot berish, ularning mediasavodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar bu borada faol ish olib borishi zarur. Yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishlarini real hayotda roʻyobga chiqarish uchun sharoitlar yaratish lozim.

**Psixologik aspekt.** Virtual tobelikga moyillik asosan yoshlardagi oʻziga ishonchsizlik, yolgʻizlik, tushunilmaslik kabi hissiyotlar bilan bogʻliq. Shu sababli, yoshlar bilan ishlashda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, shaxsiy muammolarini aniqlash va bartaraf etishga koʻmaklashish talab etiladi.

**Texnologik aspekt.** Bugungi kunda koʻplab virtual tobelik faoliyati maxfiy ravishda, yopiq kanallarda olib boriladi. Ularni aniqlash va nazorat qilish uchun zamonaviy texnologik yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

**Hamkorlik aspekti.** Virtual tobelik muammosi global xarakterga ega boʻlib, u faqatgina bir mamlakat doirasida hal etilishi mumkin emas. Shu sababli, bu borada xalqaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, ilgʻor tajribalarni oʻrganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Virtual tobelik muammosining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda yoshlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash ham muhim rol oʻynaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar siyosatiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, Yoshlar ittifoqi, "Yoshlar - kelajagimiz" jamgʻarmasi kabi tuzilmalar yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda. Biroq, virtual tobelik muammosi kontekstida ushbu ishlarni yanada kuchaytirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish talab etiladi.

Shunday qilib, virtual tobelik muammosi kompleks yondashuv va tiziml saʼy-harakatlarni talab etadi. Uning oldini olish va bartaraf etish uchun davlat organlari, taʼlim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari oʻzaro hamkorlikda ish olib borishi zarur. Faqat shundagina biz yoshlarimizni virtual tobelikning salbiy taʼsiridan himoya qilishga, ularni real hayotda oʻz oʻrnini topishga yoʻnaltira olamiz. Zero, bugungi yoshlar - bu bizning kelajagimiz, mamlakat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Ularning maʼnaviy-axloqiy imunitetini mustahkamlash, intellektual va ijodiy salohiyatini roʻyobga chiqarish barchamizning muqaddas burchimizdir.

**Xulosa.** Virtual tobelik muammosi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Uning salbiy oqibatlari nafaqat shaxs, balki jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu sababli, bu muammoga har tomonlama yondashish va samarali yechimlarni izlash zarur. Bunda davlat organlari, taʼlim muassasalari, ota-onalar va yoshlarning oʻzlari faol ishtirok etishi lozim. Faqat birgalikdagi saʼy-harakatlar orqaligina virtual tobelik muammosini bartaraf etish va sogʻlom muhitni shakllantirish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Alimov S., 2019. Virtual tobelik: muammo va yechimlar. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Pulatova D., 2020. Virtual tobelikning yoshlar psixologiyasiga ta'siri. // Psixologiya va hayot, 3, pp.35-39.
3. Yoziyeva U.L. Advanced technology of protection from harmful information in the teaching and educational process (on the example of primary education). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya. – Nukus: 2018, - 146 b.
4. Sultonov A., 2018. Virtual tobelik - jamiyat uchun tahdid. // Huquq va burch,
5. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, 2022. O'zbekistonda Internet foydalanuvchilari soni.
6. Ergashev M., 2021. Virtual tobelik - hozirgi davr muammosi. // Zamonaviy ta'lim, 4, pp.62-67.
7. Karimov U., 2017. Yoshlar tarbiyasidagi dolzarb masalalar. Toshkent: Ma'naviyat.
8. Sodiqov H., 2020. Virtual tobelikning yoshlar xulqiga ta'siri. // Pedagogik mahorat, 6, pp.45-51.
9. O'zbekistonda internetdan samarali foydalanuvchilar soni ortib bormoqda, 17.08.2023 13:13 0 1200, <https://ict.xabar.uz/uz/rejtinglar/ozbekistonda-internetdan>

## ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИЛАР КРЕАТИВ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Очилова Нигора Маллаевна,*

*Ахборот технологиялари ва менежмент университети  
“Педагогика” кафедраси доценти*

*Республикамизда таълим тизимини такомиллаштириши орқали ҳар томонлама етуқ, баркамол, мустақил фикрлашга қодир, иродали, фидоий ва ташаббускор кадрларни тайёрлашга катта эътибор берилаяпти.*

*Ҳозирги даврда ишлаб чиқаришда техника ва технологияларнинг янгиланаётганлиги, илм ва фаннинг жадал тараққиёти мутахассис кадрлардан ўз билимларини мустақил ва мунтазам равишда чуқурлаштириб, янгилаб, тўлдириб ва кенгайтириб боришни талаб этади. Мақолада айнан шу масалаларга эътибор қаратилган.*

**Калит сўзлар:** *креатив фикр, замонавий ихтисослаштирилган мактаблар, ўқувчи қобилияти, изланувчанлиги, тафаккури, ижодий изланиш, зеҳнлилик, топқирлик, синчковлик, қизиқувчанлик, изланувчанлик, инновацион ёндашув.*

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ

*В нашей стране посредством совершенствования системы образования большое внимание уделяется подготовке зрелых, гармонично развитых, способных к самостоятельному мышлению, волевых, самоотверженных и инициативных кадров.*

*В настоящее время обновление техники и технологий в производстве, ускоренное развитие науки и науки требуют от специалистов самостоятельного и постоянного углубления, обновления, пополнения и расширения своих знаний. В статье обращается внимание на эти вопросы.*

**Ключевые слова:** *творческое мышление, современные специализированные школы, способности учащихся, любознательность, мышление, творческий поиск, склад ума, находчивость, старательность, любознательность, инновационный подход.*

## DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY FOR CONTEMPORARY TEACHERS

*In our country, by improving the education system, much attention is paid to the training of mature, harmoniously developed, capable of independent thinking, strong-willed, selfless and initiative personnel.*

*At present, the renewal of techniques and technologies in production, the accelerated development of science require specialists to independently and continuously deepen, update, replenish and expand their knowledge. The article draws attention to these issues.*

**Keywords:** *creative thinking, modern specialized schools, students' abilities, curiosity, thinking, creative search, mindset, resourcefulness, diligence, curiosity, inquisitiveness, innovative approach.*

**Кириш.** *Замонавий таълим барча турдаги таълим муассасаларида фаолият юритаётган ўқитувчи, педагогларнинг ўз фаолиятларини креатив ижодкорлик асосида ташкил этиш маҳоратига эга бўлишларини тақозо этмоқда.*

*Мамлакатимизда жадал ривожланаётган ижтимоий-иқтисодий шароитларда шаклланаётган умумтаълим тизимида, креатив фикрлайдиган шахсни тарбиялашга катта эътибор қаратилмоқда. Ҳозирги даврда, таълим тизимининг энг муҳим вазифаларидан бири сифатида турли ҳаётий шароит ва вазиятларда онгли тарзда қарорлар қабул қила оладиган, ностандарт фикрловчи креатив шахсни тарбиялаш биринчи даражали муаммо сифатида майдонга чиқди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида ушбу муаммога тўхталиб, “Биз, “Янги Ўзбекистон мактаб остонасидан бошланади” деган улуг ғоя асосида мамлакатимизда мактаб таълимини умуммиллий ҳаракатга айлантириш бўйича бошлаган ишларимизни янги босқичга кўтарамиз. Юртимизда мутлақо янгича мазмун ва шаклдаги замонавий ихтисослаштирилган мактаблар тизимини яратиш бўйича давлат дастурлари ишлаб чиқамиз ва ижрога қаратамиз”, деб алоҳида таъкидлаб ўтдилар.*

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** *Республикамиз олимларидан Л.Ахмедова, У.Бегимқулов, Н.Муслимов, Б.Раҳимов, Н.Тайлоқов, Э.Ф.Зеер, Т.М.Сорокина, В.Н.Введенский, М.И.Луқьянова, А.В.Хуторской, Ш.Шарипов ва бошқалар таълим соҳасида ижтимоий-педагогик,*

акмеологик масалаларга доир илмий тадқиқотлар олиб борган ва бу тадқиқотларда бевосита муайян йўналишлардаги мутахассисларнинг келтириб ўтилган.

Шунингдек, педагогнинг касбий компетенцияларини такомиллаштириш масалалари касбий маҳоратини такомиллаштириш масалалари педагог олимлар Ҳ.Абдукаримов, Н.Азизхўжаева, А.Алиев, Ю.А.Ахроров, А.А.Вербицкий, Р.Ҳ.Жўраев, Б.Р.Жўраева, Ж.Ғ. Йўлдошев, С.М.Маркова, Г.М.Махмутова, А.А.Ҳамидов, Ф.Р.Юзликеевларнинг ишларида ҳам тадқиқ этилган. Жумладан, Н.А.Муслимов ва К.Абдуллаевларнинг фикрича, компетентлик – олинган назарий билим, кўникма ва малакалар мажмуасини амалиётга мустақил ва ижодий қўллаш олиш даражаси, бу ҳам талабанинг амалиёт жараёнида ва олий таълимдан кейинги фаолиятида шаклланиб боради.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги давлатларида В.Байденко, А.Залевская, Э.Зеер, И.Зимняя, О.Поляков каби олимларнинг илмий тадқиқотларида касбий компетенцияларни шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари турли жараёнларда таҳлил қилиш ва тизимлаштириш масалалари кўриб чиқилган.

**Натижа.** Ижодий изланиш натижасида ҳосил бўладиган билим мазмуни янги техник ечим, бадиий асар, математик формула, назария, қонуният кабилар креатив шаклларда жамиятга тақдим этилади. Улардан жамият баҳраманд бўлишига эришилгандагина, ижод ҳақиқий тўлақонли намоён бўлади. Ўқувчилар ижодкорлик фаолиятини қуйидаги белгиларига кўра таснифлаш мумкин: креативлик тури (техник, технологик, ташкилотчилик, иқтисодий, ижтимоий, маънавий, педагогик, дидактик, аралаш); креативлик даражаси (моно ижод, мульти ижод, мега ижод); креативлик қамрови (ихтисослик, мутахассислик, билим соҳаси, тармоқлараро, миллий, минтақавий, халқаро, минтақалараро); креативликнинг давомийлиги (қисқа муддатли, ўрта муддатли, узок муддатли); креативликнинг мураккаблик даражаси (оддий, мураккаб, жуда мураккаб); креативликнинг шакли (инновацион, илмий-тадқиқотчилик, таълимий, инвестицион, аралаш).

Янги сифат – креативлик маҳсули – фақатгина икки ёки ундан ортиқ нисбатан автоном тизимлар битта янги тизимга бирикканида юзага келади. Айнан уларнинг янги тизим доирасида ўзаро таъсирлашуви янги сифатнинг юзага келишини белгилаб беради. Бошқа соҳалар билан туташ билим соҳалари, амалий ҳаётда эса одатда ўтиш давларида креативлик потенциали юқори ҳисобланади.

Турли-туман, ўзаро қарама-қарши жиҳатларни бириктириш креативликнинг энг муҳим манбаларидан бири саналади. Бунинг муҳим жиҳати янги ҳосил қилинган жиҳатнинг дастлабки маҳсулотда мавжуд бўлмаганлигидир. Аналогия бўйича хулоса чиқариш креативликнинг яна бир манбаидир. Турли буюмлардаги умумийликни кўра олиши абстракт тафаккур билан боғлиқ. Агар, икки воқеа қайсидир жиҳатдан бир-бирига ўхшаш бўлса, у сабаб-оқибат боғлиқлигида ўз аксини топади. Аналогия бўйича хулоса чиқариш креативликнинг санъат ва фалсафа билан боғлиқ турларида муҳим аҳамият касб этади.

Энг умумий жиҳатларига кўра креативлик фаолияти турларини уч гуруҳга бўлиш мумкин: а) принципаал жиҳатдан янги ечимларни илгари суриш; б) ушбу янгиликнинг амалий қўлланиш имкониятларини аниқлаш мақсадида уни деталлаштириш, конкретлаштириш, ишлаб чиқиш; в) янги гоьларни ҳаётга татбиқ этиш, у ёки бу моддий шаклда келтириш билан боғлиқ фаолият.

Яратилган креативлик маҳсулини маъноси ва мураккаблигига кўра уч гуруҳга ажратиш мумкин: рационализаторлик таклифи – энг оддий ижодий ишланма бўлиб, мавжуд ва аввалдан қўлланилган тизим, жараён ва вазиятларнинг айрим таркибий қисмларини такомиллаштиришга йўналтирилган янги фикр; ихтиро – юқори даражада техник ишланма ҳисобланиб, мавжуд бўлганларидан жиддий фарқ қилувчи техник ечим; кашфиёт – моддий дунёнинг илгари маълум бўлмаган объектив мавжуд қонуният, хосса ва ходисаларни аниқланиши.

Зеҳнлилик, топқирлик, синчковлик, қизиқувчанлик, изланувчанлик сифатлари, мустақил ва танқидий фикрлашнинг таркиб топтирилиши шахс креативлик фаолиятини ташкил қилишнинг асосий омиллари ҳисобланади. Таълим жараёнларининг ушбу асосда ташкил этилиши ўқитувчи ва ўқувчи мулоқотини индивидуал ва дифференциал ёндашувга асосланган инновацион технологияларни жорий этишни тақозо этади. Педагогикада инновацион ёндашувни жорий этишда креативлик фаолиятининг маънавий, дидактик, технологик, ташкилотчилик каби турларидан кенг фойдаланиш мумкин.

Маънавий ижодкорлик – ўқитувчи ва ўқувчилар орасида маънавий-ахлоқий соҳада янги сифатли натижа берувчи такрорланмас, ўзига хос ёндашувга асосланган фаолият туридир.

Дидактик креативлик – ўқув материални танлаш, лойиҳалаш ҳамда ўқувчилар ўзлаштиришининг янги йўналишларини ишлаб чиқишга асосланган фаолият туридир.

Технологик креативлик – юқори натижаларга эришиш имконини берувчи янги тизимлар, жараёнлар ва вазиятларни излаш ҳамда яратиш билан боғлиқ фаолият тури бўлиб, у ўқитувчи ва

Ўқувчининг фаолиятини бутунлай қамраб олувчи ижодкорликнинг энг мураккаб тури ҳисобланади. Ташкилотчилик креативлиги – режалаштириш, назорат, ресурсларни тақсимлаш ва сафарбар қилиш, ташқи муҳит билан алоқа, ўқувчилар ва ўқитувчи орасидаги боғланишнинг янги усуллари яратишни ташкил қилиш ва бошқаришдаги ижодкорликдир.

**Муҳокама.** Ўқувчининг креативлиги унинг ўзига хос усул билан масала ечиши, иншо ёзиши, тажриба ишлари, меҳнат вазифаларини бажариши билан боғлиқ вазиятларда мустақил фикрлаши билан намоён бўлади. Ўқувчининг ижоди – ўзлаштирилган билимларни амалиётдаги далил ва ҳодисаларга боғлай олиш, олинган натижаларни тўғри баҳолаб, таҳлил қилиши, аввалги эгалланганлари билан умумлаштира олишдир. Бу жараёни технологик ижодкорлик янгилик элементларини аниқ технологияга ўтказиш, бир технологияни янги, самаралироғига тубдан ўзгартиришга қаратилганлиги билан бойитади.

Креатив фаолиятни ўқитувчи ва ўқувчиларнинг бу жараёнга психологик жиҳатдан етарлича тайёр эмасликлари мураккаблаштиради. Аниқ метод, шакл, воситаларга интилиш уларни бошқаларни тан олмасликларига олиб келади. Бу психологик ҳолат сифатида турли шаклларда бўлиши мумкин, жумладан: азалдан умуман фикр ва мулоҳазаларни қабул қилмаслик; умумий қабул қилинган нуқтаи назардан қатъий ҳимояланиш; янги мазмун ва воситаларга нисбатан эски методларни қўллаш; янги методларда эски шаклларнинг сақланиб қолиниши; умуман янги масалани анъанавий ечиш усуллари кабилар.

Машғулотларни ташкил қилишда ўқувчилар хулқ-атвориға сезиларли таъсир ўтказувчи мақсадларни аниқлаш ва ҳисобга олиш зарур. Бу борада ўқитувчи кўпроқ якуний натижаға қадар босқичма-босқич амалға ошадиган оралиқ мақсадларни излаш ва улардан фойдаланиши керак бўлади. Ўқувчилар хулқ-атворини муайян йўналишға солишға қаратилган мақсад орқали исталган лойиҳани барқарор, аниқ қилиб бажариш мумкин.

Одатда замонавий ўқитувчиларни замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратға мослаштиришда уларнинг объектив имкониятларидан келиб чиқиб ёндашиш, танланган касб ва фаолият талабларига шахс имкониятларининг идентификациялашуви мақсадға мувофиқ саналади. Масалан, ўқитувчилик касбини танлашда нафақат бу касбни севиш, болалар билан мулоқотға киришиш истаги, балки, замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратнинг шахсға нисбатан қоядиган жисмоний, психологик ва ижтимоий талаблар унинг имкониятлари доирасида бўлиши касбий билим, малака ва кўникмаларни ўзлаштиришға ёрдам беради. Шу боис, замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратида масаланинг мазкур жиҳатларини назарий асослаш ва замонавий ўқитувчиларнинг касбий имкониятларини ривожлантиришға алоҳида эътибор қаратиш керак.

Замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратиға дастлабки салоҳиятли тайёрлиги айна вақтдаги амалий тайёрлигининг асоси ҳисобланади. Шунинг учун таълим муассасаларидаги касбий тайёргарликни шакллантириш жараёнида замонавий ўқитувчиларда замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратни амалға ошириш учун етарли бўлган касбий билим, малака ва кўникмаларни шакллантириш лозим бўлади. Касбий билим – аниқ меҳнат фаолияти доирасида бажариладиган ишлар учун зарур бўлган ахборотлар ва ўзлаштирилган назарий маълумотлар бирлашмасидир.

Замонавий ўқитувчиларнинг ўзлаштириш лозим бўлган касбий билимлар мутахассис шахсининг сифат даражасиға қуйиладиган малакавий талаблар мазмунидан келиб чиқиб белгиланиши замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратни ривожлантириш жараёнининг самарадорлигини белгиловчи муҳим мезон саналади.

**Хулоса.** Таъкидлаш жоизки, олий таълим муассасаларидаги ўқув фаолиятининг маҳсули бу касбий билимларнинг ўзлаштириш жараёни ҳисобланади. Лекин баъзида шундай вазиятлар ҳам учраб турадики, касбий масалаларни ҳал этишға яхши тайёргарлик кўрган мутахассис зарур пайтда керакли фаолият учун тайёр бўлмай қолиши мумкин. Бундай ҳолатда педагогик фаолиятни муваффақиятли амалға ошириб бўлмайди, ёки самарасиз бўлади.

Кўриниб турибдики, мутахассиснинг касбий тайёргарлиги унда нафақат касбий билимларнинг керакли даражасини, балки психологик тайёргарликни, ўзини – ўзи бошқариш ва керакли фаолиятға йўналтириш, ўқув- тарбия жараёнини бошқариш, касбий, маънавий ва жисмоний имкониятларини керакли шароитда қойилган масалани ҳал этишға тўғри йўналтира билиш билан боғлиқ касбий кўникма ва малакаларни шакллантириш, жараёнга мослаштиришни назарда тутати. Чунки, айнан шу кўникма ва малакалар замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳорати жараёнидаги зарурий феноменлар сифатида баҳоланади. Касбий кўникма ва малакалар – амалий фаолият жараёнида пайдо бўладиган, шахснинг ўзлаштирилган касбий билимларини анланган иш ҳаракатларига айланишидаги автоматлашган усулдир.

Креативлик жараёнида мақсаддан ташқари инсон хусусиятларининг психологик (билим олиш жараёнининг ривожланиш даражаси), ижтимоий-психологик (ишонч ҳосил қилиш, муносабат, баҳо бериш, дид, урф-одатлар), педагогик (таълим бериш ва таълим олиш, тарбиялаш ва тарбияланганлик) жиҳатларини ҳам ҳисобга олиш керак.

Жамият ривожланиши билан техника ва технологияларнинг жуда тез алмашилиши инсондан ўз хаёти мобайнида ўзгариши мумкин бўлган касблар ва мутахассисликларга мослашиб боришни талаб қилади. Шунинг учун ўқувчиларда бўлажак касби ва касбий фаолиятга креатив ёндашишни тарбиялаш зарур ҳисобланади.

Креатив фикрлаш ҳар бир ижтимоий соҳада яққол акс этиши мумкин . Ўқитувчининг ижодкорлиги эса у томонидан ташкил этилаётган касбий фаолиятни ташкил этишга ижодий (креатив) ёндашувида акс этади.

Ўқувчилар креатив фаолиятини ривожлантириш учун алоҳида ижодкорлик масалалари эмас, балки машғулотлар жараёнида ўқувчиларда юқорида кўрсатилган таснифлар ва тамойиллар орқали мантикий операциялар шаклландирган ва ривожландирган ижодкорлик масалалари тизими зарур. Ўқувчилар креативлик фаолиятини ривожлантириш омиллари ҳар бир мавзу, ҳар бир дарсликда ўқув фаолиятининг асоси бўлиши лозим. Демак, креативлик фаолияти ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятининг барча қирраларини камраб олар экан, уни самарали ташкил қилиш бутун таълим жараёнининг сифатини таъминлаб беради.

#### Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент. “Ўзбекистон” нашриёти,2021. – Б. 226.
2. Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика асослари. Ўқув –услугий мажмуа. - Т.:ТДПУ 2016.
3. Хайдарова О.К. Бўлажак ўқитувчиларни таълим жараёнига инновацион ёндашувга тайёрлаш. Монография. – Қарши, «Насаф» нашриёти, 2020.
4. Ochilova N. R.. The importance of spiritual education of young people with intellectual potential «scientific progress» Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5 march 2021. 251-254. www.scientificprogress.uz
5. Ochilova N. R. Journal Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth. // Central Asian Journal of social sciences and history. 2022/11/17.Т3,№11, p-116-118
6. Ochilova N. Yukh Manzarov. The development of aesthetic perception - Problems of Science, 2019, Publisher LLC "Olimp", No. 10 (46), 38-40
7. Ochilova N. R. Modern civilization: similarities and differences. Journal of the International Scientific-Practical Distance Conference. // Publisher Scientific progress 2021. V.15, No. 15, pp. 24-26
8. Ochilova N. R. National problems in the light of modern trends in the process of globalization. // International Scientific and Practical Conference World science. ROST publisher. 2017, V.5, No. 4, p-11-13



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OFITSER KADRLARNI TAYYORLASHDA XORIJIY  
MAMLAKATLAR MAXSUS HARBIY MAKTABI TAJRIBASIDAN FOYDALANISH**

*Bozorov Aziz Abloqulovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining o‘rinbosari*

*Hozirgi globallashuv davrida barcha sohalar qatorida harbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, mazkur tizimda zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zaruriyatga aylandi. Ayni vaqtda harbiy ta’lim tizimida milliy o‘zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham davlatimizning doimiy e’tiborida. Qolaversa, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta’minlash borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish bo‘yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.*

*Jahon harbiy ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va uni milliy ta’lim tizimizga muvoqlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib, maqolamizda Germaniya, Fransiya, Angliya, Vengriya, Ispaniya, Polsha, Turkiya, Shvetsiya harbiy maktabi va undagi ta’lim tizimini ko‘rib chiqamiz. Xorijiy davlatlar ofitserlar ta’limi va taqdim etilgan harbiy ta’lim tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishlari tizimlashtirilgan. Keyinchalik har bir alohida armiyada ofitserlar tayyorlash sifatini ta’minlash xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.*

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, yondashuv, ilmiy, sifat.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ВОЕННЫХ ШКОЛ  
ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ПОДГОТОВКЕ ОФИЦЕРСКИХ КАДРОВ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

*Модернизация системы военного образования, включающая современные знания, передовой зарубежный опыт, широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий в эту систему, стала необходимостью в современную эпоху глобализации. Вместе с тем, в системе военного образования воспитание национальной идентичности и укрепление боевого духа, воспитание патриотизма, повышение интеллектуального потенциала военнослужащих также находятся под постоянным вниманием нашего государства. Кроме того, на совершенно новый качественный уровень вышла работа по укреплению обороноспособности нашей страны, воспитанию молодёжи в духе патриотизма, повышению роли местных органов государственной власти в обеспечении единства армии и народа.*

*Изучение передового опыта мировой системы военного образования и адаптация его к нашей национальной системе образования является одной из наиболее актуальных задач современности. Учитывая это, в нашей статье мы рассмотрим военные училища Германии, Франции, Англии, Венгрии, Испании, Польши, Турции, Швеции и их образовательную систему. Систематизированы направления развития систем офицерского и военного образования зарубежных стран. Далее представляется целесообразным рассмотреть особенности обеспечения качества подготовки офицеров в каждой отдельной армии.*

**Ключевые слова:** образование, воспитание, подход, научный, качество.

**USING THE EXPERIENCE OF SPECIALISED MILITARY SCHOOLS OF FOREIGN  
COUNTRIES IN TRAINING OFFICERS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

*The modernisation of the military education system, including modern knowledge, advanced foreign experience, and the widespread introduction of information and communication technologies into this system, has become a necessity in the modern era of globalisation. At the same time, in the military education system, the cultivation of national identity and the strengthening of morale, the fostering of patriotism, and the enhancement of the intellectual potential of servicemen are also under the constant attention of our State. In addition, the work on strengthening the defence capability of our country, educating the youth in the spirit of patriotism, increasing the role of local public authorities in ensuring the unity of the army and the people has reached a completely new qualitative level.*

*Studying the best practices of the world military education system and adapting them to our national*

*education system is one of the most urgent tasks of our time. Taking this into account, in our article we will consider military schools in Germany, France, England, Hungary, Spain, Poland, Turkey, Sweden and their educational system. The trends in the development of officer and military education systems in foreign countries are systematised. Further it seems appropriate to consider the peculiarities of quality assurance of officer training in each individual army.*

**Key words:** education, upbringing, approach, scientific, quality.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv davrida barcha sohalar qatorida harbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, mazkur tizimda zamonaviy bilim, ilg’or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zaruriyatga aylandi. Ayni vaqtda harbiy ta’lim tizimida milliy o’zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham davlatimizning doimiy e’tiborida. Qolaversa, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta’minlash borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish bo’yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko’tarildi.

**Asosiy qism.** Jahon harbiy ta’lim tizimidagi ilg’or tajribalarni o’rganish va uni milliy ta’lim tizimiga muvoqlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib, maqolamizda Fransiyaning mashhur Sen-Sir harbiy maktabi va undagi ta’lim tizimini ko’rib chiqamiz.

Sen-Sir maxsus harbiy maktabi (École spéciale militaire de Saint-Cyr) iborasining lug’aviy ma’nosi “G’alaba qozonishni o’rgatiadi” va “G’alaba uchun mashq qilish” bildiradi va mazkur maxsus maktab Fransiyaning Koetkidan hududida (Renn shahridan 45 km janubi-g’arbda, Normandiya provinsiyasida) joylashgan.

“Sen-Sir” maxsus harbiy maktabi o’zining shonli o’tmishi va boy tarixga ega qadimiy ta’lim muassasasi hisoblanib, u 1802-yilda Napoleon Bonapart tomonidan mamlakat kelajagi uchun fransuz yoshlari orasidan eng munosib nomzodlarni saralash maqsadida asos solingan. Dastlabki davrda qirollik armiyasi uchun malakali jangchilarni tayyorlab kelgan ushbu maktab 1947-yildan boshlab umumqo’shin ofitserlarini, 1977-yildan boshlab esa bir nechta harbiy maktablarni birlashtirilishi orqali ko’p tarmoqli (umumqo’shin, texnik ta’minot va ma’muriy tarkib ofitserlarini tayyorlovchi) Fransiya Qurolli Kuchlari Qurultidagi qo’shinlarining bosh harbiy maktabiga aylandi.

Bugungi kunda Sen-Sir harbiy maktabi Fransiyaning milliy maqomdagi kam sonli maktablardan biri bo’lib, mamlakatning “eng kuchli o’ntalik” oliy ta’lim muassasalari qatoriga kiritilgan. Shuning bilan birga ushbu maktab nafaqat harbiy sohada, balki mamlakat oliy ta’lim tizimini ustuvor yo’nalishlarini muvofiqlashtirish va milliy kadrlarni tayyorlashda ham o’z o’rni va mavqeiga ega.

Ta’limning to’la kursi 3 yilga mo’ljallangan. 3 yillik ta’limni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchiga oliy maxsus ma’lumot to’g’risidagi diplom hamda leytenant unvoni beriladi. Undan so’ng bitiruvchilar qo’shin turlarining amaliy maktablariga yuboriladilar va u yerda muayyan lavozimga tayinlanishlaridan oldin tanlangan mutaxassisliklari bo’yicha 2 yillik tayyorgarlikni o’taydilar.

Bugungi kunga kelib Sen-Sir maxsus harbiy maktabiga quyidagi toifadagi yoshlar qabul qilinadi:

12 yillik o’rta maktabni (litseyni) tamomlagan fuqaro yoshlar (shu jumladan (ko’p bo’lmagan miqdorga qizlar) (yosh chegarasi 22 yoshgacha);

oliy maktablar (universitetlar) qoshida tashkil etilgan 2 yillik tayyorlov sinflarini tamomlab bakalavr diplomini olgan yoshlar, tayyorlov harbiy litseylarning bitiruvchilari (yosh chegarasi 22 yoshgacha);

universitetni tamomlaganlik to’g’risidagi diplomga ega unvoni bo’lmagan ofitserlar (yosh chegarasi 23-25 yoshgacha).

Ushbu maktabda o’quv jarayonini tashkil etish konsepsiyasi uchta asosiy va bir-birini to’ldiruvchi vazifalarni hal qilishga asoslangan: bo’lajak komandirlarni tayyorlash, ko’p aspektli akademik va harbiy-sport tayyorgarligi:

**Harbiy-professional tayyorgarlik** – bo’lajak ofitserlarda tanlangan harbiy mutaxassislikning o’ziga xos xususiyatlarini aniq anglashga asoslangan mustaxkam kasbiy ko’nikmalarni shakllantirishga qaratilgan;

**Harbiy va sport tayyorgarligi** – kursantlarda harbiy xizmatning qiyinchilik va mashaqqatlariga matonat bilan chidash kabi fazilatlarini ta’minlaydi, shuningdek qisqa muddat ichida umumqo’shin vujudini boshqarish bo’yicha zarur bo’lgan ko’nikma va bilimlarni egallash imkonini beradi. Ko’proq vaqt ajratiladigan ushbu tayyorgarlik turida kursantlarga taktika va strategiya hamda turli qurollar bilan muomala qilish sirlarini o’rgatiladi. Ko’proq e’tibor sportning parashyut bilan sakrash, suv to’siqlaridan o’tish, turli masofalarga yugurish kabi maxsus turlariga qaratiladi.

Akademik tayyorgarlik – kursantlarga muntazam o’zgarib turuvchi siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning butun murakkabligini angash, shaxsiy madaniy bilimlar zaxirasini shakllantirish imkonini

beruvchi dunyoqarash asoslari bo'yicha bilimlarni beradi. O'quv jarayon mobaynida kursantlar matematika, geografiya, tarix, chet tili va boshqa predmetlardan o'z bilimlarini mukammallashtiri boradilar.

Oxirgi vaqtlarda har yili maktabga 170 dan 200 tagacha odam jumladan 20 tadan ko'p bo'lmagan miqdorda qizlar) qabul qilinmoqda. Maktabda chet ellik fuqarolar ham tahsil olishadi: masalan 2001-yilda ushbu maktabni Fransiya bilan harbiy hamkorlikdagi 13 ta davlatning vakillari bitirishgan.

Ta'lim berish jarayoni Harbiy-professional tayyorgarlik, Jismoniy faollik va Akademik tayyorgarlik prinsiplaridan iborat uchta yo'nalishga qaratilgan bo'lib, asosiy e'tibor – harbiy xizmatchilarning yetuk shaxs sifatida shakllanishi, umumiy madaniyati, mamlakat tarixi va milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat, liderlik va boshqaruv fazilatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Shu maqsadda maktabda ta'lim-tarbiya berish uchun eng yaxshi mutaxassis-o'qituvchilarni tayinlash mamlakat miqyosida amalga oshiriladi.

E'tiborli jihatlaridan yana biri, maktabning har bir tinglovchisida “Yuksak vatanparvarlik, mamlakat tarixiga cheksiz hurmat va uning kelajagi uchun buyuk mas'uliyat” g'oyalari qadrlanadi. Sen-Sirning har bir bo'linmasi undagi tinglovchilarning or-nomus va xayotiy prinsipi va o'ziga yarasha “bosh g'oyasi”ga aylangan shioriga ega bo'lib, har bir tinglovchi o'z bo'linmasi shiorini o'zi uchun kuch-qudrat va aql-zakovat timsoli sifatida qadrlaydi.

Bundan tashqari, fransuz harbiy rahbariyatining fikriga ko'ra, zamonaviy ofitser uchun majburiy talablardan biri chet tillarini bilishdir. Shu asosda bir yoki ikkita chet tilini intensiv o'rganish Sen-Sir maktabi kursantlarini tayyorlashda muhim yo'nalishga aylangan. Ingliz tili kursantlarning barcha toifalari uchun majburiy fan sifatida o'qitiladi va o'qishni tugatgandan so'ng, ofitser birinchi darajali ingliz tili kurslarini muvaffaqiyatli tugatganligi to'g'risida sertifikat olishi kerak. Olingan bilimlar darajasini va uni ingliz tilida so'zlashuvchi harbiy xizmatchilardan tashkil topgan qo'shma harakatlar jarayonida uni qo'llashga tayyorligini tekshirish maqsadida uchinchi kurs kursantlari uchun ingliz tilida taktik mashqlarni bajarish ko'zda tutilgan. "Xalqaro munosabatlar" va "Kadrlar va bo'linmalarni boshqarish" fanlari bo'yicha ixtisoslashgan kursantlar, yuqoridagilardan tashqari, ikkinchi chet tilini o'rganadilar. Maktabda tillarni o'qitish metodikasida lingafonatoriyalar, bu sohada zamonaviy texnologiyalar, audio va video uskunalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Uchinchi kursda olingan ko'nikmalarni chuqurlashtirish va mustahkamlash maqsadida beshinchi semestr oxirida kursantlar uchun 12 haftalik chet elda amaliyot o'tash nazarda tutilgan.

Maktabda kasbiy tayyorgarlik dasturi, bu yerda harbiy mutaxassislik bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lgan, ofitserlik lavozimlarida o'z vazifalarini bajarishga axloqiy va jismonan tayyor bo'ladigan bo'lajak komandirlar tayyorlanishini hisobga oladi. Uning o'ziga xosligi shundaki, kursantlarni qo'shinlarda keyingi xizmatini hisobga olgan holda o'qitishni nazarda tutadi va bundan tashqari, ularga harbiy martabasini mustaqil ravishda belgilash huquqini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning maqsadi ularga harbiy sohada to'liq ma'lumot berish emas, balki kursantlarga taktika haqida asosiy ma'lumotlarni etkazish va shu bilan ularni masalalarning murakkabligini tushunishga majburlashdir.

Umuman olganda, Sen-Sir maxsus harbiy maktabi – unda joriy qilingan o'quv jarayoni, boy o'tmishi, shonli an'analari va ijobiy imidji bilan har tomonlama yetuk, zamonaviy fikrlaydigan haqiqiy vatanparvarlarni yetishtirib chiqaruvchi Fransiyaning yetakchi ta'lim muassasalaridan biriga aylangan.

- kursantlarga ijtimoiy-madaniy xarakterdagi keng ko'lamlı muammolar to'g'risida kerakli ma'lumotlarni taqdim etish, bu ularga yuzaga keladigan qiyin vaziyatlarni to'g'ri baholash va xolis tahlil qilishni o'rganish imkoniyatini beradi;

- tarbiyalanuvchilarda axloqiy qadriyatlar, masalan, axloq, vatanparvarlik, fuqarolik burchlari, sharaf, intizom, inson qadr -qimmatining ustuvorligi, buyruqbozlik fazilatlarini to'g'risida aniq tasavvurni rivojlantirish (shaxsiyatning ayrim xususiyatlarini rivojlantirish, obro'si va psixologiyasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish). bo'ysunuvchilar) va nihoyat, harbiy xizmat talablariga javob beradigan kasbiy mahorat va ko'nikmalar.

**Xulosa.** Sen-Sir maxsus harbiy maktabi faoliyatini o'rganish xulosalariga ko'ra quyidagi jihatlarni O'zbekiston Respublikasining harbiy ta'lim tizimiga joriy qilish masalasini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish (dastlabki davrda AKT va aloqa harbiy institutida sinov tariqasida);

oliy ta'lim muassasalarining gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha professor-o'qituvchilar lavozimlariga nomzodlarni tayinlashni vazirlik miqyosida davlat organlarining tavsiyalari asosida amalga oshirish;

OHTMlar kursantlari va tinglovchilari bilan ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda taniqli olimlar, fan arboblari, akademiklar, vazirlik va idoralar rahbarlari, hukumat vakillari, senatorlar va deputatlar tomonidan dolzarb mavzularda ma'ruzalar o'qish tajribasini yo'lga qo'yish;

ta’lim muasssalarida chet tillarini o’rganishning samarali usullarini joriy qilish orqali (o’quv vaqtlarida va undan tashqari vaqtlarda) kursantlarning o’qishni tamomlagandan so’ng bitta (yoki ikkita) chet tillarida erkin so’zlasha olishlarini ta’minlashga erishish.

**Adabiyotlar:**

1. П. Колесов, А.Стрелецкий. Сен-Сирская специальная военная школа сухопутных войск Франции (2006) // Зарубежное военное обозрение №6, 2006.
2. Odile Roynette, «La mixité: une révolution en danger?», L'Histoire № 455, январь 2019, p. 12-19.
3. Феличкин Ю. М. Как я стал двойником: Воспоминания. — Ростов н/Д: Ред. журн. «Дон», 1990. — 160 с. — ISBN 5-7509-0206-4.
4. Сен-Сирская военная школа // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

## ФЕНОМЕН ВОСПИТАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ПЕДАГОГИКИ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ НА ВОСТОКЕ И ЗАПАДЕ

*Саидова Камола Усканбаевна,  
профессор международного университета  
«Tashkent International University of Education», д.ф.н. (DSc)*

*В статье рассматриваются инновационные подходы в педагогике воспитания молодёжи на Востоке и Западе. Анализируется влияние культурных, социальных и экономических факторов на образовательные практики в области воспитания. Автор выделяет ключевые стратегии, которые активно используются в образовательных системах, и особое внимание уделяется возможностям обмена идеями и практиками между Востоком и Западом, что способствует адаптации эффективных методов в разных контекстах. Автор подчёркивает важность интеграции культурных традиций и современных технологий для обеспечения качественного и всестороннего образования молодёжи.*

**Ключевые слова:** *воспитание, обучение, молодёжь, педагогика, компаративная педагогика, Восток и Запад.*

## SHARQ VA G‘ARBDA YOSHLARNI TARBIYALASH PEDAGOGIKASI KONTEKSTIDA TARBIYA FENOMENI

*Maqolada Sharq va G‘arbda yoshlarni tarbiyalash pedagogikasidagi innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning ta‘lim sohasidagi tarbiya amaliyotiga ta‘sir tahlil qilingan. Muallif ta‘lim tizimlarida faol qo‘llaniladigan asosiy strategiyalarni ko‘rib chiqdi va Sharq va G‘arb o‘rtasida nazariya va amaliyot almashish imkoniyatlariga alohida e‘tibor qaratadi, bu esa turli kontekstlarda samarali usullarni moslashtirishga yordam beradi. Muallif yoshlarning sifatli va har tomonlama ta‘lim olishini ta‘minlash uchun madaniy an‘analar va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirish muhimligini ta‘kidlagan.*

**Kalit so‘zlar:** *tarbiya, ta‘lim, yoshlar, pedagogika, komparativistik pedagogika, Sharq va G‘arb.*

## THE PHENOMENON OF UPBRINGING IN THE CONTEXT OF PEDAGOGY OF YOUTH UPBRINGING IN THE EAST AND WEST

*The article discusses innovative approaches to youth education in both the East and the West. It analyzes the influence of cultural, social, and economic factors on education practices. The author identifies key strategies used in educational systems and emphasizes the importance of exchanging ideas and practices between the two regions. This exchange can contribute to the adaptation of effective methods to different contexts. The author stresses the need to integrate cultural traditions with modern technologies to provide high-quality, comprehensive education for young people. This approach would ensure that students receive a well-rounded education that takes into account their unique backgrounds and needs.*

**Keywords:** *upbringing, education, youth, pedagogy, comparative pedagogy, East and West.*

**Введение.** Современное общество сталкивается со множеством вызовов, требующих от молодёжи не только глубоких знаний, но и гибкости, креативности и способности к критическому мышлению. В этом контексте педагогика воспитания молодёжи становится одной из ключевых областей, где активно разрабатываются и внедряются инновационные подходы. На Востоке и Западе образовательные системы имеют свои уникальные традиции и методики, которые отражают культурные, социальные и экономические особенности регионов. Тем не менее, глобализация и развитие технологий создают условия для обмена идеями и практиками, что позволяет педагогам заимствовать эффективные методы друг у друга. В данной статье мы рассмотрим некоторые из наиболее актуальных инновационных подходов в педагогике воспитания молодёжи на Востоке и Западе. Мы проанализируем, как культурные различия влияют на выбор методов обучения, а также выявим общие тенденции, способствующие гармоничному развитию личности. Исследование этих подходов поможет выявить наиболее эффективные стратегии, которые могут быть адаптированы в различных образовательных контекстах, обеспечивая тем самым качественное образование для будущих поколений.

**Обзор литературы и методология.** В данном исследовании автором были применены такие методы, как анализ и синтез, компаративный анализ, герменевтика, метод исторического и логического анализа, обобщение. Причем компаративный анализ и герменевтика позволили сопоставить исследователь и сопоставить образовательно-воспитательные практики на Востоке и Западе. Применение метода исторического и логического позволило проследить процесс развития поставленной в статье проблемы с позиции ее исторической ретроспективы и логики изменений.

В последние десятилетия наблюдается активный интерес к вопросам педагогики воспитания молодёжи, что связано с изменениями в обществе и требованиями к образованию. И особенно это проявляется в сфере компаративной педагогики Востока и Запада. В этой связи выделяются такие зарубежные специалисты, как R.Alexander, M.Schweisfurth, L.Kandel, N.Hans, K.Ermenc, Е.Андриенко, А.Колесников, О.Михалина, И.Рудковская. Данные специалисты фокусируют своё внимание на идейно-философской и практико-теоретической базе компаративной педагогики, особенно в части воспитательной работы. Среди отечественных специалистов активные исследования по компаративной педагогике ведут такие авторы, как М.Муталипова, Д.Рахмонова, Б.Адизов, Ш.Олимов, Р.Каримов, З.Кабулова, К.Хошимов, С.Нишонова и другие. Данные авторы рассматривают фундаментальные и прикладные аспекты компаративной педагогики.

**Анализ и результаты.** Современное общество сталкивается с рядом сложных вызовов, связанных с воспитанием молодёжи. С одной стороны, молодые люди, как на Востоке, так и на Западе, являются ключевым ресурсом для развития общества, однако с другой стороны, они сталкиваются с множеством проблем, таких как социальное неравенство, насилие, экстремизм и разрушительные влияния среды. И одним из способов решения обозначенных проблем является инновационный подход в педагогике воспитания молодого поколения. По своей сути, инновационные подходы представляют собой современные и эффективные методы и стратегии, которые помогают развивать личностные качества молодых людей, способствуют их социализации и успешной адаптации в обществе.

Общеизвестно, что педагогика – это наука, изучающая процессы обучения и воспитания, а также разработку методов и подходов в данной области. Воспитание молодёжи является одной из главных задач педагогики, поскольку именно подрастающее поколение формирует будущее общества. Важно отметить именно то, что «Восток и Запад – две разные части мира, каждая из которых имеет свои особенности в педагогике воспитания молодых людей» [1, 9]. И в обозначенном аспекте необходимо обозначить инновационные подходы в педагогике воспитания молодых людей, что свойственно Востоку и Западу, а также провести сравнительный анализ развития педагогических идей в обоих регионах.

На Востоке педагогика имеет долгую историю, начиная с древних времён. В Китае и Индии развивались философские школы, которые занимались вопросами образования и воспитания. В Китае, например, «основоположником педагогических идей считается Конфуций, который придавал большое значение нравственному воспитанию» [2, 252]. Он разработал систему образования, основанную на принципах добродетели, уважения к старшим и соблюдения ритуалов. В Индии, педагогические идеи разрабатывались в рамках ведической традиции, где учитель играл ключевую роль в воспитании ученика.

В средние века на Востоке повсеместно развивались исламские школы, которые также уделяли внимание воспитанию молодёжи. Исламские учёные разработали систему образования, в которой были важными элементами духовно-нравственное воспитание, знание Священного Корана и соблюдение религиозных обрядов. Все эти обозначенные идеи воспитания молодёжи на Востоке имели долгую историю и оказывали значительное влияние на развитие педагогики в данном регионе.

В целом, на Востоке, в странах с богатой историей и традициями, подход в педагогике воспитания молодёжи основывается на сохранении и передаче ценностей, усвоенных предками. Здесь важна акцентуация на национальную и культурную идентичность, которая помогает молодому поколению сохранять свои корни, одновременно открывая для них новые возможности для роста и саморазвития [3, 88]. Восточные подходы в педагогике воспитания молодых людей строятся на принципах уважения к старшим, соблюдении традиций и семейных ценностей. Они включают в себя систему ценностей и духовно-нравственных установок, которые помогают молодёжи ориентироваться в сложном современном мире.

На Западе педагогика начала развиваться в эпоху Возрождения, когда постепенно возрастает интерес к образованию и воспитанию. В эпоху Просвещения в Европе разрабатывались новые педагогические идеи, которые ставили в центр внимания развитие личности и нравственное воспитание [4, 85]. Одним из ключевых фигур в развитии педагогики на Западе был именно Жан-Жак

Руссо, который выдвинул идею естественного развития ребёнка и противостоял жёстким методам воспитания.

✚ “Servis xizmati” bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak: Pazandachilik asoslari: pazandachilik xonasini jihozlanishi va ishlash uchun sanitariya-gigiyena talablari, oshxona asboblarida metall, chinni, sopol, fanas, plastmassa, shisha idishlardan to‘g‘ri foydalanish qoidalari, tvorojnik, puding tayyorlash va dasturxonga tortish tartib-qoidalari, yog‘li qatlanib tayyorlangan xamirdan “Somsa” pishirish, o‘zbek milliy (suyuq ovqatlarini) tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari, milliy taomlardan “Mastava” tayyorlash, tushlik uchun dasturxon tuzash, o‘zbek milliy taomlaridan parhez taomlar tayyorlash, suyuq va quyuq taomlar tayyorlash va dasturxonga tortish qoidalarini bajara olish.

✚ 7-sinf. “Servis xizmati” yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar. “Servis xizmati” bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak: Pazandachilik asoslari: go‘sht va go‘shtli mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati; baliq va baliq mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, ahamiyati va mohiyati; go‘sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo‘lgan talablar, saqlanish muddatlari, go‘shtdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o‘rmini tashkil yetish, go‘shpga birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari; baliqdan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o‘rmini tashkil etish, baliqqa birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari, asbob va moslama turlari va ularda ishlash qoidalari, sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o‘rmini tashkil etish, elektr go‘sht maydalagichning tuzilishi, vazifalari, ishlash prinsipi, xavfsizlik texnika talablari, qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o‘rmini tashkil etish, qandolat jihozlaridan foydalanib “Kartoshka” tayyorlash; mayda to‘g‘ralgan go‘shtdan taom tayyorlash va dasturxonga tortish; o‘zbek milliy taomlaridan palov tayyorlash texnologiyasini bilish va boshqalar.

“Servis xizmati” bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak: Pazandachilik asoslari: pazandachilik xonasini jihozlanishi va ishlash uchun sanitariya-gigiyena talablari, oshxona asboblarida metall, chinni, sopol, fanas, plastmassa, shisha idishlardan to‘g‘ri foydalanish qoidalari, tvorojnik, puding tayyorlash va dasturxonga tortish tartib-qoidalari, yog‘li qatlanib tayyorlangan xamirdan «Somsa» pishirish, o‘zbek milliy (suyuq ovqatlarini) tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari, milliy taomlardan “Mastava” tayyorlash, tushlik uchun dasturxon tuzash, o‘zbek milliy taomlaridan parhez taomlar tayyorlash, suyuq va quyuq taomlar tayyorlash va dasturxonga tortish qoidalarini bajara olish.

7-sinf. “Servis xizmati” yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar. “Servis xizmati” bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak: Pazandachilik asoslari: go‘sht va go‘shtli mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati; baliq va baliq mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, ahamiyati va mohiyati; go‘sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo‘lgan talablar, saqlanish muddatlari, go‘shtdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o‘rmini tashkil yetish, go‘shpga birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari; baliqdan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o‘rmini tashkil etish, baliqqa birlamchi ishlov berishda sanitariya-

gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari, asbob va moslama turlari va ularda ishlash qoidalari, sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o‘rnini tashkil etish, elektr go’sht maydalagichning tuzilishi, vazifalari, ishlash prinsipi, xavfsizlik texnika talablari, qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o‘rnini tashkil etish, qandolat jihozlaridan foydalanib “Kartoshka” tayyorlash; mayda to‘g‘ralgan go’shtdan taom tayyorlash va dasturxonga tortish; o‘zbek milliy taomlaridan palov tayyorlash texnologiyasini bilish va boshqalar.

O‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning pedagogik, psixologik ta’lim-tarbiya muassasalari doimo katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan va kelmoqda.

Hozirgi zamon umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalda qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari mazmuni - o‘quvchilarni kasb-hunar asoslarini o‘rgatishga yo‘llash ishi – ta’lim mazmunini aniqlashdir.

Joriy texnologik ta’lim kursini milliy qadriyatlarimiz, pazandachilik mazmuni bilan boyitish yoki ko‘plab to‘liq yangilash ta’lim mazmuniga qo‘yilgan davlat talabi, buyurtmasi hisoblanadi. Ta’lim maqsadini va mazmunini amalga oshirishda o‘quv jarayonida, albatta, o‘ziga xos usullar qo‘llaniladi [15].

Pazandachilik bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazish uslubiyati – ko‘rgazmalilik, tabiiy va sun‘iy ob‘yektlarni namoyish qilish, amaliy mashqlar, bajarilgan operatsiyalarni, usullarni qayta - qayta bajarib ko‘rsatish, mustaqil ishlarni tashkil etish va boshqalardir.

**Xulosa.** Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, texnologiya ta’limining mohiyati, mazmuni, tuzilishi, xususiyati, o‘ziga xosdir. O‘zbek xalqining shakllanishi tarixi bilan uyg‘unlashib ketgan milliy pazandachilikning ko‘plab turlarini texnologiya darslarida o‘qitishda innovatsiyon texnologiyalarni foydalanish mavjud muammolarni yechimi bo‘lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Bahronova Sh.I. Oliy ta’limda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kreativligini shakllantirishda dasturlashtirilgan vositalarning o‘rni. // “Pedagogik mahorat” ilmiy -nazariy va metodik jurnal 2024. 1-son 184-188-bet
2. Baxronova S., Davlatova N. Texnologiya fanidan mashg‘ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari // Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 64-68.
3. Baxronova S., Davlatova N. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 144-148.
4. Islamovna B. S., Ubaidilloevna D. N., Norjona P. Modern competences of organizing technology courses // Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 146-151.
5. Sayfullayeva D.A., Bahronova Sh.I. // «Образование наука и инновационные идеи в мире» Xalqaro ilmiy jurnal. – 2022. – Т. 1. – №. 8.
6. Ahmadovna S. D., Khudoyberdievich K. S., Qizi B. S. I. Increasing the professional creativity of students in teaching specialties // Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 12-2 (157). – С. 32-34.
7. Бахтиярова С. И. Совершенствование методологии использования инновационных педагогических технологий при подготовке специалистов в вузах // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 507-511.
8. Bakhtiyorova S. I., Sharopova M. F. “Improving the teaching process of materials science on the basis of foreign experience //E-Conference Globe. – 2021. – С. 46-48.
9. Bakhtiyorova S. I., Sharopova M. F. “Improving the teaching process of materials science on the basis of foreign experience //E-Conference Globe. – 2021. – С. 46-48.
10. Baxtiyorova S. I., qizi Jo‘rayeva D. B. 5 sinf texnologiya darslarida “materillarga ishlov berish bo‘limi” ni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish //Golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 73-79.
11. Muminovna R. D. Gazlamalarning kirishishi va unga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish //Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 4. – С. 150-156.
12. Muminovna, R. D. Z. (2023). Tikuv buyumlarini tayyorlashda ishlatiladigan pishirilgan iplarning tuzilish xususiyatlari va afzalliklari. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 6(10), 21-25.
13. Muminovna R. D. Gazlamalarning kirishishi va unga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish //Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 4. – С. 150-156.
14. Muminovna, R. D. Z. (2023). Tikuv buyumlarini tayyorlashda ishlatiladigan pishirilgan iplarning tuzilish xususiyatlari va afzalliklari. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 6(10), 21-25.

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

### BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH ORQALI DIVERGENT TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

*Adizova Nigora Baxtiyorovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti*

*Ushbu maqolada o‘quvchilarning kreativ faoliyatlarining maqsadi, mazmuni va jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ faoliyatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos shakllari, usullari, vositalari aniqlandi. O‘quvchilarda kreativ faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonining mazmuni shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari mazmuni sifatida namoyon bo‘lib, u o‘quvchilarda kreativ faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish jarayoni muayyan o‘quv vaziyatlari sifatida tashkil etilib, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish mexanizmlarini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘quvchilarni kreativ faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlariga olib kirish natijasida ularda o‘quv jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat tajribasi shakllanishi ta‘kidlab o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** divergent, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tafakkur, motiv, faoliyat, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik, ta‘lim-tarbiya, didaktik o‘yinlar, pedagogik texnologiya.*

### РАЗВИТИЕ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ ПУТЁМ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*В данной статье нам удалось определить особенности цели, содержания и процесса творческой деятельности учащихся. Определены конкретные формы, методы и средства развития творческой деятельности учащихся в ходе лично-ориентированного обучения. Содержание процесса развития умений творческой деятельности учащихся проявляется как содержание лично-ориентированных учебных ситуаций, служащих развитию творческой активности учащихся. Процесс формирования творческой активности учащихся младших классов организуется как конкретные учебные ситуации и воплощает в себе механизмы развития личности учащихся. Отмечается, что в результате знакомства студентов с учебными ситуациями развиваются навыки творческой деятельности, у них происходит формирование позитивного отношения к учебному процессу.*

***Ключевые слова:** дивергентное, творческое мышление, критическое мышление, внимание, восприятие, процесс ассоциаций, мышление, мотив, деятельность, творческое мышление, самостоятельное, эвристическое, обучение, дидактические игры, педагогическая технология.*

### DEVELOPMENT OF DIVERGENT THINKING BY FORMING CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY CLASS STUDENTS

*In this article, we were able to determine the specific features of the purpose, content and process of students' creative activities. Specific forms, methods, and means of developing students' creative activities were determined in the course of individual-oriented education. The content of the process of developing students' creative activity skills is manifested as the content of individual-oriented learning situations, which serves to develop students' creative activity. The process of formation of creative activity in elementary school students is organized as specific educational situations and embodies the mechanisms of student personality development. As a result of introducing students to educational situations that develop creative activity skills, it is noted that they experience the formation of a positive attitude towards the educational process.*

***Keywords:** divergent, creative thinking, critical thinking, attention, perception, association process, thinking, motive, activity, creative thinking, independent, heuristic, learning, didactic games, pedagogical technology.*

**Kirish.** Respublikamiz ta’lim tizimida boshlang’ich sinf o’quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish masalasi jamiyat a’zolari uchun mustaqil fikrlash, o’z qarashlari va nuqtayi nazarlarini bayon qilish imkoniyati sifatida baholanmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi yo‘nalishlar belgilangan. Ana shu sababli boshlang’ich sinf o’quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishda oila, mahalla va maktab hamkorligini rivojlantirish, boshlang’ich sinf o’quvchilarida ijodiy layoqatlarini barvaqt aniqlashning didaktik tizimini yaratish, nazariy metodik jihatdan asoslash hamda bunda ijodiy faoliyatni tashkil etish metodlarini qo‘llashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning didaktik shart-sharoitlarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi[2.103-108-b].

Kreativ, ya’ni kreativ faollik keng ko‘lamli tushuncha bo‘lib, shaxs bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotini ham ta’minlaydi. Insonning ijodiy, yaratuvchilik faolligi uning kundalik hayotida namoyon bo‘ladi. Jamiyat hayotida ijod ilm-fan va san’atda yangi topilmalar, ixtirolarning vujudga kelishini ta’minlaydi. Buning natijasida yangi ijtimoiy dasturlar vujudga keladi. Kreativlik (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) –qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati.

Kreativlik shaxsning ijodiy layoqatlari bilan bevosita bog‘liq. Kreativlikni o‘rganishda 2 turdagi metodlardan foydalaniladi: 1. Shaxsning ijodiy layoqatlarini tashxislashning kam shakllangan metodlari yordamida o‘rganish. Ular sirasiga kuzatish, suhbat, ijodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, biografik metodlarni kiritish mumkin. 2. Kreativlikni qat’iy tarzda ishlab chiqilgan metodlar yordamida tatqiq qilish. Dj.Gilford o‘tgan asrning 50-yillarida kreativlikning 16 ta belgisini ajratib ko‘rsatgan edi. Mazkur belgilar intellektual testlar yordamida aniqlanmaydi: 1. Fikrning jadalligi – vaqt bilan fikrning uyg‘unligida vujudga keladigan g‘oyalalar, bir g‘oyadan ikkinchi bir betakror g‘oyaga o‘tish layoqati, standart g‘oyalardan farqli g‘oyalarni vujudga keltirish layoqati. 2. Farazlarni ishlab chiqish layoqati va uning vujudga kelishiga turtki bermaydigan, mantiqiy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lmagan holatlar 3. Qiziquvchanlik – atrof-olamdagi muammolarga nisbatan sezuvchanlik. Dj.Gilford bularning barchasini divergent tafakkurning tavsifi sifatida asoslagan [3.191-204-b]. Divergent tafakkur muammolar ochilganda, kashf etilganda vujudga kelganda, biroq shaxsda uni yechish layoqati mavjud bo‘lmaganda hosil bo‘ladi. Konvergent tafakkur – oddiy mantiqiy yechimlardan iborat bo‘lib, u allaqachon ma’lum bo‘lgan yechimlarga tayanadi. Bunda o‘qituvchi topshiriqlarni muayyan shaklga keltiradi. Ko‘plab mutaxassislar ijodiy layoqat va shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammolarini tadqiq qilganlar. Biroq kreativlikni tashxislash sohasida ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Faqatgina D.B.Bogoyavlenskayaning tadqiqotlarida bu yo‘nalishda ayrim fikrlar ilgari surilgan. U ijodiy layoqatning asosiy ko‘rsatkichi sifatida “intellektual tashabbus”ni ajratgan. Bogoyavlenskaya intellektual tashabbusni aqliy layoqat hamda shaxsning motivli tarkibi sifatida baholagan. Mazkur layoqat ijodkor shaxsning davomli fikriy operatsiyalar jarayonida o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni yechishida namoyon bo‘ladi. D.B.Bogoyavlenskayaning g‘oyalari asosida kreativ fikrlash ko‘lami tushunchasi vujudga keldi. Bu esa o‘quvchilarda tashqi ta’sirlarsiz ijodiy g‘oyalarning vujudga kelishi va uning nazariy jihatdan umumlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Axborotlar ko‘lami kengayayotgan bugungi kunda o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni hamda kreativ faollikni shakllantirish zarurati kuchaymoqda. Shubhasiz, har qanday faoliyatni amalga oshirish jarayonida muayyan miqdordagi bilimlarni shunchaki o‘zlashtirish emas, balki ulardan amalda foydalanish kompetensiyalarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat olimlar kreativlikni shaxsning mustaqilligini baholovchi omil sifatida baholaganlar. Kreativ faollik o‘quvchilarga ta’lim berish natijasida vujudga keladi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kreativ layoqatlari quyidagi tarkibiy qismlarga ega: ijodiy tafakkur, ijodiy idrok, ijodiy faoliyatni tashkil etish metodlarini qo‘llash kabilar.

**Asosiy qism.** O‘quvchilarda kreativ faollikning rivojlanishi pedagogik jarayonda amalga oshadi. Buning uchun birinchi navbatda o‘quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitish talab qilinadi. Shaxsning xis-tuyg‘ulardan ijodiy faoliyatga o‘tishi kreativ tafakkur va xulq-atvor namunalarining identifikatsiyalashuvi natijasida amalga oshadi. Shuningdek, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi uning kreativ faollashuvini ifodalaydi. Bunday faoliyatning natijasi o‘quvchilarning o‘z tashabbuslari asosida tashkil etilgan ijodiy ishlarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarda kreativ faollikning shakllanishi muayyan shart sharoitlarga bog‘liq: birinchi guruhga mansub shart-sharoitlar o‘quvchining rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlanishi bilan bog‘liq shart-sharoitlardir. Ikkinchi guruhga kiradigan shart-sharoitlar esa boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kreativ faolligini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat, ya’ni o‘qituvchining ish tajribasi bilan bog‘liq shart-sharoitlar hisoblanadi. Uchinchi guruhga mansub shart-sharoitlar ijtimoiy xarakterga ega

bo‘lib, ularga oiladagi sharoitlar, rivojlanish vaziyatlari, o‘quvchilarda kreativlikning shakllanishiga xizmat qiladigan atrof-muhit, ijtimoiy voqeliklarni kiritish mumkin. Ko‘rsatib o‘tilgan shart-sharoitlar pedagogik xarakter kasb etishi uchun ularni maqsadga yo‘naltirgan holda o‘quv jarayoniga olib kirish o‘quv, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi vazifalarni yechishda, pedagogik munosabatlarni tashkil etishda mazkur shart-sharoitlardan unumli foydalanish talab qilinadi [1.54-59-b].

Birinchi guruhga mansub shart-sharoitlar o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga tayangan holda tanlab olinadi: 1) yetakchi reprezentativ tizim sifatida o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari; 2) o‘quvchilarning layoqatlari, shuningdek, kreativliklari sifatida ularning tug‘ma xususiyatlari; 3) o‘quvchilarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda kreativlik rivojlanishining sensitiv bosqichlari. Birinchi guruhga mansub shart-sharoitlarning o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) Ma‘lumki, insonlar o‘zining ko‘rish, eshitish, ovozni xis qilish hamda sezgirlik darajalari bilan bir-birlaridan farq qiladilar.

O‘quvchilarning bunday xususiyatlari ularning harakatlari orqali namoyon bo‘lib, xattoki yuqori darajada tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda ham ularni o‘zgartirish murakkab hisoblanadi. Har bir shaxs tajribasining betakrorligi uning olamni idrok etish darajasini aniqlaydi. Bu axborotlarni idrok etish, fikrlash va xulq-atvordagi turli-tumanlik bilan izohlanadi. Shak-shubhasiz, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish asosida bunday farqlarni amalda ko‘rish mumkin. Buning uchun o‘quv jarayonini o‘quvchilar uchun qulaylashtirish, ularning o‘quv materiallari yordamida olamni idrok etishlarini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, aynan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, nafaqat o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajalariga, balki kreativ faollikni oshirish orqali ijodkorlik imkoniyatlarini ham kengaytiradi. 2) Pedagogik faoliyatda shuni alohida hisobga olish kerakki, aynan tug‘ma talant, ya‘ni iqtidor rivojlanish jarayoniga alohida ta‘sir ko‘rsatib, o‘quvchining istiqbolda erishadigan yutuqlarini kafolatlaydi. Aynan yangi pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur faoliyatning rivojlanishini to‘liq ta‘minlamaydi. O‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirishning aniq pedagogik sharoitlarida ijtimoiy hamda tabiiy omillarning ta‘sirini ajratish bir qadar murakkab hisoblanadi. 3) O‘quvchilarda kreativ faollikning shakllanishida individual xususiyatlar bilan bir qatorda yosh xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham kreativlikka moyil o‘quvchilarda birinchi navbatda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida verbal xarakterdagi kreativ faollikning shakllanishi aksariyat hollarda obrazli fikrlashga asoslanadi. Yaxlit tarzda boladagi obrazli idrokning uyg‘unlashuvi ularda bog‘lanishli idrok va tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bolada ijod qilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlar maktabgacha ta‘lim yoshidan boshlab vujudga keladi. Boshlang‘ich sinflarda esa tizimli pedagogik faoliyat natijasida barqarorlashadi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan kreativlik o‘quv predmeti bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlarga ega. Sensitiv davrda o‘quvchilarda muayyan darajadagi o‘ziga xoslik va kreativ layoqatlar shakllanadi. Bu davrda pedagogik ta‘sirning shaxs taraqqiyotidan ilgarilab ketishi yoki orqada qolishi uning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham o‘qituvchilar sensitiv davrning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilgan holda o‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirish vositalarini qo‘llashlari lozim. Ikkinchi guruhga mansub shart-sharoitlar maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatga bog‘liq. Bunday faoliyatning 2 ta muhim yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, mazkur yo‘nalishdagi pedagogik faoliyat o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida kreativ faollikni shakllantirishdan iborat. Ikkinchidan, o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish maqsadiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni metodik jihatdan ta‘minlash, ya‘ni, o‘quv dasturlari, o‘qitish metodlari, vositalari, shakllari, chora-tadbirlarni o‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirishga yo‘naltirilgan mazmun bilan boyitish. Har ikkala pedagogik yo‘nalish quyidagi pedagogik sharoitlar bilan ta‘minlanishi lozim: 1) Ijod erkinligini ta‘minlash maqsadida pedagogik jarayonni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish. Jumladan, ijodiy tafakkurning ijobiy timsolini yaratish va munosabatlarini shakllantirish, o‘qituvchining kreativligi, qulay ijodiy muhitni yaratish. 2) O‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirish uchun o‘quv jarayonida ularning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlarini ta‘minlash. Ya‘ni, kreativ faollikning mavjud darajasini kuchaytirish maqsadida o‘quvchilarning identifikatsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish, o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirishlari uchun sharoit yaratish, o‘quvchilarning rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish kabilar. 3) O‘quvchilar uchun xavfsiz ijodiy muhitni yaratish. Ushbu maqsadda sinfda o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish, ijobiy natijalarni qo‘lga kiritish, muvaffaqiyat vaziyatlarini hosil qilish kabilar [5.13-15-b].

Biz quyida ko‘rsatib o‘tilgan shart-sharoitlarni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz: 1) Ijod erkinligi haqida fikr yuritgan mutaxassislar quyidagilarga alohida e‘tibor qaratganlar: erkinlik va intizom. Agar o‘quvchilardagi kreativ faollik rag‘batlantirilsa, ular o‘zlarining shaxsiy tashabbusi asosida o‘quv faoliyatini amalga oshiradilar. O‘quvchilar obyektlar va g‘oyalarni egallab, turli xil yondashuvlarni bayon

qiladilar. Jamoaviy tafakkurdan farqli tarzda mustaqil o‘rganishga intilsalar, ularda g‘oyalarga nisbatan bag‘rikenglik shakllanadi. Bunday vaziyatda hulq atvor bilan bog‘liq alohida muammolar vujudga kelmaydi. Hulq-atvor uslublari o‘z-o‘zidan shakllanib, bu o‘rinda o‘quvchilarda kreativlik o‘z o‘zidan vujudga keladi va ularda axloq bilan bog‘liq muammolar tug‘ilmaydi. Ma‘lumki, boshlanhich sinf o‘quvchilari uchun o‘qituvchining obro‘-e‘tibori muhim ahamiyatga ega. Ular o‘qituvchiga ergashib, unga ishonch bilan qaraydilar va uning har bir topshirig‘ini qat‘iyat bilan bajaradilar. Shuning uchun ham o‘qituvchining kreativligi o‘quvchilarning o‘z ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun muhim omil hisoblanadi. 2) Tahlil qilingan nazariy holatlar o‘quvchilarning rivojlanish imkoniyatlari va kreativ faolliklarini ta‘minlash uchun alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarda kreativ faollikni ta‘minlash uchun tarixiy tajribalarga tayanish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish lozim. 3) Bola ta‘lim jarayonida shaxs sifatida shakllantiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikning shakllanishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim talablariga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quv jarayonida o‘quvchilar bilan teng hamkor, fasilitator vazifasini bajaradi. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar ishiga aralashuvi kamdan kam holatlarda ularning ijodiy imkoniyatlarini pasaytirishi mumkin. Asosan esa pedagogning o‘quvchilar guruhi, sinf jamoasi yoki har bir o‘quvchi bilan hamkorligi ularda kreativ faollikning shakllanishiga xizmat qiladi. O‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo‘lishi natijasida ular orasida o‘zaro ishonch, hurmat, hamkorlik tarkib topadi [4. 15]. O‘zaro hurmat va ishonch asosida o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasida o‘zaro hamkorlik va ishonchning mustahkamlanishi natijasida ta‘lim oluvchilarda muayyan shaxsiy sifatlar, jumladan faollik shakllantiriladi. O‘quvchilar bilan o‘qituvchilar, ota-onalar, atrof-muhitdagi kishilarning hamkorligi natijasida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollik shakllanadi. Agar sinfda o‘quv faoliyati shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim talablari asosida shakllantirilmasa, o‘quvchilarda o‘quv jarayonidan tashqarida amalga oshiriladigan munosabatlarga nisbatan intilish kuchayadi. Ular tashqaridan o‘zlariga hamkor izlay boshlaydilar. O‘quvchilarda kuzatiladigan yuz ifodasi, nutq, artistlik qobiliyati, xarakatlarning aniqligi va ifodaliligi, ko‘z qarashlari, ruxiy jihatdan yaqinlik va o‘zaro bir-birini tushunish, ishonch, ijodiy hamkorlikka tayyorlik kabilar kreativ faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga yordam beruvchi pedagogik qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlarni vujudga keltirish muhim ahamiyatga ega. Kreativ faollikka undovchi pedagogik jarayonlarda o‘qituvchi o‘quvchilarga buyruq va ko‘rsatmalar berishi, talablar qo‘yishi, majburlashi mumkin emas. O‘quvchining ijodiy jihatdan o‘z-o‘zini namoyon qilish usullarini izlashi o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. O‘quvchilar tomonidan yaratilgan barcha ijod namunalari, ularning mazmuni, shakllari, estetik jihozlanishidan qat‘iy nazar qabul qilinishi lozim. Kreativ faollikni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning ishlari o‘zaro qiyoslanmasligi, baholanmasligi, yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun ular jazolanmasliklari shart. O‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirish uchun o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan, pedagogik-psixologik jihatdan qulay muhit yaratish maqsadga muvofiq.

**Xulosa.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ faolliklari tarkibi yaxlit integrativ birlik sifatida o‘zida dunyoqarashga asoslangan, maylli, mazmunli-jarayonli, hissiy-ixtiyoriy va tahliliy qismlarni mujassamlashtiradi. Shuningdek, kreativ faoliyat tarkibida o‘quvchilarning tahliliy faoliyatlari alohida o‘rin egallaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish jarayoni muayyan o‘quv vaziyatlari sifatida tashkil etilib, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish mexanizmlarini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘quvchilarni kreativ faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlariga olib kirish natijasida ularda o‘quv jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat tajribasi shakllanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta‘siri. Psix.fan.nomz...diss.-Toshkent, 2012.–144b.
2. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. – Toshkent, 2003. –276 b.
3. Gilford Dj. Formirovanie divergentnogo mishleniya u studentov pedagogicheskix spetsial’nostey v usloviyax sovremennogo vuza//Vestnik Vostochno-Sibirskoy gosudarstvennoy akademii obrazovaniya. 2012. № 17. S. 20-23.
4. Adizova. N.B. On the problem of scientific and theoretical research on the development of divergent thinking of primary class students. E3S Web of Conferences 431, 09020 (2023) ITSE-2023.
5. Adizova. N.B. Development of environmental competences of students in teaching natural sciences methodology. E3S Web of Conferences 460, 05003 (2023) BFT-2023.

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

**Baxriddinova Dilobar Zaynitdinovna,**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Baxriddinivadilobar@gamil.com*

*Ushbu maqolada STEAM texnologiyasining mazmun-mohiyati, asosiy g‘oyasi yoritilgan. Bunday zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi fanning rivoji va darslarning sifatli bo‘lishini ta‘minlaydi. Steam dasturi nafaqat fanni integratsiya asosida o‘qitishda samarali bo‘lib, balki tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Shunday ekan, undan to‘g‘ri foydalanish kerak. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Yangilanayotgan texnologik ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori natijalarga erishish va shu orqali iqtisodiy manfaatdorlikka erishish maqsadi ham bu texnologiyasining asosiy vazifalaridan biridir. STEAM ta‘limi bolalarni texnologiyaga asoslangan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. STEAM ta‘limi bolalarni turli xil mavzular bilan tanishtirish orqali ularga atrofda dunyo haqida to‘liq tushuncha beradi. Maqolada umumiy xulosalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ko‘nikma, san‘at, fan, texnologiya, yozuv, musiqa, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash.

## ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ STEAM ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*В данной статье описана суть и основная идея технологии STEAM. Внедрение таких современных технологий обеспечивает развитие науки и качество уроков. Программа Steam не только эффективна в обучении науке на основе интеграции, но и развивает критическое мышление. Поэтому его следует использовать правильно. В статье использован описательный метод. Одной из основных задач данной технологии является цель достижения высоких результатов в обновлённых технологических процессах производства и достижения тем самым экономического эффекта. Обучение STEAM имеет решающее значение для подготовки детей к успеху в мире, основанном на технологиях. STEAM-образование дает детям всестороннее понимание окружающего мира, знакомя их с различными предметами. Общие выводы приведены в статье.*

**Ключевые слова:** навыки, искусство, наука, технологии, письмо, музыка, критическое мышление, творческое мышление.

## THE IMPORTANCE OF USING STEAM TECHNOLOGY IN PRIMARY EDUCATION

*This article describes the essence and main idea of STEAM technology. The introduction of such modern technologies ensures the development of science and the quality of lessons. The STEAM program is effective in teaching national science based on integration, but also develops critical thinking. Therefore, it is necessary to use it correctly. The descriptive method is used in the article. Aiming to achieve a high level in the updated technological production processes and thereby economic interest is one of the support for this. STEAM education has an important enterprise in helping children succeed in a world full of technology. STEAM education is fully told about the world around them by introducing children to different topics. General information about the topic is given in the article.*

**Keywords:** skills, art, science, technology, writing, music, critical thinking, creative thinking.

**Kirish.** Ta‘lim – mamlakat kelajagining ko‘zgusi. Kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga erishish uchun bilimlarni boyitish imkoniyatlaridan amaliy jihatdan keng foydalanish ta‘lim va tarbiya jarayonining alohida amaliy ahamiyatini aks ettiradi. Bu ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bilvosita aloqani ta‘minlash uchun joriy talablarni shakllantiradi. Bu zamonaviy ta‘limning STEAM texnologiyalaridan keng foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqish uchun ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bilvosita aloqani rag‘batlantiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni “Boshlang‘ich ta‘limda STEAM texnologiyalaridan foydalanish va ta‘limni texnologiyalashtirishning siyosiy omillarini ta‘kidlab, ilg‘or mexanizmlarni joriy etish orqali rahbar va pedagog kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xalq ta‘limi tizimiga kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy



tamoyillarini joriy etish jarayonlarining mazmunini ochib beradi. Bu ish maqsadga muvofiqdir. STEAM texnologiyasi zamonaviy ta'limning amaliy ahamiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi. Avvalo, STEAM nima? degan savolga javob bersak. STEM educational technology maktab o'quvchilarini o'qitishning yangi usuli bo'lib, u an'anaviy o'qitish usullaridan farq qiladi. Bu talabalarga bir vaqtning o'zida 5 fan (Fan), texnologiya (Texnologiya), muhandislik (Muhandislik), tasviriy san'at (San'at), matematika (Matematika) bo'yicha o'qitish uchun mo'ljallangan. STEAM fan haqida emas, balki mavzular haqida integratsiyalashgan ta'lim tizimidir. STEAM ta'limi ilmiy va texnik bilimlarni amaliy mashg'ulotlar yordamida real hayotda qo'llashni anglatadi. Umumiy ta'lim Prezident maktablarida “STEAM” ta'lim dasturi asosida o'qishni tashkil etish bilan 9-11-sinf o'quvchilari qiziqishiga qarab ma'lum fanlarni tanlab, individual bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishi maktablardan tubdan farq qiladi. Zero, tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rgatish, ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ilmiy kashfiyotlar ta'limga STEAM yondashuvini keng joriy etish va uni boshlang'ich ta'limning o'quv jarayoniga kiritishni talab qiladi. Ushbu yondashuv talabalarga tez o'zgaruvchan dunyoga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'rgatishda yordam beradi. Mehnat bozori talablari STEAM developmentning boshlang'ich ta'limda tezlashishiga ham ta'sir qiladi. Ko'pgina kasblar fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarida maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Ushbu bilim va ko'nikmalarga ta'limning dastlabki bosqichida e'tibor berilsa, yaxshiroq bo'ladi.

**Metodlar.** STEAM yondashuvi nafaqat o'rganish usuli, balki fikrlash usulidir. STEAM o'quv muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun ular ulg'ayganlarida va real dunyoda har qanday hayotiy muammoga duch kelishadi, xoh ifloslanish yoki global iqlim o'zgarishi, ular bunday murakkab muammolarni faqat turli fanlardan bilimga tayanib, birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Faqat bitta fandan olingan bilimga tayanishning o'zi etarli emas. STEAM texnologiyalarining zamonaviy afzalliklarini aks ettiruvchi xususiyatlardan biri STEAM texnologiyasi asosida aniq fanlar va tabiiy fanlarni o'qitishdir. Yangilanayotgan texnologik ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori natijalarga erishish va shu orqali iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir. Boshlang'ich ta'limda STEAM ning vazifalari quyidagilardan iborat.

1. Talabalarining muammoli fikrlash qobiliyatini va muammolarni hal qilishda ilmiy yondashuvni rivojlantirish.

2. Fan, texnika, texnika, san'at va matematika sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish.

3. Kollektiv ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

4. Ijodiy fikrlash, tadbirkorlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

5. Talabalarni texnik va innovatsion sohalarida kelajakdagi kasbga tayyorlash.

6. Dizayn asoslarini tushunish.

7. Tanqidiy fikrlashni o'rganish. Boshlang'ich sinflarda biz STEAM texnologiyasi asosida “Sayyoralar” mavzusini ishlab chiqamiz. STEAM texnologiyasidagi TheletterS ilm-fanni anglatadi. Talabalar nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Nazariy ma'lumotlar: Sayyoralar haqida ma'lumot beriladi, sayyoralar esa ularning nomlari bilan birga tanishtiriladi. Sayyoramizning Yerligi va unda hayot mavjudligi bilan boshqa sayyoralaridan farq qilishi, sayyoralarning samoviy jismlar bilan aloqasi o'rganiladi.

T harfi texnologiyani anglatadi. Sayyoralarning teleskopda ko'rinishi va ularning erdan turli burchaklari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va quyidagi savollarga javob toping:

1. Oy bilan Yer orasidagi masofa necha kilometr?

2. Qaysi sayyoralarda suv va havo bor?

3. Boshqa turistlar erdan nimasi bilan farq qiladi?

E harfi muhandislik degan ma'noni anglatadi. O'quvchilarga qog'oz, loy va plastmassadan sayyoralar maketlarini yasash so'raladi. A harfi san'atni anglatadi. O'quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida she'r, hikoya, insho yozadilar. Ularga daftarlariga sayyoralar rasmini chizish topshiriladi.

M harfi matematikani anglatadi. Matematik nuqtayi nazardan globus, shimoliy va janubiy qutblar va ekvatorning aylanish o'qining o'lchamlarini hisoblash kerak bo'ladi.

STEM yondashuvi bolalarga dunyoni tizimli ravishda o'rganish, atrofida sodir bo'layotgan hodisalar mantiqini o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash va tushunish, yangi, g'ayrioddiy va juda qiziqarli narsalarni kashf qilish imkoniyatini beradi. Yangi narsa bilan tanishishni kutish qiziqish va kognitiv faollikni rivojlantiradi; o'zlari uchun qiziqarli vazifani aniqlash, uni hal qilish usullarini tanlash va algoritmini tuzish zarurati, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati - fikrlashning muhandislik uslubini rivojlantirish; jamoaviy faoliyat jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bularning barchasi bola rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta'minlaydi va kelajakda kasb tanlashda kengroq imkoniyatlar beradi. Dasturga nimalar kiritilgan va qanday ta'lim vazifalari hal etilmoqda:

O‘quv moduli "F.Froebelning didaktik tizimi"-Tajriba. tevarak-atrofdagi olam obyektlari bilan;- Matematik haqiqatni geometrik jismlar va shakllar bilan harakatlar orqali o‘zlashtirish;

-fazoviy munosabatlarni o‘zlashtirish;

-Turli burchak va proyeksiyalarda qurish.

O‘quv moduli "Tirik va jonsiz tabiat bilan tajriba"-atrofdagi dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. eksperimental faoliyatda bizni;

-ko‘rish va hissiy idrok etish jarayonida barcha tirik mavjudotlarning birligini anglash;

-ekologik ongni shakllantirish.

- mashq qilish va aqliy tajriba o‘tkazish, umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, nutqni rejalashtirish va o‘z faoliyatining jarayoni va natijasini sharhlash qobiliyati; hayot;

-ona tilini ravon bilish (lug‘at boyligi, nutqning grammatik tuzilishi, fonetik tizim, semantik tuzilish haqidagi elementar tushunchalar);

-yangi obrazlar yaratish, fantaziya qilish, analogiya va sintezdan foydalanish qobiliyati. “Matematik rivojlanish” o‘quv moduli. :

-bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik rivojlanish masalalarini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks hal qilish: o‘lcham, shakl, makon, vaqt, miqdor va hisoblash. "Robototexnika" o‘quv moduli: mantiqiy va algoritmik tafakkurni rivojlantirish; dasturlash asoslarini shakllantirish; rejalashtirish, modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish; axborotni qayta ishlash; mavhumlik va naqshlarni topish qobiliyatini rivojlantirish; amaliy muammolarni tez hal qilish qobiliyati; urg‘u berish, sxematiklashtirish, matn terish qobiliyatini o‘zlashtirish; universal belgilar tizimlaridan (ramzlardan) foydalanish bilimi va qobiliyati; jarayonni va o‘z faoliyati natijalarini baholash qobiliyatini rivojlantirish.

“Men dunyoni yarataman” o‘quv moduli multfilmlar studiyasi: AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish; -media texnologiyalarini o‘zlashtirish; badiiy va texnik ijodkorlik sintezi asosida samarali faoliyatni tashkil etish. Har bir modul har tomonlama hal etilganda STEM ta’limi maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan: kognitiv tadqiqot va jalb etish jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish. yosh bolalarning ilmiy-texnik ijodkorligida. Har bir alohida modul kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va yosh bolalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish bo‘yicha o‘quv vazifalarini amalga oshirishga kompleks yondashuvni ta’minlovchi qo‘llanmalarning tematik tanlovini o‘z ichiga oladi. va texnik ijodkorlik. Bunday ta’lim, albatta, faqat ijodiy bo‘lishi mumkin, bolaning o‘zi qiziqqan narsaga mos ravishda o‘z rivojlanish yo‘lini topishi uchun sharoit yaratadi. Boshlang‘ich maktabda STEAM texnologiyasi. Yuqori texnologik dunyoda yashashi kerak bo‘lgan har bir bolaning shaxsiy rivojlanishiga erishish uchun nimani o‘rganish va o‘rgatish kerak. Har bir bola o‘zini qaysi yo‘nalishga qiziqtirayotganini o‘z vaqtida tushunishi, u maktabga berilib ketishi va shu yo‘nalishda rivojlanishda davom etishi muhimdir. Shu sababli, zamonaviy dunyoda o‘qituvchi oldida mas’uliyatli vazifa turibdi: bolalarni sezgi rivojlantirishga o‘rgatish. Sabab-ta’sir munosabatlarini o‘rnatish, naqshlarni qidiring, ochiq muammolarni hal qiling.

Birinchi sinf o‘quvchilari uchun to‘g‘ri chiziq bir-biriga yaqin joylashgan nuqtalar to‘plami ekanligi ayon bo‘ladi. Bolalar buni Lego g‘ishtlaridan (nuqtalar) to‘g‘ri chiziq qurish orqali aniq ko‘rishadi. To‘g‘ri chiziqda yotgan va yotmagan nuqtalarni ko‘rsatish uchun siz qo‘llanmadan foydalanishingiz mumkin. Doskaga yopishtirilgan yengil g‘ishtlar yordamida bir nuqtadan ko‘plab, ikkita nuqta orqali esa faqat bitta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkinligini aniq ko‘rsatish mumkin. 3-sinfda o‘quvchilar maydon bilan tanishadilar. to‘rtburchakdan, kvadratdan. Ular kvadrat, to‘rtburchakning perimetri va maydonini topish formulalarini o‘rgatadilar. 4-sinfda o‘quvchilar to‘rtburchakning diagonallari bilan tanishadilar. LEGO Education WeDo birinchi robotidan foydalanish algoritmining bir turi sifatida biz unga misollar keltiramiz. atrofda dunyo darslarida foydalanish. Dars mavzusi "Afrika hayvonlari". Bolalarga krossvord taklif etiladi, u o‘quvchilar Afrika hayvonlari haqida taqdimot qilishda to‘ldiriladi (hayvonlarning nomlari krossvord katakchalarida yoziladi). Shundan so‘ng o‘qituvchi 5-6 o‘quvchidan iborat jamoalar yoki juftliklar Afrika qit‘asidagi konstruktorning qismlaridan o‘zlariga yoqadigan har qanday hayvonni yig‘adilar.

**Natijalar.** STEAM kundalik hayotning ilmiy tadqiqotlari va texnik rivojlanishi kontseptsiyalari bilan ta’limga integratsiyalashgan yondashuvni ifodalaydi. Ushbu yondashuvning maqsadi ta’lim orqali jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va rivojlanishini ta’minlashga maktab va jamoatchilikni jalb qilish orqali ilmiy savodxonlik va raqobatbardoshlikni oshirishdir. STEM ning ahamiyati shundaki, bizning hozirgi kasblarimizning aksariyati yaqin kelajakda avtomatlashtirilgan yoki butunlay keraksiz bo‘lib qolishi mumkin. STEM esa bu kelajak uchun mos kadrlarni tayyorlaydi.

STEAM ta’limi bolalarni texnologiyaga asoslangan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. STEAM ta’limi bolalarni turli xil mavzular bilan tanishtirish orqali ularga atrofdagi dunyo haqida to’liq tushuncha beradi.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi kelajakda eng mashhur kasblar yuqori texnologiyalar bilan bog’liq bo’lishiga olib keladi: IT mutaxassislari, katta ma’lumotlar muhandislari, dasturchilar. Ta’lim tizimi bunday ijtimoiy talabga ko’plab robototexnika, dasturlash, modellashtirish (STEM) to’garaklarining paydo bo’lishi bilan javob beradi. Biroq, ilmiy-texnikaviy bilimlar kam, degan fikr tobora keng tarqalgan. Kelajakda 21-asrning ko’pincha 4K deb ataladigan ko’nikmalari talabga ega bo’ladi. Kelajak ko’nikmalari (4K). 21-asrning ko’nikmalari turli darajalarda faol muhokama qilinyotgan alohida sohadir. Kontseptsiyaning mohiyati quyidagicha: sanoat davrida savodxonlikni belgilagan asosiy ko’nikmalar o’qish, yozish va arifmetika edi. 21-asrda asosiy e’tibor tanqidiy fikrlash qobiliyatiga, o’zaro muloqot qilish va muloqot qilish qobiliyatiga, biznesga ijodiy yondashishga qaratilmoqda. Shunday qilib, kelajakdagi 4K ning asosiy ko’nikmalari shakllandi: Muloqot; Hamkorlik; Tanqidiy fikrlash; Ijodkorlik.

Bu ko’nikmalarni faqat laboratoriyalarda yoki ma’lum matematik algoritmlarni bilish orqali olish mumkin emas. Shuning uchun mutaxassislar STEAM fanlarini tez-tez o’rganishlari kerak. "Maktabgacha va boshlang’ich maktab yoshidagi bolalarni o’qitish" dasturi. Taklif etilayotgan "Maktabgacha va boshlang’ich maktab o’quvchilari uchun STEM ta’limi" dasturi kognitiv faoliyat jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning qisman modulli dasturidir.

STEAM fanlari bolalarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga undaydi. Talabalarga o’z g’oyalarini o’rganish imkoniyatini berish orqali STEAM ta’limi ularga ushbu ko’nikmalarni qiziqarli tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash - STEAM ta’limi talabalarni o’z g’oyalarini o’rganishga va boshqalar bilan baham ko’rishga undash orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar qanday qilib tanqidiy fikrlashni o’rgansa, ular murakkab muammolarni tahlil qilish va innovatsion echimlarni topish uchun yaxshi jihozlangan. Bu ko’nikma kelajakda talabalar tobora murakkab muammolar va qiyinchiliklarga duch kelganda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Ijodkorlik - STEAM ta’limi talabalarga o’z g’oyalarini ifoda etish va turli vositalarni o’rganish imkonini berib, ularning ijodini rivojlantirishga yordam beradi. San’at, fan va texnologiyadan tashqari, STEAM ta’limi yozuv va musiqa kabi boshqa ijodiy vositalarni ham o’z ichiga oladi. Agar bolalarga ushbu sohalarida ijodiy bo’lish imkoniyati berilsa, ular innovatsiya va noaniq fikrlashni talab qiladigan kelajakdagi martaba uchun yaxshiroq tayyorlanadi.

Qiziqishni kuchaytiradi - STEAM ta’limi bolalarni savollar berishga va javob izlashga undaydi. Bu ularning ongini atrofdagi dunyo haqida qiziqarli faktlarni kashf qilish imkonini beradigan tarzda jalb qiladi. Bu ko’nikma o’z qiziqishlari haqida ko’proq bilishni va narsalar qanday ishlashini chuqurroq tushunishni xohlaydigan talabalar uchun bebahodir.

Hamkorlik – STEAM ta’limi talabalarni loyihalar ustida birgalikda ishlashga undaydi. Bu nafaqat bolalarni boshqalar bilan hamkorlik qilishga o’rgatadi, balki ularga yaxshi ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular boshqalar bilan qanday qilib yaxshi ishlashni o’rganadilar va o’zlarining g’oyalari hayotga tatbiq etilishini ko’rib, o’zlarining qobiliyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Haqiqiy dunyo ilovasi - STEAM ta’limi talabalarga haqiqiy dunyo haqida o’rgatadi. Ular fan va texnologiya ularning hayotiga qanday ta’sir qilishini va jamiyatda o’z izlarini qoldirish uchun ushbu vositalardan qanday foydalanishlarini o’rganadilar. Ta’limning bunday turi o’quvchilarga maktabda o’rgangan narsalarining sinfdan tashqarida qo’llanilishini tushunishga yordam beradi, bu esa ularni o’rganishga qiziqishni rivojlantirishga va o’z ishtiyoqini rivojlantirishga undaydi.

**Muhokama va natijalar.** Ta‘lim dasturining muhim xususiyati shundaki, u dastlab alohida o‘quv fanlarda qo‘shma faoliyatni o‘qitish dasturi sifatida emas, balki fandan tashqari dastur sifatida yaratilgan. Bu, birinchi navbatda, boshlang‘ich ta‘lim o‘quv tizimining o‘ziga xos xususiyati bilan izohlanadi, bu o‘quv dasturlariga nisbatan ko‘p mavzu va polisistemadir. Ikkinchidan, har qanday o‘quv materialida o‘quvchilarda

birgalikdagi faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarning mavjudligi. Shuning uchun o'quv dasturi bilan bog'liq holda o'quv va o'quv jarayonining ishlash vositasiga aylanadi, ya'ni, maktabdagi ta'lim faoliyatini tashkil etish texnologiyalarining ishlashini ta'minlaydi.

Biz bitta o'quv mavzusining bir qismi misolida darsda o'quv va ta'lim mazmuni qanday o'zaro ta'sir qilishini, ya'ni, o'quv va ta'lim dasturlari “Ona tili” fani, 1-sinf – o'quv mavzusi savodxonlik kursining asosiy mavzularidan birini o'rganish doirasida o'quvchilarda tovushlarni so'zdagi tovush holatiga bog'liq bo'lgan harflar bilan belgilash usullari shakllanadi. Nazariy jihatdan, o'quvchilar ona tili grammatikasi pozitsion prinsipining mohiyatini, amaliy jihatdan-dastlabki o'qish va yozish mexanizmlarini o'rganadilar.

Ushbu darsning o'quv vazifasi unli harflarning ikki tomonlama ishini (unli tovushni va qattqlikni - oldingi undoshning yumshoqligini ko'rsatish) va matn bir xil unli tovushni turli harflar bilan belgilash qobiliyatini birlashtirishdan iboratdir. Ta'lim vazifasi birinchi sinfda ta'lim dasturini amalga oshirish bilan bog'liq, xususan, juftlik ishini tashkil etishning eng oddiy ko'nikmalari: bajarilgan vazifani o'zaro tekshirish, uni muhokama qilish. Bunday o'quv vazifasi o'zaro nazorat va muzokara qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, 1-sinf o'quv dasturini amalga oshirishda o'quvchining turli xil joylarda asta-sekin faoliyatga kirishishi, ya'ni o'quv ishlarining turli usullaridan foydalanishi muhimdir. Dars davomida o'quvchiga allaqachon ma'lum bo'lgan ish usullarini tanlash imkoniyati berildi: o'zini ishonchsiz his qiladigan o'quvchilar, qoida tariqasida, o'qituvchi bilan qoladilar, qolganlari mustaqil ravishda mikrosinflarda birlashadilar. Yuqorida keltirilgan ta'lim jarayoni o'quv va ta'lim dasturlarining o'zaro bog'liqlikda ishlashini isbotlaydi: har qanday o'quv predmeti materiallari asosida ta'lim dasturida ko'zda tutilgan birgalikdagi faoliyat ko'nikmalari shakllanadi.

Bundan tashqari, ta'lim dasturini yaratishning maxsus usuli o'qituvchining subyektiv pozitsiyasiga yo'naltirilgan qo'shma faoliyat tushunchasi bilan, shuningdek, bu ochiq qo'shma harakatni tashkil etish dasturi ekanligi bilan bog'liq, ya'ni u faqat ochiq, faol ish usullari orqali yaratilishi mumkin va shu ma'noda tushuntirish uchun ochiq qoladi hamda aslida har doim loyiha sifatida mavjud bo'ladi.

Ta'lim dasturining o'zi ishlab chiqilishi ish joyidagi o'qituvchilarning malakasini oshirishning bir shakli hisoblanadi, chunki u o'qituvchilarni haqiqiy loyiha-tadqiqot va amaliy (amalga oshirish) faoliyatga jalb qiladi. Buning sababi shundaki, ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish o'rtasida qat'iy chegaralar yo'q, shuning uchun biz loyiha, tahliliy, aks ettirish seminarlari, laboratoriya darslari, pedmaster, ustoz-saboqlari, ekspert laboratoriyalari kabi shakllar orqali dasturni ishlab chiqish, takomillashtirish, qayta tashkil etish amalga oshiriladigan individual ta'lim voqealari haqida gapirishimiz mumkin. O'qituvchilar bilan ishlashning ochiq usullari, ularni haqiqiy ta'lim amaliyotiga jalb qilish, unda ishtirok etish hamda unga ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish loyihasini ishlab chiqishda muammolar va kamchiliklar tizimining kuchayishi ta'lim dasturi ishtirokchilarining tarkibini kengaytirish va qayta shakllantirishga olib keladi. Agar tadqiqot loyihasi kichik, mahalliy, o'qituvchilar sinfi tomonidan amalga oshirilsa, unda ta'lim dasturi ishtirokchilarining tarkibi kengroq bo'lishi kerak, chunki aksariyat o'qituvchilar tomonidan ta'lim dasturini (uning g'oyalari, texnologiyalari, pedagogik shakllari va boshqalar) qabul qilmasdan uni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas. Biroq, ishtirokchilar tarkibining kengayishi ularning dasturga nisbatan dasturda ishtirok etish darajasi bo'yicha farqlanishi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Bizning tajribamiz bunday ishtirok etishning quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Asta-sekin dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish e'tibor uslubiy ta'minotga o'tkaziladi: darsda qo'shma faoliyatning o'quv va ta'lim mazmunini ajratish va qo'shma faoliyatni tashkil etishning uslubiy vositalarini, shuningdek, ochiq qo'shma harakatlarni texnologiyalashtirish vositalari, shunday qilib, pedagogik tajribani to'plash va uzatish, dastur mazmunini tashkil etish va texnologiyalashtirishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun quyidagi shakllardan foydalanildi:

darslar bilan uslubiy kunlar-darsdagi qo'shma faoliyatning o'quv (fan, me'yoriy) va o'quv mazmunini ajratish uchun laboratoriyalar; uslubiy ishlanmalar va darslarning o'quv - tematik rejalarini tayyorlash. Muayyan darslarni tahlil qilish misolida o'qituvchilar darsning tematik o'quv rejasi variantlarini sinab ko'rish;

alohida o'quv mavzusi doirasida o'quv va ta'lim mazmunini ajratish bo'yicha tematik loyihalarni ishlab chiqish. Ushbu shakllar o'qituvchilarga nafaqat dars yoki alohida mavzuning o'quv va ta'lim mazmunini ta'kidlashni, balki ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishni ham o'rgatadi, masalan, o'quv topshiriqlarining ta'lim resurslarini ko'rish, ya'ni ularning ochiq qo'shma harakatni rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

dasturga xos bo‘lgan asosiy ta‘lim shakllarini tahlil qiladigan uslubiy kunlar: aloqa darsi (1- sinf), yangi mavzuni o‘tish dars (2-3 sinf), tayyorlangan munozara (3-sinf), dars loyihasi (3-4 sinf), “Sinkveyin” o‘zaro ta‘lim texnologiyasi darsi (4- sinf); “Sinkveyin” o‘zaro ta‘lim texnologiyalari bo‘yicha dars (4-sinf); dastur (masalan, 1-4-sinflarda darsda sinf ishlarini tashkil etish). Ushbu shakl sizga ochiq harakatni tashkil etishning ta‘lim shakllari doirasini kengaytirish, ularni texnologik jihatdan loyihalash (tavsiflash), har bir sinfda ushbu shakllardan foydalanish xususiyatlarini aniqlashtirish imkonini beradi;

boshlang‘ich ta‘limda darsning ta‘lim mazmunini tahlil qilishning umumiy asoslarini aniqlash uchun fan o‘qituvchilari ishtirokidagi qo‘shma uslubiy dasturning maktab tizimidagi boshqa dasturlar bilan o‘zaro bog‘liqligini va uning maktabda lokalizatsiyasini yengib chiqadigan dasturni boshqarishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlash uchun laboratoriya darslari bilan maktab miqyosidagi seminarlarning tashkil etilishi;

boshlang‘ich ta‘limda darsda birgalikdagi faoliyatning ta‘lim mazmunini tahlil qilish bo‘yicha mashg‘ulot loyihalarini, shuningdek, alohida fanlar bo‘yicha darslarni tahlil qilish bo‘yicha dars loyihalarini ishlab chiqish, darslarni to‘ldirish, tahlil qilish. 4-sinflarda ona tili, adabiy o‘qish va matematika fanlaridan dars ishlanmalarini ishlab chiqish va o‘tkazish, o‘quv va fan ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasini va qo‘shma faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini aniqlash;

dastur modullarini ishlab chiqish va takomillashtirish laboratoriyalari hamda ularni o‘quv-uslubiy qo‘llab-quvvatlash; o‘quv dasturini ishlab chiqish: o‘quv vazifalari (modullar, mavzular uchun), darslar va darslarning uslubiy ishlanmalari, ta‘lim vaziyatlarining tavsifi, ta‘lim natijalarini tahlil qilishning diagnostika usullari;

ta‘lim dasturini amalga oshirish maktabdagi uslubiy ish tizimini qayta belgilaydi, u quyidagi funksiyalarni bajarishni ta‘minlaydi: ta‘lim dasturidagi kamchiliklarni bartaraf etish: texnologik, diagnostika, tashkiliy;

darsning ta‘lim mazmuni resurslarini, individual mavzularni, o‘quv fanlarini kuchaytirish; ochiq qo‘shma harakatlarning ta‘lim mazmunini tekshirish. Shunday qilib, ta‘lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, birinchidan, u barcha o‘qituvchilarning bevosita ishtirokida bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi; ikkinchidan, bunday faoliyat maxsus shakllar orqali amalga oshiriladi: loyiha seminarlari, analitik laboratoriya, pedagogik ustaxonalar, o‘qituvchilar bilan fokus-sinflar, dasturni professional tarzda tekshirish va muhokama qilish; uchinchidan, ta‘lim dasturi o‘qituvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini yakunlamaydi: unga ta‘lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan hamrohlik qiluvchi tadqiqot dasturi kerak bo‘ladi. Ta‘lim dasturida o‘qituvchilar bilan ishlash usuli ochiq deb ta‘riflanishi mumkin, chunki dastur har doim muhokama qilish uchun ochiq va o‘qituvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali yashaydi, tiklanadi. Shu munosabat bilan ta‘lim dasturini ish joyidagi o‘qituvchilarning malakasini oshirish shakli deb hisoblash mumkin.

O‘quv dasturi – o‘quv faoliyatini amalga oshirish vositasidir. Ta‘lim harakati ijrochining o‘ziga tegishli emas, chunki uning chegaralari, mazmuni, ketma-ketligi yuqoridan o‘rnatiladi: o‘qituvchi uchun u o‘quv dasturi shaklida, o‘quvchi uchun normalar, namunalar shaklida o‘rnatiladi, o‘quv harakatlarining paydo bo‘lishi yopiq pedagogik harakatlar bilan ta‘minlanadi, bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va o‘quvchisining qo‘shma faoliyat talablari, topshiriqlar va ularning bajarilish xususiyatini nazorat qiluvchi o‘qituvchining yetakchi roli bilan bloklanadi. Shunday qilib, o‘quv dasturi amalda yopiq qo‘shma harakatlar bilan ta‘minlanadigan vositadir.

Agar o‘quv dasturi fan bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari shaklida o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan ma‘lumotlarni tashkil etishga asoslangan bo‘lsa, unda ta‘lim dasturi o‘quvchilarga o‘rgatiladigan va ularni ta‘lim mazmuni sifatida “o‘rnatadigan” aniq faoliyat turlarini ajratib ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan. Muayyan odamni bilish va tasvirlash bu ijtimoiy odam bo‘lish uchun amalga oshirishi kerak bo‘lgan faoliyat to‘plamlarini tahlil qilish va tavsiflashni anglatadi hamda faqat har bir faoliyatning bunday taqdimoti o‘qituvchining ta‘lim va tarbiya bo‘yicha ongli ishini ta‘minlashi mumkin. Aynan shu ma‘noda siz prinsipni tushunishingiz kerak: o‘rgatish uchun siz nimani o‘rgatishni bilishingiz kerak.

Binobarin, ta‘lim dasturini ishlab chiqish ta‘limning yangi, faoliyat mazmuniga kirishni anglatadi, unda bilim, ko‘nikma va malakalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda (o‘quv, bilim, axborot, kommunikativ va boshqalar) faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu shuni anglatadiki, ta‘lim dasturlari o‘quv dasturlariga qarshi emas, balki ularni to‘ldiradi, ta‘limning yangi mazmuniga yetkazadi; ular “o‘quv ishlarini tashkil etishdan maktabdagi ta‘lim faoliyatiga o‘tishni”, o‘quv harakatlaridan ta‘limga, o‘quv natijalaridan ta‘lim ta‘siriga o‘tishni ta‘minlaydi. Ta‘lim dasturlarini rivojlantirish muammosi – bu ta‘limning yangi turiga o‘tish muammosi hisoblanadi.

Ta‘lim dasturi – bu o‘quv natijalari va ta‘lim muammolarini birgalikda tashkil etish, o‘quv natijasi fan bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini o‘zlashtirishning ma‘lum darajasini (yuqori, o‘rta, past) ifodalaydi,



uni har doim o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarning ba‘zi me‘yorlarga muvofiqligi orqali miqdoriy o‘lchash mumkin. Ta‘lim effektlari standartlar, berilgan, normativlik uchun begona, ularni faqat bashorat qilish, aniqlash, kuzatish, tuzatish, nomlash mumkin. Ta‘lim effektlarining ehtimollik xususiyati ta‘lim o‘lchov birligi qo‘shma harakatga (uning sifati, xususiyatlari, ishtirokchilarning pozitsiyalari) aylanishi bilan izohlanadi va shuning uchun qo‘shma faoliyatdagi o‘zgarishlarning ta‘siri, unda neoplazmalarning paydo bo‘lishi muhokama qilinadi. Biz muvofiqlik haqida gapirayotganimiz sababli, ta‘lim effektlarining muhim xususiyati ularning o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan hamda o‘quv natijalari esa faqat o‘quvchilar tomonidan o‘lchanadi; bundan tashqari, o‘quv muvaffaqiyatini qayd etish asosida o‘qituvchining professionalligi to‘g‘risida xulosalar chiqariladi.

Dasturda ko‘rsatilgan qo‘shma faoliyatning mazmuni yangi ta‘lim natijalariga, yangi ko‘nikmalarga

Taqqoslash mezonlari	O‘quv dasturi	Ta‘lim dasturi
<b>Buyurtma</b>	maktabda o‘quv rejimining ishlash vositasi	loyiha - tadqiqot rejimining ishlashi, maktabda ta‘lim faoliyati vositasi
<b>Maqsad</b>	bilim, ko‘nikma va malakalarni yuqori darajada o‘zlashtirishni ta‘minlash	maktabdagi birgalikdagi faoliyatning haqiqiy sifatini shaxsiga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi faoliyat sifatida o‘zgartirish
<b>Ta‘lim mazmuni</b>	an‘anaviy, axborot, bilim, ko‘nikma va mahurat	faoliyat, kompetensiyaga yo‘naltirilgan: umumiy ta‘lim qobiliyatlari, qo‘shma faoliyatni tashkil etish qobiliyatlari
<b>Mazmuni</b>	o‘qituvchi va o‘quvchiga nisbatan topshiriq, yaqinlik, standartlashtirish	ochiqlik, “yuqoridan” topshirishning mumkin emasligi
<b>Amalga oshirish usuli</b>	O‘quv faoliyati, miqdoriy va faqat o‘quvchilar uchun o‘lchanadigan o‘quv natijalariga erishish	Ta‘lim faoliyati, barcha ishtirokchilarda ta‘lim ta‘siriga erishish, o‘quv natijalari bilan o‘zaro bog‘liq holda ta‘lim natijalari
<b>O‘zlashtirish tizimi</b>	o‘quv muvaffaqiyati (fan bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini o‘zlashtirish darajasi), o‘qituvchining uslubiy (fan) darajasi	o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi faoliyati, ta‘limning mazmuni va sifati, pedagogik faoliyat

kirishni anglatadi:

faoliyat (qiyinchilik, mavzu, ishning tabiati va boshqalar asosida vazifani tanlash qobiliyati);  
o‘z tashabbusi, tanlovi, qiyinchiliklari, yetishmovchiligi bilan ishlash qobiliyati);  
ishtirokchilarni birgalikda tashkil etish qobiliyati (turli pozitsiyalarda bo‘lish qobiliyati, turli xil rollarni o‘ynash, turli funksiyalarni bajarish;  
ish uchun sheriklarni tanlash qobiliyati;  
o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan muloqot qilish qobiliyati;  
fikrlash va baholash qobiliyatlari (o‘z his-tuyg‘ularini, taassurotlarini, tajribalarini, fikrlarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyati, boshqasining tajribasini tushunish, o‘zini va boshqasini tushunish, baholash qobiliyati).

Ta‘limning yangi mazmunini ajratib ko‘rsatish o‘qituvchilar o‘rtasida muayyan shakllantirishni o‘z ichiga oladi:

birgalikdagi faoliyat ishtirokchilariga shaxsiy tajribani yangilashga imkon beradigan turli xil faoliyat usullarini namoyish etishga murojaat qilish, tashabbuslarni yaratish, ularni amalga oshirish, tanlash, loyihalash, aks ettirish bilan bog‘liq sinov tashabbuskor harakatlarini tashkil etish;

pedagogik faoliyatning turli xil modellaridan (avtoritar, yetakchilik, sheriklik), turli xil pedagogik shakllaridan foydalanish;

ochiq qo‘shma harakatlarning tuzilishidagi texnologiyalarni o‘zlashtirish: immersion, dialogizatsiya, muammoli, ta‘limiy.

Ta‘lim dasturida gorizontal va vertikal modullarning mavjudligi o‘qituvchilar tomonidan ish joyida foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. O‘qituvchi ta‘lim dasturidan quyidagi variantlarda foydalanishi mumkin:

a) to‘liq; b) bir yoki bir nechta gorizontal modullar; s) bir yoki bir nechta vertikal modullar; d) “uyali” ya‘ni ma‘lum bir sinfdagi xususiyatlardan biri.

Ta‘lim dasturlarini baholashning asosiy mezonlari quyidagilar:

dasturning yangiligi, ta’lim mazmuni, ta’lim texnologiyalari, pedagogik shakllar, ta’lim natijalari va effektlari, tadqiqot natijalarida erishilgan natijalar;  
dastur ichida turli xil aloqalarni (vertikal, gorizontal) shakllantirish;  
dinamizm, dasturni joylashtirishdagi dinamikani kuzatish qobiliyatini anglatadi (yosh, mazmunli) va dasturning ochiqligi, takomillashtirish, o’zgartirish imkoniyati;  
ta’lim dasturida loyiha-tadqiqot resurslari va o’quv-uslubiy ta’minotning mavjudligi.

Birgalikdagi faoliyat maktabi konsepsiyasi o’qituvchi va o’quvchining birgalikdagi harakatlarini ta’lim birligi sifatida ajratib turadi va boshlang’ich ta’lim amaliyotini tashkil etishning asosiy birligi sifatida ochiq birgalikdagi harakatlarga e’tibor qaratadi. Bu ta’lim amaliyotining ochiq qismini ta’kidlashdir. Bu boshlang’ich ta’limning shaxsiy yo’naltirilgan, rivojlantiruvchi, faoliyat modelini yaratishga, o’quvchilar va o’qituvchilarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo’shadigan ta’lim birligi sifatida ochiq birgalikdagi harakatni ta’kidlashdir.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi va o’quvchisining ochiq qo’shma faoliyatini metodik rivojlantirish hamda ochiq qo’shma harakat – bu o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning o’ziga xos modeli bo’lib, unda o’quvchi o’zaro ta’sirning barcha darajalarida o’qituvchining yordamidan keng foydalanishi mumkin; bunda o’quvchi va o’qituvchilar hamkorlik asosidagi qo’shma faoliyatning mazmunli va semantik kontekstini ushlab turadilar, natijada o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi haqiqiy hamkorlik namoyon bo’ladi.

**Xulosa.** Boshlang’ich sinf o’qituvchisi va o’quvchisining ochiq qo’shma faoliyatini metodik rivojlantirish ochiqlik birgalikdagi harakatning o’ziga xos xususiyati sifatida quyidagi texnologik usullarda o’z yechimini topdi: birgalikda harakat unga ta’sir qilish, uning ishtirokchilari tomonidan birgalikdagi faoliyatdagi o’zgarishlar uchun ochiqdir. O’quvchi harakat mazmuni va uning yo’nalishiga ta’sir ko’rsatadigan o’qituvchilar, qobiliyatli sherik bilan o’zaro munosabatlarda haqiqiy va “jalb qilingan”, muhim ishtirokchiga aylanadi: Ochiq qo’shma harakatlarda ishtirokchilar bir-biriga qaratilgan bo’lib, bu ularning hissiy ochiqligida (sezgirlik, samimiylilik, o’zaro qabul qilish, taassurotlar va tajribalar tajribasiga ochiqlik) namoyon bo’ladi.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi va o’quvchisining ochiq qo’shma faoliyatini metodik rivojlantirish – bu o’z tajribalarini namoyish etadigan, gapiradigan, muhokama qiladigan, tushunadigan hamda o’z tashabbuslarini namoyish etadigan, ya’ni ularni rivojlantiradigan maxsus kommunikativ ta’lim jarayonida taassurotlar va tajribalarning namoyon bo’lishi, ishtirokchilarning ularning birgalikdagi faoliyatga ta’siri va unda ishtirok etish usuliga aylanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ахлиддинов Р.Ш. Умумий ўрта таълим сифатини бошқаришнинг ижтимоий-педагогик асослари (Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида). Пед. фан. док. дисс. –Т., 2002. -338б.
2. Boysoatovna R.R. (2023). “Ta’lim darajasi samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish. // Новости образования: исследование в XXI веке.
3. Байматова М.С. Диалоговая компетентность в профессиональном развитии учителя начальных классов // Начальная школа плюс: До и После. - 2004. №12.-С. 12-16.
4. Балакина Л.Л. Педагогические приемы организации диалога на уроке. Автореферат... канд. пед. наук. - Томск, 2000. - 26 с.
5. Бернс Р. Развитие «Я-концепции и воспитание». М.: Прогресс, 1986.
6. Богданова Е.Л. Диалог как педагогическая проблема //Инновации и традиции в реформируемой школе. Мат-лы международ научно-практ. семи- нара. -Томск, 1995. - 145 с.
7. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе// Перемены. - 2004. № 2.С. 130-139.
8. Бондаревская Е. В. Смыслы и стратегии личностно- ориентированного воспитания //Педагогика. - 2004. № 1.
9. Бондаревская Е.В., Кульневич С.В. Парадигмальный подход к разработке содержания ключевых педагогических компетенций //Педагогика. – 2004. №10: -С. 23-31.
10. Балашов О.Л. Развитие сотрудничества школьников учебно- познавательной деятельности в условиях классного сетевого сообщества: дисс. ...канд. пед. наук. – Курск, 2017. – 185 с.
11. Баракловская Н.И. Воспитание отношений сотрудничества между школьниками 5-7 классов на основе гуманистических ценностей методами педагогического консультирования – Екатеринбург, 1998. – 37-б.
12. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборатлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док. ... дисс. –Т., 2007.-305 б.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARSLARNI LOYIHALASH TA’LIM TAMOYILI ASOSIDA TASHKIL ETISH

*Haydarqulova Mahliyo Zafarovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda loyihalash ta’lim tamoyili asosida tashkil etiladigan darslar, ta’lim jarayonini loyihalashni bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Loyihaga asoslangan o‘qitish metodikasi yordamida o‘qituvchi dars jarayonini qiyinchiliklarsiz va qiziqarli o‘tkazadi va o‘quvchilar loyiha ishlarida faol ishtirok etishi natijasida yuz beradigan foydalar izohlanadi.*

*Kalit so‘zlar:* loyiha, tamoyil, o‘qitish uslubi, boshlang‘ich sinf, reja, kasbiy mahorat, dastur, nazorat.

## ОРГАНИЗАЦИЯ ЗАНЯТИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРИНЦИПОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ

*В данной статье речь пойдёт об уроках, на которых проектирование в начальных классах организовано по принципу воспитания, о важности проектирования образовательного процесса на сегодняшний день. С помощью проектной методики обучения учитель делает процесс урока беззаботным и увлекательным, а преимущества объясняются активным участием учащихся в проектной работе.*

*Ключевые слова:* проект, принцип, методика обучения, начальный класс, план, профессиональные навыки, программа, контроль.

## ORGANISING LESSONS IN PRIMARY SCHOOLS ON THE BASIS OF EDUCATIONAL DESIGN PRINCIPLES

*This article will talk about classes organized in elementary grades on the principle of design education, the importance of designing the educational process today. With the help of a project-based teaching methodology, the teacher conducts the lesson process without difficulties and fun, and the benefits that occur as a result of the active participation of students in project work are explained.*

*Keywords:* project, principle, teaching method, primary class, plan, professional skills, program, control.

**Kirish.** Bugungi kunda yurtimiz ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’limni tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, darsliklarning yangi avlodini yaratish, sohaga ilg‘or tajribalarni tatbiq etish, Finlandiya tajribasini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashga oid samarali tavsiyalar ishlab chiqildi. Maktab ta’limini strategik rivojlantirishning “yo‘l xarita”lari ishlab chiqildi va xorijiy davlatlarning yetakchi ta’lim muassasalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida “...boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. 2023 yilning yanvar oyidan O‘zbekistonning 14 ta hududidagi tajriba-sinov maktablarda yangi avlod darsliklari joriy etilgandi. Sentyabrdan esa bu amaliyot respublikaning barcha boshlang‘ich sinflari uchun davom ettirildi. Buning uchun kitoblar 770 nomda 72 mln nusxada chop etildi. Hozirgi vaqtda ular xalqaro ekspertizadan o‘tib, o‘zimizda sinovdan o‘tkazilmoqda. Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlariga, san’at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim. O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda, albatta, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslari ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf darslarini integratsiyalashda o‘qituvchi faoliyatini loyihalashtirish jarayoni dolzarb muammolardan biri sanaladi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimidagi g‘oyalarni ilgari surish uchun, yangi axborotni o‘zlashtiradigan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir bo‘lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan mustaqil va erkin fikrlaydigan o‘quvchilar kerak. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv –tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

**Asosiy qism.** Dars ta’lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta’limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish,

tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta’minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O‘quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta’lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo‘lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o‘quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liq. Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ma’lum standartlari asosida belgilanadi. Dars o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

- Har bir sinfda o‘quvchilarni yoshi va bilim darajasi bir xil bo‘lishi lozim.
- Dars qat’iy jadval bo‘yicha belgilangan muddatda olib borilishi kerak.
- Dars o‘qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o‘quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

- Dars, o‘quv fanining xarakteri, o‘qitilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi hamda ta’lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi, navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Ta’lim – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro kirishuvi asosida shakllanadigan tashkiliy jarayon. Uning markazida o‘qitish va o‘qish faoliyatining bir-biriga o‘zaro ta’siri yotadi. Loyihaviy ta’lim vositasida boshlang‘ich sinf darslarida ta’lim subyektlari faoliyatini modellashtirishda o‘qitish va o‘qish faoliyatini ajratish, ularni to‘g‘ri tashkil qilish, faoliyatni amalga oshirish jarayonida loyihalash imkoniyatlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihaviy ta’lim vositasida boshlang‘ich sinf darslarida o‘quv faoliyatini tashkil etish o‘quvchi bilan o‘quv materiali o‘rtasidagi bog‘lanishni yo‘lga qo‘yish uchun ta’lim loyihalanaadi.

Loyihaviy ta’lim pedagogika fanida qariyb 300 yildan ortiq davr mobaynida qo‘llanib kelinmoqda. Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko‘ra, “loyiha” tushunchasining paydo bo‘lishi XVI asrga taalluqli bo‘lib, italiyalik me’morlarning me’morlikni fan deb e’lon qilib, uni o‘quv fanlari darajasiga chiqargan holda o‘z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog‘liq.

XVIII asr oxirida muhandislik kasbi paydo bo‘lishi natijasida o‘quv loyihasi dastlab Fransiyada, so‘ng Germaniya, Avstriya, Shveysariyada, XIX asr o‘rtalarida esa AQShdagi texnika va sanoat oliy maktablarida qo‘llanila boshlangan.

“Loyiha” atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o‘tgan bo‘lib, “Loyiha (lotincha “projectus”) aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g‘oyasi”ni anglatadi. Loyihaning turli xil ko‘rinishlari mavjud:

- biror bino, inshootni barpo etish maqsadida yoki muayyan bir buyumni yaratishga doir tayyorlangan hujjatlar (hisob-kitoblar, chizma, maketlar) majmui ;
- biror hujjatning oldindan tuzilgan matni;
- reja, mo‘ljall, g‘oya .

Ta’lim jarayonidagi loyihalashtirish o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo‘lgan mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyatidir.

**Adabiyotlar sharhi.** XX asrning keyingi 30 yili davomida mashhur didaktshunoslar M.N.Skatkin, V.V.Krayevskiy rahbarligida ma’lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va didaktik loyihalarni tayyorlash nazariyasi hamda amaliyotida yangi yo‘nalish asoslangan edi. Unda ijtimoiy tajriba mohiyati tahlilga tortilib didaktik loyihalarni yaratish g‘oyasi ishlab chiqildi.

Pedagogik jarayonni loyihalash bosqichida pedagog duch keladigan birinchi muammo pedagogik faoliyat mazmunini loyihalash sanaladi. Ta’limni loyihalashtirishda pedagogik texnologiyadagi yetakchi hisoblangan ta’lim maqsadi, mazmunini loyihalash eng muhim muammolardan biri bo‘lib qoladi. Ularni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- o‘quv predmetlarini o‘rganishda, eng avvalo, tayanch tushunchalarni o‘rganish darajasini aniqlash va ularni o‘rganishni loyihalash;
- tayanch tushunchalarning ta’lim standartlari, o‘quv dasturlariga mosligi, o‘quvchining kelgusi faoliyati bilan aloqadorligini loyihalash;
- o‘qitish uslublarini loyihalash;
- o‘quvchining tayyorgarlik darajasini loyihalash;
- o‘qitish mazmunining qo‘yilgan maqsad bilan uzviylikini ta’minlash;
- ta’lim uslublarini, ularning qaysi birini darsning qaysi bosqichida qo‘llash zarurligini oldindan loyihalash;

- turli tipdagi darslarda bilim va ko‘nikmalarning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini loyihalash;

- o‘qitish jarayonida nazorat va tekshirishning turli usullaridan foydalanishni loyihalash va h.k.

**Metodlar.** Loyihalash metodi ta‘lim texnologiyasining muhim bo‘g‘iniga aylanmoqda. Bu metod ta‘lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Loyihalash (lot. rrojectus - olg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz), nomini o‘zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, proekt ma‘lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi. Loyihalash metodi ta‘lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O‘qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalar individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo‘l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo‘llanilishi va uni hal etish muammolari ko‘rib chiqiladi. Loyihalash metodini qo‘llash uchun birinchi navbatda loyihalash ob‘yektini aniqlaymiz. Qanday masala, muammo mavjudki, uni yechib loyihaning natijasini qanday bo‘lishini belgilaymiz.

1. Bu o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha qo‘yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo‘lishi mumkin. Loyiha talabalarining o‘z xohishlari, qiziqishlariga ko‘ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo‘lishi mumkin yoki o‘qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham talabalar zarur axborotlarni to‘plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo‘yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loyihaning mazmunini belgilaymiz.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya‘ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Loyihaning umumiy tavsifi oy- dirlashadi. Aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo‘lishi, haddan tashqari murakkab bo‘lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

4. Loyiha qatnashchilari belgilanadi. Loyiha qatnashchilari o‘z qiziqishlari, fikr doiralari bilan birlariga yaqin, yordam beruvchi o‘quvchi, talabalar bo‘lib, ularni loyihada qo‘yilgan maqsad birlashtiradi. Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo‘shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko‘payib ketishi salbiy oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo‘yiladi.

5. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo‘linsa, uni harr^muddatlari bilan ko‘rsatiladi.

6. Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

1- bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko‘rsatiladi.

2- bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi. Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda individual va guruh bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni bajaradilar. Material, axborot to‘playdilar. To‘plangan ma‘lumotlarni muhokama qiladilar. Jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar. Namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

3-bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xoniaki varianti yozib chiqiladi. So‘ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talablar asosida taxlanadi.

4-bosqich. Loyihaning so‘nggi varianti ekspertga, taqr ga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo‘lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavalantirishi kerak. Matnda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o‘xshash materiallar bo‘lishi shart.

5-bosqich. Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasini elon qilingach, lugallangan hisoblanadi.

6-bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida jyuri yoki komissiya a‘zolari tomonidan baholanadi. Jyuri a‘zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan" loyihani ko‘rib chiqib, tanlanib, so‘ngra tayyorlangan hisobot ko‘rib chiqiladi.

Loyihalash metodi asosida dars jarayonini tashkil etishda o‘quv guruhi ichida ishchi guruhlari tuziladi. Ular o‘zlashtirish darajalariga qarab uch ishchi guruhga bo‘linadi. Bunda kuchli ishchi guruhlari mustaqil shug‘ullanganda, o‘qituvchi o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchi talabalar bilan mashg‘ulot o‘tkazishi uchun ko‘proq vaqt ajratiladi. Ishchi guruhlari ishtirokchilarining o‘zlashtirish darajasi taxminan teng bo‘lganida ta‘limda yuqori natijaga erishiladi. Bunday guruhlarni ta‘lim oluvchilarning o‘zlari tuzgani ma‘qul, chunki ular o‘zlarining qaysi guruhga mos ekanliklarini juda yaxshi bilishadi. 2-va 3-ishchi guruhidan 1-ishchi

guruhiga o‘tishga imkon beriladi. Kichik guruhlarda har bir o‘quvchi yakka tartibda loyiha ishini bajargani uchun individual amaliy usuldan ham foydalanish mumkin.

Loyihalash ta‘limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o‘quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘quv dasturi yoki tahsil oluvchi shaxs ta‘lim mazmunini loyihalashning asosi bo‘lib, bu vaziyatda o‘qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda tahsil oluvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- 1) tahsil oluvchilar tavsiya etilayotgan ma‘lumotdan nimani va qanday hajmda o‘zlashtirishi zarurligi;
- 2) tahsil oluvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o‘quv ma‘lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

- 3) ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasi.

Bu o‘rinda o‘quv ma‘lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o‘rin tutadi. Unda:

- 1) tahsil oluvchilarga taqdim etiladigan materiallar;
- 2) tahsil oluvchilarga mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar;
- 3) tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan ma‘lumot (bilim) turlari (N.V.Kuzmina) o‘z aksini topadi.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta‘minlovchi muhim shartlaridan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;

- 2) natijalarni oldindin ko‘ra bilish;

- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichida o‘qituvchining mustaqil, shu bilan birga o‘quvchi bilan hamkorlikda o‘quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o‘rin tutadi. O‘qituvchi darsni rejalashtirar ekan, albatta, uni qanday metod asosida o‘tkazish haqida bosh qotiradi. Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo‘llab o‘tkazaversa bo‘ladi, lekin amalda buning iloji yo‘q. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablar, mavjud sharoit salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ta‘lim jarayonini loyihalash doirasida o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish muhim o‘rin tutadi. Shu bois nazorat jarayonini loyihalash ham o‘qituvchidan alohida malakali yondoshuvni talab etadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi bu etapga alohida e‘tibor qaratishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda eng ko‘p loyihalashdan foydalaniladigan fanlarga ona tili va o‘qish, tabiiy fanlar, texnologiya kabi fanlarda ko‘p foydalaniladi. Bu darslarda o‘qituvchi o‘quvchilarga mavzularni izchil, aniq va tushunarli yetkazib berishi uchun loyihani to‘g‘ri tuzishi muhimdir. To‘g‘ri tashkil etilgan darslar orqali o‘quvchilarda mavzu yuzasidan aniq tasavvur, mavzuni hayot bilan bog‘lash, mavzuga mos atamalarni toppish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

**Xulosa.** Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi loyihasini amalga oshirishda uning shaxsiy sifatleri, ya‘ni, kasbiy mahorati, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, temperament, ruhiy holati, o‘z-o‘zini anglashi va hokazolar namoyon bo‘ladi, ta‘lim jarayonini loyihalashda o‘qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo‘lini tanlaydi. Axborot ta‘minotini loyihalash tamoyillari ta‘lim jarayoni loyihasida axborot ta‘minoti shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ta‘minotni loyihalash tamoyili iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni ta‘minlashni anglatadi. Ta‘lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy loyihalash ta‘lim menedjerining vazifasidir

O‘qituvchi mahorati darsni aniq rejalashtirishda o‘z aksini topadi. Darsni shunday rejalashtirish lozimki unda nima qilinishi mo‘ljallanayotganligi aniq o‘z aksini topsin va boshqacha reja tuzish mumkinligiga o‘rin qolmasin. Ba‘zan yosh o‘qituvchilar va amaliyotga chiqqan talabalar faoliyatida darsni rejalashtirish sohasida xatolarga yo‘l qo‘yilganligining guvohi bo‘lamiz. Yosh o‘qituvchilar va talabalar faoliyatida yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin.

1. Maqsadda aniqlikning yo‘qligi. Yani talabalar aslida nima qilishlari va nimani o‘rganishlari aniq belgilanmaydi.

2. Ta‘lim maqsadining talablari darsning natijasi bilan to‘g‘ri kelmagan hollar bo‘ladi.

3. O‘rganish uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to‘g‘ri kelmaydi.

4. O‘qituvchi berayotgan yo‘llanmalar talabaning darsda bilimlarni samarali o‘rganishini ta‘minlamaydi.

5. Dars rejasida ko‘rsatilgan talabalarning xulqlari dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo‘la olmaydi. Umuman tuzilgan loyihalar qayta ko‘rib chiqilishi va xatolarni bartaraf etish ustida ishlanishi lozim.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel 5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida Farmoni.
2. Sulaymanova D.N. Loyihaga asoslangan o‘qitish(PLB) bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiya sifatida “Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologikpedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani” 2023-yil 2-iyun.
3. Hamroyev A.R. “Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish” Dis-2021 248 b.
4. Husenova A.Sh. “Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarini integratsiyalashda o‘qituvchi faoliyatini loyihalashtirish metodikasi”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro 2023.
5. Arifova N.B. “Loyihalash metodi – o‘qitishni tashkillashtirishning muhim shakli” mavzusida bitiruv malakaviy ish, Andijon 2014.
6. Haydarkulova M.Z. “The use of the principle of design education by primary school teachers”.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV-BILUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

*Jahonova Nargiza Yunus qizi,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Maqolada bilish keng falsafiy ma'noda ijtimoiy-tarixiy amaliyotning rivojlanishiga bog'liq holda ongda real borliqni aks ettirish va qayta tiklash jarayoni ekanligi xususida fikr bayon etilgan. Bilish jarayonida katta tajribaga ega olim ham, o'quv predmetlarini o'zlashtirish jarayonida fan asoslarini bilib olayotgan o'quvchi ham subyekt funksiyasini o'taydi. Ularning ikkalasi ham bilish jarayonida hissiy bilishdan mantiqiy bilishga, abstraktdan konkretga va aksincha, konkret dan abstraktga, yakkadan (xususiydan) umumiyga, umumiydan xususiyga qarab boradi. Fanda kashfiyot qilish uchun olimning yo'lini yorituvchi mash'ala ilmiy tadqiqot metodlari bo'lsa, o'qitish jarayonida ta'lim metodlari mavjud.*

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, faoliyat, mashq, topshiriq, bilim, ko'nikma, bilish faoliyati, ta'lim.

## ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*В статье излагается мысль о том, что познание в широком философском смысле - это процесс отражения и воспроизведения реального бытия в сознании в зависимости от развития общественно-исторической практики. Функцию субъекта выполняет как учёный, имеющий большой опыт в процессе познания, так и ученик, изучающий основы науки в процессе усвоения учебных предметов. Оба они в процессе познания идут от чувственного познания к логическому познанию, от абстрактного к конкретному и, наоборот, от конкретного к абстрактному, от единственного (частного) к общему, от общего к частному. В то время как факелом, освещающим путь учёного к открытиям в науке, являются методы научного исследования, методы обучения присутствуют в процессе обучения.*

**Ключевые слова:** ученик, деятельность, упражнения, задание, знание, умение, познавательная деятельность, образование.

## ORGANIZATION OF EDUCATIONAL AND COGNITIVE ACTIVITIES OF STUDENTS IN PRIMARY GRADES

*The article presents the idea that cognition in a broad philosophical sense is the process of reflecting and reproducing real being in consciousness, depending on the development of socio-historical practice. The function of the subject is performed by both a scientist with extensive experience in the process of cognition and a student studying the basics of science in the process of mastering academic subjects. Both of them in the process of cognition go from sensory cognition to logical cognition, from the abstract to the concrete and vice versa, from the concrete to the abstract, from the singular (particular) to the general, from the general to the particular. While the torch that illuminates the path of a scientist to discoveries in science is the methods of scientific research, teaching methods are present in the learning process.*

**Keywords:** student, activity, exercise, task, knowledge, skill, cognitive activity, education.

**Kirish.** Bilish jarayonining subyektlari sifatida olim va o'quvchi bir-biridan farq qiladi. Olim o'z sohasiga oid fan asoslarini mukammal o'rgangan shaxs. U oldin o'zlashtirgan bilimlariga tayanib ilmiy farazlarni shakllantiradi, shu farazlarni turmushda, ishlab chiqarishda bevosita tekshirib ko'radi, ilmiy ish o'tkazish bosqichlarini o'z so'zlari bilan erkin aytib bera oladi. O'quvchi esa ta'lim metodlari, o'quv usullarini olim o'zlashtirgan darajada egallagan emas. Ko'rinadiki, farq olim bilan o'quvchining bilish yo'llarida emas, balki ularning aqliy taraqqiyot darajasidadir [1]. Shu bilan birga, ilmiy bilish jarayoni bilan ta'lim jarayoni o'rtasida juda ko'p tafovutlar mavjud. Bu quyidagilar:

- ta'lim jarayonida ikki daxldor faoliyatning – o'qitish va o'qishning ishtiroki shart. Binobarin, o'quvchilarning bilishi tashkil qilinadi, boshqariladi, nazorat qilinadi;
  - ta'lim jarayoni natijasi doimo individual, bilish jarayoni natijasi ijtimoiy-tarixiydir;
  - ta'lim chegaralangan. Ta'lim sharoitida kishilar tomonidan kashf qilingan haqiqatlar o'zlashtiriladi.
- Bilish jarayoni cheksizdir. Unda tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga oid hodisalarning hali o'rganilmagan sohalari tadqiq qilinadi;



– bilish jarayonida kashf qilingan bilimlar ijtimoiy-tarixiy yangilikdir. Ta’lim sharoitida o’quvchilar o’rganadigan bilimlar esa shaxsiy-individualdir.

Yuqoridagi o’xshash va farqli tomonlariga ko’ra o’quvchilarning ta’lim sharoitida bilish jarayoniga quyidagicha ta’rif beramiz: bilish – subyekt va obyekt (o’quv materiali) ning o’zaro ta’siri natijasida tabiat, jamiyat, ong hodisalari to’g’risidagi subyektiv yangi bilimlarni o’zlashtirish jarayonidir.

O’quvchilarning biluv faoliyati predmeti o’quvchi uchun (subyektiv) yangi bilimlar hisoblanadi. Olimlarning biluv faoliyati predmeti esa obyektiv, ijtimoiy-tarixiy yangi bilimlar sanaladi. O’quvchi bilib olgan bilim bola shaxsini, olim kashf qilgan bilim jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Hozirgi didaktika oldidagi dolzarb muammolardan biri ta’lim jarayonida o’quvchilarning bilishini olimlar bilishiga yaqinlashtirishdir. Fan sohasida qo’llanadigan metodlarni ta’lim jarayoniga olib kirish, o’quvchilarga aqliy faoliyat usullari – analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqara olish yo’llarini o’rgatish, o’quvchilarda darslik va boshqa ta’lim manbalari ustida mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish orqali ta’lim jarayoni va bilish jarayoni o’rtasidagi tafovutlar bir qadar kamaytiriladi.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda muammoli ta’lim kontekstida o’quvchilarning bilish faoliyatiga oid ilmiy izlanishlar miqdori nihoyatda ko’paydi. Jumladan, A.Q.G’ulomovning [1] doktorlik dissertatsiyasida bolalarning o’quv-biluv faoliyati mustaqil ishlarga aloqadorlikda tahlil qilindi. Sh.R.Rayhonovning [2] nomzodlik dissertatsiyasida o’quvchilar faoliyati aktivlik prinsipi jihatdan umumlashtirilgan holda bayon qilingan. Ammo biz kuzatgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida o’quvchilar bilish faoliyati mohiyati, qurilishi xususidagi fikrlar nihoyatda oz.

Bilish faoliyati maqsadlari obyektiv xarakterga ega. U kishilar tomonidan o’ylab topilmaydi. Aksincha, bilish faoliyati maqsadi jamiyatning taraqqiyoti, fan va texnikaning, san’at va adabiyotning rivojiga bog’liq, binobarin, u ijtimoiy tajribani o’zlashtirish talablari, ehtiyojlariga ko’ra belgilanadi.

Agar o’quv faoliyati maqsadlari bilimlarni egallash, ko’nikma, malakalarni shakllantirish ehtiyojlari zaminida shakllantirilsa, bilish faoliyati maqsadlari yanada keng, mazmun jihatdan boy hodisalarga borib taqaladi. Bunday hodisalar qatoriga o’quvchining jamiyatda o’z o’rnini anglashga intilishi, sinfdosh va tengdoshlari bilan fikrlashish ishtiyogi, o’zini yaxshi fazilat, odatlarga tayyorlash uchun kurashi, o’quv predmetlaridan birontasini boshqalarga nisbatan xohlab qolish, unga qiziqishi kabilar kiradi.

Maqsad – oldindan anglangan, rejalashtirilgan natija bo’lib, u insondan ongli maqsadga yo’nalgan faoliyatni talab etadi. Maqsad va maqsadga muvofiq faoliyat bir jarayonning, oldindan belgilangan natijaga erishish jarayonining elementlari sanaladi. Amalga oshirilgan maqsad natijaga, keyingisi, qo’lga kiritilgan natija, yangidan qo’yilgan maqsadlarga erishish vositasi vazifasida ishtirok etadi. Ana shularga ko’ra bilish maqsadlarining quyidagicha ko’rinishlarini ajratamiz: ijtimoiy maqsadlar: ular istiqbolga yo’nalgan maqsadlar bo’lib, o’quvchining kelajakka intilishi va o’zini unga tayyorlashida ko’zga tashlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy maqsadlar xususidagi o’quvchilarning tasavvurlari juda erta, maktabgacha tarbiya yoshida shakllana boshlaydi. Bu hodisani onasining ikki qo’llab yuqoriga ko’tarishidan zavqlangan bola “katta bo’lsam, men ham Sizni ko’taraman” yoki mashinada otasi bilan yonma-yon o’tirgan bolaning “men ham sizni mashinada olib yuraman” degan jumllarida ko’ramiz. Ijtimoiy maqsadlar ota-ona, atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida shakllanib, bolaning atrofdagi kishilar, Vatanni sevish, xalqqa xizmat qilish orzu-istaklarini rivojlantirib, yillar osha takomillashib boradi. O’quvchi sinfdan sinfga o’tgan sayin ijtimoiy maqsadni asosli anglay boradi. Maqsadni anglash bolani o’z ustida qunt bilan ishlashga, o’qish-o’rganishga undaydi.


Fikrlashish, aloqalashuv maqsadi bolani o’qish-o’rganishga, o’z fikrlarini o’zгалar: ota-ona, sinfdosh, o’qituvchi bilan baham ko’rishga yetaklovchi maqsaddir.

Axloqiy maqsad. Unda barkamol shaxsni shakllantirishga oid orzu-istaklar aks etadi.

Jamiyatda, jamoada o’z o’rnini anglash, ota-ona, o’qituvchi, sinfdoshlar oldidagi o’z burchini anglash bolani o’qish-o’rganishga oid qiyinchiliklarni bartaraf etishga yetaklaydi.

O’zini-o’zi tarbiyalash, faollashtirish maqsadi – o’z faoliyatida yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, kamchiliklarni bartaraf etishga intilish, faoliyatdagi yutuqlarni ko’paytirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishga oid maqsadlardir. O’quvchi u yoki bu masalani qanday, qaysi yo’llar bilan bajarганиni tahlil qilish, insho yoki yozilgan hikoyani qayta ko’rib chiqish yo’li bilan bunday maqsadni amalga oshiradi [3].

Bilish maqsadlari bevosita o’quv materiallarini o’rganish bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy aloqalashuv, axloqiy, o’zini-o’z faollashtirish maqsadlarini amalga oshirish bilish maqsadlarini reallashtirish, ongli amalga oshirishga olib keladi. O’rganilgan bilimlarni yangi sharoitga tatbiq etish, masala, misol, mashqlarni yangicha usullar bilan bajarishga intilish, mavzuga oid yangi faktlarni izlab topish va shu kabilarni bilishga oid maqsadlarni amalga oshirishga olib keladi.



Biluv faoliyatining yana bir tarkibiy qismi biluv vositalaridir. Biluv vositalari – bu bilish jarayonida o‘quvchi o‘zi bilan biluv predmeti o‘rtasiga qo‘yadigan moddiy va moddiylashgan narsalardir. Muammo, o‘quv topshiriqlari, turli chizma va jadvallar moddiy narsalar qatoriga kirsa, o‘quv mehnati hamda aqliy faoliyat usullari moddiylashgan narsalar sirasiga kiradi. Moddiy vositalar ta‘limga tashqaridan olib kirilsa, moddiylashgan narsalar (mas., o‘quv mehnati usullari) o‘quvchilarning o‘zida.

Muammo – (fan nuqtayi nazaridan) bu savolning shunday turiki, insoniyat to‘plagan bilimlar orasida uning javobi mavjud emas. Muammo (ta‘lim nuqtayi nazaridan) – bu savolning shunday turiki, o‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlar orasida uning javobi mavjud emas. Misol keltiramiz: bolg‘a vositasida qo‘qiladi, bolta vositasida chopiladi, pichoq vositasida kesiladi. O‘ylang-chi, so‘z vositasida qanday ishlar bajariladi? Keltirilgan muammodan birinchi sinfda "So‘z" mavzusini o‘tishda foydalaniladi. U birinchi sinf o‘quvchilari uchun o‘ta qiyin muammo. Uni bajartirish uchun o‘qituvchi ishni quyidagicha tashkil etadi.

O‘qituvchi bir nechta so‘zni tanlab xattaxtaga yozadi: berilgan so‘zlar vositasida jamoa bo‘lib gaplar tuzildi. Tanlangan so‘z vositasida gaplar tuza turib, o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qildi: biz so‘z vositasida qanday ishni bajardik? (So‘z vositasida gap tuzdik). Yuqoridagi yo‘llar bilan muammo hal etilib, quyidagi xulosalar chiqarildi: so‘z vositasida gap tuziladi; so‘zni aytamiz; so‘zni eshitamiz; so‘z vositasida fikr bildiramiz; so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lamiz va h.k.

O‘quv topshirig‘i – bu o‘qitish va o‘qish ehtiyojiga ko‘ra o‘quv materialining o‘zgargan shakli. Masalan, boshlang‘ich sinflarda ot-so‘z turkumiga oid so‘zlar o‘rganilayotgan paytda quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalaniladi:

1-topshiriq. Tevarak-atrofimizni kuzatib, ko‘zingiz tushgan narsa va kishilarning nomini yozing. O‘zingiz yozgan so‘zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratish to‘g‘risida o‘ylang.

2-topshiriq. Tevarak-atrofnini kuzatib, oldin kim? so‘rog‘iga, keyin nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarga 5 tadan misol yozing.

1-topshiriq vositasida o‘quvchilar otlarni kim?, nima? so‘roqlari vositasida ikki guruhga ajratishni mustaqil bilib olishsa, 2-topshiriqni bajara turib, ot mavzusi bo‘yicha o‘rganilgan bilimni yangi o‘quv holatiga tatbiq qilishadi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda o‘quv mehnati usullari shakllana boshlaydi. Ular qo‘llanish doirasiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi:

a) umumiy o‘quv mehnati usullari (mas., reja tuzish). Reja tuzish barcha o‘quv predmetlari doirasida qo‘llaniladi;

b) xususiy o‘quv mehnati usullari. har bir o‘quv predmetining o‘zigagina xos bo‘lgan usullar (mas., ona tilida til faktlarini guruhlarga ajratish; matematikada esa qo‘shish yoki ko‘paytirish kabilar xususiy usullar sanaladi). Mashg‘ulotlarda o‘quv mehnati usullarini qo‘llab o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini

tashkil etish yo‘li bilan o‘quvchilar aqliy mehnat usullarini egallay borishadi. Shunday qilib, ta‘limning borishida o‘qituvchi ishlatgan usullar asta-sekin o‘quvchilarning o‘quv mehnati usullariga aylanadi.

Mantiqiy usullar – analiz, sintez, taqqoslash, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish yo‘llarini o‘quvchilarga o‘rgatish ularda aqliy mehnat bilan shug‘ullanish layoqatlarini rivojlantiradi.

O‘quv harakatlari va operatsiyalari o‘quvchilar biluv faoliyatining tarkibiy elementlari sanaladi.

O‘quv harakatlarida o‘quvchilar bilishining jarayoni, xususiyatlari, operatsiyalarda esa bilishning vositaviy belgilari aks etgan. O‘quv harakatlari “birlamchi” bo‘lib, o‘quv materialiga yo‘nalgan operatsiyalar esa ongda amal qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatida o‘qish, hisoblash, buklash, qirgish, o‘lchash, yozish, chizish, kuzatish, taqqoslash, tinglash, javob berish kabi qator o‘quv harakatlari va ularga oid operatsiyalar qo‘llaniladi. O‘quv harakatlaridan ongli foydalanish ta‘limning samaradorligini oshiradi. Ta‘lim jarayonida qo‘yilgan muammo, topshiriqlar o‘quv harakatlari, operatsiyalari vositasida hal qilinadi. O‘quv harakatlari mohiyati, mazmunini tushunib olmagan tarbiyachi – o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ko‘r-ko‘rona ishlaydi. O‘quvchilarga o‘quv harakatlari va ularga oid operatsiyalarni, ularning mazmun va tarkibini o‘rgatish o‘quvchilar bilishining ongliligini ta‘minlaydi.

Biluv faoliyatining yana bir tarkibiy qismi ta‘lim natijalaridir. Ta‘lim natijasi o‘quvchi ongida bilim, ko‘nikma va malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar shaklida amal qiladi. Natijaga o‘quvchilar ikki yo‘l bilan erishadi: tayyor bilimlarni reproduktiv egallash yo‘li bilan (bunda, asosan, bilimlar so‘z vositasida o‘rganiladi. Bunday bilimlar o‘quvchilarning o‘quv faoliyati mahsuli sanaladi); o‘quv predmetiga oid faktlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish yo‘li bilan.

1 -jadval.

**O‘quvchilarning o‘quv faoliyati va biluv faoliyati farqlari**

№	O‘QUV FAOLIYATI	BILUV FAOLIYATI
1.	O‘quvchi – ta‘lim jarayoni obykti.	O‘quvchi – ta‘lim jarayoni subyekti.
2.	O‘quvchi va o‘quv materiali tizimida amal qiladi.	Ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish tizimida amal qiladi.
3.	Ijtimoiy qimmatga ega normativ talablar doirasida amal qiladi.	Me‘yoriy talablar doirasidan tashqariga chiqiladi.
4.	Bilim, ko‘nikma va malakalarga yo‘nalgan.	Bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarga yo‘nalgan.
5.	Tarkiban motiv, maqsad, vosita natijadan iborat.	Tarkiban motiv, maqsad, vositadan iborat bo‘lib ixtiyoriy amal qiladi
6.	O‘zining, o‘zgalari faoliyati natijasi takrorlanadi.	Faoliyat mahsuldor (produktiv) amal qiladi.
7.	Oldin erishilgan natija takrorlanadi.	Natija shaxsiy subyektiv yangilik sifatida shakllanadi.
8.	Maktab, dars doirasidagi hodisalarga daxldor.	Maktabdan tashqari hodisalar (mas., o‘zini kelajakka tayyorlash)ga daxldor.

Bilish boshlang‘ich sinf o‘quvchisining faol holatidir. Bu jarayon tarkiban o‘quvchi va o‘quv materialining o‘zaro ta‘siridan iborat.

O‘quvchi – ta‘lim jarayoni subyektlaridan biri. U boshlang‘ich ta‘limda uch holatda ishtirok etadi.

1. Sust (passiv) vaziyat. O‘qituvchi izohlari, tushuntirishlarini tinglash, ko‘rsatmalarini ijro etish, o‘zgalarga: o‘qituvchi, sinfdosh va atrofdagi katta yoshli kishilarga ergashib turli harakatlarni bajarish. Boshlang‘ich ta‘limning ilk qadamlaridan boshlab ergashib faoliyat ko‘rsatish, o‘zgalarga muqoyasa qilib faoliyatni amalga oshirish o‘quvchilarda o‘quv mehnati malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bu davrda qilinadigan ishlar asosan xotiraga mo‘ljallanadi. Ammo bu boshlang‘ich ta‘limning ilk qadamlarida o‘quvchilar hech qanday ijodiy ish qilmaydi degan fikrga olib kelmasligi kerak.

2. Faol vaziyat – o‘quvchining mustaqilligi, faolligi ta‘minlangan holat. Bunday holatda ta‘lim o‘quvchilar tafakkuriga mo‘ljallab tashkil etiladi. O‘quvchi to‘lig‘icha ta‘lim subyektiga aylanadi. U yechiladigan misol va masalani, bajariladigan topshiriqni, qilinadigan mashqni o‘zi tanlaydi. Tanlangan muammolarni bajarish yo‘llari, vositalarini mustaqil izlaydi. Bunda o‘quvchilarning bilish faoliyati katta kishilarning bilish faoliyatiga o‘xshab qoladi. Bu vaziyatda o‘qituvchi maslahatchi, faoliyatga undovchi vazifasida ishtirok etadi. Agar boshlang‘ich ta‘limning ilk qadamlaridan boshlab o‘quvchilarga mustaqil ishlash ko‘nikmalari singdirilsa, o‘quvchilarda aqliy mehnat malakalari shakllantirilsa, ularda masala va muammolarni bajarishga oid aqliy faoliyat usullari – analiz va sintez, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, bilimlarni yangi sharoitlarga ko‘chirish ko‘nikmalari hosil qilinsa, o‘quvchilar o‘z intilishlari, mustaqil izlanishlari, tafakkurlari asosida bilimlarni o‘zlashtirib oladi.

3. O‘qituvchi va o‘quvchi teng xuquqqa ega vaziyat. Bunday holatda o‘qituvchi va o‘quvchi ta’lim subyektlari sanaladi: o‘qituvchi o‘quvchi bilan hamkorlikda ta’limni quradi, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro muvofiqlashuvi – koordinatsiya ta’limni tashkil etish, boshqarish, nazorat etishning yetakchi prinsipiga aylanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi faolligining eng yuqori ko‘rinishi ijodiy faollikdir. O‘quvchilar ijodkorligini to‘lig‘icha yetuk olimlar ijodkorligiga tenglashtirish mumkin emas. Zero, o‘quvchining ijodiy faoliyat tajribasi ham chegaralangan. Avvalo, *boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘quv materiali doirasida ijod qiladi*. Qolaversa, o‘quvchi hali ijod qilish yo‘llarini bekamu ko‘st egallab olgan emas. Bu tafovutlar bartaraf qilingan sayin bola va kattalar ijodidagi farqlar kamaya boradi.

**Muhokama va natijalar.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining bilish faolligini uning faoliyatidagi hosila – hodisa deb qaraymiz. *Bilish faolliги tarbiyalanadi, rivojlanadi. Uni rivojlantirish uchun ta’limning izlanuvchanlik funksiyasini oshirish, motiv va emotsiyalarni ishga tushirish, o‘quvchilarga o‘z maqsadini mustaqil belgilash, o‘rganilgan bilimni, ta’lim natijasini bilish jarayonidan ajratib tahlil qilish madaniyatini singdirish zarur.*

Yuqorida o‘quvchi va o‘quv materiali tizimi o‘quvchilar faolliги nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Endi o‘quvchilar faolliğini o‘quv materiali jihatidan tahlil qilamiz.

O‘quv materiali ma’lumot mazmunini moddiyLashtirishning eng oxirgi darajasi sanaladi. U ta’lim boshlanguncha turli me’yoriy loyihalar: *o‘quv dasturi, o‘quv darsliги tarkibida tayyor holda bo‘ladi*. Ta’lim jarayonida esa o‘quv-tarbiya ishlari o‘quv materialini o‘rganishdan boshlanadi. Unda ta’limning mazmuniy va jarayoniy sohalari o‘z aksini topadi. *O‘quv materiali tarkiban bilimlar tizimi, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi hamda munosabatlardan iborat*. Ta’lim sharoitida o‘quvchilar bilishi o‘quv materialining barcha tarkibiy qismlariga daxldor holda tashkil qilinganda istalgan samarani beradi. Yangi mavzu o‘tilayotgan paytda yangi mavzuga oid faktlarning oldin o‘tilgan mavzularga oid faktlardan farq qilishi, faktlarni tahlil qila turib xulosalar chiqarish, o‘rganilgan bilimlarni yangi sharoitga ko‘chira olish, mavzular bo‘yicha umumlashgan xulosalar chiqarish va sh.k.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning asosiy omili biluv topshiriqlaridir. Biluv topshiriqlari o‘quvchilarning bilish faoliyatiga mo‘ljallab tanlangan, mustaqil fikrlash hamda izlanishga rag‘batlantiradigan intellektual va aqliy yumushlardir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallab tuzilgan biluv topshiriqlariga qator didaktik talablar qo‘yiladi:

- biluv topshiriqlari o‘quvchilarning kuchi yetadigan, ularni bilishga rag‘batlantiradigan shaklda tuzilishi zarur;

- biluv topshiriqlari tizimi o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatiga mos bo‘lishi, o‘quv materialining barcha tarkibiy qismlarini o‘ziga qamrab olishi lozim;

- biluv topshiriqlari o‘quv materialiga adekvat bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarning real bilish imkoniyatlarini hisobga olib tuzilishi shart.

**Xulosa.** Biluv topshiriqlari o‘quvchilar bilish faoliyatining amaliy yo‘nalishini oshirishi kerak. Biluv topshiriqlari o‘quvchilarga o‘rganilayotgan real obyekt bilan mustaqil to‘qnashish, obyekt xususiyatlarini mustaqil ajrata olish imkoniyatini berishi zarur; biluv topshiriqlari o‘lchash-kesish (qirqish), qisqa muddatli eksperiment, mustaqil kuzatish elementlarini o‘zida aks ettirishi lozim. Hozirgi paytda o‘quvchilar faoliyati samaradorligini, o‘qish-o‘rganishning amaliy yo‘nalishini oshirish o‘quvchilarni ta’lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylantirish, o‘quv-biluv faoliyatini chuqur tahlil qilish, o‘quvchilar faoliyatidagi rezervlarni izlab topishni taqozo etadi.

#### Adabiyotlar:

1. G‘ulomov A. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. –T.: O‘qituvchi, 1987. – 156 b.

2. Райхонов Ш.Р., Касымов Ф.М. Самостоятельная учебная работа творческого характера на уроках математики в начальных классах. – Бухара, 1991. – 35 с.

3. Розиков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. –Т.: Ўқитувчи, 1981. – 103 с.

4. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ... diss. –T., 2003. – 280 b.

5. G‘oziev E. O‘quvchilarni umumlashtirish usullariga o‘rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. –T.: O‘qituvchi, 1983. – 72 b.

6. Митрохина С.В. Развитие познавательной активности младших школьников через самостоятельную работу в процессе обучения математике: Моногр. (Текст) / С.В.Митрохина. – Тула: Издательство Тульского государственного педагогического университета им. Л.Н. Толстого, 2006. – 137 с.

## BOLANI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA AQLIY TARBIYANING O'RNI

*Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi,*  
*Buxoro davlat pedagogika insituti*  
*Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*  
*<https://orcid.org/0009-0000-4954-8585>*  
*dili67896@gmail.com*

*Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo'lishidir. Bilimlarning bu fondi o'qituvchi o'z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, maktab, bolalar, aqliy tarbiya, rivojlanish, bilim, ko'nikma, malaka, tarbiyachi.

## РОЛЬ УМСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ РЕБЁНКА К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

*Каждый ребёнок растёт и развивается индивидуально, но все дети проходят стадии развития в определённой последовательности. На каждом из этих этапов наблюдаются особенности, общие для детей одного возраста.*

**Ключевые слова:** дошкольное образование, школа, дети, развитие, знания, умения, умения, воспитатель.

## THE ROLE OF MENTAL EDUCATION IN PREPARING A CHILD FOR SCHOOL EDUCATION

*Every child grows and develops individually, but all children go through stages of development in a certain sequence. In each of these stages, characteristics common to children of the same age are observed.*

**Keywords:** preschool education, school, children, development, knowledge, skills, educator.

**Kirish.** Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchalar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir.

Bu o'rinda:

*Birinchidan*, bilish jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar;

*Ikkinchidan* bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi;

*Uchinchidan* bolada atrof dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchini tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. Bolalar bog'chasining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalaridagi asosiy aloqa, bog'liqlik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek bolalar tomonidan o‘quv faoliyati elementlarini egallab olinishini ham o‘z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta‘lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o‘quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko‘rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko‘rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o‘z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko‘nikmasini, o‘zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini egallab olishlari kerak.

Nutqni qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi bolani maktabga aqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug‘atning boyligi, o‘z fikrini mantiqiy grammatik to‘g‘ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi – bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli o‘qishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Aqliy tayyorlik tarkibiga shuningdek, savodning boshlang‘ich asoslari oddiy matematik tasavvurlar, ona tili yetarlicha keng bilim, ko‘nikma va malakalar doirasi ham kiradi.

Shunday qilib, maktabdagi o‘qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan sistemalashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar tasavvurlar, nutq va elementar o‘quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o‘quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Bolani maktabda o‘qishga jismoniy tayyorligi o‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o‘zgarishi, jiddiy o‘quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo‘r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko‘pgina tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bu birinchi navbatda bola salomatligining yaxshi bo‘lishi, organizmning chiniqqanligi, ma‘lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko‘rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida o‘rin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy sharti.

Maktabga jismoniy tayyorlik shuningdek bola tomonidan madaniy gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Jismoniy tayyorlik bola maktabga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog‘ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko‘rsatkichlar suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir sistemasining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko‘p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikni «Maktabga yetuklik»ni asosiy ko‘rsatkichi va eng avvalo bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o‘tirish uchun zarur bo‘ladigan tormozlanish qobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo‘ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek ikkinchi signal sistemaning yetarlicha rivojlanganligi taaluqlidir.

Bolalarni tekshirish ularni maktabda olti yoshdan o‘qishlari mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Bolalarni maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko‘pchilik bolalarda uning asosiy ko‘rsatkichlari norma atrofida ekanligini va xatto undan ilgarilashini ko‘rsatdi. Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, xilma-xil harakatli o‘yinlar va jismoniy mashqlar faol harakat rejimi bolalarni maktabda o‘qishga jismoniy tayyorligini ta‘minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. Shu ma‘noda maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni sog‘lom muhitda ta‘lim tarbiya olishida bor bilim, ko‘nikma va malakalarni hisobga olish joizdir

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti pedagoglarining o‘zini o‘zi rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan har bir tarbiyachining o‘z kuchlarini muntazam aqliy ishga safarbar qila olish, o‘z potentsialidan foydalana olish, ijodiy faollikni ko‘rsata olish qobiliyatiga bog‘liq.

Pedagogika va ta‘limda bunday o‘z ustida ishlash o‘zini o‘zi rivojlantirish deb ataladi. Tarbiyachining o‘zini o‘zi rivojlantirishini boshqarish mumkin va boshqarish zarur, chunki kasbiy mahorati faqatgina pedagogning shaxsiy ishi emas. Kasbiy faoliyati bo‘yicha o‘zini o‘zi rivojlantirish – bu shaxsning kasb talablari asosida o‘z shaxsini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ongli faoliyatdir, demak ta‘lim-tarbiya sifatini oshirishga yo‘naltirilgan.

Ta‘lim-tarbiya sifatini oshirishning asosiy sharti-bu pedagogning ijodiy

kuchlarini, mustaqilligini, yangi ilmiy fikrlash uslubiga yordam beruvchi kasbga bilishga oid izlanishni jonlantiradigan sharoitlarni yaratishdir.

Ma'lumki, badiiy adabiyot janrlaridan: ertak, hikoya kabilarni tayyorlov guruhlarida o'qitish keng tadqiq qilingan. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi, so'z boyligini oshiradi. Badiiy asarlarni o'qitishdan maqsad - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatdagi o'zgarishlar, voqea hodisalar, kishilar mehnati haqidagi ilmiy asoslangan hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bilimlar bilan tanishtirish, hayotda ro'y berayotgan voqealar haqidagi tushunchalarini shakllantirishdir. Yuqoridagi misollarni bartaraf qilish uchun mashg'ulotda o'rganilayotgan badiiy asardagi turli terminlarni izohlash, uning ma'nosini tushuntirishga e'tibor berish lozim. Hikoyalar til jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ularda maxsus soda so'zlar ko'plab uchraydi, so'zlar aniq ishlatiladi, gaplar puxta barkamol avlodni voyaga yetkazishda, ularni har tomonlama komil inson etib shakllantirishda bobokalonlarimiz merosi bo'lgan boy milliy qadriyatlarimizdan, madaniy yodgorliklardan, tarbiyaning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish ta'lim-tarbiya sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Keyingi yillarda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim va tarbiya mazmunini tubdan isloh qilindi. Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana-larimiz, axloq-odob, madaniyatimiz qayta tiklanib, ta'lim-tarbiya mazmunining asosiga aylandi. Yosh avlodni tarbiyalashda birinchi galda sharqmutafakkirlarining meroslari dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Al-Farobiy, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, A.Temur, A. Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli bir necha olimlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallikni kasb etadi. Yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish-bizning muqaddas burchimizdir. Barkamol insonni maktab ta'limiga tayyorlashda tarbiyaning oliy maqsadiga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo'ladi. Bularni tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin: milliy-mafkuraviy, huquqiy, aqliy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiya va sog'lom avlodni rivojlantirish. Tarbiyaning har bir tarkibiy qismi oliy maqsadga xizmat qilishi bilan bir qatorda sog'lom muhitni yaratishda o'z hissasini qo'shadi. Mehnat tarbiyasi sog'lom muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi hisoblanadi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarishga o'rgatishdan iboratdir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Dono xalqimiz, allomalarimiz mehnat haqida juda Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois maktabgacha ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bola atrof olamni tanishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Pedagoglar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko'rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni – sekin yuguruvchilarni ham, a'lo darajada rasm chizuvchilarni ham va xatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe'l-atvorli bolalarni ham qabul qilishni o'rganadilar. Bolalar boshqalar ularning har birini qabul qilishlari va hurmat qilishlarini ko'rganlarida hamda sezganlarida o'zlarini qulay his qiladilar va erkin tutadilar, shu bilan birga o'zlarining shaxsiy qiziqishlarini amalga oshiradilar.

Tarbiyachilar shuni tushunib yetishlari kerakki, bolalar ham kattalardek o'zlariga bildirilgan samimiyatni his etadilar va sezadilar. Bolalarni ular bajargan ish natijalari uchun maqtash samimiyatni talab etadi, o'zaro ta'sir tabiiy holda va majbur etmaslik tarzida bo'lishi lozim.

O'z ustida ishlaydigan va mahoratini uzluksiz oshirib boradigan tarbiyachi maktub va kundaliklardan foydalanishi ham mumkin. Shuningdek, bola orqali ota-onalarga maktub jo'natish yo'li oilalar va pedagoglar jamoasi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu bolaning yangi muvaffaqiyatlari to'g'risidagi qisqagina xabar yoki raxmatnoma bo'lishi ham mumkin. Odatda ota-onalar bunday maktublarni qiziqish bilan o'qiydilar va javob yo'llashga harakat qiladilar.

**Xulosa.** Bundan tashqari aloqalar rivojida tarbiyachilardan ota-onalarga yuboriladigan, ulardan yana tarbiyachilarga qaytariladigan kundaliklar (yoki aloqa daftari) katta rol o'ynaydi. Xususan, ota-onalarning vaqti juda cheklangan yoki oilada telefon bo'lmaganda bu o'zaro aloqaning juda yaxshi usuli hisoblanadi. Agar bolada qandaydir shikoyat yoki muammolar bo'lsa, kundalik doimiy aloqani ta'minlaydi hamda ota-onalar yoki pedagoglar jamoasini u yoki bu o'zgarishlardan xabardor qiladi. Bu usul ayniqsa, ota-onalar uchun qo'l keladi. Chunki ular o'z fikrlarini yozma shaklda oson ifodalaydilar.

Umuman olganda, oila bu – qudratli kuch, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida kafolatlangan ijtimoiy institutdir. Tahlillarimiz asosida bola tarbiyasi borasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning samarali hamkorligiga erishish tarbiyachining qay darajada pedagogik mahoratni egallaganligiga bog'liqdir. Demak, oila bilan hamkorlik shaxsni ilk tarbiyalash tizimi sifatida bolaning dunyoqarashi, ma'naviy olamining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)
2. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E. ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi T: 2022. 1-81-b;
3. Jo‘rayeva Dilnoza O‘ktam qizi „Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiyachi pedagoglarning kasbiy malakalarini ta’limda baholash”.Spanish international scientific online conference Prospects and main trends in modern science.Part7 December 29th Colletions of scientific works Madrid 2023 97-100b. <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/10145>
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etishda sog‘lom avlod mexanizmlari. Jo‘rayeva Dilnoza O‘ktam qizi. Monografiya.Toshkent-2024
5. Updating and conducting the quality of primary education on the basis of modern methods. Baxronova Gulnoza Tursunovna, Jo‘rayeva Dilnoza O‘ktam qizi, Ne‘matova Shirinoy Nizomiddinova, Mustafoyeva Mehrangiz Shukurulloyevna <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=15945983713562668087&btnI=1&hl=ru>
6. Egra and egma international assessment programs and teaching primary class students to think independently through the <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/2804>
7. Dilrabo Toyirova Sattorovna Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini tarbiyalashning mazmuni <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=14584650493364971063&btnI=1&hl=ru>



## BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH MUAMMOSINING YORITILISHI

*Jumayeva Habiba G‘aforovna,*

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi*

*[h.g.jumayeva@buxdu.uz](mailto:h.g.jumayeva@buxdu.uz)*

*[habibajumayeva89@gmail.com](mailto:habibajumayeva89@gmail.com)*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish muammosining yoritilishi hamda boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi, bugungi jamiyatda kichik maktab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning dolzarbligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari va ahamiyati, zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini tashkil etish samaradorligi haqida bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich ta’lim, o‘quv motivlari, tafakkur, xotira, intellekt, mantiq, inson, muammo, shaxs, tuyg‘u, pedagogika, yondashuv, o‘quvchi, o‘qituvchi, sinf, axborot, 4“K” modeli, elektron texnologiyalar.*

## ОСВЕЩЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

*В данной статье рассматривается проблема развития творческих способностей учащихся при обучении родному языку начальных классов и современная методика преподавания в начальных классах, актуальность развития творческой активности детей с младшего школьного возраста в современном обществе, начальное образование. Описаны педагогические возможности и значение обучения учащихся творческой деятельности, эффективность организации творческих способностей учащихся на основе современных образовательных подходов.*

**Ключевые слова:** *начальное образование, мотивация обучения, мышление, память, интеллект, логика, человек, проблема, человек, чувство, педагогика, подход, ученик, учитель, класс, информация, 4К-модель, электронные технологии.*

## HIGHLIGHTING THE PROBLEM OF DESIGNING PUPILS' CREATIVE ABILITIES IN THE PRIMARY CLASS WHEN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE

*In this article, the problem of developing students' creativity in the education of the mother tongue of the primary grade and the modern methodology of teaching in the primary grades, the relevance of developing children's creative activity from the elementary school age in today's society, primary grade education pedagogical opportunities and importance of teaching students to creative activities, effectiveness of organizing students' creative abilities based on modern educational approaches are described.*

**Keywords:** *elementary education, learning motivation, thinking, memory, intellect, logic, human, problem, person, feeling, pedagogy, approach, student, teacher, class, information, 4K model, electronic technologies.*

**Kirish.** 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilganligi, maktab ta’lim tizimining ma’naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta’lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta’lim bizning nafaqat bilim va ko‘nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Zamonaviy ta’lim dunyodagi tinimsiz o’zgarishlarga ko’nikkan, turli muammo va to’siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta’lim o’quvchilarni nafaqat amaliy ko’nikmalar bilan, balki o’quvchilarga bugungi kunda zarur bo’lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o’quv texnikalari bilan ta’minlaydi. Bugun dunyoda “ijtimoiy ko’nikmalar”ga (soft skills) ega bo’lgan mutaxassislariga ehtiyoj ortib, ayni paytda “kasbiy ko’nikmalar” (hard skills) o’zining birinchi darajali ahamiyatini yo’qotib bormoqda. Boshlang’ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o’quvchilarga o’qitishda o’quvchining yoshi, fiziologik, texnikaviy axborot olish kerak Hozirgi davr o’qituvchi va o’quvchi oldiga katta talablar qo’ymoqda, bu talablarning eng asosiysi-darsning samaradorligi, uning sifatliiligi, o’quvchilarning bilim va ko’nikmalariga, maktablardagi turli xil o’quv mashg’ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o’quvchilarni turli bilim va ko’nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to’g’ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o’rni beqiyosdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Metodik izlanishlarda tadqiq qilinayotgan muammoni o’ziga oid kategoriyalar vositasida tavsiflash, atama va tushunchalarni sharhlash, ularning hozirgi taraqqiyot darajasini aniqlash, kelajakdagi istiqbolini chamalash mas’uliyatli jihat hisoblanadi. Bundan ona tili ta’limida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish muammosi ham istisno emas. Ona tili ta’limida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish muammosi metodika fanida taxminan yarim asr oldin paydo bo’lgan zamonaviy yo’nalish. Ona tili ta’limida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish muammosining markaziy masalasi “ta’lim mazmuni va ijodiy ta’lim”, “o’qitish qobiliyati va ta’limni loyihalash”, “o’quvchi qobiliyati va ijodiy qobiliyat” tizimlari mohiyatini o’zida kompleks qamrab oladigan dasturlarni psixologik, pedagogik, didaktik, metodik jihatdan asoslashdan iborat. Loyihaviy ta’limda ta’limni modellashtirish, o’qish-o’rganish uchun qulay psixologik muhit yaratish bilan birga fanning keyingi yutuqlari - shaxsga yo’naltirilgan ta’lim vositalari, o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish sohalarida erishilgan natijalardan ham foydalanish zarur.

Hozirgi paytda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Angliya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Janubiy Koreya, Rossiyada shu yo’nalishdagi psixologik, pedagogik, didaktik, metodik, texnik, texnologik izlanishlar keng ko’lamda olib borilmoqda. Bir necha yillardan buyon ona tili ta’limida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish muammosi ilmiy adabiyotlarda ona tili darsida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish muammosi haqida gapirilayotgan bo’lsada, bu muammo yechimi ochiqigicha qolmoqda. Oxirgi o’n yillikda bu muammo bo’yicha bildirilgan fikrlar nafaqat mazmuni yoki shakli bilan, balki asosiy g’oyalari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

**Natijalar.** Xorijiy davlat olimlarining monografik asarlarini tahlil qilish asosida ona tili ta’limida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini loyihalashtirish xususidagi fikrlarni qisqacha sharhlab o’tamiz. O’qituvchi va dasturiy vositalar haqida gapiradigan bo’lsak, F.Amari o’qituvchilar dasturiy vositalardan foydalanuvchi emas, balki ularning yaratuvchisi bo’lishini taklif qiladi. Bu bilan o’qituvchi o’zining o’qitish g’oyasini dasturda shakllantirishi, uni tahlil qilish, qo’llash va baholash orqali takomillashtirishi mumkin deydi. S.Vong va boshqalar tayyorlanadigan o’qituvchilar fe’l-atvori va muloqotga kirishish darajasi bo’yicha har xil, shuning uchun o’qitish tizimida o’quvchiga munosabatini yaxshilashga e’tiborini qaratish kerak deb hisoblaydi. S.Demetriadis va boshqalar o’qituvchining dars berishi uchun o’quvchilarning mustaqil o’rganishi, bevosita suhbatlar asosida o’rganishi nazarda tutilgan.

Ijodiy ta’lim asosida o’qitish shakllari haqida ham turlicha fikrlar mavjud. Masalan, Korol axborot texnologiyalar(AT)lar vositasida o’quvchida qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida o’qituvchining yordam ko’rsatish metodlarini tahlil qilgan. R.Slavin dars jarayonida natijalarni muhokama va tahlil qilishda o’quvchilarning o’qituvchi rahbarligida guruhlariga bo’linib ishlashini o’rgangan. T.Kosman kompyuter yordamida muammoni birgalikda o’rganish bilan bog’liq tabaqalashgan ta’limdagi o’qish shakllarini tadqiq qilgan. E.Venger materialni o’rganish jarayonida bevosita o’z-o’zidan shakllanadigan guruhlar ishining xususiyatlarini o’rgangan. Shuningdek, aralash tipdagi dars uslublari ham qator olimlar tomonidan o’rganilgan.

Ta’lim mazmunini ijodiy o’rganish muammosi “o’quvchi va o’quv materiali” tizimida tahlil qilinadi. Shu yo’l bilan o’quvchi va ta’lim mazmunining o’zaro ta’sirini alohida ajratishga, komponentlar o’rtasidagi munosabat, aloqalarni batafsil tavsif etishga erishamiz. Shu bilan birga, o’zaro ta’sirni oldin o’quvchi – o’qish qobiliyatiga ko’ra, so’ngra o’quv materiali – ta’lim mazmuni jihatidan tahlil qilish uning jarayoniy hamda vositaviy xususiyatlarini sharhlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O’qish mehnatning ijtimoiy taqsimlanishida yoshlar zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazifadir. Respublikamiz hududida yashayotgan yoshlarning barchasi, ular xoh umumiy o’rta ta’lim maktablarida, xoh oliy o’quv yurtlarida o’qiyotgan bo’lsin, bir xil qobiliyat – o’qish bilan mashg’ul. Shu tufayli, o’qish kollektiv subyekt qobiliyati sifatida qaraladi. O’qish va o’quv materiali o’zaro ta’sirida o’qishning ikki

holatini farqlash kerak: nofaol vaziyat – bu an’anaviy o‘qish-o‘rganish. Bu yo‘sindagi o‘qishning asosida o‘qituvchining verbal tushuntirishi yotadi va u xotiraga mo‘ljallanadi; faol vaziyat – bu ta’lim mazmunini ijodiy o‘rganish bo‘lib, uning asosida bolalarning mustaqil aqliy qobiliyati yotadi.

Ta’lim mazmunini bolalarning ijodiy o‘rganishi o‘ta nozik did bilan yozilgan badiiy asarni o‘qishga o‘xshab, ularda o‘rganilayotgan mavzularga qiziqish hissini uyg‘otadi. O‘quv mavzulariga qiziqish motiv, emotsiya, hayratlanish va bilish ehtiyojlarini yuzaga keltiradi. Inson “ehtiyodan fikrlashga... fikrlash dinamikasidan xatti-harakatlar dinamikasiga qarab boradi”. Tashqi ta’sir va ichki affektlar sintezida bola ijod qila boshlaydi. Erishilgan natija mustaqil aqliy qobiliyat, tafakkur mahsuli sifatida shakllanadi.

O‘qish va o‘quv materialining o‘zaro ta’siri tizimida ikki xil munosabat ajratiladi: o‘quvchi va o‘quv materiali; o‘quvchi va real borliq. Bu munosabatlarning birinchisi o‘quvchi bilan belgilar (mas., yozuv) o‘rtasida yuz beradi. Chunki har bir o‘quv materiali yozuv yoki jonli nutq shaklida moddiylashtiriladi. Munosabatlarning ikkinchisi o‘quvchi bilan real borliq o‘rtasida sodir bo‘ladi. O‘quv materiallarida qayd etilgan real borliq o‘quv predmetlari sohasi sanaladi.

Munosabatlar nuqtai nazaridan o‘qish qobiliyati ikki bosqichli jarayondir: 1) shartli belgilar bilan to‘qnashuv – bu jarayonda ikki xil o‘zgarishni qayd etamiz: a) o‘quvchi ta’siridan belgilarning anglangan holatga kelishi; b) shartli belgilar ta’siridan bolalarda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar – belgilarni, ular vositasida berilgan mazmunni fahmlash; 2) shartli belgilar vositasida berilgan mazmunni o‘ziga oid sohaga ko‘chirish. Bu jarayonda ham ikki xil o‘zgarishni qayd etamiz: a) o‘quvchi ta’siridan shartli belgilarni o‘ziga oid mazmunga aylantirish, matnning qobiliyatning qaysi sohasi – o‘quv predmetiga doirligini fahmlash; b) shartli belgilar ta’sirida o‘quvchi ongida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar – tushunish, fikrlash, analiz va sintez qilish. Binobarin, metodikada belgilarni (mas., yozuvni) o‘rganish, uning xususiyatlariga tavsif berish, belgi bilan u anglatadigan mazmun o‘rtasidagi munosabatni tahlil etish o‘z tadqiqotchilarini kutayotgan metodologik muammodir.

**Muhokama.** O‘qish qobiliyatining shartli belgilar bilan uchrashuvi hamda ularning mazmunini o‘z sohasiga ko‘chirish jarayonlarida turli bog‘lanishlar amal qiladi. Mohiyati jihatidan bog‘lanishlar ikki guruhga ajratiladi: salbiy aloqalar, ijobiy aloqalar. Salbiy aloqalar o‘qish qobiliyatining samarali kechishiga to‘siq bo‘ladigan, bolalarga mazmun aloqalarini anglashiga xalaqit beradigan bog‘lanishlardir. Ular o‘quv materialining informatsion nuqtai nazarga daxldordir. Ta’lim aktlari maqsadini anglamaslik, bilimlar bilan real borliq o‘rtasidagi bog‘lanishni fahmlamaslik, o‘quv materialiga oid qobiliyat usulini ajrata bilmaslik, qoida va ta’riflar tarkibidagi ayrim tushuncha, atama, ifodalarning farqiga bormaslik, o‘rganilgan bilimlarni o‘quv va hayotiy holatlarga ko‘chira olmaslik salbiy aloqalar sirasiga kiradi. Salbiy bog‘lanishlarni bartaraf etish yo‘li bilan o‘qish qobiliyatining samarali kechishi tahminlanadi.

Salbiy aloqalarni imkoniyat darajasida kamaytirish, ijobiy aloqalarni ko‘paytirish orqali bolalarning o‘quv-biluv qobiliyati intensivlashtiriladi. Shuning uchun ijobiy bog‘lanishlarni bilish, ularni tasnif etish pedagogik qobiliyat bilan mashg‘ul kishilarning barchasiga - ham tadqiqotchiga, ham o‘qituvchiga nihoyatda zarur.

O‘quvchi va o‘quv materiali o‘rtasida quyidagi bog‘lanishlarni ajratamiz.

1. Mazmunli aloqa. O‘quv materiallarida tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga oid axborot - informatsiya, narsa-hodisalarning xususiyatlari to‘g‘risidagi tavsiflar berilgan. Bilim va qobiliyat usullarini esda olib qolish, qayta eslash, turli o‘quv hamda hayotiy sharoitlarga tatbiq etish ta’limga u yoki bu o‘quv materialini ma’lum izchilikda olib kirishning o‘ziga xos bosqichlari hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kichik hajmdagi axborotlarni o‘zlashtirishga moyillik ustun bo‘ladi. Bolaning mustaqil qobiliyatdan, foydali natijadan yuz o‘girmasligi uchun bilimlar keng hajmli bo‘lmasligi lozim. Binobarin, boshlang‘ich ta’limda bilimlarni kichik ulushlarda ijodiy o‘rgatish imkoniyatlari katta. O‘quv predmetiga oid bilimlarni sintez bilan yakunlanadigan analitik yo‘l orqali alohida-alohida o‘rgatish lozim. Axborotlarning kichikligi ularning o‘zlashtirilishini tez-tez nazorat qilish boshlang‘ich ta’limning samaradorligini oshirishga olib keladi.

2. Maqsadli aloqa. Aloqaning bu turi o‘quv materiali mohiyatiga ko‘ra aniqlanadi. Didaktikada “nima uchun o‘qitiladi?” degan an’anaviy savol to‘g‘risida o‘ylay boshlasak, maqsad aloqaning eng qadimiy aloqalardan biri sifatida tan olinganiga guvoh bo‘lamiz. Maqsad, maqsadga muvofiq qobiliyat bolaning shaxsiy taraqqiyotida ham ijobiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, o‘z oldiga maqsad qo‘ya bilish, qo‘yilgan maqsadga intilish o‘quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash omillaridan biridir. Zero, maqsad, maqsadga muvofiq qobiliyat “...subyektda shakllanadigan u yoki bu qobiliyatning eng asosiy momenti sifatida amal qila boshlaydi”, - deb yozgan edi L.D.Lebedeva.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv maqsadlarini anglashiga, asosan, ikki yo‘l bilan erishiladi: o‘quv materiali, muammo, topshiriq, mustaqil ishlarni izohlash yo‘li bilan maqsadni tushunish. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchining bir-birini tushunishi o‘rganilayotgan o‘quv materiali maqsadini anglashga imkon

beradi. O‘quv materialiga duch kelish, muammo, topshiriqlarni o‘z oldiga qo‘yish, ularni hal qilish jarayonlaridagi qiyinchiliklarni sezish yo‘li bilan ham bolalarning o‘zlari maqsadni anglashadi. O‘quv maqsadlarini anglashning ikkinchi yo‘li samarali, shu bilan birga xavfli yo‘ldir. Chunki aqliy va amaliy qiyinchilikka duch kelgan o‘quvchi maqsadni noto‘g‘ri aniqlashi, maqsaddan voz kechishi ham mumkin. Bolalarda mustaqil ishlash malakalari takomillashib, fikrlash rivojlanib borgan sayin bunday xavf kamaya boradi.

3. Funksional aloqa. “Har qanday obyekt o‘zining mavjudligi, atrofimizni o‘rab olgan narsalar o‘rtasidagi o‘rni bilan qiziqarli. Bu inson qobiliyatining maqsadga yo‘nalganligiga mos hodisa. Yangi obyekt bilan birinchi marta uchrashganda, biz uning funksiyasi to‘g‘risida o‘ylay boshlaymiz. Binobarin, muammo yoki tizimni funksional tavsiflash birinchi o‘rinda turishi kerak”. Tizimning zarurligini anglash, uning o‘rnini aniqlash, boshqa tizimlarga munosabatini baholash funksional tahlilga bog‘liq. Har bir o‘quv materialini o‘quvchi qobiliyatida ma‘lum funksiyalarni bajaradi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumiga oid bilimlarni o‘rganishning quyidagicha funksional xususiyatlarini (bola qobiliyatida bajaradigan ishlarini) ajratish mumkin: ot so‘z turkumiga oid so‘zlarning ma‘nolarini izohlash yo‘li bilan bolalarning ongini rivojlantirish (1); otlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llash - uslubiy funksiya (2); otlarni to‘g‘ri yozish - orfografik funksiya (3); otlarni nutqda to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish - orfoepik funksiya (4). Bolalarga o‘rganilayotgan mavzu -obyektlarning funksiyalarini yetkazish ta‘limda ikki jihatdan ahamiyatlidir: aynan olingan obyekt - mavzuning oldin o‘rganilgan yoki endi tahlil qilinadigan obyektlar bilan munosabatini aniqlash; turli obyektlar o‘rtasidagi munosabatlar amal qilishini tahminlash. Agar o‘quvchi o‘rganilayotgan tushunchalarning funksiyalarini ajrata olsa, shu tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanish, munosabatlarni ham aniq tasavvur etadi.

Maqsad: bolalar mas’uliyatli bo‘lishni o‘rganadi, tasavvuri kengayadi.

O‘yin j: bolalar turli guldastalar suratlarini tomosha qiladilar va o‘zlari ham rangli qog‘ozlardan guldasta yasaydilar.

**3)“Quyoshjon”.**

Maqsad: bola ixtiyoriy kompozitssiyalarini yaratishi mumkin, xamir bilan ishlash bo‘yicha texnik ko‘nikmaga ega, bir nechta qismlarni qanday joylashtirishni biladi.

O‘yin jarayoni: bolalar quyosh va uning xususiyatlari haqida gapirib beradilar. Keyin esa xamiran quyoshning shaklini yasab beradilar

**4)“Hayvonlar”.**

Maqsad: bolalarning uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash. ularning rasavvurlarini boyitish

O‘yin jarayoni: boallar turli hayvonlar suratlarini ko‘radilar, ularning nomlarini aytadilar. Keyin esa o‘sha hayvning suratlarini qaychida ksib oq qogozga yelim yordamida yopishtiradilar

**5)“Mening xonam”.**

Maqsad: bolalarning rasm chizishdagi texnik mahorati oshadi, tasavvurlari kengayadi.

O‘yinda bolalar “mening xonam” mavzusida qisqacha gapirib beradi. Xonada qanday jihozlar bor, qaysi jihoz ularga ko‘proq yoqadi, bu haqida ham aytadilar. Keyin esa hamma o‘z xonasining suratini chizadi.

**Xulosa.** Bolalarning shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta’lim jismoniy va ongli tarbiya uyg‘unlikda olib borilishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun to‘g‘ri tashkillashtirilgan didaktik mashg‘ulotlar asosiy vazifani bajaradi. Estetik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda go‘zallikni tushunish, uni his qilish, yaxshi va yomonni, badiiy san’at turlarini farqlay olish va ularga ijodkorona yondashishga yo‘naltirilgandir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamon bilan hamnafas bo‘lishda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda to‘g‘ri maqsad qo‘yilgan didaktik o‘yinlar asos vazifasini bajaradi va bolaning kelajakda uchrashi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarni mustaqil yechishiga zamin hozirlaydi.

**Adabiyotlar:**

1. Altshuller G.S. Ijodkorlik aniq fan sifatida. M., 1979.S. 10-60.
2. Antonova, Yu.A. Bolalar va ota-onalar uchun qiziqarli o‘yinlar va o‘yin-kulgilar / Yu.A. Antonova. M: 2007. 280 -288 b.
3. Belova E. S. P. Torrens testidan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini aniqlash // Psixologik diagnostika. 2004. No 1. S. 21-40.
4. Boy V., V. Nyukalov. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish (bolalar bog‘chasida TRIZ), 2008. 17-19-betlar
5. Venger N.Yu. Ijodkorlikni rivojlantirish yo‘li. - maktabgacha ta’lim. -1982 #11. 32-38-betlar.
6. Vygotskiy L.N. Maktabgacha yoshdagi tasavvur va ijodkorlik. - Sankt-Peterburg: Ittifoq, 1997. 92 str.
7. Dyachenko O.M., Veraksa N.E. Dunyoda nima bo‘lmaydi. - M.: Bilim, 1994 yil.
8. Ermolaeva-Tomina LB Badiiy ijod psixologiyasi: Universitetlar uchun darslik. - M.: Akademik loyiha, 2003. C. 2-304
9. Yefremov V.I. TRIZ asosida bolalarni ijodiy tarbiyalash va o‘qitish. - Penza: Unicon-TRIZ, 2000 yil.
10. Mirzayeva Dilfuza (2024). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2 (15), 4-14.
11. Axmedova, N. E., & Nuriddinova, M. M. Q. (2023). Bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Oriental renaissance: // Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 755-760.
12. Tarbiyachi kitobi. Didaktik o‘yinlar. Amaliy qo‘llanma. N.Erxonova, Z.Ro‘ziyeva. -T.: “Evrika” Nashriyot matbaa uyi, 2022-yil.

## TASVIRIY FAOLIYAT – ESTETIK TARBIYANING ZARURIY VOSITASI SIFATIDA

*Ne'matova Shirinoy Nizomiddinovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi ekanligi, tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodni o'stirishda muhim rol egallashi, bolalarning badiiy ijodiy o'sishi esa bu- obrazli fikr yuritishni, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka ko'nikmalarni egallashi va maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama kamol topishida tasviriy faoliyatning o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritiladi.*

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarni shakllanishi uchun xizmat qilishi, barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg'u, badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishida imkoniyat yaratishi haqida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** tasviriy faoliyat, rasm, loy ishi, applikasiya, estetik tarbiya, estetik did, tasavvur, badiiy ijodiy qobiliyat.*

## ИЗОБРАЗИТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ – НЕОБХОДИМОЕ СРЕДСТВО ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

*В данной статье показано, что изобразительная деятельность является основным средством эстетического воспитания детей, что изобразительная деятельность играет важную роль в развитии художественного творчества детей, что художественно-творческий рост детей включает в себя образное мышление, эстетическое восприятие, необходимые навыки. Обсуждаются роль и значение изобразительной деятельности в приобретении навыков и всестороннем развитии детей дошкольного возраста.*

*Изобразительная деятельность в дошкольных образовательных организациях служит всестороннему развитию детей, формированию у них различных способностей, соединению всех видов деятельности детей по наблюдательности, любознательности, мышлению, воображению, эстетическому чувству, художественному вкусу и тем самым при этом разъяснено, что моральные качества, желание работать и умение доводить начатое дело до конца создают возможность для развития чувства преодоления трудностей.*

***Ключевые слова:** изобразительная деятельность, живопись, работа с глиной, аппликация, эстетическое воспитание, эстетический вкус, воображение, художественное творчество.*

## PICTURE ACTIVITY IS A NECESSARY MEANS OF AESTHETIC EDUCATION

*This article shows that visual activity is the main means of providing aesthetic education to children, that visual activity plays an important role in the development of children's artistic creativity, and that children's artistic and creative growth includes figurative thinking, aesthetic perception, and skills necessary for image creation. The role and importance of visual activity in the acquisition of skills and comprehensive development of preschool children is discussed.*

*Visual activities in preschool educational organizations serve for the all-round development of children, the formation of various abilities in them, the connection of all types of activities in children's observation, curiosity, thinking, imagination, aesthetic feeling, artistic taste, and thus at the same time, it was explained that moral qualities, the desire to work and the ability to finish the work started, create an opportunity for the development of the feeling of overcoming difficulties.*

***Keywords:** visual activity, painting, clay work, application, aesthetic education, aesthetic taste, imagination, artistic creativity.*

**Kirish.** Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini qaytadan qurish borasida olib borilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarorining ikkinchi paragrafida Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ushbu konsepsiyasida Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

**Asosiy qism.** Tasviriy faoliyat – bu bolalarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi – rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir Maktabgacha ta‘lim tashkilotida tasviriy faoliyat bo‘yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy tamoyili, bu tasviriy faoliyatni ta‘lim-tarbiyaviy ishning eng muhim bo‘limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi.

Rasm chizish ,loydan buyumlar yasash va applikasiya - bu tasviriy faoliyat turlari bo‘lib,ularning asosiy vazifasi tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan:yozuvchining she‘ri va rassomning asari.

Bolalar rangni,shaklni uning xilma-xilligini sezsa yoki aks etsa u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi,bahramand bo‘ladi.

Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi ularda predmetga va uning ba‘zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o‘rgatadi.Ularda tasviriy san‘at asarlarini tushunishga,ularga nisbatan his-tuyg‘uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodni o‘stirishda muhim rol egallaydi. Bolalarning badiiy ijodiy o‘sishi bu-obrazli fikr yuritishni,estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo‘lgan malaka ko‘nikmalarni egallash hisoblanadi.Masalan tabiat qo‘yniga sayr,kuz faslida ekskursiya uyushtirish.

Tarbiyachi bolalarni narsa va buyumlarni yoki tevarak- atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg‘u orqali tevarak- atrofga kishilar mehnatiga to‘g‘ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarini tarbiyalashi mumkin.Bolalar o‘z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarishi,boshqalarga yoqadigan,ular ko‘rganda quvonadigan qilib yaratish-bu badiiy axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya boalada tevarak –atrofdagi olam,san‘at go‘zalligini ko‘ra bilish va uni yaratish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida boal shaxsiga ta‘sir ko‘rsatishning biror masadga qaratilgan ,tizimli jarayondir.Bu jarayon bola hayotining dastlabki yillaridah boshlanadi.

Estetik tarbiya juda keng tushunch .Tabiatga ,mehnatga, ijtimoiy hayotga,turmushga ,san‘atga estetik munosabatni tarbiyalash ham shu tushunchaga kiradi.Biroq san‘atni bilish shunchalik keng va va o‘ziga xoski ,u nafas tarbiyasining umumiy tizimidan uning alohida qismi sifatida ajralib turadi. Bolalarni san‘at vositalari bilan tarbiyalash badiiy tarbiya mavzuini tashkil etadi.O‘z novbatida Estetik tarbiyabolalarni har tomonlama tarbiyalashning bir qismi bo‘lib hisoblanadi.U axloqiy tarbiya bilan o‘zaro bog‘langan.

Hayotdagi va san‘atdagi go‘zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his-tuyg‘ularini tarbiyalab olmaydi,balki xayoli va fantaziyasini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Estetik tarbiyani amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni:**bolalarning estetik idroki,estetik tuyg‘ulari,va tasavvurlarini** ularning **badiiy-ijodiy qobiliyatini muntazam ravishda rivojlantirish, estetik did** asoslarini shakllantirishni amalga oshirish zarur.

Bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab ongsiz ravishda har qanday yaltiroq va qiziqarli narsaga intiladi,yaltiroq o‘yinchoqlar, chiroyli gullar va narsalardan quvonadi.Bularning hammasi unga qanoatlanish,zavqlanish hissi uyg‘otadi.”Chiroyli” so‘zi bolalar hayotiga erta kirib keladi.

Hayotlarining birinchi yilidan boshlab ular qo‘shiq,ertak tinglaydilar,suratlarini tomosha qiladilar, borliq bilan vaqtda san‘at ularning quvnoq kechinmalari manbaiga aylanadi. Estetik tarbiya jarayonida ularda harqanday yaltiroq,chiroyli narsaga behos ta‘sir korsatishdan go‘zallikni idrok qilishga o‘tishholati ro‘y beradi.

Borliqni **estetik idrok qilish** o‘z g xususiyatlariga ega.Buyumlarning hissiy shakli -ularning rangi,tuzilishi,shakli tovushi borliqni estetik idrok qilish uchun asosdir.Shu sababli uni rivojlantirish katta sensor madaniyatni talab etadi.

Go‘zallikni bola shakl va mazmunning birligi sifatida idrok qiladi .Shakl tovushlar,chiziqlar ,bo‘yoqlar majmuida ifodalanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar badiiy faoliyatining deyarli hamma turlari: xikoyalar tuzish, sherlar o‘ylab topish, ashula aytish, rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasashni uddalay oladilar. Tabiiyki bular ularda o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu o‘ziga xoslik borliqni soda qilib, bevosita aks ettirishda, odatdan tashqari samimiylikda, tasvirlayotgan narsasining to‘g‘riligiga ishonchda, tomoshabihlar va tinglovchilari haqida g‘amxo‘rlikning yo‘qligiga ifodalanadi. Shu bosqichning o‘zida bolalarning **badiiy ijodiy qobiliyatlari** rivojlanib boradi. Bu o‘y-fikrning paydo bo‘lishida uni ishda amalga oshirishda, o‘z bilim va taasurotlarini qo‘sha bilishida, his-tuyg‘ular va fikrlarni samimiyat bilan ifodalashida namoyon bo‘ladi.

Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Biror bir buyumni chizish va yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli katta kichikligini, qismlarini joylashishi va rangini bilish kerak bo‘ladi. Bu jarayonda ko‘rish, sezish, qo‘l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi.

Bolalar narsa va hodisalarni kuzatish va ko‘rib chiqish jarayonida uni katta-kichikligiga qarab guruhlarga bo‘lish, uni shaklini o‘zgartirish, rangini turli tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek tasviriy faoliyatda bolalar turli xil ashyolar, ya‘ni qog‘oz, bo‘yoq, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o‘shishiga sabab bo‘ladi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalarini (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish) rivojlanishiga imkon beradi. Bu o‘z navbatida bolalarni oqilona o‘shishiga olib keladi.

Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyasi amalga oshirishda ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog‘lanadilar. Ularning o‘ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta – kichikligi bilan tanishadilar. Ularning farqini, o‘xshashligini aniqlaydilar. Bu esa bolalarning sensor tarbiyalashga ko‘rgazmali, obrazli fikr yuritishiga misol bo‘ladi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi, chunki bolalar o‘z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo‘layotgan voqea hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo‘ladilar, hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodanig sifatlari - boshlangan ishni oxiriga yetkazish, oldinga maqsad qo‘yib, uni bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o‘rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyanadi. Jamoa bo‘lib ish yuritish jarayonida bolalarga bir – biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlarni tarbiyalanadi. Bolalar ishni baholash jarayonida ularni o‘rtoqlarining ishiga nisbatan aniq munosabatda bo‘lish, to‘g‘ri baholash, o‘z ishidan va o‘rtoqlarining ishidan xursand bo‘lish kabi axloqiy sifatlarni tarbiyanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy ishi, applikasiya, qurish materiallari bo‘yicha bilim malakalarni egallash maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvofaqiyatli egalashlariga asos bo‘ladi. Ularni o‘quv faoliyatiga tayyorlaydi. Masalan, pedagogni tinglashga, uning ko‘rsatmalarini bajarishga o‘rgatadi.

Oldiga qoyilgan vazifani hal etishda uning asosiy va muhim hal etish yo‘llarini izlab topish bu o‘quv faoliyatining asosiy vazifalaridan biridir. Tasviriy faoliyat islarini bajarish jarayonida o‘z harakatlarini nazorat qilib borish, keyinchalik maktabda vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga o‘rgatadi. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham rivojlanib boradilar. Maktabga qiziqish, o‘qishga xoxish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug‘ullanish va shular jumlasidandir. Demak, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo‘ladi.

Tasviriy faoliyat-bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarning bir qismidir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta‘lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg‘ulotlar turlari bilan bog‘liq bo‘lishi muhimdir.

Rasm, loy ishi, qirqib yopishtirish ishlariga bolalar o‘zlarining tevarak-atrofdagi narsa-hodisalar, badiiy asarlar, qo‘shiqlardan olgan taasurotlarini aks ettiradilar. Rasm, loy ishi, qirqib yopishtirish va qurish-yasash ishlarining boshqa mashg‘ulotlari va faoliyat turlari bilan bog‘liqligi bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiyaviy ishning samarasini, bolalarni turli mashg‘ulotlarga qiziqishini oshiradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarni shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Barcha faoliyat turlarining bog‘liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg‘u, badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlarni, mehnat qilish xoxishi va ko‘nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishida imkoniyat yaratadi.

Bolalar bilan tasviriy mashg‘ulotlarda o‘tkaziladigan suhbat ularda rasm chizishga, loydan narsa yasashga qiziqishlarini uyg‘otishlari zarur. O‘tayotgan jarayon bilan bog‘liq bo‘lmagan yuzaki talablar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so‘ndiradi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari jonli, emotsional, ertakli, sehirli elementlar bilan o‘tilishi lozim. Shuning uchun tarbiyachi ta‘lim jarayonini yengil, bolalar qiynalmaydigan

darajada o‘tkazishi lozimdir. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar o‘yin, badiiy o‘qish va hikoya qilish, musiqa bilan bog‘liqligini tizimli olib borish kerak. Dastavval rasm, loy ishi, qirqib yopishtirish mashg‘ulotlarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash zarur. Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

**Xulosa** qilib aytganda tasviriy faoliyat bolalarning estetik tarbiyasining rivojlanishi, shakllanishi uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Faqatgina estetik jihatdan rivojlanishi uchun emas, balki tasviriy faoliyat bolalarning mayda motorikasi, sensomotorikasi rivojlanishi uchun ham xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Nigmatova M.M. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish. T.: Ilm ziyo 2021 3-7 betlar
2. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. “Sho‘lpon” T.: 2010y.
3. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqa” T.: 2010y.
4. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini korreksiyalashda pedagogik texnologiyalar” <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/50>.
5. Zaif eshituvchi bolalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalari va bilimlarini o‘ziga xos tomonlari <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/10146>.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA  
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI**

*O‘ktamova Mehriyo Azamovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
[mexrigiyouktamova@gmail.com](mailto:mexrigiyouktamova@gmail.com)*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni sevish, uni ardoqlash, unga bo‘lgan mehr-muhabbat, sadoqat kabi tuyg‘ular va bularni qanday qilib shakllantirishimiz to‘g‘risida fikr yuritilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asarni o‘qitish jarayonida bilim berish ularda ko‘proq tassavvurni kengayishi va bilimni to‘laqonli egallashga ko‘maklashgan. Asosiy farq o‘quvchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaatlarda bo‘lib, ular shaxsiy sharhlar va savollarda amalga oshiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, o‘quv motivlari, tafakkur, xotira, intellekt, mantiq, inson, muammo, shaxs, tuyg‘u, pedagogika, yondashuv, o‘quvchi, o‘qituvchi, sinf, axborot, vatanparvarlik, elektron texnologiyalar.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ  
КЛАССОВ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА**

*В данной статье рассматривается вопрос о том, как воспитывать учащихся начальных классов в духе патриотизма, любить свою страну, чтить её, любить и преданно относиться к ней и как формировать эти чувства. В статье с использованием современных педагогических технологий передача знаний в процессе обучения художественному труду учащихся младших классов помогла им расширить воображение и в полной мере овладеть знаниями. Основное отличие – в прямых обращениях к читателю, которые осуществляются в личных комментариях и вопросах.*

***Ключевые слова:** начальное образование, мотивация обучения, мышление, память, интеллект, логика, человек, проблема, личность, чувство, педагогика, подход, ученик, учитель, класс, информация, патриотизм, электронные технологии.*

**PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF EDUCATING ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS  
IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM**

*This article discusses how to educate elementary school students in the spirit of patriotism, to love the country, honor it, love and loyalty to it, and how to form these feelings. In the article, using modern pedagogical technologies, imparting knowledge in the process of teaching artistic work to elementary school students helped them expand their imagination and fully acquire knowledge. The main difference directly appeals to the reader, which is carried out in personal comments and questions.*

***Keywords:** elementary education, learning motivation, thinking, memory, intellect, logic, human, problem, person, feeling, pedagogy, approach, student, teacher, class, information, patriotism, electronic technologies.*

**Kirish.** 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonunni qabul qilganligi, maktab ta‘lim tizimining ma‘naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta‘lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta‘lim bizning nafaqat bilim va ko‘nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Zamonaviy ta‘lim dunyodagi tinimsiz o‘zgarishlarga ko‘nikkan, turli muammo va to‘siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta‘lim o‘quvchilarni nafaqat amaliy

ko'nikmalar bilan, balki o'quvchilarga bugungi kunda zarur bo'lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv texnikalari bilan ta'minlaydi. Bugun dunyoda “ijtimoiy ko'nikmalar”ga (soft skills) ega bo'lgan mutaxassislarga ehtiyoj ortib, ayni paytda “kasbiy ko'nikmalar” (hard skills) o'zining birinchi darajali ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, texnikaviy axborot olish kerak.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar** Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida tushuncha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari. Vatanparvarlik tuyg'usi kishining o'z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o'tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san'atiga bo'lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Qadim zamonlardan buyon xalqning o'z Vataniga muhabbati qo'shiqlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuyg'usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi. Vatanparvarlik – tug'ma tuyg'u emas. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda bu tuyg'uni tarbiyalashga muhim o'rin berilgan. Vatan haqidagi boshlang'ich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak- atrofdagi hayot to'g'risidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil bo'ladi. Vatan - har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota- ona, aka- uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning individual shakllari asosan oilada amalga oshiriladi. U yoki bu masalada hal qiluvchi rolni oila o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning oilalari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishi, ota-onalarni bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga jalb qilishi kerak. Shunday qilib, ta'lim muassasasida vatanparvarlik ishining muvaffaqiyati o'qituvchilarning axloqiy- psixologik xarakteriga, ularning psixologik, pedagogik va kasbiy tayyorgarligiga, o'z vazifalariga munosabatiga, shuningdek, o'quvchilarning ota-onalari bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga bog'liq.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagi boshqaruvchilari-yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Yurtimizda azal-azaldan umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarini, milliy urf-odat va an'analarni ulug'lash, ularga chuqurroq nazar tashlab kelajak avlodga yetkazish uchun e'tibor qaratib kelingan. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma'naviy hislatlarga ega, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona- Vataniga fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev kelajak yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib: Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz deb takidlaydilar. Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyati mos ravishda o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra, ko'lamiga ko'ra, kelib chiqish manbaiga ko'ra turkumlanishi asosida interfaol metodlar: “Case study” (yoki “O'quv keyslari”), “Modellash tirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”; Strategiyalar: “Galereya”, “Rotatsiya”, “Yumaloqlangan qor”; Grafik organayzerlar: “Konseptual jadval”, “Insert”, “Nima uchun jadvali” kabilardan samarali foydalanish mumkin. Albatta bunda, shakl va mohiyatiga ko'ra turkumlangan metodlarni tanlashda o'qitish maqsadi bilan o'qituvchilarning kuchli bilimi va salohiyati, dunyoqarashi keng, insonparvarlik, vatanparvar, tashabbuskor, ijodkor, madaniyatli va savodli nutq, kasbiy mahorati, o'z kasbini sevish – o'ziga ishonch yotadi. Ta'lim maqsadlari o'quvchini faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirib olishga emas, aksincha, bola bilimni qidirib topishiga erishish, o'z xulosasini chiqara olishga o'rgatish, tanqidiy munosabat bildira olishiga erishish bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning bosh maqsadiga aylanmoqda.

Maktabda o'qitiladigan har bir fan, asosan tarbiya fanining har bir mavzu o'quvchi ma'naviy qiyofasining boyishiga hissa qo'shib boradi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalari bolalarga kuchli ma'naviy ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. Tez aytish, maqollar, ertaklar tajribada sinalgan, minglab yillar davomida jamiyat a'zolarini eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi. Tez aytish, maqollar, xalq ertaklari mazmun jihatidan boy, shakl jihatidan xilma-xildir. Ularning paydo bo'lishi ham uzoq o'tmishdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Xalqning umumiy dahosi mahsuli bo'lgan folklor materiallari aynan bir xalq, bir millat tomonidan yaratilsa ham, umuminsoniy qiymati kuchli hisoblanadi. Shuning uchun ham tez aytishda, maqollarda, ertaklarda turli xalqlarda yaratilgan, mazmun jihatidan bir xil, yoki bir-biriga yaqin bo'lgan materiallar uchrab turadi. Bu hol xalq og'zaki ijodini

umumbashariy ta’siriga ega ekanligidan dalolat beradi. Tez aytishlar, maqollar, ertaklar mazmuniga qarab, yoshlarni tarbiyalashni turli yo’nalishlarini, aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnatsevarlik va boshqa xususiyatlarni tarkib toptirishga qaratilgan bo’ladi. Inson kamolotining biror sohasi yo’qki, unga tez aytish, maqollar, ertaklar ta’sir etmagan bo’lsin. Tarbiya fanidagi ayrim materiallar yoshlarni tarbiyalashni qonun-qoidalari, prinsiplari, metodlarini aks ettirish bilan ajralib turadi. Shunday imkoniyatlarga ega bo’lgan xalq og’zaki ijodi boshlang’ich sinflarda tarbiya fanining asosiy mazmuni tarkibiga kiritilgan holda o’rganib kelinmoqda.

Folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida xalq og’zaki ijodi janr xususiyatlari, badiiy qiymati, paydo bo’lishi va taraqqiyoti haqidagi qarashlari katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish zarur. Ma’lumki, inson barkamolligi uning ma’naviy qadriyatlar haqidagi xalq og’zaki ijodi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarkib toptirishda, kundalik faoliyatlarida doim amalga oshirib borishlari uchun eng qulay vositadir. Zero, xalq og’zaki ijodi bolalar hayotida alohida o’rin tutadi. Ular o’quvchilarga samarali tarbiyaviy ta’sir qilib, ma’naviy va axloqiy shakllanishlarida katta yordam ko’rsatadi. Xalq og’zaki ijodi milliy o’zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g’oyalarni ruhiyatga singdirish katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ham xalq og’zaki ijodida o’z o’rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog’liq ekanligi qanchalik haqiqat bo’lsa, o’quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash zarurati bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Milliy axloqiy tarbiya xalqning o’z-o’zini saqlash va istiqbolini ta’minlash omili bo’lib hisoblanadi. Boshlang’ich ta’limda darsning noan’anaviy tarzda tashkil qilinishi o’qituvchi va o’quvchining samimiy munosabati, kichik guruh a’zolarining faolligi, jamoa bo’lib ishlashga o’rgatish, bolada guruh ishtirokchisi sifatida tashabbuskorlik, aniq maqsadga intilish, ijodkorlik, o’z fikrini bayon qilish madaniyati, bunyodkorlik sifatlarini shakllantiradi. Bu jarayon, albatta, o’qituvchidan darsni rejalashtirish va loyihalashtirish mahoratini, barcha o’quvchilarning bir xil ishlashlariga erishish, kreativlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, perseptivlik qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Boshlang’ich sinf tarbiya darslarida xalq og’zaki ijodidan bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish, o’quvchilarni faqatgina o’sha aytilayotgan topishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o’rtasida bir-biriga mehr, do’stlik, o’rtoqlik, hamjihat bo’lib harakat qilish kerakligi haqida fikrlar bildirilgan. Tarbiya darslarida xalq og’zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda boshlang’ich sinf pedagog-tarbiyachilari tomonidan bolalarni tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo’nalishiga ko’ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: - maqsadi, vazifasi va shakliga ko’ra xalq og’zaki ijodi turlaridan foydalanish uchun mashg’ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish; - modellashtirish, ya’ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda xalq og’zaki ijodidan foydalanishda o’quvchilar uchun zaruriy shartsharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta’minlash bo’yicha vazifalarni oldindan belgilash; - yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko’ra tarbiya darslarini tashkil etilishini nazorat qilish, ibrat, namuna ko’rsatish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag’batlantirish. Boshlang’ich sinf tarbiya darslarida xalq og’zaki ijodi namunalardan foydalanish jarayonining ishlab chiqilgan pedagogik-tashkiliy tuzilmasi (modeli)ni amaliyotda to’liq joriy etish orqali boshlang’ich sinflarda tashkil qilingan tarbiyaviy tadbir, mashg’ulotlar, oilaviy marosimlar natijasida pedagogik samaradorlikka erishiladi. Yig’ilgan materiallar o’rganilish natijasida ishtirok etish belgilaridan foydalanishga ta’sirini aniqlandi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning afzalliklari bo’yicha tahlil qilingan ilmiy maqolalar zamonaviy kompyuter texnologiyalarining kamchiliklariga qaratilgan maqolalarga qaraganda ko’proq jalb qilish kontingentiga tayanadi. Ikkala o’rganish natejalari bo’yicha mualliflar o’quvchiga murojaat qilish va umumiy bilimlarga murojaat qilish orqali o’quvchi bilan muloqot qiladi, ammo boshlang’ich sinf o’quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog’lab yozilgan maqolalar o’quvchi e’tiborini faol ravishda yo’naltiradi va sharhlar orqali ularga bevosita murojaat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llagan holda boshlang’ich sinf o’quvchilarida badiiy asarni o’qitish jarayonida bilim berish ularda ko’proq tassavurni kengayishi va bilimni to’laqonli egallashga ko’maklashgan. Asosiy farq o’quvchiga to’g’ridan-to’g’ri murojaatlarda bo’lib, ular shaxsiy sharhlar va savollarda amalga oshiriladi. Dastlab, tarixiy materiallar tarkibida mavjud bo’lgan hikoya, afsona, ertak va masallardan o’rinli foydalanish talab etiladi. Bunga shu yoshdagi bolaning uyda va maktabda shug’ullanadigan asosiy faoliyati bo’lgan o’qish, muomala, o’yin, mehnat yordam beradi.

Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida tushuncha, boshlang’ich sinf o’quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari. Vatanparvarlik tuyg’usi kishining o’z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o’tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san’atiga bo’lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Qadim zamonlardan buyon xalqning o’z Vataniga muhabbati qo’shiqlarda,

ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuygʻusi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi.

Vatanparvarlik – tugʻma tuygʻu emas. Shuning uchun ham boshlangʻich sinflarda bu tuygʻuni tarbiyalashga muhim oʻrin berilgan. Vatan haqidagi boshlangʻich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak- atrofdagi hayot toʻgʻrisidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil boʻladi. Vatan - har bir kishida oʻz uyiga, tugʻilib oʻsgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota- ona, aka- uka, opa- singillariga boʻlgan munosabatida aks etadi. Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning individual shakllari asosan oilada amalga oshiriladi. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yoshlarga tegishli boʻlgan qonunlar ham mavjud boʻlib, bu qonunlar yoshlarning vatan oldida boʻlgan burchini bajarishiga qaratilgan. Jumladan, 41-moddada: “har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy taʼlim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”; 45-moddada: “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolgʻiz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir”; 64-moddada: “Ota-onalar oʻz farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar”; 66-modda: “Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar oʻz ota-onalari haqida gʻamxoʻrlik qilishga majburlar”; 117-moddada: “Oʻzbekiston Respublikasining oʻn sakkiz yoshga toʻlgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar” kabi meʼyorlar belgilab qoʻyilgan. Boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda har bir oʻqituvchi quyidagi shartlarni eʼtiborga olishi lozim:

- bilim egallashga ehtiyojni sezish va oʻz bilimi va qobiliyatini namoèn qila olish koʻnikmasiga egalik boʻlishi;

- oʻziga nisbatan talabchan, xatti-harakatlaridagi kamchiliklarni bartaraf eta olish;

- vatanparvarlik sifatlariga ega boʻlish; mehribonlik, gʻururli boʻlish; Sanab oʻtilgan sifatarni oʻquvchi ishlar ongiga singdirish uchun quyidagi shartsharoitlarga amal qilish zarur:

- oʻquvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishni ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bogʻlab olib borish;

- oʻquvchilarni ijtimoiy yoʻnaltirish, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etish;

- ijtimoiy onglik ijtimoiy hayot vaziyatlaridan toʻgʻri yoʻl topib chiqish olish maʼnaviyatlilik, komillik belgisi ekanligini tushuntirish. Ushbu fikrlarning xulosasi oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, jahon hamjamiyatida ijtimoiy siyosiy vaziyatlarning keskinlashayotgan bir sharoitida oʻquvchi yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ✓ yoshlarni milliy gʻoya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch yekanini chuqur singdirish;

- ✓ qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yoʻlida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib boʻlish tuygʻusini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga boʻlgan ishonchni kuchaytirish;

- ✓ milliy armiyamizga jismonan baquvvat va maʼnan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir Oʻzbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch yekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy koʻnikmalarni mustahkamlash;

- ✓ yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda roʻy berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish koʻnikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni

- ✓ har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga yega yoshlarni tarbiyalash

- ✓ Oʻzbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi boʻlish bu bugungi kun talabi yekanini hayotiy misollar va taʼsirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

**Xulosa.** Boshlangʻich sinflarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ona tilini oʻqitishda tilga hurmat, shu bilan birga oʻzbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, oʻqish va orfografik til meʼyorlariga amal qilishni dars jarayonida tatbiq etish lozim. Yangi Oʻzbekistonni qurishimiz uchun avvalo taʼlim tizimimizni yangilashimiz, yangi gʻoyalar kiritishimiz, yangi islohotlar oʻtkazishimiz kerak. Boshlangʻich taʼlim jarayonida oʻquvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun taʼlim talablarini aniqlash, muammoli vaziyatlar yaratish va taʼlimga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi oʻquvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlangʻich taʼlim oʻquvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, oʻquvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda taʼlim muassasalarining oʻrni nihoyatda katta boʻlib, taʼlim muassasasida taʼlim berish bilan birga tarbiyaviy ishlar birgalikda amalga oshiriladi. Taʼlim

muassasalari talabalarining harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’lim muassasasida o’tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlar, harbiy xizmatchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan tadbirlar orqali olib boriladi. Auditoriyadan tashqari ishlarda o’quvchilarda vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirishda ularning olgan bilimlarini amaliy hayotga tatbiq qilishlari uchun aniqmaqсад asosida munozaralar o’tkazish juda ahamiyatlidir. Dars mashg’ulotlari vaqtida o’quvchi shu mavzu bo’yicha o’z bilganlarini erkin holda gapirib berishi, munozara o’quvchiga murakkab masalalarni tushunib olishga, o’z tushunchasini o’rtoqlari oldida namoyish qilishga va bilim doirasining kengayishiga yordam beradi.

**Adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2020-yil 23-sentyabrdagi O’RQ-637-son Ta’lim to’g’risidagi Qonuni. (lex.uz)
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel, PF-5712-sonli «O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi Farmoni.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xapkimiz bilan birga kuramiz. - Toshkent, O’zbekiston, 2017. - 488 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O’zbekiston, 2016. - 56 b.
5. 2-sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi”1-qism darslik.Toshkent 2021-y.
6. G’aforovna J. H. (2023). Interfaol metodlar yordamida boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. P // edagogs jurnali, 1(1), 666-666.
7. Jumayeva H.G.’ (2023). Boshlang’ich sinf ona tili ta’limida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi. // Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 45-47.
8. G’aforovna J.H. (2023). Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari // Образование и инновационные исследования - международный научно-методический журнал, (1), 226-23.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA XORIJ TAJRIBALARI

*Rashidova Mehriya Muzaffarovna,  
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini 1 soatlik dars jarayoniga jalb qilib fikrlarini jamlashlariga yordamlashish ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Ta‘lim jarayonida turli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchi qiziqishini orttiradi. Bu ta‘lim berishda o‘quvchilarni yaxshi nazorat qilish, bilim berishdagi samaradorlikning oshishi hamda ushbu jarayondagi natijalarni yaxshilash imkonini beradi. Mazkur maqolada dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlar hamda ularni raqamli texnologiyalar orqali berish haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, samaradorlik, didaktik o‘yin, raqamli texnologiya, metod, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘zlashtirish, ta‘lim jarayoni, topshiriq.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Привлечение учеников начальной школы к 1-часовому уроку, чтобы помочь им сосредоточиться, повысит их мастерство. Использование различных игр в учебном процессе повышает интерес учащихся. Это позволяет лучше контролировать учащихся во время обучения, повысить эффективность преподавания знаний и улучшить результаты в этом процессе. В данной статье говорится о дидактических играх, которые можно использовать в ходе урока и их доставке посредством цифровых технологий.*

**Ключевые слова:** образование, эффективность, дидактическая игра, цифровые технологии, метод, знание, умение, компетентность, усвоение, учебный процесс, задание.

## FOREIGN EXPERIENCES IN USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MOTHER LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY GRADES

*Engaging elementary school students in a 1-hour lesson to help them focus will increase their mastery. The use of various games in the educational process increases the student’s interest. This allows for better control of students during education, increase in efficiency in imparting knowledge, and improvement of results in this process. This article talks about didactic games that can be used in the course of the lesson and their delivery through digital technologies.*

**Keywords:** education, efficiency, didactic game, digital technology, method, knowledge, skill, competence, mastering, educational process, assignment.

**Kirish.** Ta‘lim tizimida sifat va samaradorlikni yuqori nuqtaga chiqarish, har jihatdan yetuk, bilimli va salohiyatli kadrlarni tayyorlash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir. Ta‘lim jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni chuqurroq anglash maqsadida avvalo ta‘lim, o‘yin, didaktik topshiriq, o‘yin topshiriqlari kabi tushunchalarning ma‘nosiniga alohida to‘xtalish lozim.

Boshlang‘ich sinf bolalarning yoshi va shaxsiyati rivojlanishidagi muhim bosqich bo‘lib, u yuqori darajadagi ta‘limni kafolatlashi shart. Maktab rivojlanishning turli darajalariga ega bolalarni o‘qitadi va asosiy maktab har bir o‘quvchiga individual o‘quv dasturini taklif qila olmasligi sababli o‘qituvchilarimiz individual psixologik va intellektual qobiliyatlarni hisobga olgan holda shaxsiy rivojlanishni ta‘minlaydigan o‘quv modellarini izlaydilar.

Ta‘lim o‘qituvchining bolalarga bilim, ko‘nikma va malakalar berishining, bu bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilar egallab olishi va ularni mustahkamlashining rejali suratda o‘tadigan jarayonidir.

Ta‘lim jarayoni bolalar xotirasining boyishi, ularning nutq va tafakkurining o‘sish jarayonidir. Turli xil metod va usullar yordamida sodir bo‘ladigan jarayondir.

Bizga ma‘lumki hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta‘lim tizimidagi g‘oyalarni ilgari surish uchun, yangi axborotni o‘zlashtiradigan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir bo‘lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan mustaqil va erkin fikrlaydigan o‘quvchilar kerak.

Shuning uchun ham, ta‘lim muassasalarining o‘quv –tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, interfaol uslublari, innavatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Men ham o‘z ish faoliyatimda o‘quvchilarga ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini o‘qitishimda turli xil innovatsion pedagogik texnologiyalardan, turli xil interfaol usullardan foydalandim. Bu yangicha interfaol usullar o‘quvchilarni hamkor bo‘lib ishlashga, mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish, tashabbus ko‘rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon berdi. Jumladan “Mening loyiham” metodikasini o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llab ko‘rganimda o‘quvchilardagi iqtidor va nazariy bilimlarni amaliyotda tezkor qo‘llab, o‘zlarining g‘oyalarini bayon etishga harakat qilishdi. Bu esa o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirib, yaratuvchanlik tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.** Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilmaxilshakllari o‘qitishni takomillashuviga ta‘sir ko‘rsatadi. Darslarni “Bumerang” texnologiyasi, “Arra”, “O‘z o‘rningni top”, “FSMU”, “Nima uchun?”, “Ikki qismli kundalik” metodlari, “Pinbord” usuli, “She‘rni tikla” kabi mashqlaridan foydalanib o‘tish dars samaradorligini yanada oshiradi. “O‘z o‘rningni top” metodi. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo‘naltirilgan. Bunda o‘quvchilar o‘z fikrini bayon qilishi, muloqot ko‘nikmalarini qaytadan tuza tishga imkoniyatlar mavjud bo‘ladi va dars so‘ngida o‘qituvchi tomonidan mavzuni o‘zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

Bugungi kunda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarni rivojlanishi natijasida o‘quv tarbiya jarayonida interfaol usullardan foydalanib, ta‘limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Ta‘lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan darsliklar, egallanayotgan bilimlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlari qidirib, topishlariga mustaqil o‘rganib, ularni tahlil qilishlariga, o‘z bilimlarini baholashlariga, to‘g‘ri xulosalar qilishni o‘rgatishga qaratilgan.

Bugungi kunda zamonaviy ko‘nikma va bilimlarni egallashda jahonning ilg‘or va tajribadan o‘tgan usullarini milliy o‘qitish tizimiga joriy etish ijobiy samara bermoqda. Ta‘lim beruvchi zamonaviy ko‘nikmalarni o‘rgatishda qanday usul yoki uslubda olib bormasin, sifat va natijaga xizmat qilishi zarur. Shu malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun o‘quvchilarga ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanib borilmoqda. Jumladan Ona tili 2-sinf I qism 22-betdagi 8-mashqda “Ovozsiz harakat bilan rasmdagi hayvonlar nomini ayting, partadoshingiz uni topsin.” Degan topshiriq bu Pantamimiya metodi bo‘lib, u mashqni bajaritirishda o‘quvchi har tomonlama yetuk bo‘ladi va diqqati oshadi.

Pantamimiya metodi o‘quvchilarni ichki nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kembrij Universiteti ilmiy amaliy bu innovatsion metodini nechcha marta kuzatganmiz. Yoki xuddi shu darslikning 32-betdagi 1-2-mashqda kichik tajriba o‘tkazing. Ona tili 2-sinf II qism 77-betdagi 4-mashq topshiriqda ham xorij tajribasi SAENSEdan foydalanib, bu mashqni tuzishgan.

Seanse metodi bu mashqni tabiat hodisalari orqali tasavvur qilish va undan foydalanib mashq topshirig‘ini bajarish mumkin.

CLIL texnologiyasi o‘rganiladigan yangi mavzuni turli fanlar bilan aloqador qilib, bog‘lab o‘qitish hisoblanadi. Yana ona tili 2-sinf darsligidagi 24-betdagi 11-mashq CLIL texnologiyasi asosida yaratilgan bo‘lib, mashq boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi asosida o‘quvchilarga unli tovushlar talafuzi o‘rgatiladi.

Yana darslikdagi 59-betda 14-mashqda ham xorij tajribasi Cembrij metodi guruh bo‘lib ishlash haqida topshiriq berilgan. Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar guruh bo‘lib kreativ yondashib o‘zlari 6 tadan savol tuzadi va raqib guruhga aytib berib, to‘g‘ri javob bersa shu guruh g‘olib bo‘ladi. 82-betdagi 6-mashqdagi topshiriqni bajarishda xorij tajribasidan foydalanib bajaritirish mumkin.

Yana bir juda samarali metod loyiha ishi metodining mohiyati shundaki, bunda mavzularning turli tarmoqlari bo‘yicha o‘quvchi bilimining axboroti namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida elementlarda muhokama etiladi.

Masalan 3-sinf Ona tili II qism darsligidagi 20-betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz. Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz. O‘z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig‘ini bajarishda o‘quvchi o‘zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni, oq qog‘ozda ularni chiroyli qilib rasmlarini, tasavvuridagi super market va tadbirkorlarni rasmini chizadi va tasavvurini bayon qiladi. Bu o‘quvchiga zavq beradi. 2-sinf Ona tili I qism (2023-yil) 84-betdagi 6-mavzu “Mening mahallam” mavzusida Katta shahar loyahasini ishlab chiqish topshirig‘ini o‘quvchilarga xuddi shunday bajartirsak, kutilgan natijani albatta beradi. Xuddi shunday topshiriqli 4-sinf Onatili II qism (2023-yil) darsligidagi 51-betdagi 66-mashqda ko‘rish mumkin. Sog‘lom ovqatlanishingiz uchun qanday foydali taomlar iste‘mol qilasiz? Topshirig‘ini loyiha ishi asosida bajartirsak o‘quvchilarni bilimi oshirishga mustaqil fikr yuritishga katta hissa qo‘shadi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Kakografiya metodi interfaol usullaridan biri sifatida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga so‘zlarini bir biri bilan solishtirganda izlanishga muayyan mavzular zaruriy xulosa chiqarishga yordam beradi. Ayniqsa fanetika, orfografiya, leksika va morfologiya bo‘limlari bilan bog‘liq

amaliy darslarni mashqlarni bajarishda kokografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan o‘quvchilarga unli va undosh tovushlar bo‘yicha yetarli ma‘lumot bergach mustahkamlashta ishlatilgan, misol 2-sinf I qism ona tili darsligidagi 17-mashq xato yozilgan so‘zlarni namunadagidek to‘g‘rilab yozing. Chumchiq-chumchuq xuddi shu darslikdagi 39-betdagi 10 mashqda ham nuqtalar o‘rniga *d* yoki *t* harflaridan mosini qo‘yib yozing. *Payvan d, farzan d, go‘sh t, balan d* kabi kakografik yo‘nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan ona tilidan olingan bilimlarni xotirlab, to‘g‘ri ishlatishga o‘rganadi.

Casestudy ta‘lim metodini turli fandagi mavzularda ishlatish mumkin. Jumladan ona tili darsligidagi ba‘zi mavzularni real hayotiy ko‘nikmalar bilan tushuntirish mumkin.

Ona tili 2-sinf II qismining 45-betida so‘z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar talaffuzi va imlosini o‘rganamiz mavzusidagi O‘ylab ko‘ring.

1. Siz qaysi uy hayvonlarini boqasiz?
2. Uy hayvonlarining foydali tomonlarini sanang?

Kabi topshiriq uy hayvonlarini nomini to‘g‘ri aytib ularni foydalari haqida so‘zlashga real hayot bilan bog‘lashga o‘rgatadi. Xuddi shunday topshiriqli mashq shu darslikning 50-betidagi 8-9 mashqlardagi topshirig‘ida berilgan.

Uy hayvonlarini ta‘riflab gaplar tuzing.

Sutning foydali xususiyatlari haqida 5 ta gap tuzing kabi topshiriqlar. Keys stady texnologiyasi asosidamashqni bajartirishda o‘quvchini real hayotga o‘rgatib boriladi.

Sinektika metodi 1960-yilda AQSHda Gardon va J.Prins tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod talabalarga unsurlarni va jamoa bo‘lib ifodalashga ijodning bosh maqsadini ajratib olishga turli xil xarakterdagi vazifalarni yechishning har xil nusxalarini izlashga yordam beradi va ular quyidagi shakllarga ega bo‘ladi.

**Xulosa.** Sinektika- ijodkorona o‘ylash modeli bo‘lib, ko‘rinishidan turlicha bo‘lgan hodisa va predmetlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish hisoblanadi. Ona tili 2-sinf I qismdagi 80-betdagi 4-mashqni (So‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing, qaysi so‘zlar mahalla mavzusiga aloqador emas? Mahallaga mos va mos bo‘lmagan so‘zlarni ajratib yozing.) topshirig‘ini o‘quvchi sinektika metodi bilan bajarsa juda yaxshi samara beradi.

Bugungi kunda yangi avlod darsliklari nashr qilinib boshlang‘ich sinf matematika fani o‘zlashtirilishi anchagina murakkab jarayonga aylandi. Darsliklarning birmuncha murakkabligi o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini pasaytirishi mumkin. Shunday ekan o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqlarini so‘nishiga yo‘l qo‘ymaylik, aksincha qiziqishlarini oshirib, hisoblash malakalarini rivojlantirish maqsadida boshlang‘ich sinf matematika darslarida didaktik o‘yinlardan raqamli texnologiyalar orqali samarali va o‘rinli foydalanish lozim. Bu esa bugungi kun talabi darajasidagi yetuk kadrlarni tayyorlash uchun muhim sanalغان omillardan biridir.

#### Adabiyotlar:

1. Yunus Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.
2. Jobir o‘g‘li Y. M., & Roziyabonu S. (2022). 1-sinf matematika darslarida geometrik materiallarni o‘rgatish. // Theory and analytical aspects of recent research, 1(9), 132-137.
3. Yarashov M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. // Центр научных публикаций (buxdu.uz), 23(23).
4. Ярашов М.Д., & Хамдамова Х. (2022). Методика работы над речью учащихся в начальных классах. // Theory and analytical aspects of recent research, 1(9), 138-143.
5. Jobir o‘g‘li Y.M., & Maftuna S. (2022). Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim mazmunining tavsifi. // Theory and analytical aspects of recent research, 1(9), 144-147.
6. Jobirovich Y.M. (2023). Building competences in organizing primary education content using digital technologies. // Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 763-766.
7. Yarashov M. (2023). Boshlang‘ich ta‘lim fanlarini raqamli texnologiyalar orqali integratsiyalash. // Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2(8), 46-49.
8. Yarashov M. (2023). The Place of Digital Technologies in the Education System. // Центр научных публикаций (buxdu.uz), 30(30).
9. Jobirovich Y. M. (2022). Tools Of Using Digital Technologies In Primary Educational Courses. // European Journal Of Modern Medicine And Practice, 2(4), 119-123.

10. Hamroyev A. (2022). Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish zamonaviy ta’lim konsepsiyasining asosi. // Pedagoglar jurnali, 1(1), 35-37.
11. Оллокова У. (2023). Развитие жизненных компетенций студентов посредством учебников нового поколения. // Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 702-706).
12. Yusufzoda S. (2024). Birinchi sinfda grafik malakalarni takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. // Центр научных публикаций (buxdu.uz), 45(45).
13. Jobirovich Y. M. (2021). Advantages of the introduction of digital technologies into the educational process. // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 7(1), 17-20.

**MAKTABGACHA 6-7 YOSHDAGI BOLALARDA KOMPYUTER SAVODXONLIK  
FAOLIYATIDA AXBOROTNING O‘RNI**

*Suvanova Nodirabegim Sadir qizi,  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta’lim kafedrası o’qituvchisi*

*Ushbu maqola maktabgacha 6-7 yosh bolalarning kompyuter savodxonlik faoliyatlarida axborotlarning o’rni uning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta’siri, yangi metodlar samaradorligi bugungi kun axborot texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar uchun ahamiyati, hamda 6-7 yosh bolalarda kompyuter texnologiyalardan foydalanishning o’ziga xos xususiyatlari, faoliyatlar davomida kompyuterning ahamiyati va pedagoglarning axborotlashtirish ko’nikmalarini faoliyatlardagi amaliy holatlari.*

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, metod, axborot, ta’lim-tarbiya jarayoni, pedagogika, psixologiya, bola, kompyuter, texnologiya, usul, uslub, metod, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, shaxs, individ, faoliyat.

**РОЛЬ ИНФОРМАЦИИ В КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ  
ДОШКОЛЬНИКОВ 6-7 ЛЕТ**

*В данной статье речь идёт о роли информации в компьютерной грамотной деятельности дошкольников 6-7 лет, её влиянии на развитие дошкольников, эффективности новых методов, значении информационных технологий для детей в образовательный процесс сегодня, и использование компьютеров детьми 6-7 лет, особенности использования технологий, значение компьютера в деятельности, практические примеры информационных навыков педагогов в деятельности.*

**Ключевые слова:** дошкольное образование, метод, информация, учебно-воспитательный процесс, педагогика, психология, ребёнок, компьютер, технология, способ, метод, воспитатель, воспитанник, личность, индивид, деятельность.

**THE ROLE OF INFORMATION IN COMPUTER LITERACY OF PRESCHOOL  
CHILDREN 6-7 YEARS OLD**

*This article is about the role of information in the computer literacy activities of 6-7-year-old preschool children, its impact on the development of preschool children, the effectiveness of new methods, the importance of information technology for children in the educational process today, and the use of computers in 6-7-year-old children. Specific features of using technologies, the importance of the computer during the activities, and practical cases of pedagogues’ information skills in the activities are given.*

**Keywords:** pre-school education, method, information, educational process, pedagogy, psychology, computer, technology, method, style, educator, pupil, person, individual, activity.

**Kirish.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mamlakatimizda hozirgi kunda o’quv jarayonlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni, multimedia texnologiyalarini joriy etish ta’lim axborotlashtirishning muhim daqiqalaridan biridir. Hozirgi kunda multimedia texnologiyalari, axborot texnologiyalarining eng jadal rivojlanayotgan va istiqbol maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini hisoblanib, u har tomonlama sog’lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim tog’risiga”gi Qonunining 36-moddasida ham “Ta’lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” mumkinligi to’g’risida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunning 5-moddasida esa: maktabgacha bo’lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish qonun bilan belgilanganligini ko’rishimiz mumkin. Hozirgi dunyodagi barcha ish joylarining 50 % yaqini kompyuter savodxonligining asosiy bo’g’ini axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta’minlangan. Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bilan ta’minlash kompyuter savodxonlikga insonlarning turli-tuman ma’lumotlarga bo’lgan ehtiyojini qondirishda muhim o’rin tutadi. Inson kompyuter savodxonlikni o’rganar ekan, voqea hodisalar jarayonlarning bir-biriga aloqadorligini, o’zaro munosabatlari va mohiyatni tashkil etish, o’z hayotidan kelib chiqayotgan murakkab savollarga ilmiy javob topish

maqsadida ko‘pdan-ko‘p dalil va raqamlarga murojat qiladi. Kompyuter tufayli nazariya amalyot bilan birikadi. Amaliyot nazariyasi, nazariya esa amalyotsiz mavjud ham bo‘lmaydi, rivojlanmaydi. Ta‘lim-tarbiyaning asosiy maqsadi texnika vositalarining ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritish emas, balki jamiyatning kompyuter savodxonlikka bo‘lgan ehtiyojini qondirishdagi usul va vositalar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishdir. Mazkur ehtiyoj doim mavjud bo‘laveradi va biror - bir axborotli muhit doirasida qondiriladi. “Kompyuter savodxonlik” tushunchasiga hozirgi kunda ta‘lim tarbiya masalalarini o‘rganishda muhim o‘rin egallaydi. Insoniyatni o‘rab turgan muhit o‘z xizmatlariga ko‘ra turlichadir tabiiy siyosiy, ijtimoiy, milliy va oilaviy ruhiy bo‘lishi mumkin. Bular esa har birimiz yashayotgan olamning bir butun muhitining tekisliklaridir. Hozirgi kunda kompyuterdan foyalanish ommaviy axborot tizimlarida, ta‘lim sohasida, kino, teatr, san‘atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotdan har qanday ma‘lumot insonga o‘zining ma‘lum bir ta‘sirini o‘tkazib uning dunyoqarashini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida aytilgan tushunchalarning qo‘llanishi va bugungi kunda maktabgacha ta‘lim sohasida kompyuter savodxonlik va faoliyatlar jarayoni va kompyuter savodxonlik faoliyatlarni tashkil etishda bo‘lgan intilishning asosiy maqsadi axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy va madaniy maqsadlarida tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni boholay olishdir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyachi tarbiyaviy faoliyat jarayonida har bir mavzu bo‘yicha to‘liq ma‘lumot beruvchi va bolalarning yosh davrlariga mos ravishda animatsion vedioroliklar yaratib faoliyat olib borsa, shuningdek har bir mavzuni mustahkamlashga oid qiziqarli interfaol kompyuter o‘yinlarini tashkillashtirsa, o‘quv faoliyati bolalar uchun ancha samarali va qiziqarli hamda foydali tarzda bo‘ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari ya‘ni multimedia vositalari orqali bilim berishning an‘anaviy usullardan avzalligi shunadiki, har bir videorolik orqali o‘quv faoliyat 6-7 yosh bolalarda, multfilmlar orqali bola tilida yanada yoritiladi, bu orqali esa bolaning bilim olishga ishtiyoqi va qiziqishi sezilarli darajada ortadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Kompyuter yordamida axborotlash maktabgacha yoshdagi bolalar turli mavzularni o‘rganish va bilimlarni kengaytirish imkonini beruvchi keng ma‘lumot havasidan foydalanish imkoniga ega. Bolalar uchun mo‘ljallangan vep-saytlar, ta‘limga oid ilovalar va intraktiv elektron kitoblar ularning yoshiga mos kontent bilan taminlaydi, bu ularning qiziqishini uyg‘otadi, va mustaqil o‘rganishga undaydi. Kompyuterda axborotlash bolalar ta‘limining dastlabki bosqichlaridanoq qimmatli va xilma-xil ta‘lim resruslari bilan tanishini ta‘minlaydi. Kompyuter savodxonligi axborotlashtirish 6-7 yosh bolalarning maktabgacha bo‘lgan davrda raqamli savodxonlik ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Ular raqamli qurilmalarda navigatsiya qilishni foydalanuvchi enterfeyslari bilan ishlashni va kompyuterning asosiy operatsiyalarini tushunishni o‘rganadilar. Ushbu ko‘nikmalar bugungi raqamli dunyoda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni kelajakda akademik va professional ishlashga tayyorlaydi.

Axborotlashtirish jarayonlarida maktabgacha ta‘lim tashkilotlardagi tayyorlov guruh xonalarini yetarlicha jihozlash, multimedia sohalari uchun moslashtirish masalalarini hal etish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yuritilayotgan pedagog xodimlarning axborotlashtirish bo‘yicha savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Maktabgacha ta‘lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir necha yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

a) Axborot-kompyuter savodxonlik bolalar bilan bo‘lgan masofaviy ta‘lim-tarbiya jarayonida, markazlar faoliyatlarida foydalanish:

b) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan masofaviy ta‘limda pedagoglarning ota-onalari bilan hamkorlik jarayonlarida foydalanish:

c) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaran metodik ishlarni tashkil etishda, ta‘lim sifatini oshirishda tarbiyachilar bilan ishlash jarayonida foydalanish.

Kompyuter o‘yinlari orqali bolalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishda xato javobni belgilasada unga kompyuter tanbeh bermaydi, do‘stlari orasida izza qilmaydi, natijada bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, bola o‘zini boshqalar oldida erkin yengil his qiladi va fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo‘ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatda keltirib ko‘rishni yoqtiradilar. Kompyuter o‘yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Kompyuter savodxonlik orqali tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishini quyidagilar asosida yaqqol ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

- Ekranda ko‘rsatiladigan o‘yin obyektiga animatsiya samarasi berilgan bo‘lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib tirishida:

- Tovushida:
- Musiqada:
- Animatsiyada:

- Multifikatsiyada

Kompyuter savodxonlik o‘yinlari davomidagi pedagogik-psixologik ta’sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Bu ma’lumotlardan ma’lum bo‘ldiki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tarbiyasining shakllanishida axborot texnologiyalar ya’ni, multimedialardan foydalanish uni kompyuter savodxonlik faoliyatlarida samarali foydalanish hozirgi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Biz bilamizki savodxonlik hamma uchun tanish bo‘lgan tushuncha. Savodxonlik bu asosiy kognitiv ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi bo‘lib, ona tilida o‘qish, yozish va matematik bilimlarning majmui, ammo texnologiya va axborotlar murakkabligining rivojlanishi bilan biz uchun aniq bo‘lgan savodxonlik tushunchasi kengaymoqda. Zamonaviy inson uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko‘pincha bu turdagi savodxonlik bir -birini to‘ldiradi. Raqamli savodxonlik — zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalarva internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir. Dinamik onlayn rejimlarni yaratish va saqlash, yirik va murakkab bo‘lgan onlayn ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Bolalarda kompyuter savodxonlik - bu odamga raqamli muhitda muammolarni samarali hal qilishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va munosabatlarning asosiy majmuini anglatadi. Raqamli savodxonlik komponentlari:

- Axborot savodxonligi axborotning o‘ziga xos xususiyatlari va uning turli manbalari haqida bilimlar tegishli ma’lumotlarni topish va solishtirish ko‘nikmalari:

- Axborotning foydasi va zarariga munosabat bildirish :

- Kompyuter savodxonligi:

- Kompyuter qurilmasi va uning vazifalarini bilish

- Kompyuter va shunga o‘xshash qurilmalardan foydalanish ko‘nikmalari:

- Kundalik amaliyotda kompyuterining o‘rni haqidagi munosabatlar:

- Media savodxonligi

- Ommaviy axborot vositalarining tarkibi va manbalari haqida ma’lumotlar :

- Yangiliklarni qidirish va faktlarni tekshirish ko‘nikmalari:

- Ommaviy axborot vositalari orqali yetkazilgan ma’lumotlarning ishonchligiga munosabat:

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter bolalarning e’tiborini va tasavvurini rivojlantiradigan taqdimot materiallarini namoyish qilish vositasi bo‘lib, ta’limiy faoliyatlarda kompyuter birinchi navbatda bola tomonidan ixtiro qilingan tasvirni yaratish vositasi sifatida qaraladi. Kompyuter grafik dasturlari nafaqat yosh rassomni tasvirni rang bilan bo‘yashning turli xil usullarining ideal shaklidagi geometrik shakllar to‘plami bilan ta’minlabgina qolmay, balki natijada paydo bo‘lmagan harakatni bekor qilishga, rasmni tuzatishga imkon beradi. Bir marta, qat’iy talablarga javob beradigan natijaga erishish uchun kichik muallif va uning o‘zini o‘zi qadrlashini oshiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tamonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, Respublikamizda bugungi kunda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodini oshirish kabi muhim vazifalar, hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldida turgan asosiy, dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaning eng og‘rig‘li tomonlaridan biri tarbiyalanuvchilar salohiyati, kompyuter savodining yo‘qligi hisoblanadi. Innovatsiya shiddat bilan kirib kelmoqda bu shiddatlik oldida biz qo‘limizni ko‘tarib labbay deb javob bermog‘imiz darkor. Bu borada Prezidentimiz “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorida ham alohida ta’kidlagan. Jumladan: O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘zib borayotgan avlodni sog‘lom va har tamonlama yetuk voyaga yetgazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishda qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Internetdan foydalanishning ham keng imkoniyatlari mavjud. Internetning veb-sahifalaridagi ba’zi bir multimediali taqdimotlar va slaydlardan foydalanish mumkin. Masalan, geometrik shakllar bo‘yicha elementar matematik tasavvurini shakllantirishga oid multimediali taqdimot yaratilgan. Ushbu taqdimot maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruhiga tegishli elementar bilim va ko‘nikmalar yo‘nalishining “doira, kvadrat, uchburchak, shar, kublarni farqlaydi, nomlaydi va ularning xususiyatlarini biladi” mavzusiga tegishlidir. Internetdagi multimediali materiallardan foydalanish uchun oldin tarbiyachining o‘zi tayyorgarlik ko‘rishi kerak, jumladan, Internet saytlari bo‘yicha materialni qidirib topish va kompyuter xotirasiga joylashtirish, mazmuni va hajmini aniqlash kabi ishlarni bajarishi zarur. Pedagog-tarbiyachilari o‘z soxalari bo‘yicha teleanjuanlarda maktabgacha ta’lim

tashkilotida qatnashishi mumkin. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayoniga oid yangiliklar yoki ish tajribasi bo’yicha multimediyaga asoslangan maqola tayyorlab teleanjuman saytiga joylashtiradi. Maqola teleanjuman ishtirokchilari bilan birga muhokama etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Ta’lim tizimi jarayonlarida kompyuter texnologiyalardan foydalanish ta’lim faoliyatini oshiradi hamda yoshlarning o’quv faoliyatga bo’lgan qiziqishni oshiradi, hamda pedagoglarda innovatsion texnologiyalarni o’rganishga imkon beradi. Ta’lim jarayonlarida kompyuter savodxonlik pedagogik - psixologik muammo sifatida bo’lishining asosida barcha ta’lim jihatlaridagi kompyuter savodxonligining rivojlanishi tarixi va ta’limgi o’rni ehtiyoj darajasigacha kelganini ko’rishimiz mumkin. Bugun bu mavzumizdan xulosa nima? Barcha ta’lim sohalarida kompyuter savodxonligidan unumli foydalanishdir. Xulosa qilib aytganda zamonaviy tarbiyachi bolajonlarga faoliyat davomida axborot kommunikativ texnologiyalardan kirativlik ila foydalana olish, hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tanqidiy nuqtaiy nazardan tahlil qila olish va umumlashtirish kabi ko’nikmalarni hosil qilishga qodir bo’lishi kerak. Tarbiyachilar kompyuter savodxonligini egallabgina qolmay undan unumli samarali foydalanib, bilimlarini doimo mustahkamlab, izlanishda davom etmog’lari darkordir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter savodxonligini tashkil etishda ham pedagogik ham psixologik tomondan o’rganishlar shuni ko’rsatadiki faoliyatlar aniq va kerakli vaqtda to’g’ri o’rgatilsa ishonamizki bu jarayon bizga kutgan natijani bera oladi. Bizning maqsadimiz aniq bolalajonlarimiz hozirgi zamon texnologiyalarimiz oldida tezkorlik bilan aniq maqsad ila sog’lom ravishda o’sib borishlarini ta’minlashdir. Sog’lom bolajon kelajakning poydevori ertamizning davomchisidir. Kompyuterdan to’g’ri foydalanishni bilgan bolajon ertangi kunga umid va ishonch bilan boshqa davlatlar bilan birgalikda rivojlana olishga ko’makchidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ta’lim-tarbiya bo’yicha saviyasini oshirish maqsadida Internet orqali shu xuddagi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari o’rtasida ma’lum bir shaklda musobaqalar tashkil etish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda yuqorida ta’kidlanganidek, oliy va o’rta-maxsus, kasb-hunar hamda umumiy o’rta ta’lim muassasalarida foydalanish uchun qator elektron darslik va qo’llanmalar yaratilgan. Shunday multimediali elektron adabiyotlarni maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlab, Internetga joylashtirish mumkin. Masalan, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga moslashtirilgan “G’uncha”ga o’xshash maxsus kompyuter savodxonlik ishlanma va jurnal tayyorlab, Internetga joylashtirilsa, ulardan ko’pchilik maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun. T.: 2020.1-3-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.1-3betlar.
3. Axborot texnologiyalari/M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov, A 90 M. Mamarajabov. T.: Nashr, 2009.— 368-b. I. Oripov M. B
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. T.Fan, 2009. -145 b.
5. Azizxodjayeva N.N Peagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va axborotlari –T: Fan-2018
6. Xalikova U.M.(2020). Maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. // Интернаука,13-2.



## TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING RAQAMLI SAVODXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Toyirova Dilrabo Sattorovna,*  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0009-0000-5774-4850>

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati, bugungi kunda o'quvchilar raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda texnik vositalardan foydalangan holda o'quv faoliyatini olib borish usullari va mazmuni haqidagi masalalar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilardagi raqamli kompetensiyalarni tarkib toptirish o'qituvchining mutlaqo yangi, raqamli muhitda ishlashi hamda o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bevosita o'quvchilar, boshqa o'qituvchilar, ma'muriyat va ota-onalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishga majbur bo'lishi bilan bog'liqligini tushunish, ta'lim jarayoniga jalb qilingan ijtimoiy muhit sifatida juda muhimligi tasvirlab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** raqamli savodxonlik, texnologiya, texnik vositalar, o'qituvchi, kompyuter savodxonligi, o'quv faoliyati, media savodxonlik, mazmun, standart, mezon.

## РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*В данной статье рассматривается использование цифровых технологий учителями начальных классов в организации учебной деятельности, роль и значение цифровых технологий в формировании навыков цифровой грамотности учащихся младшего школьного возраста, а также значение цифровых технологий в формировании навыков цифровой грамотности учащихся сегодня, отражаются вопросы о методах и содержании учебной деятельности с использованием технических средств. Кроме того, выражена сегодняшняя актуальность цифровых технологий в повышении эффективности образования. Также в статье формирование цифровых компетенций у учащихся младшего школьного возраста представляет собой работу учителя в совершенно новой, цифровой среде, а другие участники образовательного процесса непосредственно взаимодействуют с учащимися, другими педагогами, администрацией и родителями. описывается как очень важная социальная среда, участвующая в образовательном процессе, понимая, что она связана с принуждением к взаимодействию.*

**Ключевые слова:** цифровая грамотность, технологии, технические средства, учитель, компьютерная грамотность, учебная деятельность, медиаграмотность, контент, стандарт, критерии.

## DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS' DIGITAL LITERACY SKILLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*In this article, the use of digital technologies by primary school teachers in the organization of educational activities, the role and importance of digital technologies in the formation of digital literacy skills of students of junior school age, and the importance of digital technologies in the formation of digital literacy skills of students today questions about the methods and content of educational activities using technical means are reflected. In addition, today's relevance of digital technologies in increasing the effectiveness of education is expressed. Also, in the article, the formation of digital competences in students of junior school age is the teacher's work in a completely new, digital environment, and other participants of the educational process interact directly with students, other teachers, administration and parents. It is described as very important as the social environment involved in the educational process, understanding that it is related to being forced to interact.*

**Keywords:** digital literacy, technology, technical tools, teacher, computer literacy, learning activities, media literacy, content, standard, criteria.

**Kirish.** Hozirgi davr taraqqiyoti shunday rivojlanish bosqichida ko‘tarildiki, bunday madaniy o‘zgarishlar sur‘ati shaxsdan juda ham qisqa muddatlarda katta hajmdagi axborotni qabul qilish, yangi faoliyat usullarini o‘zlashtirish hamda ijtimoiy muammolarning yechimini o‘z vaqtida topish malakasini talab qiladi. Respublikamiz hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy – axloqiy va axborot kommunikatsiya sohalaridagi tizimli o‘zgarishlari kishilarning hayot faoliyatini jiddiy o‘zgartirmoqda.

Shuningdek, ta‘lim-tarbiya jarayonida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarda ta‘lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediy va vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktabgacha ta‘lim, umumta‘lim maktablarida, litseylar va oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash samarali tizimini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Raqamli savodxonlik - zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir. Ushbu kerakli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish borasida olib borilayotgan kompleks ishlar natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida IT sohasiga bo‘lgan qiziqish va kelajakda ushbu kasb egalari bo‘lib yetib chiqishlarida mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim olayotgan kichik yoshdagi o‘quvchilaridan XXI asrda bo‘lajak IT sohasining yetuk mutaxassislari, shu sohani mukammal egallab, Vatan ravnaqi uchun o‘zining hissasini qo‘sha oladigan kadrlar bo‘lib yetishishlari talab qilinadi. Bugungi kunda IT sohasini egallagan yoshlardan raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan yetuk mutaxassis sifatida talab qilinadigan professional muhim sifat va kompetensiyalar: global darajada fikrlash qobiliyati, raqamli savodxonlik va raqamli kompetensiya, uzluksiz o‘rganish, ijodiy vazifalarni bajarishdir. Bu kabi muhim sifatlarni tarkib toptirish o‘quvchilarda kichik yoshdanoq shakllantirilishi, raqamli texnologiyalar va ulardan foydalana olish ko‘ikmalarini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida katta mas‘uliyatni yuklaydi. O‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni tarkib toptirish o‘qituvchining mutlaqo yangi, raqamli muhitda ishlashiga va o‘quv jarayonining boshqa ishtirokchilari: bevosita o‘quvchilar, boshqa o‘qituvchilar, ma‘muriyat va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga majbur bo‘lishi bilan bog‘liqligini tushunish, ta‘lim jarayoniga jalb qilingan uchinchi shaxslar sifatida juda muhimdir. Raqamli savodxonlik - bu raqamli texnologiyalar va Internet resurslaridan xavfsiz, samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘plami. Bunga quyidagilar kiradi: raqamli iste‘mol; miqdoriy kompetensiya; raqamli xavfsizlik.

**Asosiy qism.** Raqamli kompetensiyalar- texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Bularga quyidagilar kiradi: ma‘lumot izlash, raqamli qurilmalardan foydalanish, ijtimoiy media funksiyalaridan foydalanish, moliyaviy operatsiyalar, onlayn xaridlar, axborotni tanqidiy qabul qilish, multimedia kontentini ishlab chiqarish, qurilmalarni sinxronlashtirish.

Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda bir qancha texnik qurilmalardan foydalanadi. O‘qituvchining bevosita ta‘lim faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadlari turlicha bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga va mazmunga ega:

- ta‘limni zamonaviy qilish (texnik vositalardan foydalanish nuqtayi nazaridan);
- ta‘lim faoliyatini zamonaviy o‘quvchining dunyoqarashiga yaqinlashtirish, chunki u o‘qish va gapirishdan ko‘ra ko‘proq qaraydi va tinglaydi;
- texnik vositalar yordamida olingan axborotdan foydalanishni ma‘qul ko‘radi;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro tushunish, o‘zaro yordam munosabatlarini tashkil etish;
- o‘qituvchiga materialni hissiy va majoziy ravishda taqdim etishda ko‘maklashish.
- o‘qituvchining ham, o‘quvchining ham vaqtini tejash, o‘quv faoliyatining zichligini oshirish, uni yangi mazmun bilan boyitish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish ma‘lumotni bir vaqtning o‘zida quyidagi shaklda ko‘paytirish imkonini beradi: matn, grafik tasvir, tovush, nutq, video. Bularning barchasi o‘qituvchiga o‘quvchilar uchun bolalar rivojlanishining prinsipial jihatdan yangi vositalarini yaratishga imkon beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning darslarga qiziqishi sezilarli darajada oshadi, bilim qobiliyatlari darajasi oshadi. Taqdimot katta hajmdagi qog‘oz ko‘rgazmali qurollar, jadvallar, reproduksiya, badiiy albomlar, audio va video jihozlardan xoli bo‘lgan katta hajmdagi namoyish materiallarini birlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarni tarbiyalash uchun kompyuter "xomashyo" bo‘lib xizmat qilishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

Multimedia vositalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda quyidagi afzalliklarga ega:

- 1) berilayotgan bilimlarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati bor;

- 2) ta’limning boshlang‘ich davridan ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish imkoniyatiga ega bo’ladi va texnik qurilmalarga bo’lgan ishtiyoqi yanada ortadi;
- 3) ta’lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- 4) olingan bilimlar bola xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo’lganda amaliyotda qo’llash imkoniyatiga erishiladi.

Ta’lim jarayonida o’quvchilar bilan ishlash:

-Axbrot texnologiyalari ma’lumotni taqdim etish imkoniyatlarini ma’lum darajada oshiradi. Rang, tasvir, ovoz, barcha zamonaviy video uskunalaridan foydalanish faoliyatning haqiqiy muhitini qayta vujudga keltirishga imkon beradi.

-Kompyuter o’quvchilarning o’qishga bo’lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Muammoni to’g’ri hal qilish uchun munosib mukofotlarni qo’llash orqali motivatsiya oshiriladi.

-Axbrot kommunikatsiya texnologiyalari kichik maktab yoshidagi o’quvchilarni o’quv jarayoniga jalb qiladi, ularning qobiliyatlarini kengroq ochib berishga, aqliy faollikni oshirishga hissa qo’shadi.

Ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tarbiyaviy va ta’lim vazifalarini qo’yish va ularni hal qilish jarayonini boshqarish imkoniyatini oshiradi. Kompyuterlar turli ob’yektlar, holatlar va hodisalarning modellarini qurish va tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, kompyuter kichik yoshda juda zarur bo’lgan hissiy insoniy muloqotning o’rnini bosa olmasligini unutmaslik kerak. U faqat o’qituvchini to’ldiradi, uning o’rnini bosmaydi.

O’qituvchining kasbiy mahoratiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri bu o’z-o’zini tarbiyalashdir. Yangi texnik vositalar, usullar va texnologiyalarni qidirish ayniqsa bizning davrimizda juda muhimdir. Bugungi davrda Internetga ulanish o’qituvchiga o’z ish tajribasini boshqa hamkasblari bilan o’rtoqlashish, boshqa xorijiy davlatlardagi hamkasblarining ilg’or tajribalarini o’zlashtirish imkonini ham beradi.

O’qituvchi faoliyati jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini faol jalb etishga harakat qilishi lozim. Chunki axbrot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish multimediyani eng qulay va jozibali, o’ynoqi tarzda o’quvchilar bilimining yangi sifatiga, ota-onalarning xabardorligiga va o’qituvchining kasbiy mahoratiga erishishga imkon beradi. Innovatsion tajribaning yangiligi shundaki, axbrot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo’nalishi endigina maktab ta’limiga joriy etila boshlandi. Sababi, buning uchun yaxshi moddiy-texnik baza va o’qituvchidan yetarli darajada Axbrot kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasi bo’lishi kerak. Axbrot texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha innovatsion faollik o’qituvchining axbrot kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyalari darajasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Buning natijasida o’qituvchi Internet sahifalarida o’zi haqida ma’lumotlarni joylashtirishi mumkin: kasbiy qiziqishlari, sevimli mashg’ulotlari, kasbiy yutuqlari, portfoliosi haqida va hokazo. Bundan tashqari kasbiy qiziqishlari bo’yicha professional aloqa sohasida hamfikir pedagoglarni juda tez topa olishi mumkin. Saytda o’qituvchi hamkasblari bilan muloqot qiladi, ularning nuqtayi nazari bilan tanishadi, o’z fikrlarini bildiradi, ekspert maslahatini oladi.

**Xulosa** o’rnida shuni ta’kidlash kerakki, butun dunyo pedagogik hamjamiyatining katta e’tibori yangi raqamli kompetensiyalarni zudlik bilan shakllantirishga qaratilgan. O’tgan oylar tajribasi ko’rsatganidek, hozirgi sharoitda o’qituvchilar imkon qadar tezroq o’rganishlari, zamonaviy texnologiyalarni o’zlashtirishlari, o’qitishning yangi vositalari va o’zaro hamkorlikni o’zlashtirishlari, shuningdek, o’qitishning barcha samarali shakllarini kundalik faoliyatiga joriy etishlari zarur. Aytib o’tilgan ushbu ko’nikma va malakalar zamonaviy texnik vositalar orqali tashkil qilingan ta’lim jarayonida shakllanadi. O’qituvchining o’quv jarayonlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali ko’plab qiziqarli va yangi hamda animatsion vedioroliklar orqali dars sifati oshibgina qolmay, zamoniy metodikaga ega bo’lgan o’qituvchi metodikasi rivojlanib boradi. Shu bilan birgalikda o’quvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirishga ham o’z hissasini qo’shgan bo’ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali tashkil qilingan dars orqali o’quvchilarda kichik yoshdan IT sohasiga bo’lgan qiziqish va ishtiyoq shakllanishi ta’minlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ergashev B. N. (2023) “Umumiy o’rta ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlanishi: afzallik va kamchiliklar”. “Raqamli texnologiyalarni o’quv jarayoniga joriy etishning zamonaviy holati va istiqbollari” // Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami.
2. Mo’minov D.R. (2021) Boshlang‘ich sinf o’quvchilarida kompyuter savodxonlikni shakllantirish. // Educational Research in Universal Sciences.
3. Rasulov O.N. (2004 ) Zamonaviy electron darsliklarning electron xususiyatlari. // Kasb-hunar ta’limi. №2. 78-82 b.

4. Yoʻldoshev J.G., Usmonov S.A. (2008), Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish-T., Fan va texnologiya.
5. Abduqodirov A.A., Umarova G.U. (2016) Boshlangʻich sinflarda informatika elementlarini oʻqitish metodikasi.-T.:”Fan va texnologiya”.
6. Fayziyeva M.R., Sayfurov D.M. (2020) Informatika va axborot texnologiyalari: umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfi uchun darslik: - Toshkent: “Tasvir”, 112 b.
7. Duisenov N.V. (2021) AKT va Internet texnologiyalaridan foydalanishni oʻrganish. – Toshkent: OʻzMU nashriyoti, 58-b.
8. Kamalitdinova D.T., Sayfurov D.M. (2020) Informatika va axborot texnologiyalari: umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik: - Toshkent: "Tasvir", 112 b.
9. Toyirova D.S. “Educating the skills of using digital technologies in students of junior school age”. // Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal 2024 y. №2.
10. Baxronova G.T. (2024) “Egma tadqiqoti oʻqitish va taʼlim olish sharoitlarini oʻrganish xalqaro tadqiqoti”, <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/2802>
11. Joʻrayeva D.Oʻ. (2023/12/27), “Raqamlashtirish sharoitida boʻlajak tarbiyachi pedagoglarning kasbiy malakalarini taʼlimda baholash”, // Prospects and main trends in modern science, 90-93-b.

**БОШЛАНГИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ВА ЎҚИШ ДАРСЛАРИДА АХБОРОТ-РЕСУРСЛАР  
ИНТЕГРАЦИЯСИ СИФАТИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ НУТҚИНИ ЎСТИРИШ**

**Пўлотова Юлдуз,**

*Бухоро давлат университети Педагогика кафедраси доценти,  
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

<https://orcid.org/0000-0001-5661-5264>

[pulotovaulduz752@gmail.com](mailto:pulotovaulduz752@gmail.com)

*Мақолада шахс нутқини ўстиришида мактабгача ва бошлангич таълим босқичлари бошлангич давр бўлиши инобатга олинса, уларнинг такомиллаштирилиши, “бошлангич таълим мазмунини тўлиқ интеграллаштириш, мазкур мазмунда таълим-тарбия элементлари уйғунлигини таъминлашнинг долзарб аҳамияти хусусида фикр баён этилган.*

**Калит сўзлар:** нутқ, ўқувчи, ахборот, ресурс, бадиий асар, ўқитиш, интеграция.

**РАЗВИТИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ КАК ИНТЕГРАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ  
РЕСУРСОВ НА НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ЧТЕНИЯ**

*В статье рассматриваются этапы дошкольного и начального образования в развитии индивидуальной речи как начальный период, размышляется об их совершенствовании, “полной интеграции содержания начального образования, актуальной важности обеспечения гармонии образовательных элементов в этом содержании.*

**Ключевые слова:** речь, читатель, информация, ресурс, произведение искусства, обучение, интонация.

**DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SPEECH AS INFORMATION-RESOURCE  
INTEGRATION IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE AND READING LESSONS**

*The article examines the stages of preschool and primary education in the development of individual speech as an initial period, reflects on their improvement, “full integration of the content of primary education, the urgent importance of ensuring the harmony of educational elements in this content.*

**Keywords:** speech, reader, information, resource, work of art, teaching, intonation.

**Кириш.** Кишилик жамиятининг тарихий тараққиёти энг содда алоқалардан мураккаб, кўп қиррали ижтимоий муносабатларга томон ўсиб бориш асосида кечган. Агар энг содда алоқалар – ибтидоий жамоа тузумидаги уруғ аъзоларининг кўп ҳолатларда бир-бирларига озиқ-овқат манбаи, юзага келаётган хавф, хатарларни ташкил этиш йўналишлари тўғрисидаги маълумотларни узатишига асосланган бўлса, мураккаб, кўп қиррали ижтимоий муносабатлар жараёнида субъектларнинг бир-бирлари билан кундалик ҳамда касбий фаолиятни ташкил этишда кўзга ташланади. Ижтимоий муносабатларнинг тўғри, оқилона ташкил қилиниши, биринчидан, ҳал қилинаётган масаланинг ижобий ечимга эга бўлишини; иккинчидан, вақтнинг тежалишини, учинчидан, самимий мулоқот жараёнининг юзага келишини таъминлайди. Мазкур жараёнда муҳим омиллардан бири – нутқ саналади.

Ёш авлоднинг маънавий камолотида қадимдан нутқ маданиятига алоҳида аҳамият бериб келинган. Хусусан, Кайковус ўзининг «Қобуснома» номли асарида фарзандига қарата шундай дейди: “... Эй фарзанд, сўзнинг юзин ва орқасин билғил ва уларга риоя қилғил, ҳар не сўз десанг юзи била дегил, то сухангўй бўлғайсан. Агар сўз айтиб, сўзнинг нечук эканин билмасанг, кушга ўхшарсанким, унга тўти дерлар, ул доим сўзлар, аммо сўзнинг маъносин билмас. ...Сўзни бағоят улуғ билғил, сўз осмондин келмас ва ул хор нарса эмасдир. Қай бир сўзники билсанг, жойини ўтказмай айтқил, вақтни зое қилмагил, йўқ эрса донишга ситам қилғон бўлғайсан. Ҳар сўз десанг, рост дегил ва бемаънилиқни даъво қилгувчи бўлмағил” [1].

Нутқ фақат фикрни ифодалаш, ахборот алмашиш, тил воситаларидан фойдаланиш жараёни ёки унинг ҳосиласигина эмас, балки “шахснинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантирувчи асос ҳам эканлиги психологик ва биологик нуктаи назардан исботланган” [2]. Шу сабабли, ёш авлодда илк болаликдан нутқни ривожлантиришга алоҳида эътибор берилади.

Хар бир давлатнинг таълим соҳасида болаларда нутқ ўстириш тизимнинг асосий таркибий элементи сифатида эътироф этилган. Ўзбекистонда узлуксиз таълимнинг дастлабки босқичлари – мактабгача ва бошланғич таълим даврида болаларда нутқни ўстириш педагогик жараённинг муҳим йўналиши этиб белгиланган. Глобал ахборотлашув ва инновацион таълим муҳитининг шаклланиши, инсон капиталини ривожлантиришга бўлган ижтимоий эҳтиёжнинг ортиши ёш авлодни ҳар томонлама камол топтириш, интеллектуал жиҳатдан ривожлантириш, бунда нутқ имкониятларидан фойдаланишни тақозо этади.

Рус тили изоҳли луғатида “интеграция” - лотинча “integration” сўзидан олинган бўлиб, “integr” тўлиқ, яхлит, бир бутун деган маъноларни англатади. Интеграция-ўзаро боғланган ҳолда ривожлантириш, бир бутун қилиб бирлаштириш, яхлит ҳолга келтириш эканлиги таъкидланади. Интеграция турли хил қисм ва элементларни бир бутунликка бирлаштириш” [4] демакдир.

**Ахборот** (лот. formatio – тушунтириш, баён этиш; лот. informare - тур, шакл, ўқитиш; фикрлаш, хаёл қилиш) – фактик маълумотлар ва улар орасидаги ўзаро боғлиқликлар ҳақидаги билимлар мажмуи. Меҳнат фаолияти ва хўжаликда инсон томонидан қўлланиладиган ресурсларнинг бири ҳисобланади.

"Ресурс" тушунчаси табиий ресурслар тушунчаси билан боғлиқ. Ушбу анъанага риоя қилишнинг самарасига шубҳа қилиш учун асослар мавжуд. Биринчидан, ресурс тушунчасининг этимологияси. Бу сўз французча "ресурс"дан олинган бўлиб, «кўтарилиш» деган маънони англатади.

Ахборот ресурсларига қуйидагилар кирди:

- архивлар; ахборот фондлари; кутубхоналар; маълумотлар банклари; интернет маълумотлари.

Ушбу манбалар тармоғи кенг ва миллий маълумотлар базаларида сақланадиган маълумотларни алоҳида муассаса ва ҳаттоки ҳар бир шахс томонидан сақланадиган маълумотларни ўз ичига олади.

**Методлар.** Педагог олимларнинг фикр мулоҳазаларидан келиб чиққан ҳолда, ушбу атама қуйидагича изоҳланди: интеграция – у ёки бу касб эгасига керак бўладиган тарқоқ билимлар мажмуини яхлит ҳолга келтириш ва вақт меъёрларини креативлик асосида сарф этиш маҳорати. Интегратор ёндашув таълим муҳитида талабаларнинг касбий компетентлик ва шахсий сифат ҳамда фазилятлар яхлитлигини таъминлашга ҳамда таълимий-тарбиявий мақсад ва вазифаларига қулай педагогик муҳит ва таъсирини ташкил этишга қаратилган яратувчанлик ва изланишли-тадқиқотчилик фаолият ҳисобланади.

Интеграция қуйидаги мақсадли вазифалар ётадиган йўналишларга ажратилди: кўп предметлиликни бартараф қилиш, мавзунинг (бўлимни, бутун курсни) ўрганиш вақтини қисқартириш, такрорланишларни бартараф қилиш; таълим технологиясини ўзгартириш, таълим олувчи шахсининг ривожланиши учун нисбатан мақбул шароит яратиш, таълим олувчилар ва педагогларнинг ривожланишини тезлаштиришни рағбатлаш. Интеграция асосидаги ўқув фаолият ва педагогик жараён таълим олувчилар ва педагогларда юзага келадиган реал эҳтиёжларни акс эттиради. Бу эҳтиёжлар, ўз навбатида, педагогик жараён қатнашчилари томонидан ўқув материални ўзлаштириш ва билим бериш давомида аниқланган қарама-қаршиликлардан келиб чиқади. Таълимни оқилона, оптимал ташкил қилиш ва олиб бориш меҳнатга онгли муносабатни таркиб топтириб, касб-хунарга нисбатан қизиқиш ҳиссини уйғотади. Шунингдек, бўлажак мутахассисларни истиқлол ғояси, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида мустақиллик ғоялари, Ватан, оила, табиатга меҳр-муҳаббат ва инсонпарварлик руҳида тарбиялаш муҳим аҳамиятга эга. Ўқиш методикаси педагогика, психология, она тили, адабиётшунослик маълумотларига ва кенг қўламдаги педагогик тажрибаларга таянади.

Е.Р.Ядровская таъкидлаганидек, “Ўқитишнинг моҳияти ҳам ўқувчиларни тушунчалар билан қуроллантириш орқали таълим мақсадига эришишдан иборат. Воқеликдаги нарса ва ҳодисалар тўғрисидаги тушунчалар ҳар бир кишининг онгида болалиқдан бошлаб то умрининг охиригача такомиллашиб боради. Шу боис ўқувчиларда бошланғич синфлардан бошлаб адабий тушунчаларни шакллантириш – синфда ва синфдан ташқари ўқиш дарсларининг асосий вазифаларидан бири” [5].

Ўқиш дарслари ўрганиладиган бадиий асарларни бир-биридан фарқлаш, ёзувчининг воқеаларни акс эттириш маҳорати, адабий қаҳрамонлар атворини тушуниш, образларнинг хатти-ҳаракатига ўз муносабатини билдириш, уни баҳолаш, тегишли хулоса чиқариш кўникмаларини шакллантиради.

Профессорлар К.Қосимова ва С.Матчоновларнинг ўқиш методикасига доир ишларида ўқувчи таълимнинг фаол иштирокчиси, «методик омил» сифатида тилга олинishi бежиз эмас. Уларнинг фикрича, “бошланғич синф ўқиш дарсларида ўқувчиларни малакали китобхон сифатида тарбиялашда асар таҳлили ва ўқувчининг шахсий ижодкорлик қобилияти алоҳида аҳамият касб этади” [6]. Бу эса, бошланғич синф ўқувчиларида шеър, мисра, ҳикоя, масал, топишмоқ, мақол, адабий қаҳрамон,

сарлавҳа, матн, режа каби дастлабки адабий тушунчаларни шакллантира боришни тақозо этади. Шу мақсадга қаратилган адабий таҳлил ўқитувчи ва ўқувчининг қатъий режа асосида изчил ҳамкорликда изланишини талаб этади. Бусиз ўқувчи дастурда кўзда тутилган даражада асарни эстетик жиҳатдан англаш ва идрок этишга қодир бўлмайди. Таҳлилда умумийдан хусусийга, яъни асарни тушунишга ёрдам берувчи умумий мазмунни ва тафсилотларни аниқлашга томон бориш лозим. Таҳлил бошида асарнинг жанрий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, бериладиган саволларни ўқувчиларнинг мавжуд тушунчаларидан келиб чиқиб изчил ва кенг қамровли тарзда қўйиш талаб этилади. Шу асосда ўқувчиларнинг фикр ва ҳисларини муайян мақсадга йўналтирилса, бошланғич таълимда кўзланган натижага эришиш қийин кечмайди.

Жумладан, М. П. Воюшина [7] бошланғич синфларда бадиий асар таҳлили тамойилларини қуйидагиларга ажратади ва тавсифлайди:

1. *Мақсадга йўналтирилган тамойил.* Бу тамойилга кўра, дарснинг асосий вазифаси асарни тўлақонли идрок қилиш, унинг ғоясини тушунишга йўналтириш мақсадидан келиб чиқиб белгиланади.

2. *Ўқилган асарни яхлит, изчил, ҳиссий идрок қилиш тамойили.* Бу тамойил бадиий асарнинг бирламчи идрок талаблари билан ички боғланишни ва идрок сифатини яхшилаш, шу орқали асарга қайтиб уни таҳлил қилиш эҳтиёжини юзага келтиришни назарда тутди.

3. *Асарни идрок қилишда ўқувчиларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш тамойили.* Бунда асар таҳлилда ўқувчиларнинг асар мазмунини чуқур англашларини таъминлашда ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, таҳлил усулларини танлаш талаб этилади.

4. *Асар таҳлиliga шароит яратиш тамойили.* Бу тамойилга кўра, матн таҳлили ўқувчининг бадиий матнни тушуниш эҳтиёжларига жавоб бериши керак.

5. *Асарни иккинчи марта мустақил ўқишга бўлган эҳтиёж тамойили.* Бу тамойил ўқувчилар таҳлилдан олдин матн мазмунини тўлиқ англашлари учун уни яна бир марта ўқиб чиқишлари талаб этилади.

6. *Шакл ва мазмуннинг бирлиги тамойили.* Асарда келтирилган тасвир ва унинг мазмуни билан узвий боғлиқ бўлган асар шаклини таҳлил қилишга йўналтирилиши керак бўлган саволлар ва вазифаларнинг табиатини белгилайди.

7. *Бадиий асарнинг умумий ва жанр хусусиятларини, бадиий ўзига хослигини ҳисобга олиш тамойили.* Бу тамойил таҳлилнинг умумий йўналиши ва усулини танлашда ўзини намоен қилади. Адабиётнинг турли хил адабий турлари ва жанрлари моҳиятан бир-биридан фарқ қилади. Шунинг учун бу асарларни таҳлил қилишда бир хил ёндашувлар бўлиши мумкин эмас.

8. *Таҳлил усулларини танлаш тамойили.* Бу тамойил асарнинг таҳлил усулини танлаб олишни назарда тутди: унинг барча элементлари таҳлил қилинмайди, балки ишнинг ғоявий йўналишини очиш учун етарли мазмун танлаб олинади.

9. *Ўқиш малакасини такомиллаштиришга қаратилган тамойил.* Бу тамойил илк адабий таълимга хос бўлиб, ўқиш малакаси ўқувчининг шахсий мақсадига айлантирилгандагина яхшиланади. Қайси ўқувчи ўз хоҳиши билан кўп ўқиса, натижа яхши бўлади.

10. *Ўқувчиларнинг китобхонлик кўникма-малакаларини ривожлан-тириш тамойили.* Унга кўра, “синфдаги бадиий асар таҳлили ўқувчиларнинг нафақат ўрганилаётган асар ғоясини ўзлаштиришига, балки уларнинг адабий ривожланишига, уларда дастлабки адабий тушунча ва китобхонлик малакаларини шакллантиришга ҳам ёрдам берди” [8].

Ўқишнинг натижаси асар мазмунини англаш. Бу натижа нафақат ўқиш техникасида, балки ўқувчининг фикрлаш даражасини ошириш, умумлаштириш қобилиятини шакллантириш, нутқини ривожлантириш даражаси – луғатининг бойлиги, сўз маъносини аниқ тушуниш; ўқиладиган матннинг хусусиятлари англаши, ҳаёт ҳақидаги мавжуд билим, шунингдек, тажрибасини кўрсата олиши билан белгиланади.

Ушбу омилларга қараб, матнни тушунишнинг қуйидагича муайян даражасига эришилади:

*асар мазмунини англаш даражаси* – матннинг алоҳида таркибий қисмларини танлаш, узвий боғлаш, умумлаштириш, воқеалар ривожини ва тасвир мазмунини тушуниш;

*фикрлаш даражаси* - муаллифнинг мақсадини, асарнинг ғоявий-бадиий хусусиятларини тушуниш, қаҳрамонларнинг ўзаро муносабатларини аниқлаш, уларни баҳолаш. хулоса чиқариш, келтирилган далилларни изоҳлаш, ҳаёт тажрибаси билан ўзаро боғлаш.

Бошланғич синфларда ўқитиладиган ўқув фанлари мазмунининг таҳлили аён бўлдики, турли ўқув фанларининг мазмунида ўзаро яқин ва ўхшаш тушунчалар баён қилинган бўлиб, ўқувчининг вақти ва кучини тежаш, ўқув дастурлари ва дарсликлар мазмунини бойитиш асосида уларга сарфланадиган маблағни асосли камайтириш, ўқув режасини оптималлаштириш, шу асосда таълим

мазмунини интеграциялаш, турли дастур ва дарсликларда такрор берилган мавзулар ва тушунчаларни унификациялашга эҳтиёж туғилмоқда. Шу мақсадда қуйида келтирилган таҳлил амалга оширилди ва бошланғич таълим мазмунини интеграциялаш зарурияти илмий жиҳатдан асосланди.

**Натижалар. Мулоҳаза.** “Нутқ”, “нутқ ўстириш”, “матн устида ишлаш”, “матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш”, “бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш” кабилар тадқиқот муаммосининг таянч тушунчалари моҳиятини етарлича англаш тадқиқот жараёнида муаммонинг тўғри, оқилона ечимини топишга имкон беради.

Нутқда қуйидаги хусусиятлар намоён бўлади: “Фикрни баён этиш эҳтиёжини амалга оширишга қаратилади, тугалланган мавзуни ифодалайди, мантиқ ва грамматик қоидалар асосида тузилади, мустақил, тугалланган, ўзаро боғланган маъноли қисмларга бўлинади” [9];

оғзаки ва ёзма шаклда ифодаланади;

оғзаки ва ёзма нутқни ривожлантириш ягона жараёнда кечади;

нутқ мулоқот чоғида иштирок этувчиларнинг сонига кўра диалогик ва монологик каби турларга бўлинади;

диалог оғзаки нутқнинг кенг тарқалган турларидан, нутқий мулоқотнинг табиий шаклларида бири бўлиб, икки ёки бир неча шахс ўртасида кечади;

оғзаки нутқ, табиатига кўра, кўпроқ суҳбат шаклида юзага келади;

нутқнинг жуда муҳим шаклларида бири саналадиган монолог диалогга нисбатан мазмунни ифодалаш учун тил воситаларини танлаш, нутқнинг қурилишига кўра бир қадар анъанавийликка эга.

Нутқ ўстириш таълим тараққиёти тарихида ҳамиша долзарб масалалардан бўлиб келган. XIX асрнинг охири XX аср бошларида усули жаҳид мактаблари учун яратилган “Устои аввал”, “Сабзор”, “Адиби аввал”, “Адиби соний”, “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим”, “Раҳбари нажот”, “Рисолаи асбоби савод”, “Қироат китоби”, “Ўқиш китоби” дарсликларида ҳам нутқ ўстириш етакчи ўрин тутган. Эски мактабларда қироатхонликнинг кенг миқёсда йўлга қўйилиши ҳамда ўқитишда усули таҳажжи, усули маддия, усули савтия ўқитиш усуллари бевосита нутқ ўстириш билан боғлиқ масалаларни ўз ичига олган.

Бу ҳақида, шунингдек, У.Долимовнинг «Туркистонда жаҳид мактаблари» номли китобида қизиқарли далиллар келтирилган [10]. Кўринадики, нутқ ўстириш ва унинг асосида турувчи савод ўргатиш муаммоси узок тарихга эга. У табиий суръатда ҳамиша илғор фикрли зиёлиларнинг эътиборини ўзига жалб қилган.

Нутқ ўстириш – шахс томонидан оғзаки ва ёзма бадиий тил меъёрлари: тўғри талаффуз, урғу, грамматика, сўзларни тўғри қўллаш қоидаларини ўзлаштириш орқали унда тилнинг бадиий ифода воситаларидан самарали фойдаланган ҳолда равон сўзлаш малакаларини ривожлантиришни ифодаловчи педагогик жараён. Ўз моҳиятига кўра, нутқ ўстириш машғулотида ўқувчи томонидан оғзаки ва ёзма бадиий тил меъёри қоидаларини амалий ўзлаштириш, тилнинг бадиий ифода воситаларидан самарали фойдаланиш, равон сўзлаш малакаларига эга бўлишини таъминловчи метод, усул, воситалар ёрдамида педагогик қўллаб-қувватлаш, тўғри йўналтириш, зарур ўринларда керакли чораларни кўриш ҳамда жараёнга раҳбарлик қилишни англатади.

Ўз моҳиятига кўра, “нутқ ўстириш” тушунчаси кўп ҳолатларда “нутқни ривожлантириш” тушунчасига муқобил (“ўрнини алмаштирувчи”, “жавоб бўлувчи”) сифатида қўлланилади. Айниқса, рус тилида олиб борилган тадқиқотларда бошланғич синф ўқувчиларида ўй-фикрлари, кечинмалари (ички нутқ)ни ташқи нутққа айлантириш хусусида сўз юритилиб, “нутқни ривожлантириш” таянч тушунча сифатида қабул қилинган. Айни ўринда “ички нутқ” тушунчасининг моҳиятини ҳам ёритиб ўтиш мақсадга мувофиқ: ички нутқ – тил ёрдамида ифода этилмаган ва ёзилмаган фикрий нутқ бўлиб, у шахснинг ўз-ўзига бўлган мурожаатини ифодалайди [11]. Ҳар қандай нутқда бўлгани каби ички нутқ ҳам ўзига хос хусусиятларни намоён қилади. Хусусан, ички нутқ “аниқ грамматик шаклга эга бўлмай, у тушунча – алоҳида маъноли сўзлар ҳамда яхлит иборалар ёрдамида шаклланади” [11].

Нутқни ривожлантиришнинг дидактик талаблари, унга нисбатан методик ёндашувлар хусусида сўз юритишдан аввал “ривожлантириш” атамаси айнан қандай ҳолатни ёритишга хизмат қилишини англаб олиш навбатдаги амалий ҳаракат учун йўналишни тўғри белгилашга имкон беради.

Педагогик жараёнларда кўп ҳолатларда “нутқни ривожлантириш” дейилганда шахс нутқини бир сифат ҳолатидан иккинчи сифат ҳолатига ўтишини таъминлаш мақсадида қўлланиладиган метод ва воситалар ҳам эътироф қилинади. Тадқиқот ишида “нутқ ўстириш” тушунчаси нутқни ривожлантиришнинг юқорида таъкидланган жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда тушунмоқ лозим. Бироқ айни ўринда айтиб ўтиш лозимки, шахс, ўқувчилар нутқини ўстириш (ривожлантириш)



бевосита жараён саналади, ривожлантирувчи метод ва воситалар жараённинг ўзи эмас, балки унинг самарали, муваффақиятли кечишини таъминловчи омиллардан бири, холос.

**Хулоса ва тавсиялар.** Дарҳақиқат, таълимий ғоялар тараққиёти тарихининг барча босқичларида шахс нутқини ўстиришга алоҳида эътибор қаратиб келинган. Айниқса, нотиклик санъатининг энг юксак босқичлари – қадимги Рим ва Грецияда ёш авлод нутқини ривожлантириш, уларда нутқ, сўз кучи ёрдамида ижтимоий субъектларга таъсир кўрсатиш, ҳатто ижтимоий гуруҳларни таъсирчан, юқори даражада ҳиссий-эстетик баён этилган нутқ ёрдамида бошқариш қобилиятини ривожлантириш таълим жараёнининг муҳим таркибий қисми бўлишига эришилган.

Бугунги кунда нутқни ривожлантириш “бошланғич синфлар олдида қўйилаётган муҳим вазифа саналади, бинобарин, нутқ ҳар қандай ақлий фаолиятнинг асоси ва инсоний мулоқот воситаси” бўлиб, унинг ёрдамида таълим тизими олдида турган тилшунослик, психологик-педагогик, методик-дидактик характерга эга ўқитиш ишларининг сифатини яхшилашга эришилади.

#### Адабиётлар:

1. Йўлдошев Қ. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 462 б.
2. Марасулова У. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида адабий-назарий тушунчаларни шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Методик қўлланма. – Т.: 2006. – 30 б.
3. Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) илм. даражасини олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2020. – 251 б.
4. Соловейчик М.С. Русский язык в начальных классах. Теория и практика обучения / под ред. М. С. Соловейчик. – М., 2000. – 372 с.
5. Ядровская Е.Р. Анализ и соотношение понятий «читательское развитие читателя-школьника», «литературная компетентность», «читательская компетентность» // Мир науки, культуры, образования. – 2009. – № 5 (17). – С. 132-139.
6. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariyev SH. Она тили о'қитиш методикаси. – Т.: Noshir, 2009. – 424 б.
7. Воюшина М.П., Николаева И.Р. Изучение литературы в третьем классе. Изд-е 2-е, перераб. и доп. – СПб.: Издательский дом «Папирус», 2007. –108 с.
8. Воюшина М.П. Формирование системы читательских умений в процессе анализа художественного произведения // Начальная школа. – 2004. – № 3. – С. 39-44.
9. Dalton B. & Proctor C. P. (2008). The changing landscape of text and comprehension in the age of the new literacies. In J. Coiro, M. Knobel, C. Lankshear, & D. J. Leu (Eds.), Handbook of research on new literacies – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – pp. 297-324.
10. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 333 б.
11. Суюнов Ҳ. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол-топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед.фан.номз.дисс. – Т.: 2005. – 147 б.
12. Pulatova A. Y. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of an Integrative Approach to the Formation of Literary Concepts in Primary School Students. // Middle European Scientific Bulletin, 8.
13. Asadovna Y. (2021). Psychological Characteristics of Speech Cultivation by Working on the Text in Primary School Reading Lessons. // Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 437-446.
14. Polatovna A. Y. (2021). Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons. // Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 490-501.
15. Pulatova Y. (2021). Principles of Integration of Primary School Mother Tongue and Learning Classes. // International Journal of Culture and Modernity, 11, 185-191.
16. Asadovna P. Y. (2021). Methods of working on the text in the integration of primary school reading lessons. // Middle European Scientific Bulletin, 11.
17. Asadovna P. Y. (2021). An integrative approach in speech development by working on main text in reading lessons. // Middle European Scientific Bulletin, 11.

## KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING O‘RNI

*Eshova Dilbar Shonazarovna*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta’lim kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifasidir. Ularni rivojlantirish bo‘yicha keng imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish ko‘p jihatdan katta yoshdagilar, ustozlar hamda ota-onalar oilaning ijodiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, fan va madaniyat, ilmiy-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning yanada rivojlanishini ta’minlaydi. Ularning samarali rivojlanishi oila va maktabgacha ta’lim muassasalarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan egallash mumkin.*

**Kalit so‘zlar:** tarbiyachi, tarbiyalanuvchi ijodiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, kognitiv qiziqishlar, tasavvur, faoliyat, o‘yin, oila, ta’lim, oila va MTT hamkorligi.

## РОЛЬ СЕМЬИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ВОЗРАСТА

*Раннее выявление и развитие творческих способностей детей является основной задачей современного образования. То, насколько взрослые, педагоги и родители смогут использовать свои широкие возможности для развития, во многом зависит от творческого потенциала семьи, обеспечивающего дальнейшее развитие науки и культуры, научно-технического развития, производства и общественной жизни. Их эффективное развитие может быть достигнуто совместными усилиями семейных и дошкольных образовательных учреждений.*

**Ключевые слова:** педагог, творческое мышление ученика, творческие способности, познавательные интересы, воображение, деятельность, игра, семья, воспитание, сотрудничество семьи и ДОО.

## THE ROLE OF THE FAMILY IN DEVELOPING THE CREATIVE SKILLS OF YOUNG CHILDREN

*Early identification and development of children’s creative abilities is the main task of modern education. The extent to which adults, teachers and parents will be able to use their broad opportunities for development largely depends on the creative potential of the family, which ensures the further development of science and culture, scientific and technical development, production and public life. Their effective development can be achieved through joint efforts of family and preschool educational institutions.*

**Keywords:** teacher, student’s creative thinking, creative abilities, cognitive interests, imagination, activity, game, family, education, cooperation of family and pre-school educational organisation.

**Kirish.** Ayni globallashuv davrida hayot rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa kishidan qolipga solingan odatiy harakatlarni emas, balki yangilikka intilishni harakatchanlikni fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo‘naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oilaviy muhit asosiy o‘rinda turadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ularni rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlardan qay darajada foydalanish ko‘p jihatdan kattalarning ijodiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, fan va madaniyat, ilmiy-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va jamiyat hayotining yanada rivojlanishini ta’minlaydi. Ularning samarali rivojlanishi oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan amalga oshishi mumkin. Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to‘plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Ijodkorlik - bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlarini. Ijodkorlik ko‘plab fazilatlarining birlashuvidir. Psixologlar ijodkorlikning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat deb hisoblashadi:

1. Muammoni boshqalar ko‘rmaydigan joyda ko‘rish qobiliyati.

2. Aqliy operatsiyalarni sindirish, bir nechta tushunchalarni bitta bilan almashtirish va axborot jihatidan tobora ko‘proq sig‘imga ega bo‘lgan belgilarni qo‘llash qobiliyati.
3. Bir masalani yechishda olingan ko‘nikmalarni boshqa masalani yechishda qo‘llash qobiliyati.
4. Voqelikni qismlarga ajratmasdan, yaxlit holda idrok etish qobiliyati.
5. Uzoq tushunchalarni osongina bog‘lash qobiliyati.
6. Xotiraning kerakli vaqtda kerakli ma‘lumotni berish qobiliyati.
7. Fikrlashning moslashuvchanligini ko‘rsating.
8. G‘oyalarni yaratish qulayligi.
9. Yangi nostandart g‘oyalarni yaratish qobiliyati, ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
10. Faoliyatingizning "mahsulotini" yaxshilash qobiliyati.
11. Turli xil fikrlarni ifodalash qobiliyati.
12. Asl g‘oyani yaxshilash uchun tafsilotlarni takomillashtirish qobiliyati.

**Asosiy qism.** Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda, sharoitlar qanchalik qulay bo‘lsa, ular optimal sharoitlarga qanchalik yaqin bo‘lsa, rivojlanish shunchalik muvaffaqiyatli boshlanadi. Agar miyaning yetukligi va uning faoliyatining boshlanishi vaqtga to‘g‘ri kelsa va sharoitlar qulay bo‘lsa, unda rivojlanish osonlik bilan eng yuqori tezlashuv bilan davom etadi. Rivojlanish o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqishi mumkin va bola qobiliyatli, iste‘dodli va yorqin bo‘lishi mumkin. Psixologik nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o‘ta izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o‘rganishga intilish katta. Oilada ota-onalar va tashkilotda pedagog tarbiyachilar qiziquvchanlikni rag‘batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo‘shadilar. Tajriba va bilimlarni to‘plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir. U hali stereotiplar tomonidan "ezilgan" emas. Maktabgacha yoshdagi bolalik ham ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun sezgir davr hisoblanadi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlikni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Va kattalarning ijodiy salohiyati ko‘p jihatdan bu imkoniyatlardan bolalikda qanday foydalanilganiga bog‘liq bo‘ladi. Bolalarning ijodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bu quyidagi shart-sharoitlarni yaratish hamda yoshga mos bo‘lishi kerak. Bolalar rivojlanishidan oldinda bo‘lgan muhitni yaratish. Iloji boricha, bolani uning eng xilma-xil ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradigan va o‘z vaqtida eng ko‘p rivojlantirishga qodir bo‘lgan narsani rivojlantiradigan shunday muhit va munosabatlar tizimi bilan oldindan o‘rab olish kerak. samarali. Bolaga topshiriqni o‘zi bajarishi uchun imkoniyat yarating yoki unga tayyor javoblar va echimlar emas, balki maslahatlar berish orqali yordam bering.

Faoliyatni tanlashda, muqobil holatlarda bolaga ko‘proq erkinlik berish, erkinlikni ruxsat berishga aylantirmang. Oila va bolalar jamoasida iliq do‘stona muhit. Kattalar xavfsiz psixologik muhitni yaratishi kerak. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash, agar u aniq maqsadga erishishga qaratilgan bir qator aniq pedagogik vazifalar hal qilinadigan maqsadli jarayon bo‘lsa, samarali bo‘ladi. Ijodkorlik fikrlash va ijodiy tasavvurni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri assotsiativlik, dialektika va tizimlilikni shakllantirishdir. Bu fazilatlarining rivojlanishi fikrlashni moslashuvchan, o‘ziga xos va samarali qiladi. Assotsiativlik - bu narsa va hodisalardagi bog‘lanish va o‘xshashlikni ko‘rish qobiliyati. Uni maktabgacha yoshdagi bolalar rolli o‘yinda juda oson egallashadi.

Maktabgacha yoshda bolaning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish, uning tafakkurini shakllantirish ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. Bolaning tajribasini bosqichma-bosqich boyitish, bu tajribani haqiqatning turli sohalari haqida yangi bilimlar bilan to‘ldirish. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv faolligini keltirib chiqaradi. Bolalarga atrofdagi voqelikning qanchalik ko‘p tomonlari ochib berilsa, ularda barqaror kognitiv qiziqishlarning paydo bo‘lishi va birlashishi uchun imkoniyatlar shunchalik keng bo‘ladi.

2. Bir xil voqelik doirasidagi kognitiv qiziqishlarning bosqichma-bosqich kengayishi va chuqurlashishi. Bolaning kognitiv manfaatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ota-onalar farzandining nimaga qiziqishini bilishlari kerak va shundan keyingina uning qiziqishlarining shakllanishiga ta’sir qilishlari kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, barqaror manfaatlarining paydo bo‘lishi uchun bolani haqiqatning yangi sohasi bilan tanishtirish etarli emas. U yangi narsaga ijobiy hissiy munosabatda bo‘lishi kerak.

Bunga maktabgacha tarbiyachining kattalar bilan birgalikdagi faoliyatiga qo‘shilishi yordam beradi. Bunday vaziyatlarda bolada paydo bo‘ladigan kattalar dunyosiga mansublik hissi uning faoliyati uchun ijobiy muhit yaratadi va bu faoliyatga qiziqishning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Ammo bolaning o‘z ijodiy faoliyati haqida unutmashimiz kerak. Shundagina uning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish va yangi

bilimlarni o‘zlashtirishda kerakli natijaga erishish mumkin. Unga faol fikr yuritishga undaydigan savollarni berishingiz kerak. Uyda ota-onalar farzandlarini ular bilan faol mashg‘ulotlarga jalb qilishlari kerak.

Ijodkorlik - bu yangi, birinchi yaratilgan, original mahsulotlarni beradigan faoliyat. Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu tasavvurni rivojlantirish uchun sezgir davr. Insonning tajribasi qanchalik boy bo‘lsa, uning tasavvurida shunchalik ko‘p material mavjud. Shuning uchun bolaning tasavvuri kattalarnikiga qaraganda kambag‘aldir va bu uning tajribasining qashshoqligi bilan bog‘liq. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarning ijodiy faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratish uchun ularning tajribasini kengaytirishlari kerak. Bunga turli xil ekskursiyalar, kattalarning atrofdagi voqelik haqidagi hikoyalari, tabiat qonunlari, badiiy adabiyot o‘qish, ko‘rgazmalarga, muzeylarga tashrif buyurish, ijodiy doiralarga tashrif buyurish, obyektlar bilan tajriba o‘tkazish, musiqa tinglash, tabiatga qoyil qolish yordam beradi.

Ijodkorlik qulay psixologik muhit va bo‘sh vaqtning mavjudligini talab qilishi uzoq vaqtdan beri ma‘lum, shuning uchun ijodiy qobiliyatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish oilada va bolalar jamoasida iliq, do‘stona muhitni taminlashdir. Kattalar bolaning ijodiy izlanishdan va o‘z kashfiyotlaridan qaytishi uchun xavfsiz psixologik bazani yaratishi kerak. Bolani doimo ijodiy bo‘lishga undash, uning muvaffaqiyatsizliklariga hamdardlik ko‘rsatish, hatto haqiqiy hayotda g‘ayrioddiy g‘alati g‘oyalarga ham sabr-toqatli bo‘lish muhimdir.

San‘at bilan tanishish tufayli bolalarda tasavvurning tasvirlari yanada to‘liq va yorqinroq bo‘ladi. Samarali ijodiy tasavvur nafaqat yaratilgan tasvirlarning o‘ziga xosligi va boyligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bunday tasavvurning eng muhim xususiyatlaridan biri g‘oyalarni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish, ularni muayyan maqsadlarga bo‘ysundirish qobiliyatidir. G‘oyalarni boshqara olmaslik, ularni o‘z maqsadiga bo‘ysundira olmaslik eng yaxshi g‘oya va niyatlarning faoliyatda gavdalanmasdan yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolaning tasavvurini rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishi - bu tasavvurning yo‘nalishini rivojlantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oilaviy muhit asosiy o‘rinda turadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish zamonaviy ta‘limning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ularni rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlardan qay darajada foydalanish ko‘p jihatdan kattalarning ijodiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, fan va madaniyat, ilmiy-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va jamiyat hayotining yanada rivojlanishini ta‘minlaydi. Ularning samarali rivojlanishi oila va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining birgalikdagi sa‘y-harakatlari bilan amalga oshishi mumkin.

Bola uchun eng yaqin muhit -bu maktabgacha ta‘lim tashkiloti va oila. Aynan shu yerda bola o‘zida birinchi marta ijodiy faoliyatga to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi. Bolalarning badiiy rivojlanishidagi muhim nuqta -bu umumiy yo‘nalishni belgilash shartlari, tarbiyachilar va ota-onalarning izchilligidir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ham, uyda ham bola o‘zini yaqin bo‘lgan jamoaning a‘zosi sifatida his qilishi kerak. Bolaning ijodiy qobiliyatlari uning ilk yoshdagi davridan ma‘lum bo‘lganidek, uning qiziqishlari xattoki hayollaridan ham bilinadi. Ammo ko‘pchilik insonlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qanday rivojlantirish kerakligini o‘ylaydi. Afsuski, kattalar bolaning hayollarini rivojlantirishga yetarlicha e‘tibor bermaydi, bu esa kelajakda bolalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Ijodkorlik har bir inson hayotida juda muhim rol o‘ynaydi. Tasavvur va fantaziya har ikki munosabatlarda ham, ishda ham odamlarga yordam beradi, lekin eng muhimi, ijodiy insonlar har qanday biznesda, muvaffaqiyatga erishishda o‘zligini namoyon eta oladi.

Shuning uchun ota-onalar farzandlari bilan ertak yozishlari, uning oxirini o‘zgartirishlari mumkin. Elementlardan struktura yaratish, eskisini yangi kombinatsiyalarga birlashtirish qobiliyati ijodkorlikning asosidir. Bunga didaktik o‘yinlar va qurilish materiallari bilan o‘yinlar yordam beradi. O‘yinda shakllangan tasavvur maktabgacha yoshdagi bolaning boshqa faoliyatiga o‘tadi. Bu rasm chizishda eng aniq namoyon bo‘ladi. Bu erda, xuddi o‘yinda bo‘lgani kabi, bolalar birinchi navbatda qo‘l ostida paydo bo‘ladigan qog‘ozdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok etilgan narsalarga yoki zarbalarga tayanadilar. Uyda, bolalar kerak vizual faoliyat uchun burchak bo‘lib, ular o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari mumkin. Shuning uchun ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratib, maqsadli ish olib borish zarur. Va kattalarning ijodiy salohiyati ko‘p jihatdan ularni rivojlantirish bo‘yicha ish imkoniyatlaridan qanchalik foydalanilganiga bog‘liq bo‘ladi.

Samarali rivojlanish faqat oila va maktabgacha ta‘lim muassasalarining birgalikdagi sa‘y-harakatlari bilan mumkin. Shunday qilib, keling, yuqoridagilarni umumlashtiramiz. Umumjahon ijodiy qobiliyatlar - bu shaxsning individual xususiyatlari, fazilatlarini bo‘lib, uning turli xil ijodiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi. Insonning ijodiy qobiliyatlari zamirida tafakkur va tasavvur jarayonlari yotadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari: Ishlab chiqarilgan obrazlar va yo‘nalishlarning boyligi kabi fazilatlar bilan ajralib turadigan samarali ijodiy tasavvurni rivojlantirish zarur.

Zamonaviy ota-onalar va o‘qituvchilar o‘zlariga birinchi navbatda bolani ijodiy rivojlantirish vazifasini qo‘ydilar. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e‘tibor beriladi. Shu sababli, ko‘pincha o‘quv dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ dan foydalanish va shu jarayonga asoslangan mashg‘ulotlarni tashkil qilish muhim bir jarayon bo‘lib hisoblanmoqda. Ushbu tizimga asoslangan o‘yinlar va vazifalar faol ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, bolalar va kattalar uchun ijodiy shaxsni shakllantirish jarayonini yanada hayajonli qiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, maktabgacha yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi.

**Xulosa** qilib aytganda, ijodkorlikni shakllantiruvchi tafakkur sifatlarining rivojlanishi, tashkilot hamda oila bilan birgalikdagi hamkorlikni o‘z o‘rniga qo‘yish orqali bunday sifatlar assotsiativlik, dialektik, tizimli tafakkurning rivojiga asos bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng boy imkoniyatlarga ega. Shuning uchun bolalar bilan ishlashda ulardan maksimal darajada samarali foydalanish talab etiladi. Shundagina biz maqsadga erishib, kelajakda shu yurtga munosib farzandlarni tarbiyalashga erisha olamiz.

#### Adabiyotlar:

1. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: - Aloqachi, 2007 y.
2. “Bolagiz maktabga tayyormi” Metodik qo‘llanma. T.:, 2001.
3. M.Nurmatova, Sh.Xasanova. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. «Cho‘lpon». T.:, 2010 y.
4. Teshaboieva Z.S.”Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” O‘quv qo‘llanma 2020y. T.:Ilm-ziyo.
5. Эшова Д. Ш. Методы развития творческих способностей у детей дошкольного возраста//Academy. – 2020. – №. 12 (63)
6. Asqarova D.Q. “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” (Metodik qo‘llanma) Namangan 2018 y.
7. Eshova D.Sh. Bolalarda tasviriy qobiliyatlarni aniqlovchi tushunchalar // Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – С. 1154-1159.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** www.buxdu.uz

**E-mail:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2024-yil 10-son (109)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Nigora SAYFULLAYEVA</b> <b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b> <b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 29.10.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.10.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
---	--	--